

Vasila Karimova, Oybek Hayitov,  
Navbahor Umarova

# SOTSIAL PSIXOLOGIYA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI

---

V.M. KARIMOVA, O.E. HAYITOV, N.SH. UMAROVA

# SOTSIAL PSIXOLOGIYA

*O'zbekiston Respublikasi Oliy, o'rtta maxsus va professional ta'limga  
yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini  
Muvofigqlashtiruvchi Kengash tomonidan 5210200 – Psixologiya (sport)  
ta'limga yo'nalishi talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

UO'K 316.6(075)

KBK 88.5ya7

K 25

Karimova, V.M.

K 25 **Sotsial psixologiya** [Matn]: darslik / V.M. Karimova, O.E. Hayitov,  
N.Sh. Umarova. – Toshkent: “Umid Design”, 2021. – 264 b.  
ISBN 978-9943-7554-5-1

Milliy yuksalish davriga xos Oliy ta’lim tizimida mo’tadil ma’naviy-psixologik muhitning yaratilishi, talabalarни o’qish, ilmiy ish, ijtimoiy foydali faoliyatga yondashuvi, ularning jipsligi va jamoatchilik xususiyatlarining takomillashuvi *sotsial psixologiyani*ning dolzarb muammolaridandir. Darslik bugungi kun talablaridan kelib chiqib yozilgan bo‘lib, “Ijtimoiy psixologiya” va “Etnopsixologiya” kabi ikkita qismdan tashkil topgan.

Ushbu darslik 5210200 – Psixologiya (sport) ta’lim yo‘nalishi talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan fan bo‘yicha ta’lim beradigan professor-o‘qituvchilar, magistrantlar hamda doktorantlar ham foydalanishlari mumkin.

UO'K 316.6(075)

KBK 88.5ya7

ISBN 978-9943-7554-5-1

© Karimova V.M., Hayitov O.E., Umarova N.Sh., 2021  
© «UMID DESIGN» nashriyoti, 2021


## KIRISH

Hozirda O'zbekiston xalqini ma'naviy jihatdan kamolga yetkazish, jamiyatda tolerantlik va totuvlikni yanada mustahkamlash, xalqimizga xos bo'lgan qadriyatlarni qayta tiklash va rivoj toptirish uchun shart-sharoitlarni yaratish yuzasidan aniq va manzilli ishlar keng qamrovda amalga oshirilmoqda. O'z hayotida global tub o'zgartirishlarni boshdan kechirayotgan xalq muqarrar o'zining o'tmishdagi qadriyatlarni yana bir bor toshu taroziga solib ko'radi. Shu jihatdan olib qaraganda milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil odimlayotgan sotsiumga xos sotsial munosabatlar taraqqiyoti mohiyatan o'ta dolzarbdir.

Milliy yuksalish davriga xos Oliy ta'lif tizimida mo'tadil ma'naviy-psixologik muhitning yaratilishi, talabalarni o'qish, ilmiy ish, ijtimoiy foydali faoliyatga yondashuvi, ularning jipsligi va jamoatchilik xususiyatlarining takomillashuvi sotsial psixologiyaning dolzarb muammolaridandir. Darslik bugungi kun talablaridan kelib chiqib yozilgan bo'lib, ikkita qismidan (*Ijtimoiy psixologiya* va *Etnopsixologiya*) iboratdir hamda u sport psixologiyasi ta'lif yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

"Sotsial psixologiya" darsligining "Ijtimoiy psixologiya" qismida shaxs taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan omil va jihatlar, jumladan, undagi fikrlash jarayonlari, insondagi fikrning mustaqilligi, tashqi ijtimoiy muhitga kirishib ketishi, jamiyat normalari va ijtimoiy rollarni o'zlashtirishi, guruhda (sport jamoasida) o'zini tutishi, professional yuksalishiga turtki bo'luchchi muhim omillar, ya'ni ma'naviyati, mafkurasi, axborot xavfsizligi, turli ijtimoiy guruhlardagi maqomi, shaxslararo munosabatlar va nizolar kabi qator masalalar yoritilgan.

Shuningdek, uning "Etnopsixologiya" qismida milliy qadriyatlар, qolaversa, har bir xalqqa xos bo'lgan etnopsixologik xususiyatlarni bilish, milliy psixologik qiyofani, uning elementlari bo'lmish milliy xarakter, milliy urf-odat va an'analar, milliy g'oya, did, milliy ongning shakllanishi, namoyon bo'lishi kabi masalalar o'rinn olgan. Mazkur darslik mualliflarning ushbu yo'nalishda ilgari nashri ettingan o'quv adabiyotlarining to'ldirilgan, takomillashtirilgan hujayrasidagi Nokta filiali



## IJTIMOIY PSIXOLOGIYA

1

### I BOB IJTIMOIY PSIXOLOGIYA FAN SIFATIDA

*1.1. Ijtimoiy psixologiya fanining predmeti va vazifalari* Ijtimoiy psixologiya juda qadimiy va shuning bilan birga u o'ta navqiron fandir.

Uning qadimiyligi insoniyat tarixi, madaniyati va ma'naviyatining qadimiy ildizlari bilan belgilanadi. Ular aslini olib qaraganda, u yoki bu jamiyatda yashagan kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning va tafakkurning hosilasi ekanligi bilan e'tirof etilsa, ijtimoiy psixologiya o'z uslubiyati, predmeti va fanlar tizimida tutgan o'rming yangiligi insoniyat taraqqiyotining eng yangi davrida shakllanganligi va rivojiga turki bergenligi bilan tavsiflanadi. Darhaqiqat, ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida tan olinishi xususida so'z borar ekan, uning rasman e'tirof etilishi 1908-yil deyiladi. Chunki aynan shu yili ingliz olimi *V.Makdugall* o'zining "Ijtimoiy psixologiyaga kirish" kitobini, amerikalik sotsiolog *E.Ross* esa "Ijtimoiy psixologiya" deb nomlangan kitobini chop ettirgan edi. Bu asarlarda birinchi marta alohida fan – ijtimoiy psixologiyaning mavjudligi tan olindi va uning predmetiga ta'rif berildi. Ikkala muallif ham – biri psixolog, ikkinchisi sotsiolog bo'lishiga qaramay, bu fanning asosiy predmeti ijtimoiy taraqqiyot hamda psixik taraqqiyot qonuniyatlarini uyg'unlikda o'rganishdir, degan umumiy xulosaga kelishgan. To'g'ri, mazkur mualliflarning har xil fan sohasining vakili ekanligi, ularning ijtimoiy-psixologik hodisalar tabiatini yoritishga nisbatan o'ziga xos qarashlarining mavjudligi va bunday yondashuv to hozirgacha davom etayotganligiga asos bo'ldi. Rus olimasi *G.M. Andreyeva* ta'kidlaganidek, ijtimoiy psixologiya sohasida ishlayotgan mutaxassisning aslida kim ekanligi – psixologmi, faylasufmi yoki sotsiologmi, – uning ushbu fan predmetiga yondashuvida o'z

Ijtimoiy psixologiyaning **predmeti** bu – ijtimoiy taraqqiyot hamda psixik taraqqiyot qonuniyatlarini uyg'unlikda o'rganishdir.  
(V.Makdugall, E.Ross)

aksini topadi, chunki agar u sotsiolog bo'lsa, ijtimoiy qonuniyatlarni avval boshdan jamiyatdagi an'analar va umumiylar qoidalar tilida tushuntirishga intilsa, psixolog – konkret olingan shaxs psixologiyasining qonuniyatlarini umumjamiyat qonun-qoidalariga tatbiq etishga harakat qiladi. Nima bo'lganda ham, shuni asosli tarzda e'tirof etish zarurki, ijtimoiy psixologiyaning alohida fan bo'lib ajralib chiqishiga sabab bo'lgan ilmiy manbalar ikki fan – psixologiya va sotsiologiya fanlarining erishgan yutuqlari va har qaysisining doirasida ma'lum muammolarning yechilishi uchun yana qo'shimcha alohida fanning bo'lishi lozimligini tan olish tufayli yuzaga keldi. Shuning uchun ham uzoq yillar mobaynida ijtimoiy psixologiya sohasida tadqiqotlar olib borayotgan olim yoki izlanuvchining kimligiga qarab, izlanishlarning natijalarida u yoki bu yondashuv – psixologik yoki sotsiologik yondashuvning ustuvorligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Demak, bu fanning tug'ilishi, o'z predmeti sohasini aniqlab olishiga sabab bo'lgan sotsiologiya va psixologiya fanlari aslida uning "ota – onalaridir".

Har bir shaxsning jamiyatda yashashi, uning ijtimoiy normalariga rioxal qilgan holda o'ziga o'xshash shaxslar bilan o'rnatadigan murakkab o'zaro munosabatlari va ularning ta'sirida hosil bo'ladigan hodisalarning psixologik tabiatini va qonuniyatlarini tushuntirib berish – ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifasidir. Bundan kelib chiqadigan umumiylar ta'riflarga binoan, ijtimoiy psixologiya ijtimoiy muloqotning murakkab shakl va mexanizmlarini o'rganuvchi fandir.

"Biz faqat o'zimiz uchun yashay olmaymiz, bizning hayotimiz bizga ko'rinas bo'lgan minglab iplar bilan bog'langan – deb yozgan edi yozuvchi-romanshunos German Melvill". Ijtimoiy psixologiya bu iplarni o'rganish bilan bog'liq bo'lib, bir-birimiz haqida fikr yuritishimiz, bir-birimizga qanday ta'sir

Hozirgi kunda uning  
predmetini quyidagicha  
ta'riflash mumkin: Ijtimoiy  
psixologiya – odamlarning  
jamiyatda hamkorlikdagi ish  
faoliyatları jarayoni  
davomida ularda hosil  
bo'ladigan lasavvurlar,  
fikrlar, e'tiqodlar, g'oyalar,  
his-tuyg'ular, kechinmalar,  
turli xulq-atvor shakllarini  
tushuntirib beruvchi fandir.

ko'rsatishimiz va bir-birimizga qanday munosabatda bo'lishimiz haqida ilmiy tushuntirish beradi<sup>1</sup>.

Malakali kadr bo'lish uchun shaxs nafaqat o'z iqtidori, bilimi va saviyasini oshirishi zarur, balki jamiyatda turlicha ijtimoiy munosabatlari tizimiga tayyor bo'lmog'i, ijtimoiy faoliyatni boshqarishning, odamlar bilan turli jamoalarda ishslash, xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirishga oid ilmiy qonuniyatlar va qoidalarni mukammal egallamog'i zarur. Boshqaruv, marketing va menejment, ta'lif va tarbiya sohalarida, ayniqsa inson omili va uni boshqarishning psixologik tizimini bilishi – jamiyatda sog'lom insoniy munosabatlarni shakllantirish orqali uni kamol toptirish yo'lidir. Shuning uchun bugungi kunda yurtboshimiz ta'kidlaganidek, ijtimoiy psixologiya va umuman ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi fanlarning asosiy vazifasi – barkamol avlod tarbiyasini ta'minlovchi barcha ma'naviy, ruhiy va insoniy munosabatlari mohiyatini tahlil qilish, ularni boshqarishning eng samarali usullarini hayotga tatbiq etishdir. Bu o'rinda, ayniqsa ijtimoiy tafakkurning, yangicha dunyoqarash va munosabatlarning shakllanishini, insonning o'ziga va o'zgalarga ta'sir etishning mexanizmlarini o'rganish eng dolzarb masalalardandir.

Xo'sh, bugungi kunda ijtimoiy psixologiya fan sifatida o'z bahs mavzusini va predmetini qaysi ob'yektlarga qaratmoqda?

*Birinchidan*, uning asosiy yo'nalishi kichik guruhsalar va jamoalar psixologiyasini o'rganishdan iboratdir. Har bir shaxs hamisha ma'lum ijtimoiy guruhsalar doirasida faoliyat ko'rsatadi. Bu uning oilasi, mehnat jamoasi, ko'chakuydagi norasmiy guruhdagi do'stlari davrasi, o'quv jamoasi, sinf, auditoriya va hokazo. Shaxsning yakka va turli guruhsalar doirasida o'zini tutishi, xulq-atvori, mavqeい, unga o'ziga xos guruhiy ta'sirlar, guruhdagi shaxslararo moslik, liderlik, guruhiy tazyiqqa beriluvchanlik kabi qator hodisalar aslida o'sha guruhlarni boshqarish, sog'lom o'zaro munosabatlari sharoitini yaratish – bu odamlarni samarali o'zaro muloqotga o'rgatishning zaruriyatidir. Boshqaruv psixologiyasi, maktab jamoasi, sanoat va ishlab chiqarish psixologiyasi ana shunday guruhiy

<sup>1</sup> David G. Myers. Social Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: McGraw-Hill, 2010. – P. 10

jarayonlarning qonun va qoidalarini tadqiq etish tufayli ajralib chiqqan tatbiqiy sohalardir.

*Ikkinchidan*, shaxsning ijtimoiy-psixologik qiyofasi masalasi ham bugungi kundagi o'zgarishlar va ma'naviy jihatdan poklanish davrida o'ta muhim sohadir. Zero, har bir shaxsning jamiyatda ro'y berayotgan tub islohotlarga munosabati, ularni idrok qilish va anglash darajasi, o'z-o'ziga nisbatan munosabatining tabiatini, xulqidagi ijtimoiy motivlar va yo'nalishlar katta ahamiyatga egadir. Ayniqsa, bolaning voyaga yetishi jarayonida uning ijtimoiylashuvi, ya'ni ijtimoiy munosabatlar muhitiga kirib borishi, ijtimoiy ta'sirlarni ongiga singdirishi va xulqini mustahkamlanishi, mafkuraviy dunyoqarashining shakllanishi jarayonlarining psixologik tabiatini tekshirish shaxsni jamiyatda shakllantirish dasturini yaratish uchun zarur. Lekin har bir shaxsda bu jarayon o'ziga xos tarzda ro'y berishi sababli, ijtimoiy psixologiyada uning ijtimoiy tiplari farqlanadi va har bir murabbiy yoki tarbiyachi ularni bilishi amaliy ahamiyat kasb etadi.

*Uchinchidan*, jamiyat miqyosida ro'yo beradigan ommaviy hodisalar ham ijtimoiy psixologiya uchun tatbiqiy ahamiyatga ega. Chunki alohida shaxs tarbiyasida ommaviy hodisalarning, katta guruhlarning ta'sirini inkor etish – masalaga bir yoqlama yondashishga barobardir. Masalan, shaxs uchun u mansub bo'lgan millat, elat yoki xalqning ruhiyati, uning ongidagi asrlar davomida saqlanib kelayotgan an'analar, rasm-rusumlar, aqidalar, udumlar, faoliyat stereotiplari kabilar o'z muayyan ta'sir kuchiga ega. Millatning ruhi ilk bolalikdayoq shaxs ongiga u o'zlashtirgan milliy til orqali singishi ma'lum. Shu kabi va boshqa ommaviy psixologik jarayonlarning shaxs ijtimoiy xulq-atvoriga ta'sirini o'rganuvchi ijtimoiy psixologiya va xususiy tarmog'i bo'lgan etnopsixologiya ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarni bilishda va ularni boshqarishda katta amaliy ahamiyatga ega. Qolaversa, hozirgi globallashuv jarayonlari keskin tus olgan, ommaviy axborot vositalari, Internet tarmoqlari orqali shaxsning keng axborot oqimiga qo'shilishi imkoniyati kengaygan bir sharoitda uning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, chiniqtirish, axborotlarga nisbatan tanlovchan munosabatni tarbiyalash o'ta muhim va murakkab masalaki, uni samarali yechish

ham omma va alohida olingan shaxs psixologiyasini bilishni, jamiyat va shaxs o'zaro munosabatlaridagi nozik jihatlarni o'rganishni talab qiladi.

Ijtimoiy psixologiya o'rganadigan eng asosiy va yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolarni o'z ichiga olgan masalalardan biri – bu *muomala*dir. Sankt-Peterburglik olimlarning fikricha, bugungi kunda ijtimoiy psixologiyaning predmeti ham va uning doirasida o'tkaziladigan barcha tadqiqotlarning umumiyligi ob'yekti ham muomala. Uning inson hayotida tutgan o'mini aniqlash, turli ijtimoiy faoliyatlar sharoitida samara beradigan muomala turlari va uslublarini yoritish, uning sof psixologik mexanizmlarini tadqiq etish, fanning eng muhim tafbiqiy yo'naliishlaridandir. Biz ham bu fikrga qo'shilamiz, chunki ijtimoiy faoliyatning qaysi sohasi yoki shaxslararo munosabatlarning qaysi shaklini olmaylik (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, ma'naviy va h.z.), uning negizi va tub mohiyatini o'sha munosabatlarning egasi yoki sub'yekti bo'lmish insonlar o'rtaсидаги о'заро та'sир ва munosabatlar tashkil etishni inkor etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham har bir konkret sharoitda shaxslararo muloqot samaradorligini oshirish omillarini o'rganish ijtimoiy psixologiyaning muhim vazifasidir. Taniqli rus olimasi *Galina Andreyeva* o'zgarishlarni boshidan kechirayotgan har qanday jamiyatda ijtimoiy psixologiya uchun dolzarb bo'limgan masalaning o'zi yo'q, deb ta'riflagan edi. Aynan shu fikrga qo'shilgan holda ta'kidlash joizki, jonajon bu yurtimiz O'zbekistonda mustaqillikning tarixan qisqa bir vaqtida shu qadar ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqdaki, islohotlarning yaratuvchisi ham uning ne'matlaridan bahramand bo'lguvchi ham o'z jamiyat fuqarolari ekan, ularning ijtimoiy xulq-atvoriga taalluqli faoliyatni o'rganuvchi ijtimoiy psixologiya uchun dolzarb bo'limgan faoliyat yo'naliishi yoki muammoning o'zi yo'qdir.

### *1.2. Ijtimoiy psixologiyaning predmetiga oid yondashuvlar*

Ijtimoiy psixologiya XXI asrga kelib fanlar tizimida alohida o'ringa ega bo'lgan sohalardan biriga aylandi.

Chunki sir emaski, insoniy munosabatlar, har bir faoliyat sohasida shaxslararo munosabat o'ziga xos dolzarblik kasb etib bormoqda.

Ijtimoiy psixologiyaning fanlar olamida paydo bo‘lishi tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning yuqorida ta’kidlanganidek, sotsiologiya va psixologiya fanlari oralig‘ida “tug‘ilishi” jarayonining o‘zi bir nechta bosqichlarni o‘z ichiga olganligini ta’kidlash joiz (1.1-rasmga qarang).

Ijtimoiy psixologiyaning predmeti xususida ham tarixan uch xil yondashuv mavjud:

*Birinchi yondashuvga* ko‘ra, ijtimoiy psixologiya inson psixikasiga oid ommaviy hodisalarini o‘rganadi. Ushbu yondashuv doirasida ayrim tadqiqotchilar sinflar psixologiyasini o‘rganish zarur deb tan olishsa, boshqalar har qanday ijtimoiy uyushma yoki guruhgaga oid qonuniyatlarni, ularning an’analari, urfatatlariyu, rasm-rusmlarini o‘rganish dolzarb ekanligini ta’kidlaganlar. Yana bir guruh tadqiqotchilar esa ijtimoiy psixologiya ko‘pchilikka qarashli bo‘lgan ijtimoiy fikrni yoki moda kabi ommaviylashib ketadigan jarayonlar sababini o‘rganishni lozim, deb topadigan.

#### Ijtimoiy-psixologik bilimlarning falsafa va umumiy psixologiya doirasida to‘planishi

Eramizdan avvalgi VI asrdan tortib toki yangi davrning XIX asrigacha bo‘lgan vaqt



#### Ijtimoiy hayot sirlarini falsafa, sotsiologiya va umumiy psixologiya doirasida tushuntirish orqali mustaqil fanga aylanish davri

XIX asrning 50-60-yillardidan to XX asrning 20-yillarigacha



#### Ijtimoiy psixologiyaning mustaqil fan va amaliyot yo‘nalishi sifatida to‘la shakllanishi davri

XX asrning 20-yillardidan boshlab

### 1.1-rasm. Ijtimoiy psixologiyaning fanlar olamida paydo bo‘lishi.

Ularning fikrini rivojlantirib, ushbu yondashuvga hayrihox bo‘lgan boshqa bir olimlar guruhi ijtimoiy psixologiyaning predmeti aslida jamoa psixologiyasini

o'rganish ekanligini yoqlaydilar. Bu yondashuvning umumiy xulosasi shuki, ijtimoiy psixologiya mohiyatan aslida jamoa psixologiyasidir.

*Ikkinchchi yondashuv* tarafdarlarining fikrida umumiylit shuki, ularning ta'kidlashlaricha, ijtimoiy psixologiya shaxsnинг ijtimoiy qiyofasini, psixologiyasini o'rganadi. Turli olimlar fikrida o'ziga xoslik esa aynan shaxsnинг qaysi sifatlariga ko'proq e'tiborni qaratishda namoyon bo'ldi. Kimdir shaxsnинг alohida ijtimoiy sifatlariga urg'u bersa, boshqalar uning tipologiyasini ahamiyatli predmet ekanligini ta'kidladi. Bundan tashqari, shaxsnинг guruhdagi o'mi, shaxslararo munosabatlar va umuman munosabatlar tizimi ushbu yo'nalish tarafdarlarining diqqat markazida bo'ldi.

*Uchinchi yondashuv* – yuqorida ikki yondashuvning o'ziga xos tarzdagi uyg'unlashuvi shaklida namoyon bo'ldi. Ya'ni, unga ko'ra, ijtimoiy psixologiya ommaga xos bo'lgan psixologik hodisalarni ham, shaxsnинг guruhdagi maqomini ham birdan o'rganishi lozim.

<i>Birinchi yondashuv</i>	<i>Ikkinchchi yondashuv</i>	<i>Uchinchi yondashuv</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>ijtimoiy psixologiya inson psixikasiga oid ommaviy hodisalarni o'rganadi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>ijtimoiy psixologiya shaxsnинг ijtimoiy qiyofasini, psixologiyasini o'rganadi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>ijtimoiy psixologiya ommaga xos bo'lgan psixologik hodisalarni ham, shaxsnинг guruhdagi maqomini ham birdan o'rganishi lozim</li> </ul>

1.2-rasm. Ijtimoiy psixologiya predmetiga yondashuvlar.

Rus olimi B.D. Parigin turli yondashuvlarga e'tibor bргan holda ijtimoiy psixologiya o'rganadigan eng muhim masalalarni yagona andozada umumlashtirdi.

Ya'ni, uning fikricha, ijtimoiy psixologiya quyidagilarni o'rganadi:

1. shaxsning ijtimoiy psixologiyasi;
2. jamoalar ijtimoiy psixologiyasi va muloqoti;
3. ijtimoiy munosabatlar;
4. ma'naviy-axloqiy faoliyat shakllari.

Yana bir rossiyalik olim V.N. Myasishyevning yozishicha, ijtimoiy psixologiya:

- a) odamlarning guruh sharoitidagi o'zaro hamkorligi ta'sirida paydo bo'ladigan psixologik o'zgarishlarni;
- b) ijtimoiy guruhlarning turli xususiyatlarini;
- v) jamiyatda ro'y beradigan jarayonlarning psixologik tomonlarini o'r ganadi.

Yuqorida taklif etilgan barcha yondashuv va nuqtai nazarlarni birlashtirgan yagona fikr esa shundan iboratki, ijtimoiy psixologiya fan tarmog'i sifatida psixik faoliyatga ikki tomondan turib yondashadi, ya'ni, bir tomondan shaxs bo'lsa, ikkichni tomondan – jamiyat miqyosida ro'y beradigan ommaviy psixik jarayonlardir. Oxirgilar ko'pgina manbalarda ijtimoiy-psixologik hodisalar deb nomlanadi.

*Ijtimoiy-psixologik hodisalar* – shunday fenomenlarki, ular individlar hamda jamoalar tarzidagi sub'yeqtarning o'zaro hamkorligi tufayli paydo bo'ladigan turli xil munosabatlar, shunday hamkorlik ta'sirida boshdan kechiriladigan his kechinmalar, o'zaro axborot almashinuvni hamda odamlarning guruh bo'lib to'planishi oqibatida ro'y beradigan faoliyatlarning xususiyatlarini mujassam etadi. Ya'ni, agar shaxsni alohida individ sifatda olinganda amalga oshiradigan faoliyatidan farqli o'laroq, guruh bo'lib harakat qilgandagi ro'y beradigan faoliyatning farqli tomonlarini ijtimoiy psixologiya sodda qilib aytganda o'zining predmeti sifatida tanlaydi.

Shunday qilib, ijtimoiy psixologiya o'r ganadigan ijtimoiy-psixologik hodisalarga avvalo quyidagilar kiradi: muloqot, muomala, ijtimoiy fikr va kayfiyat, jamoaviylik, stratifikasiya, ya'ni, jamiyatning turli qatlamlarga bo'linishi jarayonlari, stereotiplar, ziddiyat, turmush tarzi, ijtimoiy tasavvurlar, ijtimoiy

ustanovkalar va shaxsning turli ijtimoiy vaziyatlarda namoyon bo'ladigan fazilatlari (nuqsonlari) va boshqalar.

Ijtimoiy-psixologik hodisalar asosan mazmunan va davomiyligiga ko'ra tafovutlanadi. Masalan, mazmuniy jihatdan ular normal va normadan og'ish tarzidagi xulq maromlariga bo'linadi.

Ijtimoiy-psixologik hodisalarning normal xulq-atvorga aloqador shakllari odatda jamiyatda, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida, insonlarnig turmush tarzidagi ijobiy o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, mustaqillik yillarida davlatimiz rahbarlari tomonidan inson mansaftalarining oliy qadriyat sifatida e'tirof etilganligi, erkin demokratik islohotlarga ochilgan yo'l har bir shaxsning ijtimoiy tasavvurlari tizimida shunday ijobiy o'zgarishlarga turtki bo'ldiki, avvalo, jamiyat a'zolarida o'ziga ishonch, yurtdoshlar bilan xamjihatlik, o'zaro mehr-oqibat va muruvvat hislarining rivoj topishiga olib keldiki, oqibatda homiylik, o'zaro mehr-oqibat kabi munosabatlar sayqal topdi. Bunga O'zbekiston Respublikasida 1996-yildan buyon yillarga maqom berilishi, unda jamiyatdag'i barqarorlik, undagi o'zaro hamjihatlik g'oyalarining ustuvor qilib qo'yilishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Oqibatda yurtimizda har bir shaxs va ijtimoiy guruhlarning turmush tarzida ijtimoiy normalarga bo'ysunish, ularni hurmat qilish psixologiyasi shakllandı, milliy g'urur va o'zini barcha ijtimoiy jarayonlarga aloqador etib his qilish paydo bo'ldi.

Normal xulqdan og'ish bilan bog'liq bo'lган xulq-atvor esa ayrim guruhlар faoliyatiga xos bo'lib, uning oqibatida odatda ayrim shaxsning guruhlarga (masalan, jinoyatchining jamiyat normalarini buzishi) yoki guruhlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta'siri (masalan, jinoiy guruh yoki ekstremistik guruhlarning ijtimoiy normal hayotga tajovuzi shaklida) namoyon bo'ladi. Bu kabi salbiy holatlar jamiyatning tub asoslarini o'zgartirib yubormaydi, lekin ayrim vaziyatlarda odamlarning normal kun kechirish, tinch osuda mehnat qilishlariga halaqt beradi. Ming afsuski, eng oliyjanob shiorlar ostida yashayotgan demokratik jamiyatda ham ayrim alohida shaxs va guruhlar tajribasida ana shunday salbiy

oqibatli xulq ko'rinishlari mavjud bo'ladi. Bu o'z navbatida ekstremal ijtimoiy psixologiyaning kelib chiqishiga asos bo'lgan.

Ijtimoiy-psixologik hodisalarning *kelib chiqishi* nuqtai nazaridan qaralsa, ular shaxslararo, guruhiy, guruhlararo, ommaviy shakllarda namoyon bo'ladi.

Ushbu hodisalar barqarorligi va davomiyligi nuqtai nazaridan tahlil etilsa, ularni dinamik (masalan, muloqotning turli shakllarida), o'zgaruvchan dinamik (masalan, ijtimoiy tasavvur, fikr va kayfiyatning o'zgaruvchanligi) va barqaror (masalan, urf-odatlar, qadriyatlar, an'analar kabi) bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy psixologiya fan sifatida aynan ana shu hodisalarning paydo bo'lishi, kechishi va hayotda namoyon bo'lish mexanizmlarini o'rganadi. Zero, bu hodisalar turli bosqich va darajalarda (makro-, mezo- va mikro- bosqich va darajalarda), turli sohalarda (davlat, iqtisodiyot, jamiyat va uning burli bo'g'lnlari, oila, mahalla, alohida shaxs hayoti doirasida), turli shart-sharoitlarda (normal, tabiiy, murakkab va ekstremal) namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-psixologik hodisalar namoyon bo'lishining asosiy mexanizmi sifatida *muloqot* jarayonini qabul qilish ko'pchilik olimlarning nuqtai nazariga xosdir. Muloqot tufayli va uning ta'sirida shaxs shakllanadi, kichik guruhlar paydo bo'ladi, katta ijtimoiy guruhlarning mavjud bo'lishi uchun sharoit yaratiladi. Aynan muloqot va odamlarning bir-birlariga munosabatlari asosida namoyon bo'ladigan universal mexanizmlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. *taqlid qilish* – biror xulq namunasi yoki turmush tarziga ergashish;
2. *ishontirish* – biror xulq namunasi yoki fikrga o'zgalarni deyarli ongsiz va tanqidsiz ergashishiga erishish;
3. *ta'sirlanish* – bir shaxs hissiy-emotsional holatining o'zga bir shaxsga uzatilishi jarayoni;
4. *e'tiqod* – shaxsning ongiga, imoniga ta'sir ko'rsatish;
5. *identifikatsiya* – bir insonning boshqasiga o'xshatilishi, deyarli qo'shilishi jarayoni.

Aynan shu mexanizmlar ijtimoiy xulq va o'rgatishning asosini tashkil etadi.

Umuman olganda, ijtimoiy psixologiya fan tarmog'i sifatida ham nazariy ham amaliy ahamiyat kasb etadiki, o'zgaruvchan hozirgi XXI asrda uning ahamiyati va o'mi beqiyosdir. Ayniqsa, mafkuraviy va g'oyaviy kurashlar avj olgan hozirgi davrda inson ijtimoiy xulqini boshqarish dolzarblik kasb etganligini inobatga olsak, uning jamiyat barqarorligidagi siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy roli yanada yuksaladi. Shu bois ham hozirda uning tatbiqiy, amaliy ko'rinishiga alohida ahamiyat berilmoqda. Chunki tatbiqiy ijtimoiy psixologiya ijtimoiy-psixologik hodisalarini psixodiagnostika, amaliy maslahatlar berish va yangi psixotexnologiyalarni ijtimoiy hayot mezonlari va talablari doirasida o'rganadigan hamda ijtimoiy-psixologik treninglar, gruppaviy psixoterapiya, rolli va ish o'yinlari kabi yangi usullarda ijtimoiy xulqni o'zgartirishga qodir bo'lgan ilmiy-amaliy yo'nalishdir. Bu yo'nalish va amaliyot oxirgi yillarda O'zbekistonda ham tobora rivojlanib hayotga kirib bormoqda.

### **Bob yuzasidan tayanch iboralar**

Shaxs, ijtimoiy psixologiya, jamoa, muloqot, ijtimoiy munosabat, taqlid qilish, ishontirish, ta'sirlanish, e'tiqod, identifikasiya.

### **Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida tan olinishi omillari qanday?
2. Ijtimoiy psixologiyaning predmeti haqida nimalarni bilasiz?
3. Ijtimoiy psixologiya rivojlanishi necha bosqichni o'z ichiga olgan?
4. Ijtimoiy psixologiya mavzusi va predmetini qaysi ob'yektlarga qaratilgan?
5. Ijtimoiy-psixologik hodisalar nima?
6. Muloqotning universal mexanizmlari haqida nimalarni bilasiz?
7. Ijtimoiy-psixologik hodisalar kelib chiqishi nuqtai nazaridan necha xil?

### Bibliografiya

1. Почебут Л.Г., Чикер В.А. Организационная социальная психология. Учебник. – М.: Проспект, 2020. – 552 с.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
3. David G. Myers. Social Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: McGraw-Hill, 2010. – 609 p.
4. Майерс Д. Социальная психология. Интенсивный курс / Д. Майерс. – 4-е междунар. изд.. – СПб.: ПРАЙМ-ЕВРОЗНАК, 2007. – 510 с.
5. Немов Р. С., Алтунина И. Р. Социальная психология: Краткий курс. – Спб.: Питер, 2009 – 208 с.

## II BOB


### IJTIMOIY-PSIXOLOGIK QARASHLARNING RIVOJLANISH TARIXI

#### *2.1. Dastlabki ijtimoiy- psixologik tasavvurlar va ularning namoyon bo'lishi*

Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatidagi tarixi uning ijtimoiy-psixologik qarashlar yoki ijtimoiy-psixologik tafakkur tarixidan anchagina yoshdir.

Chunki insoniyatning birligida yashash, mehnat qilish, bir-biriga ta'sir ko'rsatishga intilishi, ehtiyoji qanchalik qadimiy bo'lsa, ijtimoiy tafakkur, odamlarning bir-birlariga o'zaro hamjihatlik ko'rsatishga bo'lgan moyilligi va istaklari ham shunchalik qadimiyyidir. Ikkinchi tomondan qadimgi tarixdan bilamizki, odamlar turli marosimlar, aqidalar, an'analarni ham ma'lum ma'noda o'zaro munosabatlarni tartibga solish, hamkorlikda mehnat qilish va bir-birlarini turli balo-qazolardan muhofaza qilish yo'llarini o'ylab topganlar. Qaysi bir xalq udumi yoki qadimgi an'anasini olmaylik, unda jamoaviylik psixologiyasi hukm surishini yaxshi bilamiz. Unda eng avvalo axloq normalarining shakllanishi uchun real asoslar mavjuddir. Masalan, turkistonliklarning ko'plab udumlari, masalan, to'y-ma'raka qilish va unda ommaning to'planishi, xashar yo'li bilan biror inshootni bitirish va unda barcha mehnatga layoqatli odamlarning jam bo'lib to'planishi kabi yuzlab udumlar qadimiy bo'lib, unda muayyan ma'noda jamaa bo'lib yashash va hamkorlikning axloqiy mezonlari namunasidir. Aynan shu kabi udumlar ijtimoiy-psixologik tafakkurning paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Shu bois ham ijtimoiy-psixologik tafakkur tarixi bilan ijtimoiy psixologiyaning fan sifatidagi tarixida muayyan umumiylilik va farqlar mavjud.

Dunyoda ijtimoiy psixologiyaning mustaqil fan sifatida yuzaga kelishi 1908 deb belgilangan. Bu davrda V. Macdugall tomonidan Evropada "Ijtimoiy psixologiyaga kirish" va E. Ross Amerikadagi "Ijtimoiy psixologiya" kitoblarining bir vaqtning o'zida chiqarilishi asosiy sabablardan biri bo'ldi.



2.1-rasm. Ijtimoiy psixologiyaning yuzaga kelish jarayoni.


Professor G.M. Andreyevaning yozishicha, ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanish tarixini belgilash shuning uchun ham mushkulki, u bir vaqtning o‘zida bir necha fanlar tarixiy rivojlanishiga aloqador bo‘lib, qaysi biri ko‘proq bu jarayonning mohiyatini belgilashini bilish qiyin<sup>2</sup>.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida oyoqqa turishiga ko‘plab nazariy yondashuvlar turtki bo‘ldi. B. Pariginning fikricha, ijtimoiy-psixologik g‘oyalar dastlab boshqa fan sohalarida shakllanib oldi va so‘ngra mustaqil fan sifatida ajralib chiqishi uchun zamin yaratdi<sup>3</sup>.

Gap bu o‘rinda uning falsafiy qarashlar doirasida shakllanishi to‘g‘risidadir. Ushbu jarayondagi bo‘linish yoki ajralib chiqish asosan falfasadan psixologik va sotsiologik nazariyalarning ajralib chiqishi hisobiga sodir bo‘ldi, desak bo‘ladi. Shu nuqtai nazarni yoqlagan olimlardan O.Klaynberg va G.Olportlar ham ijtimoiy-psixologik g‘oyalar tarixi qadimgi grek falsafasiga, xususan, *Platon* g‘oyalaridan, va nafaqat *Platon*, balki *Aristotel* g‘oyalaridan boshlanganligini ta’kidlaydilar. Falsafaning yangi davrida paydo bo‘lgan olimlardan *Gobbs*, *Lokk*, *Galvesiy*, *Russo*,

<sup>2</sup> Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник для высших учебных заведений / Г.М. Андреева – М.: Аспект Пресс, 2017. – 363 с.

<sup>3</sup> Парыгин Б.Д. Социальная психология: истоки и перспективы / Б.Д. Парыгин – Ташкент: Узбекистан Маданиятнижмаи, 2010. – 532 с.



*Gegejlarning jamiyat va shaxs o'zaro munosabatiga oid qarashlarida ham olimlar ta'kidlagan sof ijtimoiy-psixologik nuqtai nazarlarning shakllanganligini ta'kidlash mumkin.*

Agar yuqoridagi allomalar asarlarida falsafa doirasida ijtimoiy-psixologik qarashlar mavjud bo'lgan bo'lsa, bevosita fan sifatida ijtimoiy psixologiyaning o'z predmetiga ega bo'lish tarixi yanada diqqatga sazovordir.

Bu davrda ijtimoiy psixologiyaning rivojiga umuman jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar sabab bo'ldi. Masalan, XIX asrning o'rtalariga kelib qator Yevropa mamlakatlarida sanoat va savdosotiqlarning rivojlanishi davlatlararo iqtisodiy aloqalarning keskinlashuviga, shu asnoda millatlar va xalqlararo munosabatlarning tig'izlashuviga olib keldi. Bu o'z navbatida *tilshunoslik*ning rivoji va xalqlar psixologiyasining shakllanishiga olib keldi. Lekin tilshunoslik fani o'z imkoniyatlari darajasida turli xalqlar o'rtaсидаги muomala va muloqotning samarali yo'llarini belgilash, odamlarning samarali hamkorligini ta'minlashga ojiz edi.

Aynan shunday shu davrga kelib *antropologiya, etnografiya, arxeologiya* sohasida ham qator muvaffaqiyatlar qozonila boshlandiki, ular ham qo'lga kiritgan noyob natijalarini ijtimoiy psixologiyasiz aniq ta'riflay va tavsiflay olmadi. Masalan, aynan shu davrda ingliz antropologi E.Teylor ibtidoiy jamoalarning madaniyatiga oid, amerikalik etnograf va arxeolog L.Morgan hindularning turmush tarzi, fransuz sotsiolog va enografi L.Levi-Bryul ibtidoiy odamning tafakkur tarziga oid tadqiqotlarini yakunladi. Bu tadqiqotlar natijalarini to'la tahlil etish esa muayyan etnik guruhlarning o'ziga xos an'analari, urf-odatlarini bilish, bir-biri bilan taqqosalashni taqozo etdi.

Bundan tashqari, kapitalistik munosabatlar jamiyatda muayyan kriminal guruhlarning ham paydo bo'lishi ularning xulq-atvoriga xos psixologik qonuniyatlarni ochish, jinoyatchilikning ko'p holatlarda uyushgan guruh tomonidan sodir etilgani sababli, shunday guruhning psixologiyasini o'rganishni talab etdi. Shu bois ham amerikalik psixolog T.Shibutani haqli ravishda ta'kidlaganidek, ayrim fan vakillarining o'z muammolarini hal qila olmayotganligi

ijtimoiy psixologiyaning mustaqil fan tarmog'i sifatida bo'linib chiqishiga zamin yaratdi<sup>4</sup>.

Ikkinchidan, XIX asrning o'rtalariga kelib, shu paytgacha alohida individ psixologiyasini o'rganib kelayotgan *psixologiya* fanida, ayniqsa, uning patapsixologiya tarmog'ida ayrim noyob tadqiqotlar o'tkazildiki, ularda individ xulqini uni o'rabi turgan insonlar va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlар va hamkorlik, o'zaro ta'sirlarsiz tasavvur qilib bo'lmay qoldi. Ya'ni, shaxsning xulq-atvorini tushuntirishda uni o'rabi turgan odamlarning ta'siri ham borligini tan olmaslik mumkin bo'lmay qoldi. Lekin ayni shu davrda bu umumiy psixologiyaning ayrim masalalarigagina xos, degan tasavvur doirasida shunday xulosalarga kelingan edi.

Lekin ijtimoiy psixologiyaning ilmiy manbalari sohasida sotsiologiya fanining xizmatini ko'rsatib o'tmay bo'lmaydi. Sotsiologiyaning asoschilarini hisoblangan *Ogyust Kont*, *Gerbert Spenser* va boshqalar, jamiyatdagi ijtimoiy hodisalarni o'rganish uchun albatta, o'ziga xos, ayrim psixologik holatlarni o'rganmoq lozim, degan fikri qat'iy turib isbot qildilar. Ular har bir ijtimoiy voqeada ruhiy hodisalar borligini isbot qilishga urindilar. Masalan, fransuz sotsiologi *G.Tard* har bir individda "ijtimoiy fakt" borligini, bu narsa uning miya doirasidagina emas, balki bir qancha miyalar aloqasi tufayli mavjuddir, deb hisoblaydi. Ijtimoiy xulq-atvor modeli, uning fikricha, doimo individlararo munosabatlarni o'z ichiga olib, bunda bir individ boshqa individga doimo taqlid qiladi, shuning uchun ham shaxsni o'rganish boshqa shaxslarni inkor qilmasligini talab qiladi. Uning fikricha, elementar ijtimoiy fakt intraserebral psixologiya o'rganadigan yagona miya hodisalari orqali emas, balki bir necha "kallalar" ("aqlar") ning to'qnashuvi oqibatida kelib chiqadigan "intermental psixologiya" orqali o'rganilishi va tushuntirilishi lozim. Ijtimoiy xulqning modelida Tard fikricha, ikki individning o'zaro ta'siri yetakchi o'rin tutadiki, bunda bir individ ikkinchisiga taqlid qiladi.

<sup>4</sup> Шибутани Т. Социальная психология. Пер. с анг. В.Б. Ольшанского. – Ростов н/Д: изда-во «Феникс», 1999. – 544 с.

Bundan tashqari, sotsiologiyaning o‘zi XIX asrning o‘rtalarida o‘z taraqqiyotining rivojida shunday darajaga erishdiki, bu ishlar fransuz pozitivist faylasufi *O.Kant* nomi bilan bog‘liqdir. Ijtimoiy jarayonlarning psixologik, aniqrog‘i, biologik kelib chiqishiga (*G.Spenser*) bo‘lgan qiziqish ijtimoiy mayjudlikka psixologik yondashuv orqali baho berish zaruratini keltirib chiqardi.

Diadaning cheklangan ekanligini tushungan boshqa sotsiologlar, masalan, amerikalik *L.Uord*, *F.Giddings* kabilar ijtimoiy xulqni jamoaviy psixika fenomeni orqali tushuntirishga urindilar. Ularning ta’kidlashicha, dastlabki ijtimoiy fakt alohida individning ongiga emas, balki u mansub bo‘lgan “qavmning psixologiyasi”ga aloqadordir. Ya’ni, ijtimoiy fakt – bu mohiyatan ijtimoiy tafakkur, aqldir. Uni jamoa yoki jamiyat psixologiyasi o‘rganishi kerak. Ular bu o‘rinda sotsiologiyani nazarda tutganlar.

Sotsiologiyaning “psixologiyalashuvi” ijtimoiy psixologiyaning predmetini aniqlashda juda qo‘l keldi, desak bo‘ladi, chunki aynan shunday yondashuv sotsiologiyadagi psixologik yo‘nalishni ta’minalash bilan bir qatorda ijtimoiy psixologiyaning o‘zini ham alohida fan sifatida tug‘ilishiga asos yaratdi. Ya’ni, qisqacha aytganda, ikki fan – psixologiya va sotsiologiyaning rivojlanishi, ularning ikkisi ham jamiyatda turli vaziyatlarda inson xulq-atvorining ijtimoiy motivlarini tushuntirish zaruratini anglashi ijtimoiy psixologiyaning mustaqil fan tarmog‘i sifatida barpo bo‘lishini ta’miladi.


Shunday qilib, sotsiologiyada psixologik yo‘nalish paydo bo‘ldi. *Tarddan* keyin *L.Uord*, *F.Giddings* va boshqalar ijtimoiylik qonunlarini jamoa ruhiy holati bilan uzviy ravishda o‘rgana boshladilar. Ularning fikricha, ijtimoiy fakt – bu ijtimoiy aql, tafakkur bo‘lib, u “jamiyat psixologiyasi” yoki sotsiologiyaning bahs mavzuidir.

Shunday qilib, yuqorida qayd qilingan ilmiy-falsafiy, ijtimoiy manbalar, shart-sharoitlar tufayli ijtimoiy-psixologik g‘oyalar shakllanib bordi. Bu qarashlar so‘f psixologiyaga ham o‘xshamagan, sotsiologiya doirasidan chiqib ketadigan alohida fanning – ijtimoiy psixologiyaning paydo bo‘lishi uchun real zamin rolini o‘tadi.

## 2.2. Ijtimoiy-psixologik bilimlarning uch nazariy manbasi

Ushbu manbalarning aniqlanishi ham XIX asrning o'rtalariga to'g'ri keldi.

Ko'plab yondashuv va nazariyalar orasida eng ahamiyatlisi uchta bo'lganki, ular darhaqiqat ijtimoiy-psixologik bilimlarning yangi davrga mos tarzda shakllanib, rivojlanishiga aniq turtki bo'ldi. Bular: *xalqlar psixologiyasi*, *olomon psixologiyasi* va *ijtimoiy xulq-atvorning instinctlari nazariyasidir*. Ularning barchasini o'ylantirgan masala bitta bo'lib, u ham bo'lsa jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatini tahlil qilish zaruratidir.



2.2-rasm. Ijtimoiy-psixologik bilimlarning uch nazariy manbasi.

Ijtimoiy-psixologik bilimlar uchun manba rolini o'ynagan birinchi asos *xalqlar psixologiyasi* bo'lib, u XIX asrning o'rtalarida Germaniyada shakllandi. Undagi asosiy nazariy fikr shundan iborat ediki, ayrim individlardan yuqori turadigan ruh mavjud bo'lib, bu ruh o'zidan ham yuqori turadigan ilohiy yaxlitlikka bo'y sunadi. Bu ilohiy yaxlitlik xalq yoki millatdir. Ayrim individlar ana shu yaxlitlikning bo'laklari bo'lib, ular aslida shu ruhga bo'y sunadilar. Ya'ni, ushbu nazariya tarafdonining fikriga e'tibor bersak, ular nuqtai nazariya, shaxs bilan jamiyat o'rtaсидаги qarama-qarshilik muammosi jamiyat foydasiga hal

qilinadi. Xalqlar psixologiyasining tarixiy-mafkuraviy asosi bo‘lib *Gegel* falsafasi va nemis romantizmi xizmat qilgan, deyish mumkin, chunki *Gegeldagi* “individdan yuqori turuvchi ruh” g‘oyasi xalqlar psixologiyasi jonkuyarlari tomonidan to‘lig‘icha qabul qilindi.

“Xalqlar psixologiyasi” iborasi birinchi marta faylasuf *M.Lasarus* (1824 – 1903) hamda tilshunos *G.Shteyntal* (1833 – 1893) asarlarida ishlatildi. Ular birligida chop etgan “Xalqlar psixologiyasi to‘g‘risida kirish so‘zi” kitobida shunday fikrlarni ilgari suradilar: “Tarixni yurgizuvchi asosiy kuch – bu xalq yoki shu “yaxlitlikning ruhi” bo‘lib, bu ruh san’atda, dinda, tilda, afsonalarda, an’analarda o‘z aksini topadi. Individning ongi ushbu yaxlitlikning mahsuli bo‘lib, ularning yig‘indisi o‘z navbatida xalq ongini tashkil etadi. Xalqlar psixologiyasining vazifasi xalq ruhi mohiyatini o‘rganish, xalq ruhiyatini qonunlarini ochish, xalq psixologiyasiga oid bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlarning paydo bo‘lishi va yo‘qolishini tushuntirib berishdir”. O‘scha kitobda mualliflar shaxs bilan jamiyat munosabati xususida quyidagi mulohazalarini bayon etadilar: odam o‘z mohiyati jihatidan ijtimoiy mavjudot bo‘lib, u jamiyat hayoti bilan uzviy bog‘liq, chunki u o‘ziga o‘xshashlarga qarab rivojlanadi, boshqalarga taqlid qilib harakat qiladi va ular ta‘qibidan qochadi... Xalqlar psixologiyasining asoschilari faqat nazariy mulohazalar yuritish bilan cheklanadilar, chunki ularda o‘z fikrlarini isbot qilish uchun tadqiqot ishlari yo‘q edi.

“Psixologiyaning otasi” hisoblangan *Vilhelm Vundt* esa, xuddi ana shu tadqiqotga asoslangan ma’lumotlar to‘plashga o‘z diqqatini qaratdi. U o‘zining “Inson va hayvon ruhi haqida ma’ruzalar” (1863) va 1900-yilda bosmadan chiqqan o‘n tomli “Xalqlar psixologiyasi” asarlarida asosan o‘zi to‘plagan empirik ma’lumotlar asosida xalqlar psixologiyasiga bag‘ishlangan fikrlari tizimini bayon etdi. Uning fan oldidagi xizmati shundan iborat ediki, empirik ma’lumotlar to‘plash usullari, to‘plangan manbalarni sharhlash borasida bebaho bilimlar to‘pladi. Uning fikricha, psixologiya fani ikki qismdan iborat: fiziologik psixologiya va xalqlar psixologiyasi. Fiziologik psixologiya inson ruhiyatini o‘rganuvchi eksperimental fan bo‘lib, oliy psixik jarayonlar – tafakkur va nutqdan

tashqari barcha narsani eksperiment usulida tadqiq etish mumkin. Eksperiment usulida o‘rganib bo‘lmaydigan barcha oliy ruh holatlarini xalqlar psixologiyasi o‘rganadi, chunki undagi o‘rganish usullari o‘ziga xosdir – u madaniy mahsullar hisoblangan til, afsonalar, odatlar, san’at asarlari, inson tafakkurining murakkab tomonlarini ochib beradi.

To‘g‘ri, *Vundtning psixologiya fani oldidagi xizmatlari* buyuk, uning xalqlar psixologiyasiga oid ma’lumotlari hozirgi kungacha ham o‘z qimmatini yo‘qtGANI yo‘q. Lekin uning yagona kamchiligi shu ediki, uning qarashlari idealistik asosda bo‘lgan, ya’ni u individ bilan jamiyat o‘rtasidagi murakkab dialektik munosabatni idealistik asosda turib hal qilgan va jamiyatning rolini absolyut tushunib, shaxsning tarixini yaratishdagi, ijtimoiy jarayonlardagi faol o‘rnini ko‘ra bilmagan. Uning izdoshlari – rossiyalik *A.Potebni*, nemis olimi *T.Geyger* va boshqalar ham u yo‘l qo‘ygan mafkuraviy kamchilikning oldini ola olmadilar, lekin ular bir fikrda yakdil edilarki, xalqlar psixologiyasi individual psixologiyadan farq qiladi, shuning uchun ham maxsus fan kerakki, u o‘ziga xos usullar yordamida shaxs va jamiyat munosabatlari qonunlarini ochib berishi lozim. Xuddi ana shu xulosalar ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishiga ilmiy asos bo‘ldi.

*Omma psixologiyasi* paydo bo‘lishiga tarixiy asos ishchilar sinfining paydo bo‘lishi va Yevropada ishchilar harakatining ommaviy tus olishi bo‘ldi. Ya’ni, XIX asrning ikkinchi yarmida sanoat va ishlab chiqarishning rivojlanishi, ishchilarning u yoki bu sanoat korxonasi doirasida mehnat qilish uchun to‘planishi ishchilar harakatining kuchayishiga olib keldiki, ular ba’zan tartibsiz harakatlar, uyushgan harakatlarning sub’yektiga aylanib qoldilar. Shuning uchun ham shu harakatlarning qonunlarini bilish, ularni boshqarish usullarini o‘ylab topish zarur edi.

Ommaviy hodisalarni o‘rganish natijasida 1890-yilda *Gabriel Tardning* “Taqlid qilish qonunlari” deb atalgan birinchi kitobi chiqdi. *Tard* Fransiyada ro‘y berayotgan ommaviy hodisalarni, shu hodisalarda ishtirok etayotganlarning xulq-atvoriini taqlid qilish orqali tushuntiradi. Bu harakatlar irratsional (ya’ni aqlning ishtirokisiz) tabiatga ega bo‘lib, har bir individ ommaga qo‘shilgan zahoti unga

taqlid qilishga tayyorlik instinkti ustun bo'lib qoladi. Italiyalik huquqshunos S.Sigeli va fransuz olimi G.Lebon ham Tard ishlarini ma'qullab, uning nazariyasini faktik materiallar bilan boyitdilar.

1895-yilda bosilib chiqqan *Sigelining "Ommaning jinoyatlari"* va *Lebonning "Omma psixologiyasi"* kitoblarida asosiy g'oya shundan iborat ediki, ommaviy harakatlarda shaxsning o'z xulq-atvorlarini ongli va aql bilan boshqarish qobiliyati yo'qoladi. Bunday holatlarda hissiyotlar ustun keladi, natijada affekt holatlar kelib chiqadi, ya'ni, odam o'zi nima qilayotganligini, olomonga nega qo'shilib qolganligini ham anglay olmaydi, shuning uchun ham affekt holatida ro'y bergan jinoyatga aybni yumshatuvchi holat sabab bo'lgan, deb qarash adolatli bo'ladi. Bu qarashlari tufayli *Sigeli* Italiyaning qonuniga maxsus modda kiritishga ham erishdi.

Sotsiolog *Lebon* esa asosan diqqatini ommani elitaga – jamiyatdan yuqori turuvchi tanlangan guruhlarga qarshi qo'yishga qaratdi. U ommaning ayrim hollarida, ayniqsa biror hodisa ro'y berganda "qiziqqonlik" xususiyati ustun turishi haqida yozadi. Uning fikricha, bir qancha odamlarning bir yerda to'planishi ommani hosil qiladi va bu odamlar kim bo'lishidan qat'i nazar – olimmi yoki oddiy ishchi, fuqaromi, shu zahotiyog kuzatuvchanlik va ziyraklikni yo'qotadi. Chunki bu holatda ular holatini instinktlar va hissiyotlar boshqaradi. *Lebon* shaxsning omma holatidagi belgilariga to'xtalib quyidagilarni ajratadi:

1. *Shaxsiy sifatlarning yo'qolishi*. Boshqa odamlar ta'sirida individ o'ziga xos sifatlarni yo'qotishi, buning o'mniga impulsiv instinktiv harakatlarni amalga oshirishi mumkin.

2. *Hissiyotlarga o'ta beriluvchanlik*. Ommada aql, tafakkur hissiyotlar va instinktlarga o'z o'mnini bo'shatadi. Shuning uchun ham ommaning ta'sirchanligi o'ta oshib ketadi.

3. *Aqliy sifatlarning yo'qolishi*. Ommaning "aqli" uni tashkil etuvchilar aqlidan ancha past bo'ladi. Shuning uchun ham ommaning tazyiqiga uchramaslik uchun har bir kishi aqlan mulohaza yuritishdan bosh tortishi, munozaradan qochishi lozim.

4. Shaxsiy mas'uliyatning yo'golishi. Ommaga qo'shilib qolgan shaxs shunchalik hissiyotlarga berilib ketishi mumkinki, u o'z harakatlarini nazorat qilish, o'z ishiga mas'uliyatni esidan chiqaradi. Yakka holda sodir qila olmaydigan ishini, u ommaga qo'shilib qilib sodir etib qo'yishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan ommaning belgilari *Ernesto Grassi* tomonidan nemis entsiklopediyasiga ham kiritilgan.

Shunday qilib, omma tartibsiz, u mustaqil ravishda tartib o'rnatish qobiliyatiga ega emas. Shuning uchun ham unga doimo "dohiy" kerak. Dohiylar yoki daholar – elita tashqaridan kelib omma o'rtasida tartib o'rnatishi mumkin. Bu fikrlarning mafkuraviy ma'nosi tushunarli, chunki o'sha paytda olimlar omma deganda, ishchilar sinfini, dohiylar deganda esa, burjuaziyani nazarda tutishgan. Demak, shaxs va jamiyat ziddiyatlari masalasi omma psixologiyasi tarafдорлари nazariyasi ayrim shaxslar – dohiylar foydasiga hal qilinadi. Lekin bu nazariya, nima uchun ommaviy hodisalarda ommaning o'zidan chiqib qoladigan liderlar, ommaning ba'zan tashqaridan hech kimni tan olmay qolishi masalalariga umuman javob topa olmadi, chunki ularning ham fikrlarida ko'proq idealizmga moyillik sezilib turardi.

*Ijtimoiy xulq-atvor instinktlari* nazariyasi XX asrning boshida Angliyada shakllandi. Uning asoschisi ingliz psixolog *Uilyam Makdugall* bo'lib, u o'zining 1908-yilda yozgan "Ijtimoiy psixologiyaga kirish" kitobidagi inson xulq-atvorining motivi yoki uni harakatga keltiruvchi kuch instinktlardir deb yozgan. Keyinchalik u instinkt tushunchasi bilan birga layoqat, intilish iboralarini ham ishlata boshladi. Uning fikricha, xulq-atvorni ta'minlovchi narsa tug'ma, psixofiziologik tayyorlik holati bo'lib, u nasldan-naslga uzatiladi. Makdugall barcha harakatlarni refleksiv holda tushuntirishga intilib, refleksiv yoyga xos bo'lган barcha qismlar – ya'ni, efferent – qabul qiluvchi, reseptiv bo'lim, afferent (harakat) va markaziy bo'limdan iborat tizim sifatida tasavvur qiladi. Barcha ijtimoiy harakatlar ham ana shunday refleksiv tabiatga egadir, deb uqtiradi u.

Shunga o'xshash fikrlar *E.Ross* (Ijtimoiy psixologiya) va *J.Bolduin* (Ijtimoiy psixologiya bo'yicha tadqiqotlar) qarashlarida ham rivojlantirilgan. Masalan,

Bolduin ikki turli irlisyat haqida – tabiiy va ijtimoiy irlisyat haqida yozib, ijtimoiy irlisyat odamlardagi taqlid qilish qobiliyati bilan bog'liq, deb yozadi. Jamiyatda yashayotgan odamlar bir-birlariga ta'sirlarini o'tkazishga moyildirlarki, bu narsa ular o'rtasidagi munosabatlarini boshqarib turadi.

Shunday qilib, bu yo'nalish tarafdoqlarining fikricha, barcha ongi harakatlarning boshi – ongsizlikdir, ya'ni instinctlar bo'lib, ular asosan hissiyotlarda namoyon bo'ladi. Hissiyot bilan instinctlar bog'liqligini *Makdugall* juftliklarda ko'rsatishga harakat qilgan: masalan, kurash instincti – qo'rquv, g'azab hissi; nasl qoldirish instincti – rashk, ayollardagi tobelik hissi; o'zlashtirish instincti – xususiylikka intilish hissi va hokazo. Ijtimoiy hodisalarini tushuntirishda tug'ma instinctlar rolining yuqori qo'yganligi uchun bu nazariya ilmiy taraqqiyot bosqichida salbiy o'rin tutdi, deb aytishimiz mumkin. Lekin uning ayrim hodisalar sabablarini tushuntirishga harakat qilishi fan oldiga ulkan vazifalarni qo'ydi. Ijtimoiy psixologiya fan sifatida ana shu muammolarni tadqiq qilishi lozim edi.

Demak, yuqorida to'xtab o'tilgan uchchala nazariyaning ahamiyati shundan iborat ediki, ular yangi tug'ilishi lozim bo'lgan, lekin yetarli ilmiy asosi bo'lмаган fan – ijtimoiy psixologiyaning istiqboldagi tadqiqot mavzularini ochib berdi. Qolaversa, bu uchchala yo'nalish ham nazariy qarashlarni isbot qilishda ob'yektiv tekshiruv usuli hisoblangan eksperimentdan foydalanish zaruriyatini ko'rsatdi. Bu narsa yana bir bor maxsus fanning kelajak rejalarini aniqlashga yordam berdi.

### 2.3. *Ijtimoiy psixologiyaning eksperimental fan sifatida rivojlanishi*

XX asr shu bilan xarakterli ediki, u turli fanlar oldiga konkret topshiriqlar qo'ya boshladidi. Bundan tashqari, juda ko'p fanlarda ob'yektiv eksperimental usul yo'li bilan ilmiy faktlar to'plash yo'lga qo'yildi. Psixologiya fani ham bundan istisno emas edi. Sof psixologlar individ psixologiyasini eksperimental o'rganar ekanlar, ularning boshqa individlar ta'sirida bo'lishi faktini inkor qila olmas edilar. Ikkinchidan esa Amerikada ko'pgina psixologlar o'z tadqiqot ob'yektlarini laboratoriyalarda ayrim psixik jarayonlarni o'rganishdan kichik guruhlarga ko'chira boshladilar. Bu davrda psixologiyada

shakllanib bo'lgan uch asosiy oqim (psixoanaliz, bixevoirizm va geshtalt psixologiya) ichida ham ijtimoiy xulq-atvorni kichik guruuhlar doirasida o'rganish tendentsiyasi paydo bo'ldi. XX asr psixologiya fani tarixda shu bilan ajralib turadiki, olimlar nazariy izlanishlarga e'tibor berishmas, hattoki, katta guruuhlar, ommaviy hodisalar psixologiyasi ham nazardan ancha chetda qolgan edi. Asosiy diqqat kichik guruhlarga va ularda turlicha eksperimentlar o'tkazishga qaratilgan edi. Bunday holatning paydo bo'lganligi ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishida nihoyatda katta rol o'ynadi.

*Geshtelpsixologiya* yo'nalishi negizida maxsus ijtimoiy-psixologik yo'nalishlarning – interaksionizm va kognitivizmnning paydo bo'lganligi esa bu fanning eksperimental ekanligini yana bir bor isbot qildi.

*Bixevoirizm* yo'nalishlari doirasida o'tkazilgan ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar avvalo amerikalik olimlar *K.Xall* va *V.Skinner* nomi bilan bog'liq.. Ular va ularning izdoshlari hisoblangan *K.Miller*, *D.Dollard*, *J.Tibo*, *G.Kelli* va boshqalar diada – ikki kishi o'rtaqidagi munosabatlarning xilma-xil eksperimental ko'rinishlarini tadqiq qilib, ularda matematik o'yin nazariyasi elementlarini qo'lladilar. Diada sharoitida laboratoriyalarda o'tkazilgan tadqiqotlarda asosan mustahkamlash g'oyasini isbot qilishga urinildi. Klassik bixevoirizmdan farqli o'laroq, ijtimoiy-psixologik bixevoiristlar hayvonlar o'miga laboratoriyaqa naqd pulga odamlarni taklif eta boshladilar, shuning uchun ham ularning g'oyasida biologizm va mexanizm tarzda ilgarigi hayvonlarda to'plangan dalillar modelini insonlarda qo'llash hollari kuzatildi.

*Psixoanaliz* doirasida esa ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar *E.Fromm* va *J.Salliven* ishlari bilan bog'liq, Bixevoiristlardan farqli o'laroq, bu yerda eksperimentlar ikki kishi emas, balki ko'pchilik ishtirotida o'tkazila boshladи. Ularning izdoshlari (*V.Bayon*, *V.Bennis*, *G.Sheparde*, *V.Shuts*) o'tkazgan tadqiqotlar tufayli hozirgi kunda ham katta qiziqish bilan o'rganilayotgan "T – Guruuhlar" psixologiyasi yaratildi. Unda guruuh sharoitida bir odamning boshqalarga ta'siri, guruhning ayrim individlar fikrlariga ta'siri kabi masalalar ishlab chiqildi va ijtimoiy-psixologik treninglar o'tkazishga asos solindi.

*Kognitivizm* Kurt Levin nazariyasi asosida paydo bo'lgan psixologik yo'nalish bo'lib, undagi o'rganish ob'yekti munosabatlar tizimidagi odamlar, ularning bilish jarayonlari, ong tizimiga taalluqli bo'lgan kognitiv holatlar bo'ldi. Kognitivizm doirasida shunday mukammal, boshqalarga o'xshamas nazariyalar yaratildiki, ular hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qtgani yo'q. Masalan, F.Xayderning balanslashtirilgan tizimlar nazariyasi, T.Nyukombning kommunikativ aktlar nazariyasi, Festingerning kognitiv dissonanslar nazariyasi va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Ulardagi asosiy g'oya shundan iboratki, shaxs o'ziga o'xhash shaxslar bilan muloqatga kirishar ekan, doimo munosabatlarda ruhiy mutanosiblik, tenglik bo'lishiga, shu tufayli ziddiyatlardan chiqishga harakat qiladi. Maqsad – turli ijtimoiy sharoitlarda shaxs xulq-atvorining psixologik sabablarini tushuntirish va ziddiyatlarning oldini olish uchun yo'l-yo'riqlar ishlab chiqishdan iborat. Hozirgi davrda ham taniqli ijtimoiy psixologlar Olport, A.Maslou, K.Rojers va ularning safdoshlari gumanistik psixologiya doirasida bu ishlarni faol davom ettirmoqdalar.

Nihoyat, yana bir eksperimentlar bilan bog'liq bo'lgan nazariya *interaksionizm* bo'lib, bu aslida sotsiologik nazariya hisoblanadi. Uning asoschisi Gerbart Mid bo'lib, uning qarashlari ta'sirida T.Sarbining rollar nazariyasi, G.Xaymen va R.Mertonlarning referent guruuhlar nazariyasi, F.Gofmanning ijtimoiy dramaturgiya nazariyalari shakllanadi. Ular turli ijtimoiy sharoitlardagi xulq-atvorni tushuntirish orqali shaxs ijtimoiy-psixologik sifatlarining sabablarini topishga harakat qildilar. Har bir shaxs doimo ijtimoiy o'zaro ta'sir tizimida mavjud bo'ladiki, unda u to'g'ri harakat qilish uchun o'zgalarni tushunishga harakat qilishi, o'zgalar rolini qabul qilishga tayyor bo'lishi lozim. Lekin o'zgalar rolini to'g'ri qabul qilish uchun unda "umumlashtirilgan o'zga" obrazi bo'lishi lozimki, bu obraz shaxslararo muloqat jarayonida, har bir shaxs uchun ibratli bo'lgan kishilar guruhi bilan muloqotda bo'lish jarayonida shakllanadi. Ya'ni, shaxsnинг faolligi tan olinadi, bu esa fan tarixida o'ta progressiv holat edi.

Yuqorida aytib o'tilgan nazariya va oqimlar hozirgi kunda ham ijtimoiy psixologiyaning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Keyingi

davrarda Rossiyada rivojlangan ijtimoiy psixologiya va sobiq Ittifoq davlatlarida barcha o'tkazilgan fundamental va tatbiqiylardan chet elliq psixologlari, xususan amerikalik olimlar qarashlarining ta'siri kattadir.

#### *2.4. Ijtimoiy psixologiyaning Rossiyadagi rivojlanishi*

Sobiq ittifoq davlatlarida, birinchi navbatda Rossiyada ijtimoiy psixologiya o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab rivojlnana boshladi.

Bu borada rus ijtimoiy psixologiyasining asoschisi deb haqli ravishda *V.M.Bexterevni* ko'rsatish mumkin. U o'zining refleksologiya nazariyasi doirasidan shaxs xulq-atvorining motivlarini tushuntirishga uringanlardan biridir. Uning fikricha, barcha ongli va ongsiz jarayonlar tashqi xulq-atvorda, harakatlarda ifodalanadi, shuning uchun ham tashqi harakatlarni, qiliqlarni, nutqni, tovushni o'rghanish orqali shaxsning o'zini va bu harakatlarning sabablarini aniqlash mumkin. Bexterev qarashlaridagi kamchilik shu ediki, u o'z ilmiy xulosalarida sotsiologiyani biologiya bilan, psixologiyani esa fiziologyga bilan aralashtirib yubordi, shu orqali shaxs va jamiyat taraqqiyotining universal qonunlarini topmoqchi bo'ldi.

Bexterevdan keyingi olimlar, chunonchi, *Yu.Vasilyevning* "biologik sotsiologiyasi" ham, *M.A.Reystnerning* "ommaviy psixologiyasi" ham, *L.N.Voytolovskiyning* "jamoa psixologiyasi" ham reflekslar qonunini mexanik tarzda ijtimoiy-psixologik jarayonlarni tushuntirishga ko'chirish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi.

O'tgan asrning 20-30-yillarida bolalar va o'smirlar ijtimoiy-psixologik taraqqiyotini o'rghanishga qaratilgan ikki yo'naliш paydo bo'ldiki, ular ham qator kamchiliklardan holi bo'la olmadilar. Masalan, biologik yoki biogenetik nazariya tarafdorlari shaxsning shakllanishida irlsiy va biologik nasliy omillar yetakchi rol o'ynaydi, deb hisoblashsa (*Ye.Arkin, I.Aryamov* va boshqalar), sotsiologik yoki sosiogegetik nazariyotchilar bu borada ijtimoiy muhit rolini nihoyatda katta ekanligini himoya qilib chiqdilar (*S.Molojaviy, A.Zalkind* va boshqalar).

O'tgan asrning 30-yillarida A.S.Makarenko, A.Zalujniy, L.S.Vigotskiy, N.K.Krupskaya, M.Suxomlinskiy va boshqa qator olimlar o'z nazariy qarashlarini marksizm bilan bevosita bog'lab, jamoa va shaxs nazariyasini yaratdilar. Ular shaxsning shakllanishida ijtimoiy muhitning, jamoaning rolini, ta'lim-tarbiyaning ahamiyatini isbotlashga urindilar. O'tgan asrning 40-60-yillarida ijtimoiy-psixologiya taraqqiyotida nisbatan sokinlik davri bo'ldi. Chunki psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar ichida ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar yo'q hisob edi. Bu fan Rossiyada va boshqa sobiq ittifoqdosh respublikalarda o'tgan asrning 70-yillaridan keyin keskin rivojiana boshladi. Bunda moskvalik va leningradlik (hozirgi Sankt-Peterburg) olimlar maktabi katta ro'l o'ynadi. Agar Moskva shahrida, asosan, ijtimoiy psixologiya bo'yicha fundamental nazariy tadqiqotlar ko'plab o'tkazilib, unda hozirgi zamon ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning empirik qonunlari asoslari ishlab chiqilgan bo'lsa, Sankt-Peterburgda ko'proq tatbiqiy ilmiy tadqiqot ishlari olib borildiki, ular birgalikda minglab yosh ijtimoiy psixologlar avlodini tarbiyalab yetishtirdilar. Ular esa hayotimizga ilg'or fikrlar va dalil tadqiqotlar bilan kirib kelib, hozirgi kun fanini dunyo miqyosida misli ko'rilmagan darajaga ko'tardilar. Lekin yuqorida aytib o'tilganidek, Rossiyada ijtimoiy psixologiyaning rivojlanishida xorij psixologiyasining, ayniqsa Amerika Qo'shma Shtatlari psixologiyasining ta'siri ancha sezilarlidir.

**2.5. O'zbekistonda ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning o'rni va istiqbollari**

Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida yurtimizda rivojlanish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, tarixan qisqa fursatda uning rivojlanishi uchun imkoniyatlar kengayib borayotganligini ta'kidlash joiz. Ilmiy salohiyatl, ma'nан baquvvat, yurt uchun, xalq va Vatan uchun sadoqatli yangi avlodni tarbiyalash, unda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish shaxs va jamiyat o'zaro munosabatlarini yaxshi bilishni taqozo etishini davlatimiz rahbari o'ta ziyraklik bilan tasavvur qildilar, shu bois Prezidentimizning barkamol avlod tarbiyasiga oid barcha asarlaridan psixolog olimlar, jumladan, ijtimoiy psixologiya sohasida izlanishlar olib borayotgan olimlar to'g'ri xulosalar chiqara oldilar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda o'tkazilayotgan ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar dastlab asosan oila va oilaviy munosabatlarga bag'ishlanganligi bilan xarakterlanadi va shunga bog'liq tarzda oxirgi yillarda ham shaxsning kamol topishida ijtimoiy muhit omili o'rganilganda, eng avvalo oilaviy ijtimoiylashuv nazarda tutiladi. Bundan tashqari, yangi davr avlodining jamiyatda ro'y berayotgan turli hodisalarga munosabati, ularga beradigan bahosi va ular ta'sirida shakllandigan ijtimoiy xulqi masalasi yurtimizda ijtimoiy tasavvur konsepsiysi asosida turli yo'nalishli izlanishlar uchun istiqbolli yo'nalishga yo'l ochdi. Bundan tashqari, yangicha ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlar sharoitida xodimlar xulqini muvofiqlashtirish borasida boshqaruva psixologiyasi bo'yicha amalga oshirilayotgan monografik tadqiqotlar ham yangi davr ijtimoiy psixologiyasining predmeti ekanligini ta'kidlash mumkin. Bundan tashqari, O'zbekistonda tatbiqiyo yo'nalishdagi ijtimoiy-psixologik izlanishlarga keng yo'l ochildiki, bu holat ushbu fanning yangi davr fani ekanligini isbotlamoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, birinchi ijtimoiy-psixologik tadqiqot yurtimizda XX asrning 70-yillari oxiri 80-yillarning boshida *I.Yoqubov* tomonidan o'tkazilgan bo'lib, u oilaviy munosabatlarning barqarorligi va er-xotin ijtimoiy rollarining muvofiqligini ta'minlovchi ijtimoiy-psixologik omillarni o'rgandi. Tadqiqot natijasida shu narsa aniqlandiki, oila a'zolarining rollar borasidagi muvofiq o'zaro munosabatlari oilaviy hamjihatlikning muhim shartidir. Oilaviy mojarolar esa, asosan hozirgi zamon o'zbek ayolining ijtimoiy mehnat bilan bandligi hamda oilaviy munosabatlarda eskilik sarqitlarining saqlanib qolganligidadir.

Keyinchalik shu kabi oila va oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik fenomenlariga bag'ishlangan tadqiqotlar o'zbekistonlik olimlar *G'.B.Shoumarov* va uning izdoshlari, shogirdlari ishlarida rivojlantirildi. Masalan, *G'.B.Shoumarov* va *Ye.A.Morshinalarning* (1986) tadqiqotlarida oilada bolalar tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-psixologik omillar o'rganildi, chunonchi, unda o'ziga xos milliy va an'anaviy o'zaro munosabat xususiyatlarining o'rni belgilandi.

Oilaviy munosabatlар psixologiyasi xususida o'tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri *N.Sog'inovning o'zbek oilasiga xos bo'lgan nikoh va oila munosabatlari* – nikohdan qoniqish, nikoh motivlari, oila qurishning o'zbeklarga xos bo'lgan yosh xususiyatlari, yosh o'zbek oilalaridagi psixologik mojarolar va ajralishlarning sabablarini sistematik tarzda o'rgangan ilmiy ishidir. Bu tadqiqotda ilgari hech o'rganilmagan ilmiy ma'lumotlar to'plandiki, ularga ko'ra, o'zbek oilasining qurilishiga sabab bo'ladigan asosiy motiv – bu "Farzandli bo'lish", (birinchi o'rinda), ikkinchi o'rinda "Jamoatchilikning gap-so'ziga qolmaslik", uchinchi o'rinda "Ota-onva qavmi-qarindoshlarning istaklarini bajo etish" va hokazolar aniqlandi. *N.Sog'inovning to'plagan ma'lumotlari yosh oilalar, mojaroli oilalar va yoshlar tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lganlar uchun muhim ilmiy yo'l-yo'riqdir.* Bu kabi izlanishlar keyinchalik *R.Dushanov (2005), M.Utepbergenev<sup>5</sup> (2019)*, ishlarida davom ettirildi. Ularda oila va nikoh munosabatlari qirg'iz va qoraqalpoq oilalari misolida o'rganildi.

Oxirgi 10-20 yil oralig'ida O'zbekistonda ijtimoiy tasavvurlar konsepsiysi doirasida o'tkazilayotgan tadqiqotlar (*V.Karimova, K.Rahimova (2002), L.Karimova (2003), G.Yadgarova (2003), Z.Nishonova (2005), M.Umarova (2005), K.Farfiyeva (2005), Sh.Eshmetov (2005), N.Lutfullayeva (2006), A.Kadirova (2007), N.Norgulova (2017), N.Umarova<sup>6</sup> (2019), O.Hayitov (2020) va boshqalar*) ayni shu yo'naliшning istiqbolli ekanligini, shaxs va jamiyat o'rtasidagi murakkab va serqirrali munosabatlarning ijtimoiy xulqda namoyon bo'lishi mexanizmini tushuntirishda nazariy-metodologik asosning mavjudligini isbotladi.

Keyingi yangi davrda gender tenglik masalasi, xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi rolini oshirishga bag'ishlangan qator tadqiqotlarga yosh psixolog olimlarning qo'shilishi ushbu yo'naliшning ham istiqbolli ekanligini ko'rsatmoqda. Davr talabidan kelib chiqayotgan bu vazifa o'zbek psixologlari

<sup>5</sup> Утепберганов М.А. Коракалпоқ оиласларининг ижтимоий ва этнопсихологик муаммолари: Психол.ф. д. (DSc) даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф.:19.00.05. – Т.: ЎзМУ, 2019. – 70 б. <http://library.ziyonet.uz/static/lib/reader-pdf/web/viewer.html?file=http://library.ziyonet.uz/uploads/books/634149/5caedcb5a0115.pdf>

<sup>6</sup> Умарова Н.Ш. Шахс иктисодий ижтимоийлашувига таъсир этувчи ижтимоий-психологик омиллар: Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф.: 19.00.05. – Т.: ТДПУ, 2019. – 50 б. <http://library.ziyonet.uz/static/lib/reader-pdf/web/viewer.html?file=http://library.ziyonet.uz/uploads/books/251467/5e0322b9c8b3c.pdf>

oldiga qator muammolarni qo'yish bilan birqalikda ulardan gender muammolari, jinsiy tafovutlar masalasiga ilmiy jihatdan yondashishni taqozo etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'g'il va qizlarning ijtimoiy tasavvurlarida jinsiy tafovutlarga oid tushuncha, bilim va ko'nikmalar, stereotiplar eng avvalo oilada shakllanadi. Shuning uchun ham oila psixologiyasi doirasida aynan jinsiy tafovutlar va gender muammolari o'rganilishi va amaliyotda qanday ekanligi tadqiq etilishi kerak.

Avvalo shuni ta'kidlash joizki, *gender psixologiyasi* – ijtimoiy psixologiya fanining bir sohasidir. Boshqa sohalar singari u ham o'z tarixiga ega. Ammo bu tarixni XX asrning 70-yillaridan boshlab o'rganish noo'rin deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, uni fenemizm mevasi deyish ham noto'g'ri. Biroq fanning asosiy xizmati zamonaviy psixologik muammolarga jamoatchilik fikrining jalg qilinishi hisoblanadi.

O'zbekistonda ham masalasi ko'pincha oila muammolari doirasida o'rganilishi an'anaga aylangan. Qator tadqiqotlarda (*E.G'oziyev, G'.Shoumarov, V.Karimova, I.Yoqubov, B.Qodirov, S.Mirhosilov, E.Uzmanov, N.Sog'inov, F.Akramova, L.Karimova, O.Hayitov, N.Salayeva, O.Shamiyeva, O.Abdusattorova, N.Sagindikova*<sup>7</sup>(2017) va b-q.) oilaviy hamda shaxslararo o'zaro munosabatlarga e'tibor qaratilgan.

Muallifning oila va oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik omillari va oqibatlariga bag'ishlangan asarlarida oilada yoshlarni gender munosabatlarga tayyorlash muammolariga<sup>8</sup>, gender tasavvurlarning shaxs tarbiyasidagi o'rni kabi masalalarga e'tibor qaratilgan. Bizning oxirgi tadqiqotlarimizda<sup>9</sup> er-xotin va oiladagi sibling munosabatlarning bola shaxsiga ta'siri, jumladan, erkaklik va ayollik fazilatlari shakllanishidagi o'rni o'rganilgan, ilmiy xulosalar chiqarilgan.

<sup>7</sup> Сагиндикова Н.Дж. Талабалар ўкув фаолиятининг гендер хусусиятлари: Психология фанлари бўйича фалсафа достори (PhD) дарражасини олиши учун ёзилган дис. автореф.: 19.00.05. – Т.: ЎзМУ, 2017. – 50 б.

<sup>8</sup> Каримова В. Оиласда ўшларни гендер муносабатларга тайёрлаш муммомлари // "Ўшлар муммомлари ва уларнинг счими: холат ва истиқбол" мавзусидаги Респ. илмий-амалий ажумани материаллари – Т.: 2002. – Б. 30-33.

<sup>9</sup> Каримова В. Оиласий хаёт психологияси: Ўкув кўйлланма. – Т.: 2006. – 142 б.

Bu kabi ota-onan munosabatlarining farzandlarga ta'siri muammosi M.Salayeva (2005) tadqiqotlarining ham predmetiga aylangan. Jumladan, u qo'lg'a kiritgan xulosalardan biri, "o'zbek oilalarida onalarning otalarga nisbatan farzandlarga o'ta g'amxo'rliqi, ya'ni, ularni qiyinchiliklardan saqlash, ziyon yetkazib qo'yishdan qo'rqish, farzandning o'ziga bog'langanligi va tobeligini rag'batlantirish, ularda shahvoniylig va tajovujkorlikni bosish kabi xususiyatlarning kuchligigi, onalarda otalarga nisbatan demokratiklilikning kuchliligi isbotlangan"<sup>10</sup>.

Gender tafovutlarga bag'ishlangan ayrim tadqiqotlar reklamadagi ayollar va erkaklar obrazi (A.Dudareva, 2003), o'g'il va qiz bolalarining obrazidan foydalanish samarasi (V.Karimova, 2006, S.Abidov, 2006), er va xotinlarning reklama qilingan mahsulotlarga jinsga oid o'ziga xos munosabatlari (L.Karimova, 2004) kabi masalalarga bag'ishlangan. O'tkazilgan tadqiqotlar va olingen empirik ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, reklama sohasida kattalar va bolalar obrazidan keng foydalilanadi, lekin ularni idrok qilish va xaridorlik ustananovkalarida aniq-ravshan jinsiy tafovutlar mavjuddir (V.Karimova, S.Abidov, 2006). Ayniqsa, bola obrazi aks ettirilgan reklamaning qizlar va o'g'il bolalardagi jinsiy identifikasiyaga bevosita ta'siri alohida o'rganilsa, bizning fikrimizcha. ma'lumotlarning tatbiqiy ahamiyati yanada kuchli bo'lar edi.

L.I.Karimovaning yurtimizda o'tkazgan tadqiqotlarida yoshlarning reklama mahsulotlarining iste'molchisi sifatidagi ijtimoiy tasavvurlari o'rganilgan. Masalan, u o'z tadqiqoti mobaynida 50 ta er-xotinlar juftligi o'rtaida so'rov o'tkazib, zamонави油 oilada ko'pgina masalalarda xotin-qizlarning fikri yetakchi ekanligini aniqlagan (L.Karimova, 2004). Masalan, "Oilangizda kim pul mablag'larini taqsimlaydi?" deb berilgan savolga erkaklarning 73 foizi va ayollarning 51 foizi "men o'zim" degan javobni berishgan. Lekin "Kuniga uy uchun biror narsa xarid qilishga taxminan qancha vaqt sarflaysiz?" degan savolga esa, erkaklarning 69 foizi "bilmayman" javobini bergen bo'lsa, ayollarning 71 foizi – "bir soatgacha", 7 foizi –

<sup>10</sup> Саласва М. Ўзбек оиласарида ота-она ва фарзандлар ўзаро муносабатларининг ижтимоий психологияк хусусиятлари: Психол.ф. н. даражасини олини учун ёзилган дис. автореф. – Т.: ЎзМУ 2005. – Б. 18.

2 soatdan ortiq vaqt ajratishlarini qayd etishgan. “Reklama qilingan xo‘jalik mollarini sotib olasizmi?” deb berilgan savolga 14 foiz erkaklar va 32 foiz ayollar ijobiliy javob bergani holda, 58 foiz erkaklar “yo‘q” javobini bergenlar. Shundan tadqiqotchi ularning reklama qilinayotgan mahsulotlarga ishonchini aniqlaganda, erkaklarning 45 foizi va ayollarning 48 foizi ishonishini qayd etganlar. Demak, reklama qilinayotgan mahsulotlar dunyosida xotin-qizlarning faolligi bugungi kunda erkaklarnikidan ancha yuqori. Demak, zamonaviy oila bekalari oilaviy daromadning taqsimoti va uni nimaga ishlatish masalalarida ham yetakchilikka da’vo qildilar. Chunki uy bekalari uy yumushlarini bajarishda ko‘proq xo‘jalik mollaridan foydalanadi, farzandlarini yuvib-tarash va ularni bog‘cha yoki maktabiga zarur bo‘lgan narsalarni ham yaxshiroq bilgani sababli, reklama qilinayotgan tovarlarning eng yaxshisini va arzonini xarid qilish tarafdori ham bo‘lib boradi. Bu holatni milliy reklama kompaniyalari inobatga olishlari kerak.

Shu kabi O‘zbekistonda muayyan ijtimoiy-psixologik muammo tadqiq etilganda, gender tafovutlarga e’tibor berish tobora an’anaga aylanib bormoqda. Masalan, yosh tadqiqotchi *O.Abdusattorova* (2007)ning dissertasion izlanishi bu borada alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda o‘s米尔 yoshli o‘g‘il va qiz bolalardagi gender tasavvurlarga bog‘liq jinsiy identifikasiyani aniqlash va bunda oila muhitining rolini asoslash uchun ijtimoiy psixologiyada qo‘llanilgan qator ishonchli metodikalardan foydalanilgan. Alohida ta’kidlash joizki, ota-onalar o‘rtasidagi o‘tkazilgan test va so‘rovlar ularning gender ustanovkalarini va liderlik maqomlarini aniqlashga imkon bergen bo‘lsa, farzandlari o‘rtasida olib borilgan empirik tadqiqot otalik va onalik gender maqomlarining qizlar va o‘g‘il bolalarda o‘ziga xos ustanovka shaklida identifikasyon jarayonlar yo‘nalishini belgilashini isbot qildi. Zamonaviy o‘zbek oilasidagi erkaklar va ayollarning o‘zar munosabatlarda ayollar mavqeining mustahkamlanib borayotganligi, ularning liderlik pozitsiyalarida hamda turmush o‘rtoqlarini hamkor va sherikchilik munosabatlari tizimida ko‘rishni afzal ko‘rishlarida namoyon bo‘ldi. Shu sababli ham bu holat ularning o‘z jinslarini va turmush o‘rtog‘idagi qarama-qarshi jinsga nisbatan ustanovkalarini belgilaydi. Tadqiqot zamonaviy erkaklar va xotin-

qizlarning ayollik va erkaklik obrazlarida femininlik hamda sof maskulinlik sifatlari ko‘proq androginlik sifatlariga o‘rin berayotganligini, qizlarda maskulinlik sifatlari ham tobora sezilarliroq namoyon bo‘layotganligini ko‘rsatdi.

Shunday qilib, yurtimizda gender tadqiqotlari uchun keng yo‘l ochilgan va ularda oila va oilaga nisbatan ijtimoiy ustuvor masala sifatida qaraladi.

Lekin O‘zbekistonda ijtimoiy psixologlar oldida juda muhim tadqiqot mavzulari mavjudki, ularda hozirgi mustaqillik sharoitida shaxs va turli ijtimoiy guruhlar psixologiyasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, turli yosh, demografik, etnik, professional guruhlarga mansub bo‘lgan kishilarning ijtimoiy tasavvurlari, ular asosida ijtimoiy xulq-atvorni ilmiy boshqarish asoslari ishlab chiqilmog‘i lozim. Ya’ni, ishlab chiqarish ijtimoiy psixologiyasi, boshqarish psixologiyasi, guruhlar psixologiyasi hamda omma viy psixik jarayonlarning ta’siri masalalari o‘zbek psixologlaridan o‘z yechimini kutmoqdaki, ularda ilg‘or fan yutuqlaridan foydalanilgan holda hududning milliy o‘ziga xos qirralari ishlab chiqilishi kerak.

### **Bob yuzasidan tayanch iboralar**

Ijtimoiy voqeа, ijtimoiy fakt, psixologiyalashuv, xalqlar psixologiyasi, omma psixologiyasi, omma holati, kognitivizm, psichoanaliz, bixevoirizm, geshteltpsixologiya, interaktsionizm.

### **Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Dastlabki ijtimoiy-psixologik tasavvurlar va ularning namoyon bo‘lishi qanday?
2. Fransuz sotsiologi G.Tard fikricha individdagи “ijtimoiy fakt” nimalarda namoyon bo‘ladi?
3. Sotsiologiyaning “psixologiyalashuvi” deganda nima tushuniladi?
4. G.Tard, L.Uord, F.Giddingslar fikricha ijtimoiy fakt nima?
5. Ijtimoiy-psixologik bilimlarning qanday nazariy manbalari bor?
6. Xalqlar psixologiyasi qayerda shakllangan va asoschilari kimlar?
7. Omma psixologiyasi qayerda shakllangan va asoschilari kimlar?

8. Sigelining “Ommanning jinoyatlari” va Lebonning “Omma psixologiyasi” kitoblarida asosiy g‘oya qanday?
9. Lebon shaxsning omma holatidagi belgilarini qanday ajratib ko‘rsatgan?
10. Ijtimoiy xulq-atvor instinktlari nazariyasi asoschisi kim va g‘oyasi qanday?
11. Ijtimoiy psixologiyaning eksperimental fan sifatida rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?
12. O‘zbekistonda ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning o‘rnini va istiqbollari haqida nimalarni bilasiz?

### Bibliografiya

1. Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник для высших учебных заведений / Г.М. Андреева. – М.: Аспект Пресс, 2017. – 363 с.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
3. David G. Myers. Social Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: McGraw-Hill, 2010. – 609 p.
4. Парыгин Б. Д. Социальная психология: истоки и преспективы. – СПб.: Издательство СПбГУП, 2010. – 532 с.
5. Немов Р. С., Алтунина И. Р. Социальная психология: Краткий курс. – Спб.: Питер, 2009 – 208 с.
6. Майерс Д. Социальная психология. Интенсивный курс / Д. Маэрс. – 4-е междунар. изд.. – СПб.: ПРАЙМ-ЕВРОЗНАК, 2007. – 510 с.
7. Шибутани Т. Социальная психология. Пер. с анг. В.Б. Ольшанского. – Ростов н/Д.: изда-во «Фенекс», 1999. – 544 с.

### III BOB IJTIMOIY PSIXOLOGIYANING METODLARI

#### *3.1. Asosiy metodlarning qisqacha tavsifi*

Har bir alohida fanda bo‘lgani singari ijtimoiy psixologiyaning o‘z metodlari va ularni qo‘llash vositalari mavjud.

To‘g‘ri, ularning aksariyati psixologiya va sotsiologiya fanlarida qo‘llaniladigan usullarga yaqin, lekin fanning predmetidagi o‘ziga xoslikni hisobga olgan holda ularni ishlatish yo‘llari va ma’lumotlarni ilmiy jihatdan tahlil qilishda farqlar mavjud.

“Ko‘pincha, biz ijtimoiy psixologiyada o‘tkazadigan usullarimiz bizning g‘oyalarimizni shakllantiradi va sinovdan kundalik hayotda qo‘llanilishi mumkin. Kundalik ijtimoiy fikrlash, ijtimoiy ta’sirlar va ijtimoiy munosabatlarni tahlil qilib, biz ancha samarali o‘ylashimiz mumkin”<sup>11</sup>.

Masalan, umumiyligi psixologiyada bo‘lgani kabi ijtimoiy psixologiyada ham *kuzatish metodi* qo‘llaniladi, lekin kuzatuv ob‘yekti konkret shaxsdagi psixik faoliyat emas, balki shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimida bevosita kuzatish mumkin bo‘lgan ijtimoiy xulqidir. Ya’ni, kuzatuvchi aniq oldindan belgilangan reja asosida o‘zi o‘rganayotgan guruhning faoliyatini, verbal va noverbal xatti-harakatlarni ma’lum vaqt birligida muttasil kuzatib, olingen ma’lumotlarni qayd etib boradi. Bunda zamonaviy audio va videotexnikadan foydalanish, u yoki bu harakatlarni qayta-qayta ko‘rish orqali kerakli xulosalarni chiqarishi mumkin. Ayniqsa, hozirda fan va texnologiyalar, mobil aloqa vositalari keng quloch yozgan sharoitda turli ijtimoiy vaziyatlarda odamlar xulq-atvorini kuzatish va qayd etish unchalik qiyin ish emas. Raqamli yozish vositalarining ko‘pligi esa kuzatish ob‘yektlarini kompyuter tarmog‘iga tushirish va xatti-harakatni bir necha tahlilchilar hukmiga havola etish imkoniyati ham mavjud. Ijtimoiy psixologiyada qo‘llaniladigan kuzatish metodining asosan uch shakli mavjud:

<sup>11</sup> David G. Myers. Social Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: McGraw-Hill, 2010. – 16 p.

a) "*qo'shilib kuzatish*" – bunda tadqiqotchi kuzatiluvchilar faoliyatiga bevosita aralashib, ular bilan kerak bo'lsa, yashaydi va ishlaydi. Bu usulda eng muhim xususiyat uning tabiiyligi bo'lib, kuzatish ob'yektlari o'zlarining kuzatilayotganliklarini sezmaydilar va kuzatuvchini guruhning a'zosi sifatida qabul qiladilar. Ushbu shartning buzilishi eksperimentning samarasiz bo'lishiga olib kelishi mumkin.

b) "*tashqi kuzatish*" – kuzatiluvchilar faoliyatiga aralashmagan holda ular tashqi xulq-atvorini qayd qilishdir. Bu usul muayyan vaqt va sabr-toqat talab qilishi bilan boshqa metodlardan farq qiladi, ba'zida qisqa muddat ichida tadqiqotchi o'zini qiziqtirayotgan predmet xususida hech narsa qayd qila olmasligi yoki tasodifan qo'lga kiritilgan ma'lumot asosida xulosa chiqarishga majbur bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham bu usul boshqa usullarga qo'shimcha vosita sifatida ishlatiladi. Masalan, kuzatuvchi rolida o'qituvchi bo'ladigan bo'lsa, u sinfdagi yetakchilar yoki guruh faoliyatiga qo'shila olmayotgan, doimo begonasiraydigan bolalarining xulq-atvorini tashqi kuzatish orqali muttasil o'rganib boradi.

v) "*muhim vaziyatlarni qayd etish*" usulida kuzatishning mohiyati shundaki, alohida shaxs yoki guruh kutilmagan, tasodifiy vaziyatga solinadi, va ularning vaziyatga munosabati, o'zini tutishi, ziddiyatli va qiyin holatlardan chiqish yo'llari kuzatiladi. Masalan, guruhni ataylab oldindan tuzilgan ssenariy yordamida munozarali vaziyatga solish va unda har bir guruh a'zosini o'zini qanday tutishi va bayon etgan fikrlarini zikr etish bunga yorqin misoldir.

Agar kuzatish metodi ijtimoiy psixologiyaga umumiy psixologiyadan o'tgan usul bo'lsa, *hujjatlarni tahlil qilish* usuli sotsiologiyadan kirib kelgandir. Bu usul ijtimoiy faoliyatning mahsulini o'rganishga qaratilgan bo'lib, to'plangan ma'lumotlarning ishonchligi, matematika va statistika usulublari yordamida qayta ishlash imkoniyatining mavjudligi sababli ma'lum afzallikkлага ega. Bu usulning yana bir nomi *kontent-analiz* bo'lib, tahlil qilinadigan hujjatlar toifasiga asosan og'zaki (so'zlangan nutq matnlari, suhbatlarning yozib olingan qismlari, bevosita muloqot jarayonida qayd etilgan manbalar) yoki yozma (rasmiy hujjatlar, gazeta-

jurnallardagi maqolalar, xatlar, ma'naviy-ma'rifiy adabiyotlar matnlari va shunga o'xshash) holda tavsiya etilgan ma'lumotlar kiradi.

Kontent-tahlilni qo'llashda tadqiqotchi oldida turgan asosiy muammo – bu tekshiruv birliklarining bo'lishi, kategoriyalarni aniqlashdir. Ko'plab tadqiqotchilar fikrlarini umumlashtirgan holda tahlil qilish uchun uning birliklari quyidagilar bo'lishi mumkin, deb hisoblaymiz:

a) alohida iboralar yoki so'zlarda bildirilgan tushunchalar (masalan, demokratiya, faollik, tashabbus, hamkorlik va hokazo);

b) yaxlit abzaslar, matnlar, maqolalar va shunga o'xshashlarda ko'tarilgan mavzular (masalan, millatlararo munosabatlar mavzusi, insonlardagi milliy qadriyatlar, yoshlar ma'naviyati mavzusi va hokazo);

v) tarixiy allomalar, siyosatshunoslar, taniqli shaxslarning nomlari (masalan, Fidokorlar milliy-demokratik partiyasi liderlarining vaqtli ommaviy axborot vositalarida chiqishlarini tahlil etish, konkret tarixiy shaxsning tarixdagi o'rmini aniqlash, masalan, Amir Temuring shaxs sifatidagi obrazini o'rganishda va hokazo);

g) ijtimoiy hodisa, rasmiy hujjat, biror aniq fakt, asar (masalan, oilaviy mojarolar, O'zbekiston Konstitutsiyasining muhokamasi, yangi yozilgan asarga o'quvchilarning munosabati va shunga o'xshash).

Yaxshi o'tkazilgan kontent tahlil – aslida ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda juda muhim ahamiyatga ega. Lekin olingen ma'lumotlarning ishonchliligi shu borada ilgari ishlagan shaxslar – ekspertlar bahosi, ayni shu faktning tekshirish uchun boshqa metodlarni ham qo'llash va ma'lumotlarni solishtirish hamda ayni ob'yektni ayni vaziyatda qayta tahlil qilish yo'llari bilan erishiladi. To'plangan miqdoriy ma'lumotlar matematik statistika metodlari yordamida qayta ishlovdan o'tkazilmog'i lozim. Kontent-tahlil tadqiqotidan kattagina uquvni talab qiladi, chunki bir tomonidan u yoki bu matnni tushunishning mahorati bo'lishi kerak, ikkinchidan, tadqiqot so'ngida qo'lga kiritilgan miqdoriy natijalarni yana qayta sifat shakliga keltirish va tushuntirib berish lozim.

**So'rov metodlari.** So'rov metodlari ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi, ayniqsa, anketa so'rovi va intervyu shular jumlasidandir. Bu metodlarni qo'llashda qator metodologik qiyinchiliklar vujudga keladi, *birinchidan*, doim shaxslararo munosabatlar, o'zaro ta'sir shakllari mavjud, *ikkinchidan*, tadqiqotchingin sub'yektiv munosabatlarini ham inkor qilib bo'lmaydi. Tadqiqot mobaynida shaxslararo idrok qilish va sub'yektiv bir-birini tushunishga qaratilgan barcha qonuniyatlar ishlaydi. Shunga qaramay, juda ko'p ijtimoiy-psixologik ma'lumotlarni to'plashda so'rov metodlari eng qulay usullar sifatida ishlatib kelinmoqda.

**Intervyu o'tkazish** uchun odam maxsus ravishda tayyorgarlik ko'rishi kerak, chunki u tadqiqotchidan qator muhim shaxs sifatlarining bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada "rolli o'yinlar" metodi yordamida psixolog yoki sotsiolog maxsus tayyorgarlik kursidan o'tadi, turli vaziyatlarda turli toifali insonlar bilan intervyu o'tkazish orqali, o'z malakasini oshiradi.

**Anketa metodi** hammaga tanish bo'lgan usullardan biri. Lekin ko'pincha anketani o'tkazgan odam uning tuzilishi qanchalik qiyinligini yoki olingan ma'lumotlarni qayta ishlash, ularni to'g'ri sharhlash naqadar mushkul ekanligini tasavvur qilmaydi. Anketaga kiritilgan savollar ma'lumotiga ko'ra *anketa ochiq va yopiq* turlarga bo'linadi. Ochiq anketa respondentdan o'z fikrini erkin bayon etishni talab qiladi, yopiq shakldagi anketa savollarining esa javoblari oldindan berilgan bo'lib, tekshiriluvchi o'ziga ma'qul bo'lgan, o'zining qarashlari, fikrlari bilan mos kelgan javobni belgilab beradi. Ochiq savollarning kamchiligi – respondentlarning har doim ham qo'yilgan vazifaga yetarli darajada mas'uliyat bilan qaramasliklari hamda berilgan javoblarni statistik jihatdan ishlov berishdagi qiyinchiliklar bo'lsa, yopiq anketada respondentga tekshiriluvchi (tomonidan o'z) fikriga ergashishga o'xshash holatning mavjudligi yoki har doim ham hamma savolning barcha javob variantlarini topib bilmaslikdadir. Shunday holatlarda respondent yo umuman javob bermasligi yoki "tavakkal" qilib bir variantni belgilab berishi mumkin. Shuning uchun ham keyingi paytlarda yarim yopiq

savollardan iborat anketalar tuzilmoqdaki, ularda javob variantlaridan tashqari qo'shimcha tarzda fikr bildirish uchun qo'shimcha qatorlar beriladi.

Anketaga kiritilgan savollar to'g'ridan-to'g'ri berilishi mumkin. Masalan, "...xususida Sizning fikringiz?", "...ekanligini bilasizmi?", "Sizga ma'qulmi?" va shunga o'xshash. Lekin savollar bilvosita berilsa ham u yaxshi qabul qilinadi. Masalan, "Ba'zi odamlar..., deb hisoblaydilar. Sizchi?" yoki oilaviy daromad tadqiqotchini qiziqtirganda to'g'ridan-to'g'ri "Daromadingiz qancha?" demasdan, balki uy-ro'zg'or buyumlari ro'yxati va boshqa pul bilan bog'liq narsalarning bor yoki yo'qligini so'rash yo'li bilan ham o'rganish mumkin. Ko'pgina tadqiqotlarda tekshiriluvchilarga "proyektiv" savollar ham beriladi. Bunda shaxsga bir qancha hayotiy vazifalar u yoki bu xulq-atvor shakllari taklif qilinib, ular ichidan o'ziga ma'qul, u ma'qullashi mumkin bo'lgan javobni tanlash topshiriladi.

*Ijtimoiy-psixologik testlar.* Testlar psixologiyaning maxsus usulidir. Ular qisqa sinov usuli bo'lib, u yoki bu ijtimoiy-psixologik hodisa qisqa muddat ichida bir texnik vosita sifatida uning yordamida tekshiriladi. Testlar asrimizning boshida kashf qilingan bo'lib, ular 20-30-yillarda hayotga, amaliyotga shunchalik shiddat bilan kirib keldiki, natijada maxsus soha – *psixometrika* yuzaga keldi. Testlarni qo'llashning qulaylik tomoni shundaki, bir test yordamida ma'lum ob'yeqtning u yoki bu xususiyatini bir necha marta, takror-takror sinab ko'rish mumkin. Lekin ularni universal deb bo'lmaydi, chunki u yoki bu test muayyan turdag'i ob'yeqtda sinalgan bo'lsa, uni shunga o'xshash ob'yeqtlardagina qo'llash mumkin, xolos, qolaversa, undan olingan ma'lumotlar nisbiy xususiyat kasb etadi.

*Ijtimoiy-psixologik eksperiment.* Ijtimoiy-psixologik eksperiment – bu ijtimoiy hodisalarни o'rganish maqsadida tekshiruvchi bilan tekshiriluvchi o'rtasidagi maqsadga yo'naltirilgan muloqotdir. Bunday muloqotning yuzaga kelishi uchun eksperimentator, ya'ni tekshiruvchi maxsus sharoit yaratadi va ana shu sharoitda aniq reja asosida faktlar to'playdi. Umumiyligi psixologiyada bo'lgani singari, ijtimoiy psixologiyada ham uning tabiiy va laboratoriya turlari farqlanadi.

Laboratoriya eksperimenti odatda maxsus sharoitlarda, alohida xonalarda, zarur asbob-uskunalar yordamida o'tkaziladi. Chet ellarda birinchi marta laboratoriya sharoitida ijtimoiy-psixologik hodisalarni, xususan, yakka tartibda va guruh sharoitida shaxsdagi bilish jarayonlari, tafakkur, sezgirlik va boshqa qator jarayonlarning namoyon bo'lishini *G.Ollport, V.Mede, D.Mayers, K.Levin* va boshqalar o'rgangan bo'lsa, Rossiyada birinchi laboratoriya sharoitida ijtimoiy-psixologik tadqiqotni rus olimi *V.M.Bexterev* o'tkazgan edi. U maxsus asboblar yordamida idrokning aniqligini, xotiraning sifatini, kuzatuvchanlik xususiyatlarini yakka holda va guruhiy sharoitida solishtirib o'rgandi hamda guruhning borligi har bir uning a'zosi psixikasiga bevosita ta'sir etishini isbot qildi.


Laboratoriya eksperimenti keyinchalik *B.G.Ananyev, Ye.S.Kuzmin, V.S.Merlin, V.N.Myasiuyev, L.I.Umanskiy* kabilar tomonidan yangi qirralari ishlab chiqildi va ijtimoiy psixologiyada apparatura uslubi keng qo'llanila boshlandi. Masalan, ingliz olimi *R.Eshbi* tomonidan kashf qilingan, keyinchalik *F.D.Gorbov* va boshqalar tomonidan takomillashtirilgan gomeostat metodi, *L.I.Umanskiy* tomonidan yaratilgan guruh uchun integratorlar paydo bo'ldi va amaliyotda bir guruh doirasida ro'y beradigan hodisalarni, xususan, guruhdagi birdamlik, o'zaro moslik, liderlik kabi hodisalarni tekshirishdan keng foydalanila borildi.

*Proyektiv metodlar.* Ular test usullarning bir ko'rinishi hisoblanib, ularda tekshiriluvchiga aniq tizimga yoki ko'rinishga ega bo'lmanan noaniq narsalar tavsiya etiladi va ularni sharhlash topshirig'i beriladi. Binobarin, tekshiriluvchiga turlicha talqin qilish mumkin bo'lgan rasmlar, tugallanmagan hikoyalar, biror aniq ko'rinishi mavjud emas buyumlar, yog'ochlar berilishi, yoki ularga qarab tekshiriluvchi o'zining hissiy kechinmalari, qiziqishlari, dunyoqarashi nuqtai nazaridan baholashi kutiladi.

Proyektiv usullar qatoriga mashhur *Rorshaxning "Siyoh dog'lari"* testini kiritish mumkin (1921). Bu – ikki tomonlama simmetrik shaklda berilgan 10 xil dog'lardan iborat bo'lib, har bir dog' har xil bo'yoqli fonda ko'rsatiladi. Tekshiriluvchidan har bir "dog'" nimaning shaklini eslatishi so'raladi. Uning

og‘zidan chiqqan so‘zlar, assosiasiyalarga qarab (ularni kontent-analiz qilib), shaxs xususiyatlari yuzasidan xulosa chiqariladi.

Yana bir proyektiv usul – bu S.Rozensveygning rasmli assosiasiyalaridir. Bunda turmushda tez-tez uchrab turadigan ziddiyatli vaziyatlarni aks ettirgan rasmlar tekshiriluvchiga tavsiya qilinadi. Bu rasmlarda bir tomonda turgan personajlar nimalarnidir gapiroyotgan holda gavdalantiriladi, unga qarama-qarshi tomondagi shaxs esa hali javob qaytarib ulgurmagan, tekshiriluvchidan tekshiruvchi tez, qisqa muddat ichida bo‘sh kataklarga qaytarilishi kutilayotgan javobni yozishni so‘raydi. Berilgan javoblarga qarab shaxsning yo‘nalishi, uning ziddiyatlarga munosabati, jaholat hissining xususiyatlari, bu hisning kimlarga qaratilganligi va shunga o‘xshash muhim faktlar to‘planadi.



3.1-rasm. Ijtimoiy psixologiyaning asosiy metodlari.

Shunday qilib, biz ijtimoiy psixologiyada an'anaviy qo'llanib kelinayotgan asosiy metodlarga to'xtalib o'tdik. Lekin hozirgi davrda hayot fandan tatbiqiy xususiyatga ega bo'lishini talab qilayotganligi tufayli bu qatorga bir turkum metodlarni kiritish lozimki, ular ijtimoiy psixologiyadagi *faol tayyorgarlik metodlari* deb ataladi. Ularga ijtimoiy-psixologik treningning barcha shakllari kiritiladi. Ular o'z mohiyatiga ko'ra, shaxs va guruhning ma'lum sifatlarini shakllantiruvchi eksperimentni eslatadi. Lekin ularning faol metodlar toifasiga kiritilishiga asosiy sabab – bu usullar yordamida qisqa fursatda bevosita muloqot sharoitida kutilayotgan samaraga erishilishidir. Ya'ni, tahlil qilib chiqilgan metodlardan farqli o'laroq, faol ijtimoiy-psixologik metodlar shaxsda yoki guruhda shakllangan xususiyatlarni qayd qilish emas, balki tarkib toptirish lozim xislatlarni amaliyotchi psixolog yoki ijtimoiy xodimning faol aralashuvi orqali hosil qilishga qaratilgandir.

### **Bob yuzasidan tayanch iboralar**

Kuzatish, qo'shilib kuzatish, tashqi kuzatish, muhim vaziyatlarni qayd etish, kontent-analiz, so'rov metodi, test, ijtimoiy-psixologik test, psixometrika, eksperiment, proyektiv metod.

### **Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Ijtimoiy psixologiyada kuzatish metodi qanday qo'llaniladi?
2. Kuzatish metodining asosan qanday ko'rinishlari farqlanadi?
3. "Qo'shilib kuzatish" usuli qanday amalga oshiriladi?
4. "Tashqi kuzatish" usuli qanday amalga oshiriladi?
5. "Muhim vaziyatlarni qayd etish" usuli qanday amalga oshiriladi?
6. Kontent-tahlil usuli qanday amalga oshiriladi?
7. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda so'rov metodlarining qanday turlaridan foydalilanildi?
8. Testlarning qanday turlari ijtimoiy psixologiyada fanida qo'llaniladi?

### Bibliografiya

1. Крысько, В.Г. Социальная психология: Учебно-методическое пособие / В.Г. Крысько. – М.: Кнорус, 2020. – 304 с.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
3. David G. Myers. Social Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: McGraw-Hill, 2010. – 609 p.
4. Немов Р. С., Алтунина И. Р. Социальная психология: Краткий курс. – Спб.: Питер, 2009 – 208 с.
5. Майерс Д. Социальная психология. Интенсивный курс / Д. Маерс. – 4-е междунар. изд.. – СПб.: ПРАЙМ-ЕВРОЗНАК, 2007. – 510 с.

## IV BOB

### IJTIMOIY PSIXOLOGIYA O'RGANADIGAN ASOSIY MASALALAR

#### *4.1. Muloqot va shaxslararo munosabatlari psixologiyasi*


Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni – jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir.

*Muloqot* – odamlarning birligidagi faoliyatlar ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faoliyatlari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda ado etadigan ishlari (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishini, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvni kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, orttirgan obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Bir qarashda osonga o'xshagan shaxslararo muloqat jarayoni aslida juda murakkab bo'lib, unga odam hayoti mobaynida o'rganib boradi. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida *B.D. Parigin* shunday yozadi: "Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida bir nechta voqelikni o'z ichiga oladi (4.1-rasmga qarang).

Muloqotning turli shakllari yoki bosqichlari mavjud bo'lib, dastlabki bosqich – odamning o'z-o'zi bilan muloqotidir. *T.Shibutani* "Ijtimoiy psixologiya" darsligida: "Agar odam ozgina bo'lsa ham o'zini anglasa, demak, u o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi" - deb to'g'ri yozgan edi. Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining xarakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o'z-o'zi bilan hadeb muloqot qilishni odat qilib olib, doimo

jamiyatdan o'zini chetga tortib, tortinib yursa, demak, u boshqalar bilan suhbatlashishda, til topishishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, deyish mumkin. Demak, o'zgalar bilan muloqot – muloqotning ikkinchi bosqichi va ko'rinishidir<sup>12</sup>.




4.1-rasm. B.D. Parigin bo'yicha  
muloqot jarayonidagi voqeliklar ketma-ketligi.

A.N. Leontyev o'zining "Psixika taraqqiyotidan ocherklar" kitobida muloqotning uchinchi shakli – avlodlar o'tsasidagi muloqotning ahamiyati to'g'risida shunday deb yozadi: "Agar barcha katta avlod o'lib ketganda, insoniyat turi yo'q bo'lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yo'qolib ham ketishi mumkin edi". Haqiqatan ham, avlodlararo muloqotning borligi tufayli har bir jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mayjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'limgartarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar.

<sup>12</sup> Шибутани Т. Социальная психология. Пер. с анг. В.Б. Ольшанского. – Ростов н/Д: изда-во «Феникс», 1999. – 544 с.

Muloqot murakkab jarayon bo'lganligi uchun ham ayrim olingan muloqot shaklini tahlil qilganimizda, unda juda xilma-xil ko'rinishlar, jabhalar va qismlar borligini aniqlashimiz mumkin. G.M. Andreyeva<sup>13</sup> muloqotning uch tuzilishini taklif etadi, bu tizimning har bir tomonini keyingi bo'limlarda batafsil tahlil etiladi.



4.2-rasm. G.M. Andreyeva taklif etgan muloqotning uch tuzilmasi.


Ko'pgina olimlar muloqotning inson hayotidagi ahamiyatiga to'xtalib o'tar ekanlar, uning qator vazifalari – funksiyalarini ajratadilar. Masalan, taniqli rus olimi B.F. Lomov uning funksiyalariga quyidagilarni kiritadi:

- ma'lumotlar almashinushi funksiyasi;
- xulq-atvorni boshqarish funksiyasi;
- hissiyotlar almashinushi.

Bu funksiyalar aslida G.M. Andreyeva ajratgan muloqot jabhalari – qismlariga ham mos keladi, ya'ni har bir muloqot jarayonida Lomov qayd etgan vazifalarni topish mumkin.

<sup>13</sup> Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник для высших учебных заведений / Г.М. Андреева. – М.: Аспект Пресс, 2017. – 363 с.

Muloqotning hayotimizdagi shakl va ko'rinishlariga kelsak, uning har bir shaxsning hayotiy vaziyatlarga mos keladigan, o'sha vaziyatlardan kelib chiqadigan ko'rinishlari va turlari haqida gapirish mumkin. Lekin umumiy holda, har qanday muloqot yo *rasmiy* yoki *norasmiy* tusda bo'ladi.



4.3-rasm. Muloqot va insonlarning munosabatlari asosida  
namoyon bo'ladigan mexanizmlar.

Agar rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalaridan kelib chiqsa, masalan, rahbarning o'z qo'l ostida ishlayotgan xodimlar bilan muloqoti, professorning talaba bilan muloqoti, o'qituvchining o'quvchisi bilan muomalasi va hokazo, norasmiy muloqat – bu odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o'sha suhbatdoshlarning fikr-o'yllari, niyat-maqsadlari va emosional munosabatlari bilan belgilanadi. Masalan, do'stlar suhbati, poyezdda uzoq safarga chiqqan yo'lovchilar suhbati, tanaffus vaqtida talabalarning sport, moda, shaxsiy munosabatlar borasidagi munozaralari norasmiy muomala ko'rinishlaridir. Odamlarning asl tabiatlariga mos bo'lgani uchun ham norasmiy muloqot doimo ularning hayotida

ko‘proq vaqtini oladi va bunda ular charchamaydilar. Lekin shuni ta’kidlash kerakki, odamda ana shunday muloqotga ham qobiliyatlar kerak, ya’ni, uning qanchalik sergapligi, ochiq ko‘ngilliligi, suhbatlashish yo’llarini bilish, til topishish qobiliyati, o‘zgalarni tushunishi va boshqa shaxsiy sifatlari kundalik muloqotning samarasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun hamma odam ham rahbar bo‘lолmaydi, ayniqsa, pedagogik ishga hamma ham qo‘l uravermaydi, chunki buning uchun undan ham rasmiy, ham norasmiy muloqot texnikasidan xabardorlik talab qilinadi.

Muloqot mavzui va yo‘nalishiga ko‘ra:

a) *ijtimoiy yo‘naltirilgan* (keng jamoatchilikka qaratilgan va jamiyat manfaatlardidan kelib chiqadigan muloqot, masalan, teleboshlovchining tomoshabishlarga murojaati);

b) *guruhdagi faoliyatning predmetiga yo‘naltirilgan* (o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish mobaynidagi muloqot – mehnat, ta’lim jarayonidagi yoki konkret topshiriqni bajarish jarayonida guruh a‘zolarining muloqoti);

v) *shaxsiy muloqot* (bir shaxsning boshqa shaxs bilan o‘z muammolarini ochish maqsadida o‘rnatgan munosabatlari);

g) *pedagogik muloqot* (pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o‘rtasida amalga oshiriladigan murakkab o‘zaro ta’sir jarayoni) turlari farqlanadi.

Har bir muloqot turining o‘z qonun-qoidalari, ta’sir usullari va yo‘l-yo‘riqlari borki, ularni bilish har bir kishining, ayniqsa, odamlar bilan doimo muloqotda bo‘ladiganlar, jamoat ishlarini boshqaruvchilarning burchidir.

Muloqat jarayonining murakkab psixologik tabiatini bilish, turli sharoitlarda samarali munosabatlar o‘rnatish malakasini oshirish uchun uning tarkibiga kiruvchi har bir element yoki bo‘laklar bilan alohida tanishib chiqamiz.

#### 4.1.1. *Muloqotning*

*kommunikativ tomoni*

Muloqotning

*kommunikativ*

*tomoni deyilganda, uning shaxslararo*

*axborotlar, bilimlar, g‘oyalar, fikrlar almashinuvi jarayoni sifatidagi vazifalari nazarda tutiladi.* Bu jarayonning asosiy vositasi bo‘lib *til* xizmat qiladi. Til

shaxslar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib, uning yordamida kishilar bilgan ma'lumotlari, axborotlar, g'oyalari va hokazolarni bir-birlariga yetkazadilar. Ma'lumki, aloqa vositasi sifatida nutqning asosan ikki turi farqlanadi: *yozma nutq* hamda *og'zaki nutq*.

Og'zaki nutqning o'zi dialogik va monologik turlarga bo'linadi. Dialogik nutqning mazmuni, uning xarakteri, davomiyligi muloqotga kirishgan shaxslarning shaxsiy qarashlariga, qiziqishlariga, bir-birlariga bo'lgan munosabatlari, maqsadlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi bilan o'quvchining, siyosiy rahbarlarning, diplomatlarning, ko'chada uchrashib qolgan dugonalarning dialogik suhbatlari bir-biridan farq qiladi.

Monologik nutq esa bir kishining boshqa kishiga yoki kishilar guruhiiga nisbatan murojaati bo'lib, uning psixologik tuzilishi, fikrlarning mantiqan tugal bo'lishi, gapirayotgan paytda grammatik qonun-qoidalarga rioya qilish kerakligi kabi shartlari mayjud. Masalan, ma'ruzaga tayyorlanayotgan talaba tayyorgarlik paytidan boshlab, ma'ruza qilib bo'lgunga qadar, qator ichki ruhiy kechinmalarini boshdan kechiradi, unga ko'p kuch va vaqt sarflaydi. Dialogik nutqqa nisbatan bu nutq turi murakkabroq hisoblanadi.

Odamlar muloqot jarayonida so'zlardan tashqari turli xil harakatlardan, qiliqlardan, holatlardan, kulgu, ohanglar va boshqalardan ham foydalanadilar. Qiliqlar, mimika, ohanglar, to'xtashlar (pauza), hissiy holatlar, kulgu, yig'i, ko'z qarashlar, yuz ifodalari va boshqalar o'zaro muloqotning nutqsiz vositalari bo'lib, ular muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, uni to'ldiradi, ba'zan esa nutqli muloqotning o'mini bosadi.

Buyuk rus yozuvchisi L.Tolstoy odamlarda 97 xil kulgu turi hamda 85 xil ko'z qarashlari turi borligini kuzatgan. G.M. Andreyeva<sup>14</sup>ning yozishicha, odam yuz ifodalari, nigohlarining 2000 ga yaqin ko'rinishlari bor. Ayniqsa, birinchi bor uchrashganda ko'zlar to'qnashuvi, nigohlarning roli keyingi muloqotning taqdiringa kuchli ta'sir ko'rsatishi maxsus tadqiqotlar jarayonida o'rganilgan. Bularning barchasi muloqotning hissiy tomondan boy, mazmundor bo'lishini ta'minlab,

<sup>14</sup> Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник для высших учебных заведений / Г.М. Андреева. – М.: Аспект Пресс, 2017. – 363 с.

odamlarning bir-birlarini tushunishlariga yordam beradi. Muloqotning noverbal vositalarining milliy hamda hududiy xususiyatlari borligini ham alohida ta'kidlab o'tmoq lozim. Masalan, o'zbek xalqining muloqot jarayoni boy, o'zaro munosabatlarining bevosita xarakteri unda shunday vositalarning ko'proq ishlatalishi bilan bog'liq. Bolalarning o'z yig'isi bilan onasiga o'z his-kechinmalari hamda xohishlarini bildirishlari ham bolalarning yosh xususiyatlara bog'liq. Boshqa millatlar madaniyatiga nazar tashlanadigan bo'lsa, ularda ham ba'zi bir muloqot vositalarining turli millatlarda turli maqsadlarda ishlatalishining guvohi bo'lish mumkin. Bolgarlar agar biron narsa bo'yicha fikrni tasdiqlamoqchi bo'lishsa, boshlarini u yoq-bu yoqqa chayqashar, inkor qilishmoqchi bo'lsa-chi, aksincha, bosh siltashar ekan. Ma'lumki, o'zbeklar, ruslar va bir qator boshqa millatlarda buning aksi, "yo'q" deyish yoki norozilikni bildirish uchun bosh saraksarak qilinadi.

Noverbal muloqotda suhbatdoshlarning fazoviy joylashuvlari ham katta ahamiyatga ega. Masalan, ayollar ko'proq hissiyotlarga boy bo'lganliklari sababli, suhbatlashayotganlarida bir-birlariga yaqin turib gaplashadilar, erkaklar o'rtasida esa doimo fazoviy masofa bo'ladi. Olimlarning aniqlashlaricha, bolalarni odatdagiday orqama-ketin o'tqazib o'qitgandan ko'ra, ularni yuzma-yuz o'tqazib davra qilib o'qitgan ma'qul emish, chunki bunday sharoitda o'quvchilarda ham javobgarlik hissi yuqoriyoq bo'lar ekan hamda emotsiyalar almashinishgani uchun ham guruhdagi psixologik vaziyat ijobiyligi bo'lib, bolalarning predmetga va bir-birlariga munosabatlari ancha yaxshi bo'lar ekan.

Demak, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muloqotning barcha vositalariga, ayniqsa, nutqqa e'tibor berish kerak. Bolalarni ilk yoshlik chog'laridanoq nutq madaniyatiga o'rgatish, nutqini o'stirish choralarini ko'rish kerak. Pedagog esa shunday nutq madaniyatiga ega bo'lishi kerakki, u avvalo uning faoliyatini to'g'ri tashkil etishni ta'minlasin, qolaversa, bolalarda nutqning o'sishiga imkoniyat bersin. Buyuk pedagoglarimizdan V.A.Suxomlinskiy ham o'qituvchining madaniyatni to'g'risida gapirib, bu madaniyatning tarkibiy va asosiy qismi nutq madaniyati ekanligini bejiz ta'kidlamagan.

**4.1.2. Muloqot –  
interaktiv hamkorlik sifatida**

Muloqotning bu xususiyati kishilarning muloqat jarayonida birgalikdagi faoliyatda bir-birlariga amaliy jihatdan bevosita ta'sir etishlarini ta'minlaydi. Shu tufayli odamlar hamkorlikda ishlash, bir-birlariga yordam berish, bir-birlaridan o'tganish, harakatlar muvofiqligiga erishish kabi qator qobiliyatlarimi namoyon qilishlari mumkin. Shu tufayli o'qituvchi bola shaxsiga maqsadga yo'nalgan holda ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aslini olganda, har qanday muloqot, agar u bema'ni, maqsadsiz, quruq gaplardan iborat bo'lmasa, doimo muloqotga kirishuvchilarning xulq-atvorini, ularning ustakovkalarini o'zgartirish imkoniyatiga ega.

Jamiyat miqyosida oladigan bo'lsak, odamlarning turli sharoitlarda o'zlarini tutishlari, xulq-atvorlarining boshqarilishi ma'lum psixologik qonuniyatlarga bog'liqligini ko'rish mumkin. Bunga sabab jamiyatda qabul qilingan turli normalar, qonun-qoidalardir. Chunki, o'zaro muloqot va o'zaro ta'sir jarayonlarida shunday xatti-harakatlar obrazlari kishilar ongiga singib boradiki, ularni har bir kishi norma sifatida qabul qiladi. Masalan, o'smir bola, umuman yoshlar jamoat joylarida kattalarga o'rin bo'shatib berishlari kerakligi ham xulq-atvorning bir normasi. Otaning gapini bola tomonidan bo'linmasligi, kattalar so'zları va pand-nasihatlariga e'tiborli bo'lish ham bizning xalqimiz uchun norma hisoblanadi. Shu normaga amal qilish yoki qilmaslik ijtimoiy nazorat tizimi orqali boshqariladi. Ya'ni, yuqorida sharoitda agar o'smir bola avtobusda qariyaga joy bo'shatmasa, yoki otaga gap qaytrailsa, jamoatchilik, oilaning boshqa a'zolari o'sha zahoti uni ijtimoiy tartibga chaqiradi.

Demak, har bir shaxs turli sharoitlarda turlirollarni bajaradi, bu rollarning qanday bajarilayotganligi, odamlarning kutishlariga mos kelishligi ijtimoiy nazorat tizimi orqali kuzatib turiladi. Shuning uchun ham muloqotga kirishgan kishilar doimo o'z xulq-atvorlarini, qolaversa, o'zgalarning xulq-atvorini nazorat qilib, harakatlarda bir-birlariga moslashadilar. Lekin ba'zan shunday bo'lishi ham mumkinki, rollarning ko'pligi rollararo ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, mакtab o'qituvchisining o'zi o'qitayotgan sinfda farzandi bo'lsa, dars

paytida shunday ziddiyatni boshdan kechirishi mumkin, ya'ni bir vaqtning o'zida ham ota, ham o'qituvchi rolini bajarishga majbur bo'ladi. Yoki xulqi yomon o'quvchining uyiga kelgan o'qituvchi bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi, ham mehmon rollari o'rtasida qiynaladi.

Turli rollarni bajarayotgan shaxslarning o'zaro muloqotlari ijtimoiy kutuvlar (ekspektasiya) tizimi orqali boshqariladi. Masalan, xohlaydimi yoki xohlamaydimi, o'qituvchidan ma'lum harakatlarni kutishadiki, ular o'qituvchi roliga zid bo'lmasligi kerak. O'z rollariga mos harakat qilgan, doimo me'yor mezonida ish tutgan kishining harakatlari odobli, normal harakatlar deb ataladi. Masalan, o'qituvchining odobi, o'z kasbini ustasi ekanligi, bolalar qalbini tushuna olishi, ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ish tutishi uning odobga ega ekanligining belgisidir. Odobsiz odam esa buning aksidir.

Demak, o'zaro muloqot jarayonida bir odam ikkinchi odamga psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ikkala tomondan ham anglanishi yoki anglanmasligi mumkin. Ya'ni, ba'zan biz nima uchun bir shaxsning bizga naqadar kuchli ta'sirga ega ekanligini, boshqa biri esa, aksincha, hech qanday ta'sir kuchiga ega emasligini tushunib yetmaymiz. Bu esa pedagogikada muhim muammodir. Har bir pedagogning o'z ta'sir uslublari va ta'sir kuchi bo'ladi. O'qituvchi shaxsining bolalarga ta'siri quyidagi eksperimentda juda yaqqol kuzatilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga anchagina o'yinchoqlar berib, shularning ichida faqat bittasiga, qizil yog'och o'yinchoqqa tegmaslik aytilgan. Bolalar yolg'iz qoldirilib, harakatlari pinhona kuzatilgan. Juda ko'p bolalar taqiqlangan o'yinchoqqa baribir tegishgan. Eksperimentning ikkinchi seriyasida endi barcha o'yinchoqqa tegish mumkin, faqat qizil qutichaning qopqog'ini ochish mumkin emas, deb aytilgan. Shu quticha tepasiga esa shu bolalarning o'qituvchisi surati ilib qo'yilgan. Bu seriyada birinchisiga qaraganda "ta'qiqni buzuvchilar" soni keskin kamaygan. Demak, bu narsa o'qituvchi shaxsining bola harakatlariga ta'sirini yaqqol isbotlab turibdi.

Shaxslararo ta'sir haqida gap ketganda, o'qituvchi obro'yining roli haqida ham aytish lozim. Chunki, obro'li odam doimo o'sha obro' qozongan guruhida o'z mavqeiga va ta'siriga ega bo'ladi. Shaxs obro'yi uning boshqa shaxslarga irodaviy

va emotsiyal ta'sir ko'rsata olish qobiliyatidir. Ma'lumki, obro' amal hayotiy tajriba bilangina orttirilmay, uning haqiqiy asosi – shaxsning odamlar bilan to'g'ri munosabati, undagi odamiylik xislatlarining, boshqa ijobjiy xislatlarining uyg'unlashuvidadir. Psixologik obro' – ta'sir ko'rsatishning eng muhim mezonidir.

#### 4.1.3. Muloqotda shaxslararo bir-birini idrok qilish

Muloqot jarayonida odamlar bir-birlari bilan ma'lumotlar almashib, o'zaro ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki bir-birlarini to'g'riroq va aniqroq anglashga, tushunishga va idrok qilishga harakat qiladilar. Bu tomon shaxsiy idrok va tushunish muammosi bilan bog'liqidir. Birgalikdagi faoliyat jarayonida shaxslarning bir-birlarini to'g'ri tushunishlari va aniq idrok qilishlari muloqotning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Rus psixologi *A.A.Bodalev* boshchiligidagi laboratoriya bir-birlarini idrok qilish mexanizmlarini aniqlash borasida qator psixologik qonuniyatlarini kuzatgan. Bunday mexanizmlarga *identifikasiya, refleksiya va stereotipizasiyalar* kiradi. *Identifikasiya* shunday psixologik hodisaki, bunda suhbatdoshlar bir-birlarini to'g'riroq idrok qilish uchun o'zlarini bir-birlarining o'rniqa qo'yib qo'yishga harakat qiladilar. Ya'ni, o'zidagi bilimlar, tasavvurlar, xislatlar orqali boshqa birovni tushunishga harakat qilish, o'zini birov bilan solishtirish (ongli yoki ongsiz) identifikasiyadir. Masalan, birinchi marta uchrashuvga ketayotgan yigitning ichki holatini uning o'rtog'i yoki akasi tushunishi mumkin.

*Refleksiya* muloqot jarayonida suhbatdoshning pozitsiyasidan turib, o'zini tasavvur qilishdir, ya'ni refleksiya, boshqa odamning idrokiga taalluqli bo'lib, o'ziga birovning ko'zi bilan qarashga intilishdir. Chunki, busiz odam muloqot jarayonida o'zini aniq bilmasligi, noto'g'ri muloqot formalarini tanlashi mumkin.

*Stereotipizasiya* odamlar ongida muloqotlar mobaynida shakllanib o'rnashib qolgan, ko'nikib qoltingan obraslardan shablon sifatida foydalanish hollaridir. Ijtimoiy stereotipler – har bir shaxsda u yoki bu guruhli kishilar haqida shakllangan obraslardir. *A.A. Bodalev* va uning shogirdlari bunday stereotipler ba'zan muloqotni to'g'ri yo'nalganligini ta'minlasa, boshqa hollarda esa undagi xatoliklarning sababi bo'lishi mumkinligini kuzatishgan. Idrok va tushunish

borasidagi bunday xatoliklar *kauzal atribusiya* (lotinchasiga “*kauza*” – sabab, “*atreibung*” – bermoq, qo’shib, bo’rttirib bermoq ma’nosini bildiradi) deb ataladi. Masalan, o‘qituvchi bilan hamsuhbat bo‘lib qolgan odamda suhbat boshidayoq “hozir odob-axloqdan dars berishni boshlamasmikan” degan shubha paydo bo‘lishi mumkin. Bu ham stereotip. Bundan tashqari, odamlar birinchi marta ko‘rgan odam to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish maqsadida uning tashqi qiyofasi bilan xarakteri o‘rtasida bog‘liqliklar o‘rnatishga harakat qilarkan. Shunday bog‘liqliklarni aniqlash maqsadida A.A.Bodalev talabalar guruhiga turlicha qiyofali shaxslarning fotosuratlarini ko‘rsatgan. 72 kishidan 9 tasi iyagi katta kishilar kuchli iroda egalari ekanligini, 17 tasi peshonasi keng odamlar aqlli ekanliklarini, 3 kishi sochi qattiq odamlarning qaysarroq, qat’iy ekanliklarini, 5 kishi kichik bo‘yli odamlar hokimiyatga intilgan, boshqalar ustidan buyruq berishga moyil, chiroyli odamlar yo o‘ta o‘ziga bino qo‘ygan yoki nodon bo‘lishligini aytishgan va hokazo.

Tabiiyki, bunday fikrlar mutloq to‘g‘ri emas, lekin kishilar ongida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan tasavvurlar shunday obrazlarni shakllantirgan. Notanish odam haqida tushunchaning shakllanishida u haqida berilgan birlamchi ma’lumot katta rol o‘ynaydi. Masalan, o‘sha Bodalev talabalarning ikki guruhiba bir xil portret ko‘rsatib, birinchi guruhda bu odam yirik olim, ikkinchisida esa, bu – davlat jinoyatchisi deb, unga ikkala holda ham ijtimoiy-psixologik xarakteristika berishlarini so‘ragan. Ko‘rsatmalar har xil bo‘lganligi sababli berilgan ta’riflar ham har xil bo‘lgan. Birinchi guruhdagi talabalar bu odam mehnatkash, mehribon, shafqatli, g‘amxo‘r, aqlli bo‘lsa kerak, deyishgan bo‘lsa, ikkinchi guruhdagilar uni – beshafqat, makkor, aggressiv, qat’iyatli deb ta’riflashgan. Birinchi guruhdagilar portretdagi ko‘zlarni dono, muloyim deyishgan bo‘lsa, boshqalar ularni yovuz, beshafqat deb aytishgan.

Shunday qilib, ijtimoiy persepsiya yoki odamlarning bir-birlarini to‘g‘ri idrok qilish va tushunish jarayoni muloqotning muhim muammolaridan biridir. Bu jarayon psixologik jihatdan murakkab bo‘lib, unda muloqotga kirishayotgan tomonlarning har biri alohida ana shu idrokning ham ob’yekti, ham sub’yekti bo‘lib faoliyat ko‘rsatadilar. Idrokning ob’yekti sifatida shaxs qaralganda, unda

hosil bo‘ladigan “boshqa odam obrazi”ning barcha sifatlari va qirralari nazarda tutiladi. Bunday obraz paydo bo‘lishiga xizmat qiladigan belgilarga: o‘sha odamning tashqi qiyofasi, uning kiyinishi, o‘zini tutishi, hissiy holati, ovozi, nutqi, qiliqlari, yurishi va hokazolar kiradi. Lekin shularning ichida odamning yuzi muloqot mobaynida suhbatdoshga eng ko‘p ma’lumot beradigan ob’yektdir. Shuning uchun ham telefonda suhbatlashgandan ko‘ra yuzma-yuz suhbatlashish ancha oson va axborotlarga boydir.

Odamlarning bir-birlarini to‘g‘ri idrok qilishlari ularning perceptiv, ya’ni hissiy bilish (idrok, sezish) sohasiga aloqador bo‘lsa, bir-birlarini tushunishi ularning tafakkur sohalariga bevosita taalluqli bo‘lib, murakkab jarayondir. Boshqa odamni to‘g‘ri tushungan shaxs uning hissiy holatiga kira olgan hisoblanadi, boshqacha qilib aytganda, unda empatiya – birovlarning his kechinmalarini tushuna olish qobiliyati rivojlangan bo‘ladi. Yuksak ongli, madaniyatli, “ko‘pni ko‘rgan” shaxsgina boshqalarni to‘g‘ri tushunishi, ularning mavqeida tura olishi mumkin.

Aniq va to‘g‘ri tushunishga taalluqli qonuniyatlarga quyidagilar kiradi:

*1. Boshqa odam haqidagi ma’lumotning miqdoriy tononi.* Birinchi bor to‘qnashgan odamlarda bir-birlari haqida faqat birlamchi tasavvurgina hosil bo‘lishi mumkin. Amerikalik tadqiqotchilar talabalarga boshqa talabalarga baho berish topshirig‘ini berishgan. Baholar birinchi to‘qnashuv natijasiga ko‘ra, bir haftadan keyingi qayta to‘qnashuv natijasida va ikki haftadan keyin tekshirilgan. Ma’lum bo‘lishicha, eng aniq tasavvur ikki haftalik tanishuvdan keyingina paydo bo‘lar ekan.

*2. Ma’lumotlarni olish tartibi.* Boshqa odam haqida berilgan ma’lumotga asosan unda o‘sha odam haqida muayyan fikr hosil qilish oson, lekin uni qayta qurish, o‘zgartirish ancha mushkul.

*3. Normal intellektning bo‘lishi.* Intellekt juda yuqori bo‘lganda ham, juda past bo‘lganda ham boshqa odamni to‘g‘ri tushunish qiyin.

*4. Maxsus tayyorgarlikning bo‘lishi.* Mutaxassislar 5-kursda o‘qiyotgan psixolog talabalar bilan portret chizadigan rassomlarning boshqalarga bergen

baholarini solishtirishlari natijasida rassomlarning baholari ancha aniqroq bo'lib chiqqanining guvohi bo'lishgan.

*5. Hissiy holatning ta'siri.* Nurrey degan olimning tadtiqotlarida turli emotsiyal holatni boshidan kechirayotgan shaxslarga boshqa odamni baholash topshirig'i berilgan. Bir seriyada tekshiriluvchilarga elektr toki bilan ta'sir etib turib, boshqa odamning rasmini baholashni tavsiya etishganda, baholanayotgan shaxsda johillikka yaqin sifatlar ham borligi aytildi. Yaxshi emotsiyal holat boshdan kechirilayotgan seriyada esa o'sha odamda asosan yaxshi sifatlar qayd etilgan.

*6. Shaxsning ochiqligi.* Kundalik muloqotda ochiq, samimiy odam bilan tund, pismiq odam baholari o'rtasida sifat farqlari aniqlangan. Bundan tashqari, odamning muloqot tajribasining boyligi ham uning boshqalar haqidagi tasavvurlarining aniq bo'lishini ta'minlaydi.

Demak, yuqoridagi barcha qonuniyatlarni hisobga olgan holda, shaxs tarbiyasi bilan shug'ullanish uni kelgusidagi murakkab va xilma-xil muloqot jarayonlariga psixologik tayyorlaydi. Bunday tayyorgarlik, ayniqsa, bo'lg'usi psixologlar uchun muhimki, ular o'z kasblari tufayli turli muloqot vaziyatlariga duch keladilar va har bir vaziyatda ulardan nihoyatda o'tkir didlilik, odob va kishilar psixologiyasini bilgan holda ularni to'g'ri tushunish malakasi talab qilinadi. Bir so'z bilan aytganda, bu muloqotdagi bilimdonlikdir. Ijtimoiy psixologiyaning bu borada noyob usuli bor, u ham bo'lsa, ijtimoiy-psixologik treningdir.

Trening usulining ijtimoiy-psixologik mohiyati shuki, bu usul orqali odamlarda muloqot malakalari hosil qilinib, ular turli ijtimoiy sharoitlarda o'zini to'g'ri tutishga odatlantiriladi. Boshqacha qilib aytganda, trening muloqotga o'rgatishdir. To'g'ri, odam kishilar jamiyatida yashar ekan, kundalik muloqot jarayonida turli muloqot shakllariga o'rganib, o'zida ma'lum muloqot malakalarini shakllantirib boradi. Lekin insonda bunday malakalar stixiyali tarzda yoki maqsadga qaratilgan holda ham hosil qilinishi mumkin. Oxirgi holat hozirgi zamon kishisining turli ishlab chiqarish va muomala sharoitlarida to'g'ri moslashishiga

yordam beradi. Bu narsa insonda, Yu.N.Yemelyanov ta'biri bilan aytganda, ijtimoiy aql-zakovatning shakllanishiga olib keladi. Ijtimoiy aql-zakovatga ega bo'lgan shaxs o'zini ham, o'zgalarni ham, ularning o'zaro munosabatlarini ham to'g'ri anglaydi hamda turli muloqot shakllarini bashorat qila oladi. Ana shunday aqning bo'lishi uchun psixologlar maxsus tayyorgarlik guruhlari yoki trening guruhlari tashkil etishni allaqachon taklif qilib chiqishgan. Shunday maqsadlarda G'arbda mashhur bo'lgan "T-guruh"lar tashkil etilib, unga ixtiyoriy muloqot jarayonida ma'lum qiyinchiliklarni his qilayotgan shaxslar taklif etiladi. Ijtimoiy-psixologik treningning asosiy metodlariga guruhiy munozaralar, rolli o'yinlar va psixologik sezgirlikni oshiruvchi treninglar kiradi. "T-guruh" a'zolari odatda 7 kishidan 15 kishigacha bo'lib, mashg'ulotlar bir necha kundan bir necha oylargacha davom etadi. T-guruuning ahamiyati shundan iboratki, u birinchidan, odamlar o'rtasida iliq o'zaro munosabatlarning shakllanishiga olib kelib, shaxsda birovni tushunishga intilish, uning manfaati yo'lida o'z qarashlarini ham qayta analiz qilish ehtiyojini paydo qiladi. Ikkinchidan, "T-guruh" a'zolari o'rtasida shunday umumiy "psixologik til" paydo bo'ladiki, ular tez orada o'zgalarni va o'z hiskechinmalarini anglabgina qolmay, balki bir-birlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Ularda muloqot mobaynida o'zini "o'zgalar" o'rniga qo'yish, ularning ichki olamini to'g'ri tushunish qobiliyati va istagi tarbiyalanadi. Uchinchidan, "T-guruh"dagi mashg'ulotlar muloqot jarayonining turli murakkab qirralardan tashqari, uning mazmuniy tomonlari bo'yicha ham ishtirokchilarni chiniqtiradiki, ular muomaladagi har bir ibora va imo-ishoraning tub ma'nosini tushunishga erishadilar. Masalan, "xayr, yaxshi qoling" iborasini uning qanday ohangda, qay holatda aytishiga qarab, suhbatdoshning "yashirin" niyatlarini o'qib olish va shunga ko'ra harakat qilishga o'rgatadi.

Ijtimoiy-psixologik treningning metodik talablariga quyidagilar kiradi:

1. O'quv jarayonida guruhda tashkil etilgan muloqot orqali guruhiy jarayon yoki holatlardan individual holatlarga, ya'ni har bir ishtirokchining o'z shaxsiy "Meni" ni tushunishga olib kelish lozim. Chunki munozara yoki o'yinlar jarayonida ishtirokchilar vaziyatni yoki rolni faol o'zlashtirib, har bir holatdan o'zi

uchun xulosa chiqarishga olib kelish zarur, yoki bo‘lmasa, interpsixik jarayondan intrapsixikka aylanishi kerak.

2. “T-guruh”larda muloqotning nutq shakllaridan tashqari, uning nutqsiz-no verbal shakllari ham keng qo‘llanilishi, ya’ni har bir o‘rganuvchi o‘z xulq-atvorini verbal nazorat qilishdan tashqari, o‘z tanasi, har bir harakat, ritmnинг mohiyatini ham tushungan holda uni hayotda, amalda ishlatishiga erishish zarur.

3. “T-guruh”ning har bir ishtirokchisi albatta o‘z-o‘zini kuzatish kundaligini yuritmog‘i, unga har galgi mashg‘ulotdan so‘ng o‘z his-kechinmalari, muammolarni yechishdagi shaxsiy ishtiroki, tasavvurlari va boshqalarni odilona yozib borishi ham muhimdir.

4. “T-guruh”ga a’zo bo‘lish ixtiyoriy bo‘lganligi uchun ham uning har bir a’zosi mashg‘ulotlarni sira ham qoldirmaslikka harakat qilishi zarur, chunki bu narsa o‘quv guruhining muhitiga, a’zolarning o‘zaro munosabatlariga bevosita ta’sir qiladi.

5. Mashg‘ulotlar maxsus xonalarda, shovqin-surondan xoli yerda tashkil etilishi, u yer did bilan bezalgan, shinam bo‘lmog‘i lozim.

6. “T-guruh” a’zolari mashg‘ulotlarga o‘zлари uchun qulay kiyimlarda kelishlari lozimki, bu narsa boshqalarda ham, o‘zida ham ortiqcha hissiyotlarni tug‘dirmasligi kerak.

7. Instruktur yoki shu mashg‘ulotlarni o‘tkazuvchi trenerga alohida e’tibor berish zarur. U o‘zi maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan, xushmuomala, did bilan kiyiningan, har bir mashg‘ulotga ataylab tayyorgarlik ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lgan shaxs bo‘lishi lozim. U o‘z kayfiyati, munozara yoki o‘yinga shaxsiy munosabati bilan mashg‘ulotning tabiiy kechishiga xalaqit bermasligi, sabr-toqatli, madaniyatli bo‘lishi zarur.

Mashg‘ulotlarni tashkil etish shakliga kelsak, u maqsad va mazmunga mos holda “yumaloq stol” atrofida, to‘rtburchak stol atrofilda, gilam ustida, ba’zan tik holda amalga oshirilishi mumkin.

Afsuski, “T-guruh”lar ayrim hollarda yirik shaharlardagi yirik sanoat korxonalari rahbarlarini muloqotga tayyorlash, mas’ul shaxslarni qayta tayyorlash

kurslarida, psixologlar davrasidagina o'tkazilmoqda. Vaholanki, muloqotdagि bilimdonlikka erishish, "ijtimoiy aql"ga ega bo'lish barcha mutaxassislarga zarur. Amaliy psixolog xoh mакtabda bo'lsin, xoh sanoat korxonasi yoki boshqa idora va o'quv yurtida bo'lmasin, mahalliy sharoitni chuqur o'rgangan holda, u yerda rahbariyat bilan kelishilgan holda "T-guruh"lari tashkil etmog'i va shu yo'sinda ham o'zining, ham atrofdagilarning bilimdonligini oshirib bormog'i zarur.

#### **4.2. Muloqot va shaxslararo ziddiyatlar**

Ijtimoiy hayotda, shaxslararo munosabatlarda ayrim alohida nizolar,

o'zaro kelishmovchiliklarni bo'lib turishi muqarrar. Shuning uchun ba'zan olimlar ziddiyat yoki nizolarning nafaqat salbiy, balki ijobjiy tomonlari ham bo'lishi mumkinligini ochiq e'tirof etadilar. Masalan, G.Andreyeva ayrim ziddiyatlarning konstruktiv oqibatlari to'g'risida yozadi. Uning fikricha, ba'zan ikki shaxs o'rtasida kelib chiqqan nizo ularning istiqbolda to'g'ri xulosa chiqarib, shunady harakatni boshqa qaytarmaslikka, omilkorlikka, hushyorlikka undaydi. Yoki bir qarashda tanbehga assolangan shaxslararo ziddiyat shaxsni o'z ustida muttasil ishlashga, o'z xulqini o'zi tuzatishiga sabab bo'ladi. Bunday nizolar oqibatiga ko'ra *konstruktiv* deb ataladi. *Destruktiv* nizoning oqibati esa ko'pincha salbiy bo'lib, u shaxslararo antagonizmni keltirib chiqaradi, tomonlarning asablari charchaydi, ular xastalanib qolishi ham mumkin. Yoki er va xotin o'rtasida, yohud qaynona va kelin o'rtasidagi nizo oila ajrimiga sabab bo'lishi va bir butun oila buzilib ketishi mumkin.

Ho'sh, ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida nizo yoki ziddiyatga qanday ta'rif berish mumkin?

*Konflikt, nizo yoki ziddiyat* – bu ayrim alohida olingan shaxs ongida, yoki shaxslararo muloqot jarayonida, guruh doirasida yoki guruhlararo o'zaro muloqot va ta'sir paytlarida biror muammo, masala yoki qarashlar borasida bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, qarama-qarshi fikr, qarash va pozitsiyalarning to'qnashushi oqibati paydo bo'lgan salbiy hissiyotlarga to'la munosabatlar maromini bildiruvchi ijtimoiy-psixologik hodisadir.

Konfliktni keltirib chiqaruvchi omillar, sabablar nihoyatda ko‘p, lekin ularni 5 asosiy guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. *Informatsion-axborot omillari*: muloqot jarayonida sheriklarga noto‘g‘ri tarzda yetib keladigan noto‘liq, noaniq faktlar, mish-mishlar; shubhalar, to‘la aniqlik kiritilmagan ataylab yoki bilmay turib deyarli xufyona tarzda yetkazilayotgan ma’lumotlar; axborot manbaiga nisbatan ishonchning yo‘qligi; ayrim hodisa, voqealarga aloqador bo‘lgan tortishuv va kelishmoqchiliklarga sabab bo‘lgan qoidalar, aqidalar, chaqiriqlar, qonun normalari va boshqalar ham shaxslararo yoki guruhlararo ziddiyatlarning omili bo‘lishi mumkin.

2. *Jamiyat miqyosidagi ayrim tizimlarning faoliyatiga bog‘liq omillar*: mulkchilikka oid muammolar, ijtimoiy maqom talashish, xokimiyat yo‘nalishidagi amal va hisobotlarga oid janjallar, turli ijtimoiy normalar, an‘analar, standartlar, xavfsizlik masalalaridagi qarama-qarshiliklar, rag‘batlantirish va jazolash, uy-joy, mulk tortishuvlari, resurslar, tovar, xizmat va foydalar taqsimoti jarayonlarida kuzatiladigan nizolar;

3. *Qadriyatlarga aloqador omillar* (o‘zimiz e’tirof etgan yoki rad etgan tamoyillar): jamoaviy, gruppaviy yoki shaxsiy e’tiqod, ishongan va ishongan qadriyatlarimiz va ularning xulqda namoyon bo‘lishi, mafkuraviy, madaniy, diniy, axloqqa oid, siyosiy, professional qadriyatlar va ehtiyojlar borasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolar;

4. *Munosabatlardan omili*: bunday omillar bevosita o‘zaro aloqalar va muloqotdan insonning qoniqishi yoki noma’qul, deb e’tirof etishidan kelib chiqadi. Shaxslararo o‘zaro munosabatlarda ko‘proq bir shaxsning kutishlariga boshqa bir insonning yoki odamlarning muomalasi mos kelmasligi holatlarida shaxsiy nizolar kelib chiqadiki, ularning bartaraf bo‘lishi turli vaziyatlarda turlicha tus olishi, cho‘zilib ketganda, battar “gazak” otishi, qisqa fursatda hal etilsa, muammo hal bo‘lishi ham mumkin. Shaxsiy muloqotdagi nizolar shaxsning hayotiy tajribasi, ma’lumotliligi darajasi, professional mahoratiga bog‘liq ravishda turli ko‘rinishlarda o‘z yechimini topishi mumkin;

*5. Xulq-atvor bilan bog'liq omillar:* manfaatlar, qiziqishlar, o'ziga bo'lgan bahoga zid keladigan yoki xavf-xatar tug'diruvchi vaziyat paydo bo'lishi bilan go'yoki, himoya vositasi sifatida paydo bo'lувчи omillar turkumi bo'lib, bu ikkinchi tomonning xudbinligi,adolatsizligi, mas'uliyatsizligi yoki loqaydlik, beparvolik oqibatida kelib chiqadi. Nizokashlar bunday sharoitda o'zlariga nisbatan bo'layotgan salbiy munosabatni xatti-harakatda ko'rib, sezib turganlari bois xafagarchilik kelib chiqadi va bu konflikt bilan tugaydi.

Konflikt yoki nizolar o'zaro munosabatlardagi odamlarning sub'yektiv xatolari sababli ham kelib chiqishi mumkinki, shu nuqtai nazardan ham konfliktlarning turlari farqlanadi:

*Shaxsning o'ziga aloqador bo'lgan ichki nizolar* – odatda bevosita ijtimoiy psixologiya tomonidan o'rganilmaydi, bu kabi nizolar umumiy, pedagogik hamda patopsixologiyaning predmeti bo'lib, u asosan bir inson qalbidagi turli hiskechinmalar, istak-hoxishlar va motivlarning bir-biriga zid kelishi, qarama-qarshi fikrlarning paydo bo'lishi oqibatida yuzaga keladi. Bunday nizo shaxsgagina ma'lum bo'ldai, ba'zan esa odam qilib qo'ygan ishining aynan o'zining ichki nizolari oqibati ekanligini anglamaganda unga pisxoanalitik yoki patopsixolog yordamga keladi.

*Shaxs va guruh o'rtasida sodir bo'ladigan nizolar* odatda bir shaxs qarashlari, xatti-harakatining u mansub bo'lgan yoki ishi tushgan guruhning normalari, xulq-atvor maromlariga zid kelishi, shaxs kutishlarining guruh normalaridan og'ishi oqibatida kelib chiqadi. Agar bu mehnat jamoasida ro'y bersa, bu guruh a'zolarining malakasizligi yoki rahbarning odamlarni boshqarishdagi uquvsizligi natijasida kelib chiqishi mumkin. Demak, bunday jamoada psixologik, ma'naviy muhit nosog'lom bo'ldaiki, shaxs bilan boshqa shasxlar o'rtasida kelishmovchilikka olib keladi.

*Guruhlararo ziddiyat yoki nizo* – ikki yoki undan ortiq guruhlarning bir-birlari bilan murosaga kelisholmay qolgan taqdirda ro'y beradi va bunda ularning o'z maqsadlari erishishlariga bir-birlarining halaqt berishlari asosiy omillardan hiosblanadi. Ko'pincha muayyan formal, rasmiy guruh a'zolari guruhbozlikka

berilib, har bir kichik guruh manfaatlari bir-biriga mos kelmay qolganda ham nizo kelib chiqadi. "Guruhbozlik" deb atalmish bunday holat ham ijtimoiy-psixologik nuqtai nazaridan zarali bo'lib, bu yaxlit jamoadagi ma'naviy muhitga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan bir jamoa rahbariyati va rasmiy tizimi bilan guruh ichidagi norasmiy tuzilma o'rtasida ham nizo kelib chiqadi. Lekin bu haolatlarni sog'lom raqobatga asoslangan manfaatlar kelishmovchiligi, masalan, siyosiy partiyalar o'rtasidagi raqobatdan farqlash lozim.

*Shaxslararo nizo* – bir yoki bir necha konkret shaxslarning o'zaro yoki guruh doirasidagi ziddiyatidir. Bu keng tarqalgan nizolardan biri bo'lib, bunday nizolar rasmiy jamoalarda ham norasmiy muloqotlar oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin. Bunday nizolar odamlarning fe'l-atvoriga ham, konkeret vazyaitlarga ham bog'liq tarzda kelib chiqishi va vaziyatning xarakteriga bog'liq holda turlicha kechishi mumkin. Keng tarqalgan shaxslararo nizolar biri – bu er va xotin, ota-onा va farzandlar, qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar hisoblanadi. Ularning tabiatи ham, davom etish muddati ham, hal bo'lish yo'llari ham turlicha bo'lib, har qanday ko'rinishda ham baribir bunday nizo ikki va undan ortiq shaxslar o'rtasidagi psixologik masofani tobora uzoqlashtiradi, samimiyatning kamayishiga olib keladi.

Shaxslararo nizolarning kelib chiqishi quyidagi holatlarga bog'liq bo'ladi:

- mehnat jarayonlari va ishlab chiqarish vaziyatlariga;
- jamoa a'zolarining shaxsiy xususiyatlariga;
- turli vaziyatlarga shaxsning sub'yektiv munosabatiga;
- shaxslararo munosabatlarning turli vaziyatlardagi turlicha namoyon bo'lishiga.

Shaxslararo nizo ochiq yoki yashirin tarzda namoyon bo'lishi mumkin.

*Ochiqdan ochiq yuz beradigan nizolar* odatda tortishib qolgan shaxslarning to'g'ridan-to'g'ri, bevosita xatti-harakatlari tarzida namoyon bo'ladi. Bunday nizoni kuzatish, qayd etish va unga kerak bo'lsa, aralashish ham mumkin bo'ladi. Yashirin nizo esa ochiq namoyon bo'lmaydi, balki u turli xufyona usullar bilan amalga oshiriladi. Tashqaridan qaragan odam bunday nizoning mayjudligini sezmaydi.

Ba'zan nizolar ob'yektiv sabablar, shart-sharoitlar bois vujudga keladi. Masalan, agar bu ishlab chiqarishda bo'lsa – ish sharoitlarining yomonligi, xizmat vazifalarining noo'rin taqsimlanganligi, kadrlar salohiyatiga bee'tiborlilik, mehnatni rag'batlantirishdagiadolatsizlik kabilar odamlar o'rtasida muayyan tangliklarni keltirib chiqaradiki, bu shaxslararo o'zaro munosabatlarda o'z aksini topib, ularning o'zaro va xodimlarning rahbarlar bilan urushib qolishiga, yashirin yoki ochiq konfrontasiyaga olib keladi. Bu kabi nizolarni bartaraf etish uchun uni keltirib chiqqan ob'yektiv shart-sharoitlarni o'zgartirish yoki kamchiliklarni yo'qotish orqaligina amalaga oshiriladi. Chunki jamoadagi bunday nizolar o'ziga xos signal funksiyasini bajaradiki, u orqali rahbarlar mehnat jamoasida nom'a'qul psixologik muhit paydo bo'layotganligidan xabardor bo'ladilar.

Sub'yektiv sabablar yoki omillar tufayli kelib chiqadigan nizolarga aksariyat holatlarda odamlarning o'zлари, ularning shaxsiy xususiyatlari, ulardagи ehtiyoj, istak va maslaklarning nomutanosibligi asos bo'ladi. Bunda qaror qabul qiluvchining qarori boshqalarga nom'a'qul bo'lishi, ular mehnatiadolatsiz baholanishi, ayrim shaxslarning esa ochiq tabiatan janjalkash ekanligi sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, nizolar quyidagicha toifalanadi:

- *gorizontal* – bir-biriga bo'ysunmaydigan, tobe bo'limgan oddiy xodimlar o'rtasida;
- *vertikal* – o'zaro bir-biridan amal pog'onasi bo'yicha farq qiluvchilar, masalan, rahbar bilan xodim o'rtasida;
- *aralash* - shaxslararo munosabatlarda u va bu holat uyg'un kelganda. Odatda ishlab chiqarish faoliyatida eng ko'p tarqalgan nizo turi vertikal va aralash bo'lib, ular jami nizolarning 70-80 foizini tashkil etadi.

#### 4.2.1. Nizolarni

##### *bartaraf etish usullari*

Nizolarning oldini olish yoki u paydo bo'lgan bo'lsa, bartaraf etish uchun uning kelib chiqish sababini, asosiy aybdorlarni yoki ob'yektiv sabablarni aniqlash lozim. Mutaxassislar nizolarni bartaraf etishning ko'plab usullari va yo'llari borasida tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Masalan, X.Kornelius va Sh.Feyerlar

uni hal qilish uchun **nizo xaritasini** tuzishni taklif etadi. Unga ko'ra, nizoli vaziyatni aniqlash uchun quyidagilar inobatga olinishi lozim:

- 1) nizoni keltirib chiqqan muammoning umumiy qirralarini ochish, masalan, agar ishlab chiqarishdagi nizo ish xajmining to'la bajarilmaganligi sababli kelib chiqqan bo'lsa, avvalo ish taqsimoti diagrammasini tuzish kerak;
- 2) nizoning asl sababini aniqlash, zero, aynan shu ish odatda eng mushkul ish hisoblanadi;
- 3) nizoning haqiqiy ishtirokchilarini aniqlash – alohida shaxsmi, guruhmi yoki uyushmami;
- 4) nizoga sabab bo'lgan shaxsiy xohish, istaklar, nizokashlarning aynan nimani istayotganligini aniqlash;
- 5) nizoga qadar nizokashlarning o'zaro munosabatlari qanday bo'lganligini bilish;
- 6) bevosita nizoda ishtirok etmagan, lekin uning ijobiy hal etilishidan manfaatdor bo'lgan shaxslarning nizoga munosabati.

Bu kabi strategiya avvalo nizoning chuqurlashib ketmasligi, unga yana ko'plab shaxslarning aralashib ketmasligini ta'minlaydi.

Tabiiy, mutaxassislar va olimlarni shaxslararo munosabatlar jarayonida turli vaziyatlarda paydo bo'ladigan nizolarni baratarf etish masalasi qiziqtiradi. Rus olim G.N.Smirnov turli nizolarni bartaraf etishga imkon beruvchi ikki guruh usullarni taklif etadi – tizimiy hamda shaxslararo.

Nizolarni hal qilishga bog'liq bo'lgan tizimiy usullarga u quyidagilarni kiritadi:

1. *ishga nisbatan qo'llaniladigan talablarni tushuntirish*, masalan, ishchi yoki xodim o'z xizmat vazifasini to'laqonli ado etolmaganligi sababli u bilan rahbar o'rtaida nizo kelib chiqqan bo'lsa, nizoni bartaraf etishga ahd qilgan kimsa shu xizmat lavozimiga qo'yiladigan talablar, xodimning mehnat huquqlari bilan bir qatorda uning burch va mas'uliyatini ham yana bir marotaba uqtirib qo'yadi;

2. *muvofiglashtiruvchi va birlashtirish usullari*. Odatda bir xodimning ish samarasi boshqa bir xodimga yoki xodimlarga, qolaversa, boshqa tuzilmalarning

**SOTSIAL PSIXOLOGIYA**

aniq va yaxshi ishlashiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bir xodim yoki xodimlar guruhida nizoli vaziyatning paydo bo'lishiga boshqa bir tuzilma ishidagi nomuvofiqliklar sabab bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda rahbar nizoni barataraf etish uchun o'sha boshqa aybdor tuzilmaning faoliyatini aniq yo'lga qo'yishi, yoki xodimlar o'rtaida murosa bo'lishi uchun boshqa bir qo'shimcha muvofiqlashtiruvchi bir bo'g'inni ishlab chiqarishda joriy etishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish nizosining sababi – xom-ashyoning vaqtida yetkazib berilmayotganligi bo'lsa, rahbar ta'minotchilar ishini muvofiqlashtiradi, ular faoliyati bilan ishlab chiqaruvchilar o'rtaida birlik va hamjihatlik bo'lishiga erishish yo'lida aniq yo'naliishlarni belgilaydi;

*3. barcha ishlab chiqarish sub'yektlari faolyaitini yagona maqsad atrofida birlashtrish ham ishlab chiqarish jarayonlarida nizolarning sodir etilmasligini kafolatlaydi.* Bunday sharoitda rahbarlar va guruh liderlarining roli katta bo'ladi;

*4. rag'batlantirish tizimini joriy etish samarali ish usullaridan hisoblanadi.* Bunday sharoitda odamlarning xulq-atvoriga ta'sir etish, paydo bo'lishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarga barham berish yoki sodir bo'lgan bo'lsa, uni barataraf etish uchun tashakkur bildirish, mukofotlash, xizmat lavozimni ko'tarish kabilarni qo'llash ijobiy samara berishi mumkin.

Nizolarni bartaraf etishning **shaxslaro munosabatlarga aloqador usullariga** quyidagilar kiradi:

*1. bosh tortish* – nizoga nisbatan shunday reaksiyaki, bunda nizoga guvoh bo'lganlar aslida uning mavjudligini tan olmaydilar, unga aralashishdan bosh tortadilar. Odatda bunday sharoitda rahbar yo ayni paytda vaqt yo'qligini, imkoniyat yo'qligini, nizoning sababi arzimas holat ekanligini vaj qilib, uni hal qilishga aralashishdan bosh tortadi. Yoki u vaziyat taqozosi bilan paydo bo'lgan nizo vaqt o'tishi bilan o'z-o'zidan yechimini topadi, odamlar insofga kelib qoishiga umid qiladi;

*2. tekislash* – bu nizolashuvchi tomonlardan birini mayjud holatga "ko'ndirish", moslashtirish va shu yo'l bilan o'zining ham muayyan manfaatlarini himoya qilishdir. "Mayli men yutqazsam ham, sening ishing bitib keta qolsin"

degan naqlida nizoga aralashgan shaxs vaziyatni yumshatishga erishadi, go'yoki "o'zni qurban qilib" bo'lsa ham tomonlarning yarashib ketishi uchun barcha imkoniyatni yaratadi;

3. *kompromiss* – bu ochiq muloqot va vaziyatni, nizokashlarning xulq-atvori va fikrlarini muhokama qilish yo'li bilan ikkala tomon uchun ham ma'qul bo'lган yechimni qidirishdir. Bu usulning samaradorligi shundaki, nizoga aralashgan shaxs ikkala tomonning ham aybini, ular tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni ochiq, xolis o'rtaga tashlaydi va eng ma'quli – har bir shaxs o'z burch va mas'uliyatlarini taroziga solib olishlari ekanligini uqtiradi. Natijada ikkala tomonda hosil bo'lган tanglik ma'lum ma'noda yumshaydi va oqilona qarorlar qabul qilish imkoniyati tug'iladi. Nizokashlar janjal bo'lгandan ko'ra yomon bo'lsa ham bir qarorga kelinganligidan xursand bo'lib, o'z fikrlaridan ma'lum ma'noda qaytadilar, vaqt o'tgach esa vaziyat umuman yumshab, tomonlar yarashib ketishi mumkin. Odatda oilaviy nizolarda kompromiss yo'lini tutgan oilaning katta a'zosi yoki erkak kishi nizoning oldini olishga erishadi, bunda biror tomonning "bir gapdan qolishi" katta rol o'ynaydi;

4. *raqobat* – odatda bir tomonning ikkinchisi ustidan ustun kelishi hisobiga boshqasining batamomo yengilishini nazarda tutadi. Ya'ni, bunda "Men yutishim uchun sen mutloq yengilishing shart" degan tamoyil ustuvor bo'ladi. Bunday usul albatta, psixologik nuqtai nazardan samarasiz va noto'g'ri bo'lsa ham, ayrim holatlarda masalaning aynan shu tarzda yechilishi boshqalarning iqtidori yoki irodasining kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Masadan, oilaviy majoroda kelin agar nohaq bo'lib, yoshligi tufayli arazlab, barchanering dilini xira qilishi va ushbu vaziyatda baribir qaynonaning sabr bilan ustun kelishi, baribir aytganini qildirishi yosh kelinchakning kelgusini shu kabi xatti-harakatni boshqa qaytarmasligi uchun saboq bo'lishi mumkin;

5. *hamkorlik* – bu nizoni hal qilishning shunday usuliki, bunda ikkala tomonning shaxsiy manfaatlari nizoni keltirib chiqaran muammodan ustun qo'yiladi. Bunday holatlarda nizokashlar bir tomon manfaatining inobatga olinmasligi, ikkinchi tomonning boshqa manqaatini yerga urishini tushungani

uchun ham murosa yo'li to'g'ri ekanligi, yaxshisi mavjud muammoni yechishga teng kirishish lozimligi fikriga kelib to'xtaydilar.

Shunday qilib, real hayotda nizoning kelib chiqishi, uning qanday kechishi va yechimi uni keltirib chiqargan vaziyatdan ham ko'ra, ushbu vaziyatda ishtirok etayotgan insonlarning unga nisbatan sub'yektiv munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham har qanday nizoli, ziddiyatli holatlarda unga aloqador bo'lib qolgan insonlar quyidagi qoidalarni yodda tutishlari lozim:

1. Nizoli vaziyatda aql emas, balki hissiyotlar ustun bo'lishini unutmang, hissiyotlar esa odamning jahli chiqib, aqli ketib qolishiga turtki bo'ladi va u o'z xatti-harakatlari va gapiroyotgan so'zlarini nazorat qilish qobiliyatidan mahrum bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan shu qilgan ishingiz uchun o'zingiz qattiq aziyat chekib, xijolat bo'lib qolishingiz mumkin. Shu bois ham ishdami, oiladami yoki jamoatchilik joylaridami odamlar bilan muloqot qilganda, ularning insoniy nafsoniyatiga tegadigan, sha'ni va oriyatiga tegib ketadigan mulohazalardan o'zingizni saqlang, o'zingizni o'zgalardan ustun qo'yishdan ehtiyyot bo'ling, kamtarlik shioringiz bo'lsin.

2. O'zgalar bilan muomalada ularning hurmatini joyiga qo'yib, so'zlashishning yumshoq maromini tanlang. Masalan, "Kechirasiz..", "Sizdan minnatdor bo'lardim, agar...", "Sizga malol kelmaydim?" kabi iboralarni ishlatalish odatda Sizga nima sababdandir yomon munosabatda bo'layotgan insonni ham yumshatadi, undagi salbiy hislarning junbushga kelishiga yo'l qo'ymaydi.

3. Ish faoliyat bilan bog'liq munozaralarda agar suhbat taranglashib borayotgan bo'lsa, ikkala tomonning manfaati to'g'risida emas, asl masalaning, muammoning mohiyati xususida kechishiga e'tibor berib, xolis faktlarga ko'proq urg'u bering. Imkon boricha suhbatdoshni tinglashga intiling, zero, tinglay olish mahorati sizning yaxshi suhbatdosh ekanligingizning muhim ko'rsatgichidir. Bu o'rinda *Deyl Karnegi* kabi muloqot ustalarining tajribasini eslang.

4. Har qanday masala xususida uning yechimi yagona bo'lmasligini unutmang, chunki barcha holatlarda qiyin vaziyatdan chiqishning bir qator usullari, yo'llari bo'lishi tabiiy. Shuning uchun Sizning fikringizga zidroq kelayotgan fikrni

suhbatdoshdan eshitganingizda, “Balki men xato qilayotgandirman” deb uning fikrlash tarzidagi to‘g‘ri mulohazalarni tahlil qiling, uning fikridagi ijobiy va salbiy jihatlarni ajrating, ularning real oqibatlariga baho berib ko‘ring. Bunday holatlarda hech bo‘limganda “Men Sizning fikringizga to‘liq qo‘shilmasamda, bergen taklifingizni albatta o‘ylab ko‘raman, menga bir oz imkon bering” desangiz olam guliston!

5. Nizoli vaziyatning hal bo‘lishining o‘zingiz uchun mansaftli tomonlarini anglang va o‘zingizga shunday savol bering: “Agar yechim topilmasa, nima bo‘ladi?”. Bunday munosabat nizoni shaxslararo munosabatlardan muammoning yechimiga ko‘chirilishiga turki bo‘ladi.

6. Agar suhbatdosh ikkalangiz ham achchiqlanib turgan bo‘lsangiz va ish urushib qolishgacha borib yetayotganligini anglasangiz, o‘zingizdag‘i ichki tanglikni, “zarda”ni chiqarib yuborishga harakat qiling. Chunki agar achchig‘ingizni tashqariga chiqarsangiz, bu u tomonning ham qaynab ketishiga sabab bo‘lib, vaziyatni nazorat qilib bo‘lmay qoladi. Eng yaxshisi, o‘zingizni tiyib, gapirishdan to‘xtang, mayli suhbatdoshingiz ichidagini to‘kib solaversin, undagi jaxl va salbiy hissiyotlarni betiga aytishdan o‘zingizni tiying, kelgusida uning shunday vajohatga tushishi mumkinligini unutmang.

7. Siz bilan urushib qolgan odamning ham qandaydir fazilatlari, yaxshi sifatlari borligini unutmang va diqqatingizni ana shu jihatlarga qarating. Masalan, er va xotin urushib qolgan paytda ayol qanchalik baland ovozda o‘z dardini to‘kib solayotganligiga qaramay, uning farzandlarning onasi, mehribon ekanligini, ularga shunady qiliqlar qilmasligini er yoddan chiqarmasa bas.

8. Suhbatdoshingizga sizning o‘rmingizga turib, masalani hal qilish yo‘lini o‘ylashga chorlang, masalan, unga taxminan shunday murojaat qiling: “Meni o‘rnimda bo‘lganingizda nima qilgan bo‘lar edingiz?” Bunday murojaat suhbatdoshni hissiyotlardan real vaziyatni xolis baholash maqomiga o‘tishiga asos bo‘ladi va unda tanqidiy ruhni bir oz bo‘lsa-da, yumshatadi.

9. Suhbatdosh oldidagi afzalliklaringiz, xizmatlarinigizni minnat qilib, xaspo'shlamang. Sodir bo'lgan nizoli vaziyat va voqeanning sababchisi faqat suhbatdoshingiz ekanligi fikridan qayting.

10. Paydo bo'lgan ziddiyat qanday hal bo'lishidan qat'iy nazar, shu inson bilan batamom munosabatlarni uzil-kesil uzib tashlamang. Masalan, agar bu er va xotin o'rtasidagi ixtilof bo'lib, u ajrim bilan tugagan taqdirda ham o'rtada farzand borligini, baribir hayot so'qmoqlarida bir kun bo'lmasa bir kun uchrashib, qandaydir yangi bir muammoni birligalikda hal qilishga to'g'ri kelishini sira unutmang.

Shu kabi vaziyatlar turli faoliyat jahbalarida uchrashi mumkin, yuqorida qoidalarni unutmaslik insonning o'ziga, salomatligiga, odamlar orasidagi obro'siga bevosita aloqador ekanligini, yashash ba'zan ziddiyat va nizolar bilan yanada yaxshi bo'lishini hech kim unutmasligi kerak.

### **Bob yuzasidan tayanch iboralar**

Muloqot, kommunikativ, interaktiv, perceptiv, yozma nutq, og'zaki nutq, monologik nutq, noverbal muloqot, identifikasiya, refleksiya, stereotipizasiya, kauzal atribusiya, konstruktiv, destruktiv, konflikt, nizo, ziddiyat.

### **Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Muloqot deganda nimani tushunasiz?
2. Muloqotning perceptiv tomoni deganda nima tushuniladi?
3. Muloqotning kommunikativ tomoniga nimalar kiradi?
4. "Muloqot – interaktiv hamkorlik" deganda nima tushuniladi?
5. Identifikasiya tushunchasiga ta'rif bering.
6. Refleksiya tushunchasiga ta'rif bering.
7. Stereotipizasiya tushunchasiga ta'rif bering.
8. Kauzal atributsiya deganda nima tushuniladi?
9. Destruktiv nizo nima?
10. Konstruktiv nizo nima?

11. Nizolar oqibatiga ko‘ra necha xil bo‘ladi?
12. Ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida nizo yoki ziddiyatga qanday ta’rif berish mumkin?


### Bibliografiya

1. Крысько, В.Г. Социальная психология: Учебно-методическое пособие / В.Г. Крысько. – М.: Кнорус, 2020. – 304 с.
2. Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник для высших учебных заведений / Г.М. Андреева. – М.: Аспект Пресс, 2017. – 363 с.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
4. David G. Myers. Social Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: McGraw-Hill, 2010. – 609 p.
5. Немов Р. С., Алтунина И. Р. Социальная психология: Краткий курс. – Спб.: Питер, 2009 – 208 с.
6. Майерс Д. Социальная психология. Интенсивный курс / Д. Маерс. – 4-е междунар. изд.. – СПб.: ПРАЙМ-ЕВРОЗНАК, 2007. – 510 с.
7. Шибутани Т. Социальная психология. Пер. с анг. В.Б. Ольшанского. – Ростов н/Д: изда-во «Фенекс», 1999. – 544 с.

## V BOB KATTA GURUHLAR PSIXOLOGIYASI

### 5.1. Katta ijtimoiy guruuhlar psixologiyasi

Har bir shaxs o'z faoliyatini turli guruuhlar sharoitida yoki turli guruuhlar ta'sirida amalga oshiradi. Chunki jamiyatdan chetda qolgan yoki insonlar guruhiga umuman qo'shilmaydigan individning o'zi yo'q, inson jamiyatda yashar ekan, u doimo turli o'ziga o'hshash shaxslar bilan muloqotda, o'zaro ta'sirda bo'ladi, bu muloqot jarayonlari esa doimo kishilar guruhida ro'y beradi. Shuning uchun ham guruuhlar muammosi, uni o'rganish va guruhlarning shakllanishiga oid ilmiy xulosalar chiqarish ijtimoiy psixologiyaning asosiy mavzularidan va muammolaridan biridir.




5.1-rasm. Guruuhlar ko'rinishlari.

Psixologik ma'noda *guruh* – *bu umumiy belgilar, umumiy faoliyat, muloqot hamda umumiy maqsad asosida birlashgan kishilar uyushmasidir.*

Demak, odamlar guruhi tashkil topishi uchun albatta qandaydir umumiy maqsad yoki tilaklar, umumiy belgilar bo'lishi shart. Masalan, talabalar guruhi uchun umumiy narsalar ko'p: o'quv faoliyati, bilim olish, yoshlarga xos birliklar (o'spirin yoshlar), ma'lum o'quv yurtida ta'lim olish istagi va hokazo. Ko'chada biror tasodif ro'y bergenligi uchun to'plangan kishilar uchun ham umumiy bo'lgan narsa bor – bu qiziquvchanlik bo'lib o'tgan hodisaga guvohlik, unga umumiy munosabatdir.

Guruhni alohida shaxslar tashkil etadi, lekin har bir guruh psixologiyasi uni tashkil etuvchi alohida shaxslar psixologiyasidan farq qiladi va o'ziga xos qonuniyatlariga bo'ysunadi. Ayni shu qonuniyatlarni bilish esa turli tipli guruhlarni boshqarish va ana shu guruhlarni tashkil etuvchilarni tarbiyalashning asosiy mezonidir.

Guruhlarning turlari ko'p, shuning uchun ham ularni turli olimlar turlicha klassifikasiya qiladilar. Bizning nazarimizda, *G.M.Andreyevaning "Ijtimoiy psixologiya"* darsligidagi klassifikasiya guruhlarning asosiy turlarini o'z ichiga qamrab olgan. U har qanday kishilar guruhini avvalo *shartli* va *real guruhlarga* bo'ladi. Real guruhlар aniq tadqiqot maqsadlarda to'plangan laboratoriya tipidagi hamda tabiiy guruhlarga bo'linadi. Konkret faoliyat va odamlarning ehtiyojlari asosida tashkil bo'ladigan bunday tabiiy guruhlarning o'zi kishilarning soniga qarab *katta, kichik guruhlarga* bo'linadi. Katta guruhlarni uni tashkil etuvchilarning maqsadlari, fazoviy joylashishlari, psixologik xususiyatlariga qarab uyushgan va uyushmagan turlarga, kichiklari esa o'z navbatida endi shakllanayotgan – diffuz hamda taraqqiyotning yuksak pog'onasiga ko'tarila olgan jamoa turlariga bo'linadi. Guruhlarning ijtimoiy psixologiya uchun ayniqsa muhim hisoblangan turlariga ta'rif berish va ularning psixologik qonuniyatlarini o'rganishni maqsad qilib qo'ygan holda, bevosita katta guruhlarning ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarini o'rganishga o'tamiz.



5.2-rasm. Guruuhlar tuzilishi.

*Katta guruuhlar psixologiyasiga xos xususiyatlar va ularni ilmiy tadqiq qilish printsiplari.* Katta guruuhlar kishilarning shunday birlashmalariki, undagi odamlar soni avvalo ko'pchilikni tashkil etib, ma'lum sinfiy, ilmiy, irqiyl, professional belgilar ularning shu guruhga mansubligini ta'minlaydi. Katta guruuhlarni tashkil etuvchilar ko'p sonli bo'lganligi va ular xulq-atvorini belgilovchi mexanizmlarining o'ziga xosligi tufayli bo'lsa kerak, ijtimoiy psixologiyada olimlar ko'pincha kichik guruhlarda ish olib borishni afzal ko'radilar. Lekin katta kishilar uyushmasining psixologiyasini bilish juda katta tarbiyaviy va siyosiy-mafkuraviy ahamiyatga ega.

Bu sohadagi tadqiqotlarning kamligi bir tomondan, aytib o'tilganidek, ko'pchilikni qamrab olishdagi qiyinchiliklar bo'lsa, ikkinchi tomondan, katta guruuhlar psixologiyasini o'rganishga qaratilgan metodik ishlar zahirasining kamlidir, ya'ni, katta guruhlarning psixologiyasini o'rganishga mo'ljallangan maxsus metodikalar kam ishlab chiqilgan. Masalan, ishchilar yoki ziyorilar sinfi psixologiyasi o'rganilishi kerak, deylik. Avvalo o'sha ishchilarning soni ko'p, qolaversa, ishchilarning o'zi turli ishlab chiqarish sharoitlarida ishlayotgan, turli

iqlim sharoitlarida yashayotgan turli millatga mansub kishilardir. Ularning barchasini qamrab oladigan yagona ishonchli metodikani topish masalasi tadqiqotchi oldiga juda jiddiy muammolarni qo'yadi. Shuning uchun ham har bir katta guruhga taalluqli bo'lgan asosiy, yetakchi sifatni topish va shu asosda uning psixologiyasini o'rganish hozircha ijtimoiy psixologiyadagi asosiy metodologik yo'llanma bo'lib kelmoqda. Qolaversa, katta guruhlar jamiyatning tarixiy taraqqiyoti mobaynida shakllangan guruhlar bo'lgani uchun ham har qanday guruhni o'rganishdan oldin, xoh bu sinflar bo'lsin, xoh millatlar yoki xalqlar psixologiyasi bo'lsin, uning hayot tarzi, unga xos bo'lgan odatlar, udumlar, an'analar o'rganiladi.

Ijtimoiy-psixologik ma'noda, *hayot tarzini o'rganish* deganda, u yoki bu guruhga taalluqli bo'lgan kishilar o'rtasida amalga oshiriladigan muloqot tiplari, o'zaro munosabatlarda ustun bo'lgan psixologik omillar, qiziqishlar, qadriyatlar, ehtiyojlar va boshqalar nazarda tutiladi. Ana shularning umumiyligi tufayli har bir shaxsda, ya'ni u yoki bu katta guruhga mansub bo'lgan shaxsda tipik xislatlar shakllanadi. Masalan, 90-yillar yoshlariga xos bo'lgan tipik sifatlar ana shu yoshlar o'rtasida keng tarqalgan urf-odatlar, moda, so'zlashish xususiyatlari, qadriyatlar, qiziqishlar va hokazolar tufayli shakllanadi.

Shuning uchun ham 20 yoshli kishining psixologiyasini to'liq ravishda o'rganish uchun undagi bilish jarayonlarining o'ziga xosligi, shaxsi, xarakteri va boshqa individual psixologik xususiyatlaridan tashqari, yana unga o'xhash yoshlarda ustun bo'lgan psixologik xislatlarning qanchalik namoyon bo'l shini, u mansub bo'lgan va asosan vaqtini o'tkazadigan guruhlar psixologiyasini, milliy sifatlarini ham nazarda tutish va ularni o'rganish zarur.

Bu degani, har bir shaxs ongida uning yakka, alohida orttirgan shaxsiy tajribasiga aloqador psixologik tizimlardan tashqari, uning qaysi millat, elat sinfga mansubligiga aloqador psixologik xususiyatlar ham mavjuddir va uni ilmiy tadqiqotchi inkor etmasligi kerak.

### Bob yuzasidan tayanch iboralar

Muloqot, kommunikativ, interaktiv, perzeptiv, yozma nutq, og'zaki nutq, monologik nutq, noverbal muloqot, identifikatsiya, refleksiya, stereotipizasiya, kauzal atribusiya, konstruktiv, destruktiv, konflikt, nizo, ziddiyat.

### Nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Psixologik ma'noda guruh deganda nima tushuniladi?
2. Katta ijtimoiy guruhlarga kimlar kiradi?
3. Katta guruhlar psixologiyasiga xos xususiyatlarni tushuntiring.
4. Kishilar guruhni necha xil bo'ladi?
5. Tabiiy guruhlarning o'zi kishilarning soniga qarab necha xil bo'ladi?

### Bibliografiya

1. Крысько, В.Г. Социальная психология: Учебно-методическое пособие / В.Г. Крысько. – М.: Кнорус, 2020. – 304 с.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o'quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
3. David G. Myers. Social Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: McGraw-Hill, 2010. – 609 p.
4. Немов Р. С., Алтунина И. Р. Социальная психология: Краткий курс. – Спб.: Питер, 2009 – 208 с.
5. Майерс Д. Социальная психология. Интенсивный курс / Д. Маерс. – 4-е междунар. изд.. – СПб.: ПРАЙМ-ЕВРОЗНАК, 2007. – 510 с.

## VI BOB KICHIK GURUHLAR PSIXOLOGIYASI

### 6.1. Kichik guruuhlar va jamoalar psixologiyasi

Bu sohadagi tadqiqot ob'yeqtolariga odamlarni guruhda va yakka holdagi xulq-atvorlarini o'rganish, kichik guruhlarning psixologik tuzilishi, ularda ro'y beradigan dinamik jarayonlar (uyushqoqlik, o'zaro moslik va hokazolar); guruhlardagi peshqadamlik va boshqarish psixologiyasi; konformizm hodisasi; jamoalarning shakllanish shartlari, turli guruhlararo munosabatlar; guruhlardagi kishilar o'rtasida o'zaro muloqot, o'zaro bir-biriga ta'sir usullari, odamlarni samarali muloqotga o'rgatish ham guruhlar ijtimoiy psixologiyasining muhim vazifasi hisoblanadi. Kichik guruhlar muammosi ijtimoiy psixologiyada eng yaxshi ishlangan va ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan ob'yeqtlardandir. Bu an'ana Amerikada asrimiz boshida o'tkazilgan ko'plab eksperimental tadqiqotlardan boshlangan bo'lib, ularda olimlar oldiga qo'yilgan asosiy muammo shu ediki, individ yakka holda yaxshi ishlaydimi yoki guruhda yaxshiroq samara beradimi, boshqa odamlarning yonida bo'lishi uning faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi kabi savollarga aniq ilmiy asoslangan javob topish zaruratidir.

Bu borada O'zbekiston pasixologlari juda ham ko'p tadqiqotlar olib borishgan, masalan kichik gurun bo'lmish oila yuzasidan, psixologiya fanlari doktori yoki DSc ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiyalar: *G.B. Shoumarov* (Социально-психологические проблемы молодой семьи выпускников специальной школы для детей с задержкой психического развития, 1990), *V.M. Karimova* (O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi, 1994), *Z.A. Rasulova* (O'zbeklarda oila-nikoh an'analarining ijtimoiy va etnik psixologiyasi, 2018), *M.A. Utepberganov* (Qoraqlapoq oilalarining ijtimoiy va etnopsixologik muammolari, 2019),

Ijtimoiy psixologiya asosiy ob'yekti –  
bu kichik guruhlar va jamoalar  
psixologiyasini o'rganish.

O.B. Shamsiyev (Oilaviy xolding – bola ijtimoiylashuvining psixologik mexanizmi, 2019);

Psixologiya fanlari nomzodligi yoki psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan quyidagi dissertatsion: N.A. Soginov (Социально-психологические особенности удовлетворенности браком в узбекской семье, 1990), X.K. Karimov (Социально-психологических особенностей супружеских конфликтов в узбекской семье, 1994), R.S. Samarov (Социальные и этнопсихологические особенности супружеских конфликтов в таджикской семье, 1997), N. Salayeva (Xorazm oilalarining etnopsixologik xususiyatlari, 2002-y), N.X. Lutfullayeva (Turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, 2006), M.X. Fayziyeva (Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (er-xotin misolida), 2006), X.R. Xaydarova (Jinsiy identifikatsiya jarayoniga oilaviy rollar differentsiatsiyasining ta'siri (ko'p bo'g'inli va nuklear oilalar misolida), 2007), G. Niyazmetova (O'zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, 2010), G.S. Yumusova (To'liq va noto'liq oilalardagi ona shaxsining farzand ijtimoiy tasavvurlariga ta'siri, 2018), X.U. Abdusamatov (Nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, 2019) tadqiqotlar olib borishgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, bunday sharoitlarda individlarning o'zaro hamkorligi (*interaksiya*) emas, balki ularning bir vaqtida bir yerda birga bo'lganligi faktining (*koaksiya*) ta'siri o'rGANildi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, boshqalar bilan hamkorlikda bo'lgan individ faoliyatining tezligi oshadi, lekin harakatlar sifati ancha pasayishi aniqlandi. Bunday ma'lumotlar amerikalik N.Triplett, nemis olimi A.Mayyor, rus olimi V.M.Bexterev, yana bir nemis olimi V.Myode va boshqalarning tadqiqotlari ham qayd etildi. Bu psixologik hodisa ijtimoiy psixologiyada *ijtimoiy fasilitatsiya* nomini oldi, uning mohiyati shundan iborat ediki, individning faoliyat mahsullariga uning yonida bo'lgan boshqa individlarning bevosita ta'siri bo'lib, bu ta'sir avvalo sensor kuchayishlar hamda

ish-harakatlarning, fikrlashlarning tezligida namoyon bo‘ladi. Lekin ayrim eksperimentlarda teskari effekt ham kuzatildi, ya’ni, boshqalar ta’sirida individ reaksiyalaridagi tormozlanish faoliyatining susayishi holatlari kuzatildi. Bu hodisa fanda *ingibisiya* nomini oldi. Lekin olingan faktlarning qandayligidan qat’i nazar, olimlar uchun kichik guruuhlar asosiy tadqiqot mavzuiga aylanib qoldi va ular natijasida qator qonuniyatlar ochildi.

*Birinchidan*, kichik guruhlarning *hajmi*, uni tashkil etuvchi shaxslar soni xususida shunday fikrga kelindiki, kichik guruh “diada” ikki kishidan tortib, to maktab sharoitida 30-40 kishigacha deb qabul qilindi. Ikki kishilik guruh deyilganda, avvalo oila – yangi shakllangan oila ko‘proq nazarda tutiladi. Lekin samarali o‘zaro ta’sir nazarda tutilganda “±7–2” kishi nazarda tutiladi. Bunday guruh turli ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar uchun ham, ijtimoiy-psixologik treninglar o‘tkazish uchun ham qulay hisoblanadi.

*Ikkinchidan*, guruhning *o‘lchami* qanchalik katta bo‘lsa, uning alohida olingan shaxslar uchun qadrsizlanib borish xavfi kuchayadi. Ya’ni, shaxsnинг ko‘pchilikdan iborat guruhdan o‘zini tortish va uning normalarini buzishga moyilligi ortib boradi.

*Uchinchidan*, guruhning hajmi kichiklashib borgan sari shaxslararo o‘zaro munosabatlar taranglashib boradi. Chunki, shaxslarning bir-birlari oldida mas’uliyatlarining oshishi va yaqindan bilishlari ularning o‘rtasidagi aloqalarda doimo aniqlik bo‘lishini talab qiladi. Munosabatlardagi har qanday disbalanslar ochiq holdagi ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

*To‘rtinchidan*, agar guruh a’zolarining soni *toq* bo‘lsa, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar juft bo‘lgan holdagidan ancha yaxshi bo‘ladi. Shundan bo‘lsa kerak, boshqaruv psixologiyasida odamlarni biror lavozimlarga saylashda, saylov kompaniyalarida nomzodlarni elektoratga taqdim etishda va umuman rasmiy tanlovlarda guruhdagи odamlar soni toq qilib olinadi.

*Beshinchidan*, shaxsnинг *guruh tazyiqiga* berilishi va bo‘ysunishi ham guruh a’zolarning soniga bog‘liq. Guruh soni 4-5 kishi bo‘lgunga qadar, uning ta’siri kuchayib boradi, lekin undan ortib ketgach, ta’sirchanlik kamayib boradi. Masalan,


ko'chada sodir bo'lgan baxtsiz hodisaning guvohlari soni ortib borgan sari, jabrlanganga yordam berishga intilish, mas'uliyat hissi pasayib boradi.

Bu qonuniyatlarni bilish, tabiiy guruhlarni boshqarish ishini ancha yengillashtiradi. Bu qonuniyatlar ayniqsa, maktab pedagoglari va murabbiylar uchun ahamiyatli hisoblanadi. Chunki ular aslida ta'lim-tarbiya jarayonida muayyan kichik guruhlarni tashkil etuvchilarni tarbiyalaydilar, buning uchun esa ular mansub bo'lgan guruh faoliyatini boshqarish, guruh orqali ayrim-alohida shaxsni tarbiyalashni zimmalariga oladilar.

### 6.2. Kichik guruhlarning klassifikatsiyasi

Tarixan kichik guruhlarni *rasmiy va norasmiy* turlarga bo'lish qabul qi lingan.

Bunday bo'linishni amerikalik olim E.Meyo taklif etgan edi. Uning fikricha, *rasmiy guruh* har bir a'zolarning rasmiy rollarga ega ekanligi, ular mavqeining va guruhda tutgan o'rning aniqligi bilan xarakterlanadi. Bunday guruhlarda munosabatlар asosan "vertikal" tarzda ro'y berib, guruhning bir yoki bir necha a'zosida "hokimiyat" bo'lganligi uchun ham, ular boshqalarni boshqarish, ularga buyruq, rasmiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'ladilar. Rasmiy guruhga misol qilib har qanday birgalikdagi faoliyat maqsadlari asosida shakllangan jamoalarni – ishlab chiqarish brigadasi, talabalar guruhi, sinf o'quvchilari, pedagogik jamoa va boshqalarni olish mumkin.



6.1-rasm. Kichik guruhlar klassifikatsiyasi.

Rasmiy guruhlardan farqli o'laroq *norasmiy guruhlar* ham mavjud bo'ladiki, ular asosan stixiyali tarzda, aniq maqsadsiz tarkib topadi va ularda a'zolarning aniq mavqelari, rollari oldindan belgilangan bo'lmaydi. Ko'pincha norasmiy guruh rasmiy guruh tarkibida tashkil topadi va ularni boshqarish ham oldindan belgilangan bo'lmay, odamlar ichidan u yoki bu shaxsiy sifatlari tufayli ajralib chiqqan a'zolar norasmiy rahbarlik rolini bajarishlari mumkin.

Bundan tashqari, ijtimoiy psixologiyada *referent guruh* tushunchasi ham bor. Bu tushuncha fanga birinchi marta amerikalik tadqiqotchi G.Xaymen tomonidan 1942-yilda kiritilgan edi. U o'z tadqiqotlarida shuni isbot qildiki, ma'lum bo'lishicha, guruh a'zolari uchun shu guruh ichida yoki boshqa doiralarda shunday shaxslar guruhi mavjud bo'lar ekanki, u o'z xatti-harakatlari, fikrlari va yo'nalishlarida o'sha guruh a'zolariga ergashish, ularni tanqidsiz qabul qilishga moyil hamda tayyor bo'lar ekan. Shunday shaxslar guruhi referent guruh nomini oldi. O'quvchi uchun bunday guruh rolini maktabdagi bir necha o'qituvchilar, otasi yoki onasi, yaqin do'sti yoki qarindoshlaridan kimdir o'ynashi mumkin. Shunisi xarakterlikni, shaxs doimo shu guruhga ergashadi, uni qadrlaydi, u bilan muloqotda bo'lishga intiladi. Rus psixologlari bu guruhni odatda shaxs uchun mavjud haqiqiy guruh (a'zolik guruh) tarkibida yoki unga qarshi bo'lgan guruh sifatida qaraydilar. Nima bo'lganda ham ana shunday guruhning mavjudligi shaxs uchun ahamiyatli bo'lib, uning xulq-atvori uchun etalon hisoblanadi. Tadqiqotchi yoki tarbiyachining vazifasi, ana shu guruhni aniqlay olish va aniqlagandan so'ng nima uchun aynan shu guruh referent rolini o'ynaganini bilish muhimdir. Referent guruhga qarab shaxsga baho berish, uning xulq-atvorini bashorat qilish mumkin.

### 6.3. *Kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar*

Ma'lumki, guruhda to'plangan kishilar o'rtasida doimiy muloqot va munosabatlar mavjud bo'ladiki, ularning mazmuni va yo'nalishiga ko'ra, o'ziga xos ijtimoiy-psixologik muhit shakllanadi. Bu muhit guruhning taraqqiyotini ham, undagi turli jarayonlarni ham belgilaydi. Guruhning *dinamik jarayonlari* deganda avvalo uning shakllanish jarayoni, liderlik va guruhda turli qarorlarni qabul qilish jarayoni, guruhning har bir shaxsga ta'siri kabilalar tushuniladi.

Guruhning shakllanishi, uning paydo bo‘lishi haqida gapiriladigan bo‘lsa, avvalo shuni ta’kidlash lozimki, guruh jamiyat ehtiyojlari va ijtimoiy talablar asosida paydo bo‘ladi. Masalan, sinf jamoasi doimo bolalarning tug‘ilishi, rivojlanishi va ularning maktablarda ta’lim olishlari kerakligi uchun, talabalar guruhni ham shunga o‘xshash oliy ma’lumotli shaxslar kerak bo‘lganligi uchun paydo bo‘ladi va hokazo. Lekin bu masalaning ijtimoiy tomoni. Uni so‘f psixologik tomoni ham borki, u odamlarning nima uchun jamoalarda ishlashi, odamlar ichida bo‘lishi bilan bog‘liq. Chunki har bir normal insonda muloqotga bo‘lgan ehtiyoj hamda turli hayotiy vaziyatlarda o‘zini ijtimoiy himoyada sezish ehtiyoji borki, bu narsa turli kichik jamoalarda ularning bo‘linishini taqozo qiladi. Lekin guruhga a’zo bo‘lish bilan birgalikda har bir individ qator guruhiy jarayonlarning guvohi bo‘ladi.

Birinchidan, guruh o‘z a’zolariga ma’lum tarzda *psixologik ta’sir* ko‘rsatadi. Bu hodisa psixologiyada *konformizm* deb ataladi ( o‘zbek tilida “moslanish” ma’nosini bildiradi). Bu hodisaning mohiyati shundan iboratki, u individning guruhda qabul qilinadigan normalar, fikrlar, xulq-atvor standartlarini qanchalik qabul qilish yoki qabul qilmasligi bilan bog‘liq. Guruh fikrini qanchalik tez qabul qilish, uning ta’siriga berilish individ bilan guruhning ziddiyatlarini oldini olishi mumkin. Shuning uchun ham individ ana shunday xatti-harakat qilishga intiladi. Lekin ana shunday guruh fikriga, harakatiga qo‘shilish turli shakllarda bo‘lishi mumkin: *tashqi konformlilik* – individ guruh fikriga nomigagina qo‘shiladi, aslida ruhan u guruhda qarshi turadi: *ichki konformlilik* – individ guruh fikriga to‘lig‘icha qo‘shiladi va ruhan qabul qiladi. Ana shunday hollarda individ bilan boshqalar o‘rtasida ziddiyat yoki konfliktlar paydo bo‘lmaydi. Bu o‘rinda yana bir tushuncha ham bor, u ham bo‘lsa “*negativizm*” tushunchasidir, bu individning har qanday sharoitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o‘zicha mustaqil fikr, mavqeni namoyon qilishidir. Bu tabiiy individ uchun noqulay, lekin mustaqil fikr, odil harakatlar doimo hurmat qilinadigan jamoalarda negativizm hodisasi yomon illat sifatida qabul qilinmaydi.

Guruhlardagi yana bir jarayon – bu guruhning *uyushqoqligi* muammosidir. Guruh a'zolarining bir-birlarini yaxshi bilishlari, bir-birlarining dunyoqarashliri, hayotiy printsiplari, qadriyatlarini yaxshi tasavvur qilishlari bunday uyushqoqlikning birinchi omildir. Ikkinchi asosiy omil – bu o'sha gurhni birlashtirib turgan faoliyat maqsadlarini, uning yo'nalishi va mazmunini bilishdagi g'oyaviy birlikdir. Umuman, eksperimental tadqiqotlarda qayd etilgan guruhga oid fikrlardagi umumiy uyushqoqlikka ijobiy zamin hisoblanadi. Aynan shu muammo doirasida so'nggi yillarda N.X. Xolyigitova (O'quvchilardagi kasb motivlari barqarorligiga guruhiy jipslikning ta'siri, 2019) va Z.E. Gazieva (Sportda guruhiy jipslik shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (futbol komandalari misolida), 2019) dissertatsiya ishlarini himoya qilishgan.

Guruhlardagi liderlik va umumiy qarorlarga kelish ham dinamik jarayonlarga kiradi, lekin bu masalalarni boshqarish psixologiyasi masalalari doirasida keyingi bo'limlarda o'rganamiz.

### **Bob yuzasidan tayanch iboralar**

Ijtimoiy fasilitatsiya, ingibisiya, rasmiy, norasmiy, referent guruh, dinamik jarayon, konformizm, tashqi konformlilik, ichki konformlilik.

### **Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Ijtimoiy fasilitatsiya deganda nima tushuniladi?
2. Kichik guruhlar hajmi jihatidan necha kishini tashkil etadi?
3. Kichik guruhlar psixologiyasiga xos xususiyatlarni tushuntiring.
4. Kichik guruhlarning klassifikasiyasini necha xil bo'ladi?
5. Rasmiy guruhlarga ta'rif bering.
6. Norasmiy guruhga ta'rif bering.
7. Referent guruh deganda nima tushuniladi?
8. Guruhning dinamik jarayonlari deganda nima tushuniladi?
9. Konformizm tushunchasiga ta'rif bering.
10. Tashqi konformlilik deganda nima tushuniladi?
11. Ichki konformlilik nima?

### Bibliografiya

1. Утепберганов М.А. Коракалпок оиласарининг ижтимоий ва этнopsихологик муаммолари: Психол.ф. д. (DSc) даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф.:19.00.05. – Т.: ЎзМУ, 2019. – 70 б.
2. Умарова Н.Ш. Шахс иқтисодий ижтимоийлашувига таъсир этувчи ижтимоий-психологик омиллар: Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф.: 19.00.05. – Т.: ТДПУ, 2019. – 50 б.
3. Майерс Д. Социальная психология / Д. Маэрс; Пер. с анг. З.С. Замчука. – СПб.: Питер, 2019. – 800 с.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
5. David G. Myers. Social Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: McGraw-Hill, 2010. – 609 p.
6. Немов Р. С., Алтунина И. Р. Социальная психология: Краткий курс. – Спб.: Питер, 2009 – 208 с.
7. Согинов Н.А. Социально-психологические особенности удовлетворенности браком в узбекской семье [Электронный ресурс] / Н.А. Согинов. – автореферат дис. ... канд. психол. наук: 19.00.05. – М.: ПРОМЕДИА, 1990. – 23 с.

## VII BOB

### IJTIMOYI PSIXOLOGIYA VA SHAXS

#### 7.1. Ijtimoiy psixologiyada shaxs muammosi

Ma'lumki, shaxsni ko'plab fanlar turli xil tomondan o'rghanadi. Bir yo'nalish biologik bo'lsa, boshqasi – sotsiologik, yana bir turi individual psixologik va nihoyat, yana bir yondashuv ijtimoiy-psixologikdir.

*Biologik* nuqtai nazardan shaxs taraqqiyoti individ nasliy jihatdan orttirgan genetik dasturlarning amalda ro'yobga chiqishi tarzida tasavvur etiladi. *Sotsiologik* yondashuv shaxsning madaniy-tarixiy muhit ta'sirida kamol topishini tan oladi. Ulardan farqli *individual-psixologik* yondashuv shaxsning rivojlanishiga uning tana tuzilishi yoki konstitusional jihatlari va asab tizimi tipining ta'siri borligini ta'kidlab, o'rghanadi.

Shaxsni o'rghanishning *ijtimoiy-psixologik yondashuvi* uni ijtimoiylashuning bevosita mahsuli sifatiga qarab, uning ijtimoiy-psixologik tizimini bevosita o'rabi turgan ijtimoiy muhit ta'sirida o'rghanadi. Bu borada bir qancha olimlarning o'ziga xos nuqtai nazarlari ham mavjud. Masalan, K.K. Platonov shaxs tizimida to'rtta asosiy jabhani ajaratadi:

1) *Shaxsning yo'nalgaligi va munosabatlari tizimi*: uning mayllari, xohish-istaklari, qiziqishlari, layoqati, ideallari, dunyoqarashi, e'tiqodi kabilarni o'z ichiga oladi. Bu tizimdagи xususiyatlar ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, ular insonning jamiyatda yashashi, undan oladigan tarbiya shakllari, mafkuraviy muhit asosida shakllanadi.

2) *Shaxsning individual ijtimoiy tajribasi*: bu jabhadagi sifatlar inson hayoti mobaynida orttiradigan bilimlari, malaka va ko'nikmalari asosida namoyon bo'ladi. Bu sifatlar ijtimoiy xarakterli bo'lib, ko'proq ta'lim jarayonida shakllanadi.

3) *Inson psixik jarayonlarining individual xususiyatlari*: xotira, idrok, sezgilar, tafakkur, qobiliyatlar kabi bir qarashda tug'ma omillarga bog'liq

xususiyatlardan inson umri davomida takomillashishi va uning boshqa ijtimoiy sifatlari ta'sirida individual o'ziga xoslik kasb etishi mumkin.

4) *Biologik xususiyatlarga bog'liq shaxs sifatlari*: bunga shaxsnинг tipologik, yoshiga oid, jinsiy xususiyatlari kiradi va u ko'pincha bioijtimoiy omillar sifatida qaraladi.

A.N. Suxov va A.A. Derkachlarning ta'kidlashlarida shaxsnинг ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida gap ketganda, avvalo uning fikrlash tarzi, qadriyatlarini tizimi, motivasion belgilari (yo'nalganlik, hayotiy maqsadlar, rejalar, hayot tarzi), kognitiv sifatlar (ijtimoiy tasavvurlar, hayot manzaralari to'g'risidagi fikrlari), "Men"-konsepsiysi, "Men"-obrazi, o'ziga munosabati, o'ziga nisbatan bahosi; o'zini nazorat qilish lokusi, psixologik bilimdonligi, rolli maqomlari, ijtimoiy his-tuyog'ulari va boshqalar nazarda tutiladi.

Ijtimoiy psixologiya uchun har bir shaxsnинг qay tarzda o'z hayot yo'lini belgilashi va jamiyatda shaxslararo munosabatlardagi *maqomi – statusi* muhimdir. Bu borada uni o'rab turgan katta – *makro ijtimoiy borliq* hamda *mikro – kichik ijtimoiy borliqning* ta'sirlarini o'rganish katta ahamiyatga ega.

Shaxsga ta'sir etuvchi **makro muhit** – bu inson umri o'tadigan va hayoti mobaynida unga ta'sir etadigan tabiiy, ijtimoiy va ijtimoiy shart-sharoitlar majmuidir. Ya'ni, bizni o'rab turgan jami borliq o'zining o'zgaruvchan va nisbatan barqaror shart-sharoitlari bilan bizning dunyoqarashimiz, fikrlash tarzimiz, qadriyatlarimizning shaklanishiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qadimiy shaharlar – Samarqand, Xiva, Buxoro kabilari o'zlarining tarixiy obidalari bilan ma'naviy qadriyatlarimiz tizimini belgilasa, Farg'onasi vodiysi, Qashqadaryo vohasi, betakror Boysun tabiatini estetik didlarni tarbiyalash bilan birgalikda shaxsnинг olam va odam, hayot ma'nosi va qadriyatlarini kabi tushunchalarini kengaytiradi, uning ijtimoiy tasavvurlarini takomillashtiradi.

Makro muhit haqida gap ketganda, olimlar uning global miqyosdagi hamda hududiy ta'sirlarini farqlaydilar. Bugunni ochiq axborot makonida barchamiz butun dunyoda yuz berayotgan voqealari va hodisalarini idrok etish va ularga nisbatan muayyan pozitsiyamizni shakllantirishga muvaffaq bo'lgan bo'lsak, bu global

makro muhit ta'sirlari maydonini tashkil etadi. Bunda OAV orqali berilayotgan ma'lumotlar, teleseriallar, reklama roliklari, turli shou-ko'rsatuvlar, kompyuter o'yinlarining roli sezilarlidir. Ayniqsa, yoshlarning didi, talablari, orzu-havaslari, modaga munosabati paydo bo'lishida shu kabi global ta'sirlarning sezilarli ekanligiga barchamiz guvohmiz.

Shu xususda, bugungi kunda shaxsnинг iqtisodiy ijtimoiylashuvga ta'sir qiluvchi hamda dinamik xarakter kasb etuvchi ijtimoiy omillarni quyidagi ko'rinishda to'laqonli tasavvur qilish mumkin<sup>15</sup>:

a) megaomillar (mega – juda katta, barchaga baravar taalluqli): butun Yer yuzidagi insoniyatning ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi yo kosmos, yo sayyora, yo olamga daxldor u yoki bu tarzdagi yaxlit omillar guruhi.


b) makroomillar (makro – katta): o'z chegaralariga ega bo'lgan biror bir mamlakat yoki jamiyatda istiqomat qilayotgan kishilar ijtimoiylashuviga o'zaro ta'sir qiluvchi yo mamlakat, yo etnos, yo jamiyat, yo davlat bilan bog'liq ikki xil ko'rinishdagi omillar guruhi.

v) mezoomillar (mezo – o'rtaliqdagi, oraliqdagi): biror bir katta guruh a'zolarining ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitlar, ya'ni aholining yashash tarzi (hudud, qishloq, shahar, posyolka), ular tomonidan ommaviy tarzda foydalaniyotgan u yoki bu ko'rinishdagi axborot vositalari (radio, televide niye va boshqalar) va ularning turfa xil submadaniyatga mansubligi bilan bog'liq alohida-alohida omillar guruhi.

g) mikroomillar (mikro – kichik): har bir alohida shaxs bilan birligida yoki yonma-yon tarzda faoliyat olib boruvchi va uning ijtimoiylashuviga bevosita ta'sir qiluvchi ma'lum bir kishi, o'z oilasi yoki xonadoni, qo'ni-qo'shnilar, tengqurlari, ta'lim-tarbiya muassasalari, turfa xildagi ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy va aksiliyijtimoiy tashkilotlar hamda mikrososiumga daxldor bo'lgan har qanday omillar guruhi.

<sup>15</sup> Умарова Н.Ш. Шахс иктисодий ижтимоийлашувига таъсир этувчи ижтимоий-психологик омиллар: Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий дарражасини олиш учун ёзилган диссертация: 19.00.05. – Т.: ТДИУ, 2019. – Б. 32.

Shunday qilib, tahlillarga ko'ra, iqtisodiy ijtimoiylashuv – bu butun dunyo iqtisodiy transformasiyasi tayanch zamirini tashkil etuvchi va o'z ichiga xususiy hamda umumiy mulkchilikning mavhum tomonlarini uyg'unlashtiruvchi zamonaviy aralash iqtisodiyotning muhim xususiyatlardan biridir. U ishlab chiqarish jarayonlarda: ijtimoiy talabni qayta hisobga olish, kishilar mehnati va hayotini insonparvarlashtirish, ijtimoiy differentsiatsiyani yumshatish, iqtisodiy sohalarni yuksaltirish kabi qator voqeliklar hamda hodisalarda namoyon bo'ladi.



7.1-rasm. Iqtisodiy ijtimoiylashuvga ta'sir ko'rsatuvchi omillar guruhi klassifikasiyasi.

*Hududiy* jahada makro muhitning ta'siri quyidagi omillar orqali kechadi:

- *demografik omil* – bu aholi zichligi, tug'ilish va o'limning dinamikasi, umr davomiyligi, migrasiya jarayonlari va b.q.; masalan, aholi reproduktiv madaniyatining o'zgarib borayotganligi, oilada tug'ilayotgan bolalar sonining kamayishi, odamlarning sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlarining o'zgarib borayotganligi, zamonaviy tibbiyotning inson umrini uzaytirish borasida qo'lga kiritayotgan olamshumul yutuqlari, tabiiy, har bir alohida olingan shaxs psixikasida muayyan davr va hududga nisbatan o'zgarishlarni sodir etishi tabiiydir;

- *tabiiy-ekologik omil* – yashash joyining qayerda va qancha territoriyada joylashganligi, havo harorati, foydali qazilmalarning mavjudligi, ekologik vaziyat va shu kabilar; masalan, Yer kurrasida global harorat isishi jarayoni ko‘plab hududlarda istiqomat qiladigan odamlarning turmush tarziga o‘zgartirishlar kiritishi bilan birgalikda ularning dunyoqarashini, hayotiy pozitsiyalarini ham o‘zgartiradi, albatta;

- *ilmiy-texnika omili* – hududdagi fan va texnologiyalarning qay darajada rivojlanganligi, kompyuterlashtirish darajasi, texnika taraqqiyoti va boshqalar ayniqsa, bolalar psixologiyaga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda; bugun olimlar, psixologlar yosh bolalarni qanday qilib, kompyuterdan, Internet tarmog‘idan bir oz bo‘lsa-da, chalg‘itish, ular qiziqishlar olamiga boshqa texnik vositalarni taqdim etishni o‘ylamoqdalar, chunki doimiy texnika bilan muloqot insoniy munosabatlarning qadriyat sifatida chekinishiga olib kelishi, o‘z navbatida shaxs tizimida ayrim salbiy xususiyatlarni shakllantirishi mumkin;

- *iqtisodiy omil* – aholi daromadlari manbai, inflyasiya darajasi, ishsizlik va aholining ish bilan bandligi va hokazolar ham shaxsga ta’sir etuvchi muhim omillar bo‘lib, aholi daromad manbalarining ortib borayotganligi shaxsning o‘z imkoniyatlari, professional qobiliyatları darajasining yuqori bo‘lishini taqozo etadi;

- *siyosiy-huquqiy omillar* – mamlakatdagi siyosiy tuzilma, rasmiy maskuraning bor yoki yo‘qligi, qonunchilik tizimining mukammalligi, inson huquqlarining himoya qilinishi darajasi va boshqalar ham shaxsga ta’sir etadi. Masalan, O‘zbekistonda xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan qator Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari ularning saylovlardagi ishtirokini, davlat organlari va qaror chiqaruvchi organlar faoliyatidagi ishtiroklari uchun ravon yo‘llarni ochib berdi. Shu bois bugun mamlakat Parlamentining quyi Palatasida ham, yuqori palatasi – Senatda ham xotin-qizlarning ulushi sezilarli darajada oshdi;

- *ijtimoiy-madaniy omillar* – xalq ma’naviyati, madaniyati, an’analari, udumlarining saqlanganligi, dinga munosabatning ijobjiy tomonga o‘zgarganligi, buyuk shaharlar yubileyalarining, turli xalqaro va respublika miqyosidagi san’at

anjumanlarining muntazam o'tkazilib kelinayotganligi, shahar va qishloqlar qiyofasining keskin o'zgarib, obodoshlashgani, yoshlari Forumlari, Universiada, Barkamol avlod, Umid nihollari kabi sport musobaqalari milliy psixologiyada ham shaxs psixologiyasida ham faqat ijobiy fazilatlarning namoyon bo'lishiga real zamin yaratadi.

*Shaxsning mikro muhiti* – bu umumiy ijtimoiy muhitning bir bo'lagi bo'lib, u bu muhitni tashkil etuvchilar bilan kundalik ijtimoiy faoliyatida bevosita muloqotda bo'lish imkoniyatiga egadir. Ushbu muhitudagi ijtimoiy munosabatlar shaxslararo o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish tarzida kechadi. Bu munosabatlarda bevosita makro muhit ta'sirlari bo'lishi, unda har bir shaxsning yosh, jins, guruhiy xususiyatlari, qaysi oilada tarbiyalanganligi kabi jihatlar o'z in'ikosini topadi. Ya'ni, mikro muhit har bir alohida holatlarda shaxsni o'rab turgan ijtimoiy guruh bo'lib, uning har bir vaziyatdagi o'mni, yo'nalganligi, maqsad-muddaolari bo'lishi tabiiydir.

### 7.2. *Shaxsning ijtimoiy-psixologik tipologiyasi*

Shaxsni ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tiplarga bo'lish ko'p holatlarda uning odamlar bilan o'matadigan munosabatlari xarakteriga qarab amalga oshiriladi. Amerikalik psixolog A. *Maslow* bir inson boshqasiga xuddi o'ziga munosabatda bo'lganday qarasa, u ikkinchi boshqalarga kibr bilan, xuddi buyum yoki hodisaga qaraganday munosabat bildirishi mumkin, deb odamlar o'rtasidagi farqning muqarrarligini isbotlagan edi. E. *Shostrom* A. *Maslow* fikrini rivojlantirib, birinchisini aktualizator, ikkinchisini manipulyator, ya'ni, o'z manfaatiga bo'ysundiruvchi, boshqaruvchi deb ta'riflaydi. Shu kabi turli insoniy munosabatlarni tahlil etgan olimlar shaxsning tipologiyasiga o'zgacha qarashgan.

E. *Shpranger* taklif etgan tipologiyada shaxs turli hayotiy qadriyatlar doirasida ta'riflanadi: iqtisodiy, estetik, ijtimoiy, siyosiy, diniy.

Amerikalik Xorni esa shaxsni boshqalar bilan muloqot ob'yekti sifatida qarab, uning uch toifasini farqlaydi:

*"Yopishqoq, kirishimli shaxs"* – unda o'zgalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji o'ta kuchli, kimni ko'rsa u bilan do'stlashib ketgisi, o'zini yoqtirtirgisi,

suyukli bo'lishni xohlaydi va unga doimoy e'tiborli bo'lishlari, g'amxo'rlik ko'rsatishlarini istaydi, uning shiori: "U meni sevishi va menga g'amxo'rlik ko'rsatishi kerak".

*"Agressiv tip"* – o'zgalar bilan muloqotdan hamisha manfaatdor bo'lish kerak, boshqalardan doimo ustun bo'lishlari kerak, aks holda janjallashishdan ham toymaydi, uning shiori: "Menga bu odamdan foyda, naf chiqarmikin?".

*"Begonalashgan tip"* – uchun o'zgalardan uzoqroq yurish ma'qil, chunki shaxslararo muloqot, ularning fikricha hech qachon yaxshilikka olib kelmaydi, guruhlarda ishlashdan ko'ra yolg'iz ishlashni, o'qishni afzal ko'radi. "Meni tinch qo'yisharmikin?" uning doimiy shiori.

*Norakidze* inson xulqi va unga undovchi ichki motivlarga ko'ra shaxsning quyidagi turlarini farqlaydi:

*Barkamol shaxs* – unda ichki tuyg'ular, motivlar, istaklar bilan tashqi xattiharakatda ziddiyat bo'lmaydi, dilidagi bilan tilidagi mos, aytganini qiladigan, lavzli, vijdonli, imon-e'tiqodli inson. Butun aqliy salohiyati va vijdoni bilan o'zgalarning manfaatini o'ylaydigan va shu bilan birgalikda hamisha o'z ustida ishlaydigan inson barkamollik yo'lida bo'ladi.

*Ziddiyatli, nizoli shaxs* – xulqi bilan motivlari o'rtasida doimo qaramaqarshilik kuzatiladi, u odamlardan ko'proq kamchilik qidirib, o'zidagi nuqsonlarni tan olmaydi.

*Impulsiv shaxs* – hamisha hissyotlarga beriladi, o'ylamay gapirish, birovlarini dilini og'ritib qo'yish keyin afsuslanish unga xosdir. Ko'pchilik orasida ularni fikridan ko'ra o'zini ma'qullatishni istaydi, lekin hamisha ham o'z hukmini o'tkazolmay, odamlardan xafa bo'lib yuradi.

Bu kabi shaxslar oramizda ko'p, lekin har bir shaxsning kimligi, qanday inson ekanligi albatta vaziyatga, tarbiyalangan ijtimoiy muhitiga, bajarayotgan amallarining, xizmat burchlarining qanday vijdonan ado etilayotganligiga bog'liq. Muhibi – har bir shaxs jamiyatda o'zining munosib o'rmini topish, o'zgalar manfaatini o'z manfaatlari doirasida tasavvur eta olishi kerak.

7.3. Shaxs tomonidan ijtimoiy  
ta'sirlarning anglanishi

Shunday qilib, shaxs ijtimoiy-

psixologik mavjudot sifatida hamisha

ijtimoiy muhit ta'siridabo'ladi va ularni anglaydi. Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorini ma'lum ma'noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, uning axloqi, ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul harakati uning o'ziga ham bog'liqdir. Odamning o'z-o'zini anglashi, bilishi va o'z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o'ziga, o'z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlar, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya'ni, *ijtimoiy xulq* – shaxs tomonidan uni o'rabi turgan odamlar, ularning xulq-atvoriga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi.

Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz – "Men" – obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilaydi va uning barkamolligi mezonlaridan hisoblanadi.

"Men" – obrazining ijtimoiy-psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, *tarbiya – shaxsning o'zi va o'z sifatlari to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir*, deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo'ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo'ladi.

O'z-o'zini anglash, o'zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko'pincha konkret shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni, inson tabiatini shundayki, u o'zidagi o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan, no'maql sifatlarni anglamaslikka, ularni "yashirishga" harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi (bu fikr avstriyalik olim Z.Freyd nazariyasiga ham mos keladi). Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z shaxsiyatini o'ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni

ko‘pincha turli xil yomon asoratlardan, salbiy, o‘zi uchun yoqimsiz hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta’kidlash lozimki, “Men” – obrazining ijobi yoki salbiyligida yana o‘sha shaxsni o‘rab turgan tashqi muhit, o‘zgalar va ularning munosabati katta rol o‘ynaydi. Odam o‘zgalarga qarab, go‘yoki oynada o‘zini ko‘rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi. Uning mohiyati – aynan o‘ziga o‘xshash odamlar obrazi orqali o‘zi to‘g‘risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya “Men” – obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir. Masalan, ko‘chada bir tanishingizni uchratib qoldingiz. Siz tinmay unga o‘z yutuqlaringiz va mashg‘ulotlaringiz haqida gapirmoqdasiz. Lekin gap bilan bo‘lib, uning qayergadir shoshayotganligiga e’tibor bermadingiz. Shu narsani siz uning betoqatlik bilan sizni tinglayotganlididan, hayoli boshqa yerda turganlididan bilib qolasiz va shu orqali ayni shu paytda “mahmadona, laqmaroq” bo‘lib qolganingizni sezasiz. Keyingi safar shu do‘sti/dugonangiz bilan uchrashganda, oldingi xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun “do‘stim/dugonam, shoshmayapsanmi?” deb so‘rab ham qo‘yasiz. Ana shu ilgarigi refleksiyaning natijasidir. Ya’ni, suhbатdosh o‘rniga turib, o‘zingizga tashlangan nazar (“men unga qanday ko‘rinyapman?” deyish) – refleksiyadir.

Shaxsning o‘zi haqidagi obrazi va o‘z-o‘zini anglashi yosh va jinsiy o‘ziga xoslikka ega. Masalan, o‘ziga nisbatan o‘ta qiziquvchanlik, kim ekanligini bilish va anglashga intilish ayniqsa, o‘smirlilik davrida rivojlanadi. Bu davrda paydo bo‘ladigan “kattalik” hissi qizlarda ham, o‘smir yigitchalarda ham nafaqat o‘ziga, balki o‘zgalar bilan bo‘ladigan munosabatlarini ham belgilaydi. Qizlardagi “Men” – obrazining yaxshi va ijobi bo‘lishi ko‘proq bu obrazning ayollik sifatlarini o‘zida mujassam eta olishi, ayollik hislatlarining o‘zida ayni paytda mavjudligiga bog‘liq bo‘lsa, yigitlardagi obraz ko‘proq jismonan barkamollik mezonlari bilan nechog‘lik uyg‘un ekanligiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘smirlikda o‘g‘il bolalardagi bo‘yning pastligi, muskullarning zaifligi va shu asosda qurilgan “Men” – obrazi qator salbiy taassurotlarni keltirib chiqaradi. Qizlarda esa tashqi tarafdan go‘zallikka, kelishganlik, odob va ayollarga xos qator boshqa sifatlarning bor-yo‘qligiga bog‘liq holda “Men” obrazi mazmunan idrok qilinadi. Qizlarda ham

ortiqcha vazn yoki terisida paydo bo'lgan ayrim toshmalar yoki shunga o'xhash fiziologik nuqsonlar kuchli salbiy emotsiyalarga sabab bo'lsa-da, baribir, chiroyli kiyimlar, taqinchoqlar yoki sochlarning o'ziga xos turmag'i bu nuqsonlarni bosib ketadigan omillar sifatida qaraladi.

**7.4. Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeい. Ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs**

*Ijtimoiy norma* – shaxs hayotida

shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq-atvoriga, ko'pchilik

tomonidan e'tirof etilgan harakatlarga nisbatan talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, "Assalomu alaykum" deb kelishi – norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi – norma; xotinning er hurmatini o'rniqa qo'yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik – norma, avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi – norma va hokazo. Bu normalarni ayrim – alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muhrlanadi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. *Ijtimoiy sanksiyalar* – normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob'yektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta mo'ysafid kishiga o'rin bo'shatishni norma deb qabul qilmagan o'smirga nisbatan ko'pchilikning ayblov ko'z bilan qarashi, yoki og'zaki tanbe berishi, juda kam hollarda o'zini bebos tutayotgan o'smirning qo'lidan tutib, nima qilish kerakligini o'rgatib, "ko'zini moshday qilib ochib qo'yish" ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko'rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. *Rol* – shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning aniq bir hayotiy vaziyatlardagi xuquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo‘lsak, uni bajarish – u yoki bu oly o‘quv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a’zo bo‘lish, stipendiya olib, ma’muriyatning ijtimoiy himoyasida bo‘lish kabi qator huquqlar bilan birligida o‘sha oliygoh ichki tartib-intizomi normalariga so‘zsiz bo‘ysunish, darslarga o‘z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o‘zlashtirish normalarini bajarish, amaliyotda bo‘lish, dekanatning bergen jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu rol uning uygaga borgach bajaradigan “farzandlik” roli (ota va ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi, ya’ni aniq bir shaxsning o‘ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli-tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi. Shunga ko‘ra, kimdir “tartibli, ba’mani, fozil, axloqli va odobli” deyilsa, kimdir – be’mani, bebos, o‘zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya’ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda – betartib) degan hayotiy mavqega ega bo‘lib qoladi.

Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko‘pligi sababli ham turli vaziyatlardagi uning mavqeい – statusi ham turlicha bo‘lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o‘zi uchun o‘ta ahamiyatli bo‘lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o‘sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. Qolaversa, rollarning ko‘pligi ba’zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda – shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin. Masalan, sirdan taxsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonasiga komissiya kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, ruhiy azobga tushadi – bir tomondan, talabalik va uning talablari, ikkinchi tomondan – kasbdoshlar oldida uyalib qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o'zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniqsa, yoshlar o'zgaruvchan sharoitlarga tezroq moslashish uchun ba'zan bir-biriga zid hislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, yosh oila boshlig'i, talaba, ota-onalarga moddiy jihatdan qaram bo'lmaslik uchun, bir vaqtning o'zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa – chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lishi mumkin. Bu holat tabiiyki, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o'z ustida muttasil ishslashni talab qiladi.

### 7.5. Shaxsnинг

#### ijtimoiylashuvi

Ijtimoiylashuv yoki sotsializasiya tushunchasi sof ijtimoiy-psixologik va sotsiologik kategoriya bo'lib, bu shaxsning uni o'rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta'sirlariga berilishi, uning norma va qoidalarini o'zlashtirishga moyilligi, o'zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayondir. Bu tushunchaning umumiy ma'nosida insonning tug'ilib, o'zini bevosita o'rab turgan tashqi muhit ta'sirida ulg'ayishi, shu jamiyat, shu atrof-muhit qurshovida tarbiyalanishi yotadi. Oila muhiti har bir shaxs uchun ana shunday *birlamchi*, *dastlabki* ijtimoiylashuv o'chog'i, maskani hisoblanadi. Ijtimoiylashuvning ikkilamchi maskanlari ham mavjudki, unga barcha bosqichdagi ta'lim muassasalari, Mehrbonlik uylari, maxsus internatlar hamda harbiy bilim yurtlari kiradi. Chunki u yerda nisbatan uzoq vaqt mobaynida bola tarbiyalanadi, o'sha yerning normalari, qadriyatları va talablari ta'sirida dunyoqarashi shakllanadi, shaxs bo'lib yetiladi. Agar dastlabki yoki ikkilamchi sotsializasiyadan chekinish, undan mahrum bo'lish yoki xulqning tashqi salbiy ta'sirotlar natijasida deviant shaklga kelishi qayd etilsa, unda ilmiy tilda aytganda, *resotsializasiya* deb nomlangan jarayon nazarda tutiladi.

• Shunday qilib, tor ma'noda ijtimoiylashuv shaxsnинг ijtimoiy muhitga kirib borishi, unda singib ketishi, tashqi ijtimoiy muhit normalarini qabul qilib ularga rioya qilishi yoki qilmasligini tushuntiruvchi jarayondir. "Ijtimoiylashuv" tushunchasi ma'no jihatdan yaqin bo'lgan ikki xil tushuncha bilan bog'liq: "tarbiya" va "moslashuv". Ijtimoiylashuv tarbiya jarayonidan ancha kengroqdir,

chunki uning ma’no-mazmunida har doim ham qolipga solib bo‘lmaydigan, har doim ham shaxs tomonidan anglanmaydigan holatlar ham mavjud bo‘ladi. *Moslashuv* esa ijtimoiylashuvning bir tarkibiy qismi, uning mexanizmi sifatida qaralishi mumkin. *Ijtimoiy-psixologik moslashuv*, ya’ni, shaxsning ijtimoiy munosabatlarga ko‘nikishi va moslashishi orqali orttirgan tajribasi umumiy ijtimoiylashuvning bir ko‘rinishidir.

Ijtimoiylashuv jarayonida inson jamiyatdagi ijtimoiy normalarni o‘zlashtiradi, turli rollarni bajarishga o‘rganadi, jamoatchilik sharoitida o‘zini tutish ko‘nikmalarini hosil qiladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi shu ma’noda uning ijtimoiy borliqni bilishiga, anglashiga asoslanadi.

*Ijtimoiylashuv manbalariga* quyidagilar kirdi:

1) *bolalik davrida orttirilgan tajriba* – bu jarayon psixik funksiyalarning shakllanishi va dastlabki ijtimoiy xulq normalarining namoyon bo‘lishi bilan parallel ravishda kechadi;

2) *ijtimoiy institutlar* – ta’lim va tarbiya tizimi; oiladan boshlab, to oliy o‘quv yurtlari va undan yuqori pog‘onalardagi ta’lim olishga imkon beruvchi maskanlar, mehnat jamoalari shular jumlasidandir;

3) *muloqot va hamkorlikdagi faoliyat jarayonidagi odamlarning ta’siri*. Bu o‘rinda ham rasmiy, ham norasmiy sharoitlarda odamlarning bir-birlari bilan muloqoti, muomala maromlari nazarda tutiladi.

Inson hayoti mobaynida bajaridigan har bir rolida uni o‘rab turgan ijtimoiy borliqning normalari, qoidalari, xulq-atvor mezonlari o‘z aksini topgan bo‘ladi. Har bir odam hayoti mobaynida haddan ziyod ko‘p turli rollarni bajaradiki, ularning barchasi uning ijtimoiylashuv tajribasida munosib iz qoldiradi. Shuning uchun ushbu jarayonda har bir odam o‘zining jamiyatda o‘rnini topishga intiladi va samarasiga ko‘ra u yoki bu mavqega erishadi. Aslini olganda ijtimoiylashuvning har bir bosqichida shaxs o‘zining “Men”ini tobora anglab, unga kerakli tuzatishlar kiritib boradi. Agar shaxsiy tajriba ijobiy bo‘lib, odam ko‘rgan-kechirganlardan yaxshi va to‘g‘ri xulosalar chiqarib, to‘g‘ri turmush tarzini shakllantira olsa, uning

odamlar orasida obro'si yuqori, aks holda shaxs degradasiyasi, xulqdagi deprivasiyalar haqida xulosa chiqariladi.

Demokratik jamiyatda ijtimoiylashuvning ma'nosi odamning o'z "Men"ini to'la ifoda eta olishi, o'z iqtidori, salohiyati va imkoniyatlarini o'z kamoli va odamlar manfaatiga bo'ysundira olishi bilan ifodalanadi. Totalitar tuzum esa aksincha, odamlarda mazoxizm (tobelikka ko'nikish, axloqan past ketishliklar), sadizm (o'zgalar ustidan cheksiz hukmron bo'lishga intilish, odamlarni qo'rqtish, ular ustidan zo'ravonlikni namoyon etish), destruksiya (o'z nochorligidan qutulish uchun butun dunyoga zarar keladigan harakatlardan jirkanmaslik), konformizm (o'z "Men"idan voz kechib bo'lsa ham o'zgalar hukmiga itoat etishga o'rganib qolish) kabi holatlarni keltirib chiqaradi.


Demokratik o'zgarishlar, inson manfaatlarining hurmat qilinishi qanday ijobjiy holatlarga olib kelishini biz mustaqil O'zbekistonning demokratik islohotlari va ularning yurtimizda yashayotgan, tug'ilib kamol topayotgan insonlar taqdirida ham ko'rib turibmiz. Mustaqillik yillarda bizning yurtdoshlarimizning nafaqat dunyoqarashi, fikrlash tarzi va mental qobiliyatları, balki o'zlariga, o'zgalarga, O'zbekistonni o'zining yagona Vatani deb tan olgan minglab qardosh millat vakillariga ham munosabatlari yaxshi tomonga o'zgardi, barcha bunyodkorlik, Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi va xalq farovonligi yo'lida bir tan, bir jon bo'lib, harakat qilishga o'rgandi. Shuning uchun ham o'sib kelayotgan yosh avlod katta avloddan ko'ra aqli, dono, ilmga chanqoq, demokratik o'zgarishlarga ko'nikkanroq bo'lib voyaga yetmoqda. Chunki ularning ijtimoiylashuvi uchun yurtimizda barcha shart-sharoitlar yaratilganligi o'zining juda katta ijtimoiy samarasini bermoqda.

#### 7.6. Oilaviy ijtimoiylashuv va uning o'ziga xosligi

Oilaviy ijtimoiylashuvning qadri  
va ahamiyati shundaki, uning ta'sirida  
*birinchidan*, shaxs katta, mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi,  
o'ziga yarasha sifat va fazilatlarni shakllantirib boradi, *ikkinchidan*, har tomonlama  
yetuk, barkamol, aqli, sog' va salomat shaxs bo'lib yetishish imkoniyatiga ega  
bo'ladi. Ya'ni, oila va uning sog'lom ma'naviy muhiti bolani jamiyatda yashashga,

o‘ziga o‘xshash shaxslar bilan murosa qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-hunarli bo‘lish, muomalada axloq-odob normalariga bo‘ysunishga o‘rgatadi, psixologik jihatdan tayyorlaydi.

Rus sotsiolog olimi *A.Antonovning ta’kidlashicha*, oila ijtimoiy-psixologik yaxlitlik sifatida shaxsga shunday normativ va axborot ta’sirlarini ko‘rsatadiki, oqibatda bola eng avvalo, jamiyatdagi qonuniy normalar, xulq andozalarini egallaydi.<sup>16</sup> Oila qanchalik inoq, uyushgan va mustahkam bo‘lsa, uning normativ ta’siri ham shunchalik ijobiy samarali bo‘ladi. Bunday oilada o‘zining qadriyatlaridan tashqari, jamiyatning qadriyatlari, qonun-qoidalar va normalar hurmat qilinadi, bola boshidan jamiyatda yashashga o‘rgatilgan bo‘ladi. Uning ahamiyati shundaki, farzand maktabgacha tarbiya muassasasida ham, keyinchalik maktab, kollej yoki litseyda o‘qiganda ham tartibli, intizomli, aytilgan vazifa, berilgan topshiriqlarni mas’uliyat bilan vijdonan bajaradigan bo‘lib, bolalar jamiyatida hamisha o‘zining o‘rniga ega bo‘la oladi. Bunday farzandga turli bid’atlar, bemaza chaqiriqlar, da’vatlar ta’sir etmaydi, mustqil fikrli, pok vijdonli inson bo‘lib yetishadi.



**7.2-rasm. Omillar guruhining ijtimoiylashuv bosqichlaridagi o‘rni<sup>17</sup>.**

Chunki, oila bu kichik jamiyat, jamiyatning kichiklashgan andozasi, oila mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham mustahkam bo‘lishini o‘zbek xalqi juda yaxshi

<sup>16</sup> Социология семьи: Учебник / Под ред. проф. А.И. Антонова. – М.: ИНФРА-М, 2005. – С. 220.

<sup>17</sup> Умарова Н.Ш. Шахс иктисадий ижтимоийлашувига таъсир этувчи ижтимоий-психологик омиллар: Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация: 19.00.05. – Т.: ТДИУ, 2019. – Б. 34.

biladi, shuning uchun ham ayniqsa, mustaqillik yillarda oila bizning Vatanimizda qadrlanadi, nikoh muqaddas rishta sifatida e'zozlanadi. Shunday qilib, bolaning ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi qator ijtimoiy omillar mavjud. Masalan, jamiyat miqyosida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlatning yoshlar siyosati, ta'lim muassasalarini va u yerlardagi ta'lim va tarbiya standartlari, diniy muassasalar (majitlar), bozor munosabatlari kabi qator jarayonlar ushbu masalaning mazmun va mohiyatini belgilaydi. Yuqorida aytilgan resotsializasiya jarayonidan tashqari, oila muhitining o'zi ham ayrim holatlarda salbiy ma'nodagi ijtimoiylashuvga aloqador bo'lib qolishi mumkin. Olimlar o'tkazilgan qator tadqiqotlar asosida ana shunday omillarning qiyidagi guruqlarini ajratganlar:

- ota-onalar o'rtaida murosaning yo'qligi, oilaviy o'zaro munosabatlarni mustahkamlash borasida aniq belgilangan axloqiy tamoyillarning mavjud emasligi;
- ota-onalarning ruhiy nosog'lomligi va qonunbuzarligi;
- yashash sharoitlarining yaxshi emasligi, bolaning to'laqonli o'sishi, dars tayyorlashi, jismonan chiniqishi uchun sharoitlarning yetarli emasligi;
- maktab sharoitining talab darajasida emasligi;
- mahalla hududida oila obro'sining yaxshi emasligi, notinch, noqobil oila maqomiga egalik;
- global axboratlashuv sharoitida turli axborot manbalari, jumladan, Internet tarmog'i orqali bola ongiga yetib kelayotgan turli ma'lumot, ig'vo, uydirma, mish-mish, oila qadriyatlariga zid axloq namunalari va boshqalar oxirgi yillarda bola ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy omillar jumlasidandir.

Oila ham rasmiy, ham norasmiy alomatlariga ko'ra uyushgan kichik ijtimoiy guruh hisoblanadi. U guruh a'zolarining: er va xotin, ota va ona, o'g'il va qiz, aka va singil, buvi va buva va hokazolarning ijtimoiy roli bilan belgilanuvchi tarkibiy tuzilishga ega. Ana shu rollardan kelib chiqib, oila a'zolari o'rtaсидаги munosabatlar, mauyyan vazifa va majburiyatlarni bajarish barobarida qaror topadi.

Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan qaraganda, jamiyatning eng kichik tarkibiy tuzilmasi bo'lmish oila undagi vazifalar va rollar taqsimoti jihatidan ko'rib

chiqilishi lozim. Uyushma bo‘lgan oilaning a’zolari biron-bir vazifani bajarishi va shundan kelib chiqadigan qandaydir rolni ijro etishi zarur. Oila risoladagidek bo‘lishi uchun er-xotinning huquqi va majburiyatlari aniq belgilangan bo‘lishi, ziddiyatlarni keltirib chiqarmasligi, oilaning boshqa a’zolari niyat va maqsadlarini inobatga olishi kerak<sup>18</sup>.

Yuqoridagi holatlar ayniqsa, globallashuv davrida oila institutining bola sotsializasiyasi va ijtimoiy tarbiyasidagi o‘rni nechog‘li sezilarli ekanligini yana bir marotaba isbotlamoqda.

### *7.7. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari*

Shaxs ijtimoiylashuvi muammosi ko‘tarilganda, ijtimoiy tajribaning u tomonidan qanday yo‘l bilan va qay darajada o‘zlashtirilganligi ijtimoiy ustanovka fenomeni orqali tushuntiriladi.

Ma’lumki, ustanovka muammosi dastlab gruziyalik psixologlar, jumladan, *D.N.Uznadze* tomonidan fanga kiritilgan edi. Lekin ushbu jarayonning psixologik qonuniyatlarini o‘rganish oddiy ustanovka bilan ijtimoiy ustanovka o‘rtasida muayyan farqlar borligini isbotladi. Chunki *D.Uznadze* konsepsiyasiga muvofiq, “ustanovka sub’yektning yaxlit bir dinamik holatini, uning qandaydir faollik va harakatlarga tayyorligini bildiradi va asosan ikki omilning ta’sirida namoyon bo‘ladi: sub’yektning ehtiyojlari va muayyan ob’yektiv vaziyatning holati”. Ya’ni, konkret bir vaziyatlarda u yoki bu ehtiyojni qondirishga yo‘naltirilgan va qandaydir ma’noda odatiy shakl olgan holat ustanovka deb ataladi. Uznadze ustanovkani keltirib chiqaruvchi vaziyatni tahlil qilganda, uning ijtimoiy omillarga bog‘liq tomonlariga, shaxs hayoti mobaynida orttirgan ijtimoiy tajribasi nuqtai nazaridan qaramagan edi.

*G.M.Andreyevan*ing ta’kidlashicha, *Uznadze* taklif etgan ustanovkalar konsepsiysi asosan insondagi oddiy fiziologik ehtiyojlarning qondirilishi bilan bog‘liq holatlarni tushuntirishga bag‘ishlangandir. Chunki uning tushunishicha, ustanovka ko‘proq ongsiz harakatlarni tushuntirishda qo‘l keladi. Hayotda ijtimoiy

<sup>18</sup> Lutfullayeva N.X. Turmush qurban talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixol. fan. nomz. ... dis.: 19.00.05. – Toshkent: TDIU, 2006. – B. 34.

vaziyatlar ularda shaxs orttirgan tajribaning o'zlashtirilishi katta ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, ijtimoiy psixologiyada, sotsiologiyada uni alohida psixologik holat sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

G'arb ijtimoiy psixologiyasida ijtimoiy ustanovkalarni o'rganish va uni tavsiflash uchun "*attitud*" – *attityud* tushunchasi qo'llaniladi. Xorijlik olimlar attityudga ta'rif bergenlarida uning ijtimoiy xulqqa aloqador ekanligini, individning ilgarigi tajribasi ta'sirida u yoki bu vaziyatlarga reaksiya berishi holati ekanligiga ko'proq urg'u beradilar. Shundan kelib chiqib, attityudning to'rtta asosiy *vazifasi* mavjud ekanligiga e'tibor qaratilgan:

- 1) *moslashtiruvchi* – attityud sub'yeektni uning maqsad va manfaatiga aloqador bo'lgan ob'yektlarga yo'naltiradi, moslashtiradi;
- 2) *bilish funksiyasi* – konkret ob'yektgaga nisbatan mavjud vaziyatda anchagini qulay bo'lgan xulq-atvor shaklini tanlashga yordam beradi;
- 3) *namoyon etish funksiyasi* – individni shaxs sifatida, muayyan qadriyatlarga e'tiqodi bor inson sifatida tutishini ta'minlaydi;
- 4) *himoya vazifasi* – shaxsning ichki ziddiyatlarini bartaraf etish va turli vaziyatlardan chiqib ketishiga imkon beradi.

Bu funksiyalarni bajaruvchi attityud olimlar fikricha o'ziga yarasha *tizinga* ham ega bo'ladi. Amerikalik M.Smit attityudning uch komponentli tizimni farqlaydi:

- I. *Kognitiv komponent* – bu ijtimoiy ustanovka ob'yektini anglash bilan bog'liq jihatlar;
- II. *Affektiv komponent* – bu ob'yektgaga nisbatan hissiy munosabatlar, uni emosional baholash, yoqtirish-yoqtirmaslik bilan bog'liq sub'yektiv holatlar;
- III. *Xulq-atvor komponenti (yoki konativ)* – ob'yektgaga nisbatan real xatti-harakatni tushuntiruvchi jihatlar.

Bu uchala komponentlar o'zaro bir-birlari bilan bog'liq bo'lib, vaziyatga qarab u yoki bu komponentning roli ustunroq, sezilarliq bo'lishi mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, komponentlararo monandlik bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, ayrim talabalar talabalik burchi va ichki tartib-intizom bilan juda yaxshi

tanish bo'lsalar-da, har doim ham unga rioya qilavermaydi. "Tasodifan dars qoldirish", "jamoatchilik joylarida tartibni buzish" kabi holatlarda kognitiv va xulq-atvor komponentlarida uyg'unlik yo'qligini ko'rsatadi. Bu bir qarashda so'z va ish birligi printsipining turli shaxslarda turlicha namoyon bo'lishini eslatadi. Agar odam bir necha marta bila turib, ijtimoiy xulqqa zid harakat qilsa va bu narsa bir necha marta qaytarilsa, u bu holatga o'rganib qoladi va bu ustakovkaga aylanib qolishi mumkin. Shuning uchun ham biz ijtimoiy me'yorlar va sanksiyalar vositasida bunday qarama-qarshilik va tafovut bo'lmasligiga yoshlarni o'rgatishimiz lozim. Bu shaxsning ijjobiy tajribasi uchun real asosdir.

Ushbu fenomenga qiziqish bildirgan, uning psixologik mohiyatini ochgan olimlar keyinchalik uning ijtimoiy xulqni muvofiqlashtiriga qaratilgan "dispozitsiyalar" nuqtai nazaridan o'rganganlar. Masalan, rus olimi V.A. Yarov insondagi turli ehtiyojlar va turli ijtimoiy vaziyatlarda namoyon bo'lishi muqarrar bo'lgan xulqqa oid bir necha jabhani o'z ichiga olgan *dispozision nazariyani* ilgari surgan. Uning fikricha, shaxsning ijtimoiy ehtiyojlari va uni o'rabi turgan ijtimoiy borliqdagi faoliyati o'zaro bog'liq bo'lib, ular quyidagi jabhalarda namoyon bo'ladi.

*Birinchi jabha* – bevosita oilaviy sharoit bo'lib, unda insonning asosiy oddiy ehtiyojlari ilk yoshlikdan qondiriladi.

*Ikkinci jabha* – bevosita muloqot amalga oshiriladigan kontakt, kichik guruuhlar bo'lib, individ bu muhitda o'zini namoyon etadi.

*Uchinchi jabha* individ hayot-faoliyatini amalga oshiradigan kengroq ijtimoiy borliq bo'lib, unda u mehnat qiladi, dam oladi, maishiy muammolarini hal qiladi.

*To'rtinchi jabha* shaxsni bevosita o'rabi turgan milliy-madaniy borliq, undagi mafkuraviy i madaniy qadriyatlarning o'zlashtirilishi tufayli namoyon bo'ladigan xatti-harakat aktlarini qamrab oladi. Bu konkret geografik hudud, Vatan, yurti va undagi qadriyatlardir.

Demak, yuqorida ajratilgan har bir jahbada inson o'ziga yarasha alohida ehtiyojlarini qondiradi va u mos ravishda muayyan ish-harakatlarga tayyor bo'ladi.

*Yadov* yuqoridagi jabhalarga mos keladigan konkret vaziyatlarni va ularning individiga ta'sir ko'rsatish darajalarini ham ajratadi. Masalan, *birinchi*, eng quyi bosqichdagi vaziyatlarda oddiy predmetli muloqot va tez o'zgaruvchan ehtiyojlarga aloqador holatlar namoyon bo'ladi. *Ikkinchisida* ko'proq guruh doirasidagi muloqot va undan orttirilgan tajriba nazarda tutiladi. *Uchinchisida* – nisbatan turg'un bo'lgan, hadeb o'zgarvermaydigan ish faoliyat turlari, maishiy ehtiyojlar, profossalional sohalarda ko'zga tashlanadigan ijtimoiy xulq nazarda tutilgan. Nihoyat, *to'rtinchi* vaziyatlar bosqichi muayyan ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy vaziyatlarda ko'pchilikda shakllanadigan qadriyatlarning namoyon bo'lishini taqozo etadi. Muallif yuqoridagi jahbalar, vaziyatlar va ularning shaxs individual va ijtimoiy tajribasida namoyon bo'lishini tushuntirish uchun ularga mos dispozitsiyalarni farqlaydi:

- 1) *Dispozitsiyalarning birinchi darajasi* shaxsdagi elementar, oddiy ustanovkalarni tushuntirib beradi. Bu *D.Uznadze* sxemasiga mos keladigan predmetli vaziyatlarda namoyon bo'ladigan *oddiy qayd etiladigan ustanovkalardir*;
- 2) *dispozitsiyalarning ikkinchi darajasi* murakkabroq bo'lib, ular insonning bevosita kichik guruhlarda ro'y beradigan muloqoti, muomalasidan paydo bo'lgan ijtimoiy tajribasini tushuntiradi. Bu o'sha amerikaliklar ta'kidlagan *attyuddir*;
- 3) *dispozitsiyalarning uchinchi darajasi* shaxs umumiy dunyoqarashi, qiziqishlari asosida hosil bo'ladigan ijtimoiy faolligini o'z ichiga oladi va uning professional yo'nalishi, ish faoliyati, dam olishi, bo'sh vaqtini qanday o'tkazishlarida ko'rindigan *asosli ustanovkalarida* namoyon bo'ldai;
- 4) *dispozitsiyalarning to'rtinchi yuqori darajasi* shaxsdagi mavjud qadriyatlar tizimi, turmush tarzi, yurti va Vatani taqdiriga, yurtdoshlaridagi qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlarga yaqin bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalari bo'lib, unda davrga, zamon va makonga aloqador tushunchalar aks etadi va *ijtimoiy tajribaga* asos bo'ladi.

### Bob yuzasidan tayanch iboralar

Ijtimoiy psixologiyada, shaxs, ijtimoiy-psixologik yondashuvi, maqom, status, makro muhit, mikro muhit, makro muhit, agressiv tip, begonalashgan tip, impulsiv shaxs, ijtimoiy mavqeい, ijtimoiy norma, rol, ijtimoylelashuv, resotsializasiya, kognitiv komponent, affektiv komponent, xulq-atvor komponenti.

### Nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Ijtimoiy psixologiyada shaxs muammosi deganda nima tushuniladi?
2. Shaxsni o'rganishning ijtimoiy-psixologik yondashuviga ta'rif bering.
3. K.K.Platonov bo'yicha shaxs tizimi nechta guruhga ajratiladi?
4. Shaxsning yo'nalganligi va munosabatlari tizimiga ta'rif bering.
5. Shaxsning individual ijtimoiy tajribasi deganda nima tushuniladi?
6. Inson psixik jarayonlarining individual xususiyatlariga ta'rif bering.
7. Biologik xususiyatlarga bog'liq shaxs sifatlari deganda nima tushuniladi?
8. Makro muhit deganda nima tushuniladi?
9. Mikro muhit deganda nima tushuniladi?
10. Hududiy jabhada makro muhitning ta'siri qaysi omillar orqali kechadi?
11. Shaxsning ijtimoiy-psixologik tipologiyasiga ta'rif bering.
12. Amerikalik K.Xorni shaxsning ijtimoiy-psixologik tipologiyasini nechta turga bo'lgan, ularga ta'rif bering?
13. Ijtimoiy-psixologik moslashuv deganda nima tushuniladi?
14. Ijtimoylelashuv manbalariga nimalar kiradi?
15. Attityud nima?
16. Attityudning nechta asosiy vazifasi mavjud?
17. Amerikalik M.Smit attityudning nechta komponentli tizimini farqlaydi?

### Bibliografiya


1. Крысько, В.Г. Социальная психология: Учебно-методическое пособие / В.Г. Крысько. – М.: Кнорус, 2020. – 304 с.

2. David G. Myers. Social Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: McGraw-Hill, 2010. – 609 p.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
4. Майерс Д. Социальная психология. Интенсивный курс / Д. Маэрс. – 4-е междунар. изд.. – СПб.: ПРАЙМ-ЕВРОЗНАК, 2007. – 510 с.
5. Немов Р. С., Алтунина И. Р. Социальная психология: Краткий курс. – Спб.: Питер, 2009 – 208 с.
6. Узнадзе Д.Н. Общая психология / Пер с грузинского Е.Ш. Чомахидзе; Под ред. И.В. Имедакдзе. – М.: Смысл, 2004. – 413 с.
7. Узнадзе Д.Н. Психология установки. – СПб.: Питер, 2001. – 414 с.

## VIII BOB IJTIMOIY PSIXOLOGIYA VA XAVFSIZLIK

### 8.1. Axborot xavfsizligi: mohiyati va shaxsni ijtimoiy-psixologik himoya qilish muammolari

Xavfsizlik tushunchasi bevosita shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, texnik, ekologik va biologik tizimlarida normal faoliyat yuritishini kafolatlovchi tushunchadir. Ijtimoiy tuzilmaning, ya'ni, yaxlit jamiyatning xavfsizligi odamlar hayot tarzining sifatini, uning davomiyligini belgilovchi muhim mezondir. Bu o'rinda fanda bevosita xavfsizlik tushunchasiga yaqin ishlataladigan bir qator tushunchalarga izoh berish joiddir.



8.1-rasm. Xavfsizlik ko'rinishlari.

*Ijtimoiy xavfsizlik* – jamiyatda mayjud bo'lgan turli ijtimoiy institutlar, jumladan, xavfsizlikni ta'minlash organlari, davlat muassalari, oila va mahalla tomonidan aholining turli ehtiyojlari, orzu-istiklari, maqsad-muddaolarini amalga oshirishlariga imkon berish bilan bog'liq vazifalarini o'z ichiga oladi. Bunda ayrim-alohida tabaqa yoki aholi qatlamining manfaatlari, ya'ni, ularning yaxshi

yashashlari, uzoq umr ko'rishlari, bir hududdan ikkinchisiga ko'chib o'tishiga aloqador xavfsizlik nazarda tutilmaydi.

*Milliy xavfsizlik* – bu shaxs, jamiyat, iqtisodiyot va davlatchilikning barqaror taraqqiyot etishi uchun xavf solishi mumkin bo'lgan har qanday tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimini bildiradi. Milliy xavfsizlik tashqi va ichki xavflardan yaxlit jamiyatni muhofaza qilishni nazarda tutadi.

*Tashqi xavfsizlik* – ikki bosqichni nazarda tutadi: umuminsoniy yoki global xarakterli va davlatlararo xavfsizlik masalalari. Tashqi xavfsizlik tahlil etilganda avvalo ekologik, harbiy, radiasion, epidimiologik, kriminal-jinoiy, biologik va madaniy-axloqiy (ekspansiyalar) turdag'i xavflarni oldini olish nazarda tutiladi.

*Ichki xavfsizlik* esa mamlakat doirasida inson konstitusion xuquq va kafolatlariga aloqador bo'lgan iqtisodiy diversiyalarning oldini olish va ularga yo'l qo'ymaslikka bog'liq bo'lgan maxsus choralarни, terroristik xurujlarning oldini olish va ularni vaqtida bartaraf etish, kelib chiqishi bo'yicha ijtimoiy, tabiiy, biologik hamda texnik asosli tahidlardan jamiyat a'zolarini himoya qilishni nazarda tutadi.

Oxirgi yillarda dunyo miqyosida axborot texnologiyalarining keskin rivojlanib ketayotganligi, Internet tizimning barcha davlatlar, madaniy hududlar, barcha yoshdag'i insonlar uchun qulay axborot almashinuvni vositasiga aylanib borayotganligi munosabati bilan xavfsizlikning o'ziga yana bir turi axborot xavfsizligi paydo bo'ldi.

*Axborot xavfsizligi* – aslida jamiyatning ob'yektiv, xolis, haqqoniy axborot manbaiga ega bo'lishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarni nazarda tutadi. Albatta, bunga mustaqil axborot vositalari orqali aholiga yetib keladigan ma'lumotlar oqimi ham kiradi. Bu vositalar aynan mustaqil bo'lganliklari uchun ham birinchi navbatda moliyaviy, qolaversa, siyosiy va boshqa tononlardan hech bir siyosiy kuch, alohida davlat yoki ijtimoiy qatlaming manfaatlariga xizmat qilmasliklari kerak. Chunki mustaqil OAV aslida odamlarda sodir bo'layotgan turfa xil jarayonlarga nisbatan xolis fikrning shakllanishiga imkon berishi lozim.

Lekin amaliyotda ming afsuski, har doim ham shunday bo'lavermaydi va jamiyat o'z a'zolarini, ayniqsa yosh avlodni turli axborot xurujlaridan himoya qilishga majbur bo'ladi.

*Axborot xavfsizligining vazifalari:*

- 1) shaxs va jamiyatning axborot qabul qilish va undan foydalanishga bo'lgan huquqini ta'minlash;
- 2) xolis axborotlar makonini ta'minlash (mustaqil OAV tizimini yaratish orqali);
- 3) informatsion va telekommunikatsion texnologiyalar sohasidagi jinoyatlarni bartaraf etish yo'li bilan ushbu yo'nalishda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan terroristik tahdidlar, jumladan, telefon orqali, kompyuter tizimi orqali ro'y beradigan xavflarni, shu orqali noqonuniy mablag'larning bir manbadan ikkinchisiga oqim ketishiga yo'l qo'ymaslik;
- 4) shaxsni, tashkilot va yaxlit jamiyatni axborot-psixologik tahidlardan himoya qilish;
- 5) imidjni shakllantirish, turli bo'hton, mish-mishlar va noo'rin xabarlarga qarshi kurashish.

*Axborot xurujlari* turlicha bo'lgani uchun unga nisbatan xavfsizlik choralarini ko'rish ham turli sohalarda (siyosat, iqtisodiyot, mudofaa) va turli jabhalarda (davlat miqyosida, hududiy, tashkiliy, shaxsiy) amalga oshiriladi. Ya'ni, davlat miqyosida axborot xavfsizligini ta'minlashga aloqador bo'lgan ishlar muayyan bir tashkilot doirasida amalga oshiriladigan axborot xavfsizligidan farq qiladi. Birinchisiga gap milliy manfaatlarni himoya qilish to'g'risida ketsa, ikkinchi holatda tashkilotdagi muayyan ijtimoiy guruqlararo axborot almashinuvida bo'hton, tuxmat, mish-mishlar tarqatishga bog'liq bo'lgan salbiy holatlar nazarda tutiladi. Lekin ikkala holat ham axborot xurujlariga odamlarning normal faoliyatlari uchun xalaqit beruvchi omil sifatida qaraladi.

*Axborot xurujlari* – bu shaxsga, muayyan tashkilot va davlatga yo'naltirilgan ta'sir bo'lib, uning asl maqsadi o'sha shaxs, tashkilot va davlatning normal hayot

tarzining buzilishini nazarda tutgan siyosiy va ijtimoiy guruhlarning g'arazli niyatlaridan kelib chiqadi.

Saylov kompaniyalarida odatda axborot xurujlarining bir ko'rinishi bo'lmish "qora piar" usulidan foydalaniladiki, unda yozma ravishda nashriy manbalar orqali bo'htonli murojaat, yoki radio-televideeniye orqali u yoki bu mavzu doirasida g'irt yolg'onga asoslangan chiqish qilinadi. Shuning uchun ham bunday sharoitlarda axborot xavfsizligi eng avvalo saylovda qatnashayotgan davogarlar yoki siyosiy partiyalarning obro'sini saqlab qolish, ular to'g'risida ob'yektiv imijning hosil bo'lishiga xizmat qiladi.

Oxirgi paytlarda turli xorijiy OAV orqali tarqatilayotgan turli xil asosli-asossiz axborotlarda odamlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ma'lumotlar tarqatilmoidagi, ularning ta'sirida ayrim odamlar va yaxlit ijtimoiy guruhlarda bir-biriga nisbatan ba'zan agressiv, ochiq deviant xatti-harakatlarni keltirib chiqaruvchi holatlar yuzaga kelmoqda. Bunga biz chet el OAVning 2005-yil may oyida Andijonda bo'lib o'tgan voqealarni sharhlashlarida guvoh bo'lganmiz. O'shanda ayrim xorijlik jurnalistlar voqealarning asl mohiyatini xaspo'shslash, noto'g'ri talqin qilish orqali jamiyatimizdag'i barqarorlikka tahdid solmoqchi bo'lgan edilar. O'zbekiston ochiq OAV orqali voqealarning xolis bayon etilishi esa bunday sharoitda axborot xavfsizligini ta'minlagan muhim manba rolini o'ynagan edi.

Shu sababli ham axborot xavfsizligi to'g'risida gap ketganda, nafaqat u yoki bu mazmunli axborotlar, ma'lumotlarni ishonchli tarzda saqlash, balki aniq, xolis ma'lumotni ishonchli manbalar orqali qabul qilish va yetkazish masalalari ham nazarda tutiladi.

Oxirgi yillarda kompyuter vositalari orqali amalga oshirilayotgan axborot xurujlari haqida ko'p yozilmoqda. Bunday xurujning o'ziga xosligi shundaki, kompyuter tarmoqlari orqali yetkazilayotgan ma'lumotlarning aniq manzilini bilish ancha mushkul bo'ladi. Ya'ni, xurujga qarshi turishda uning kimdan va qayerdan kelayotganligini bilish muhim, aynan shu jihat kompyuter terrorizmi deb atalmish xavfni bartaraf etishda qiyinchiliklar tug'diradi. Chunki bu vosita orqali

tarqatiladigan axborot bir zumda nafaqat bir davlat doirasida, balki bir qancha mamlakatlarga tezkor axborotday tarqalib ketishi mumkin. Shunday qilib, kompyuter jinoyati sodir etilganda uning ob'yekti bevosita kompyuter, kompyuter orqali uzatiladigan ma'lumot va tarmoq hisoblanadi.

Mutaxassislar kompyuter jinotchiligining quyidagi turlarini farqlaydilar<sup>19</sup>:

- 1) terrorizm;
- 2) joususlik (xalqaro va sanoat sohasidagi);
- 3) ekstremistik guruuhlar faoliyati (siyosiy, ekologik va diniy yo'nalishlardagi);
- 4) uyushgan jinoyatchilik va qalloblik;
- 5) xakerlar faoliyati (alohida va uyushgan guruuhlar).

Yuqori axborot texnologiyalari sohasida esa quyidagi toifali jinoyatchilik turlari farqlanadi:

- a) *xakerlar* (ingliz tilidan olingan: *hackers*) – kompyuterlar va axborot tizimlarini juda yaxshi biladigan odamlar;
- b) *krekerlar* (ingl. *crackers*) – axborot tizimning xavfsizligi ataylab buzib, ruxsatsiz unga o'zgartirish kiritish bilan shug'ullanadigan insonlar;
- v) *frikerlar* (ingl. *phreakers*) – turli xil telekommunikatsiya tizimlarida qo'poruvchilik bilan shug'ullanadiganlar.

Bu kabi jinoyatchilar guruhi odatda yirik kommunikatsiya tarmoqlarida qo'poruvchilik qilib, bank va tartibni saqlash muassasalari tarmoqlaridagi axborot tizimini buzishga harakat qiladilar, chunki bu ishlarni tagida yotgan maqsad hamisha g'arazli bo'lib, u yirik pul mablag'lariga ega bo'lish bilan bog'liqdir. Bugungi kunda AQSh ana shu kabi yirik elektron terrorizmning xavfi ostida qoldi. Bu kabi ishlarga ayrim-alohida shaxslar kirishsa, ularni tezda aniqlab topish, jazolash mumkin, lekin bunga uyushgan jinoyatchilar guruhi kirishsa, buning xavfi kattaroqdir.

Harbiy ekspertlarning bergen ma'lumotlariga ko'ra, XXI asrda ana shunday axborot xurujlari bilan shug'ullanish orqali mamlakatlar xavfsizligiga tahdid

<sup>19</sup> Каменская Е.Н. Социальная психология: Конспект лекций: Учебное пособие / Е.Н. Каменская. Изд-е 2-е. – Ростов н/Д: Феникс, 2006. – 192 с (С. 179).

solist, noqonuniy ishlar bilan shug'ullanish, katta pul miqdorlarining bir mamlakatdan ikkinchisiga o'tib ketaverishi o'ziga xos axborot-psixologik urushining yaqinlashib kelayotganligidan, uning quroli – aynan axborot va psixologik ta'sir ekanligini ta'kidlamoqdalar. Bu holat psixologlar oldiga, jumladan, ijtimoiy psixologiya oldiga o'ziga xos vazifalarni qo'yadi.

### 8.2. *Informatsion-psixologik xavfsizlik*

Informatsion tahdid va uning psixologik mohiyati ko'plab siyosatchilar, psixologlar izlanishlarining predmetiga aylanib bormoqda. *G.Pochepsovning ta'kidlashicha*, axborot urushida eng avvalo psixologik qonuniyatlar inobatga olinadi. *Axborot-psixologik qurol* – bu yangi turdag'i qurol bo'lib, u ommaviy axborot vositalari, kompyuter o'yinlari, Internet tizimi yordamida inson ongi orqali uning psixikasiga ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangandir.

“Axborot urushi” tushunchasi nisbatan yangi bo'lib, u o'ziga siyosiyligi, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy borliqning turli jabhalarini qamrab oladi. Uning asosiy ko'rinishlaridan biri – kompyuter viruslari va yangi texnologiyalarni o'g'irlash orqali ziyon yetkazishdir. Axborot urushining oqibatida avvalo tanlab olingan auditoriya (ko'pincha bu yoshlar auditoriyasi)ning bilimlari, ta'lim tizimiga ta'sir ko'rsatilib, ularning an'anaviy madaniyatini qo'porib tashlashga urinish sodir bo'ladi. Bunday sharoitda odatda “hamma hammaga qarshi” bo'lib, mag'lub tomon odatda u yoki bu sohadagi ustuvor maqomini batamom yo'qotadi. Bunday qurolni ishlatishni bilgan bir xovuch g'arazli niyatli odamlar katta ijtimoiy guruhlarni yoki yaxlit mamlakatlarni o'ziga tobe qilishi, o'z axborot makonida saqlashi mumkin. Odatda qaysi mamlakatda axborot resurslari ko'p bo'lib, u yuqori texnologiyalar borasida ilgarilab ketgan bo'lsa, aynan shu davlatning axborot urushi komida qolish ehtimoli yuqori bo'ladi. Shu sababli ham dastlab axborot urushlari haqidagi axborotlar rivojlangan Yaponiya va AQShlarida qayd qilina boshlangan.

Shunday qilib, axborot urushi – bu gumanitar sohada bir ijtimoiy guruhning boshqa bir ijtimoiy guruh manfaatlaridan qat'iy nazar uni o'ziga tobe qilish, o'z

qadriyatlariga ko'ndirishga qaratilgan uzoqni ko'zlagan siyosatidir. Bunda asosiy qurol rolini cheksiz ma'lumotlar makonida faoliyat yurgizayotgan elektron OAV o'ynaydi.

Axborot urushlari olib borishning uslullari ham turlicha bo'lib, uning asosiyлари quyidagilardir:

- Axborot xurujlarining eng keng tarqalgan turiga avvalo *reklamani* kiritish mumkin. Chunki yaxshi ishlangan reklama – bu odamlarning ishonch va e'tiqodini juda tez o'zgartiradi. Ishonch va e'tiqodning o'zgarishi esa egasini dadil harakatlarga chorlaydi.

- *Parchalab tashlangan ma'lumotlar* – axborot xurujlarini amalga oshirishning yangi vositalaridan biri. Bunda bir qarashda ahamiyatsiz, ayrim-alohida ma'lumotni o'zida mujassam etgan axborot uni idrok etganlarning madaniy saviyasiga bevosita ta'sir qilib qo'yganini bilmay qoladi kishi. Amerikalik olimlarning ta'kidlashicha, odatda aqli mutaxassislar muhim, global xarakterli ma'lumotlarga e'tibor berib, orada o'tkazib yuborilgan, qo'shib berilayotgan narsalarga e'tibor qaratmaydigan. Lekin aynan o'sha kichik ma'lumot ongosti tizim orqali shaxsga kuchli ta'sir qilishi mumkin. Masalan, chiroyli, ma'nili qo'shiqni, bema'ni libos, yot madaniyatga xos bo'lgan qolipda tikilganligi, yoshlarning kiyinish didiga kuchli ta'sir qilishi mumkin. Chunki odatda kattalar qo'shiqning mazmuniga e'tibor berishsa, yoshlar qo'shiqchining libosi, o'zini tutishiga ahamiyat beradi.

- *Tashabbusni egallah* – axborot agressiyalaridagi yana bir usul. Yangi ma'lumotni bilgan zahoti uni egasidan avval "meniki" deb berib yuborish ko'plab axborot kanallarida ishlatiladigan usul bo'lib, o'zgalar tashabbusini "bizniki" deyish orqali o'z mamlakati aholisi, xattoki, xorij kanallarida o'zlariga ma'qul fikrni ta'kidlab, noma'qulini o'zgalarnikiday ko'rsatishga asoslanadi.

- *Yomonlik bilan tugamaydigan qurollarni ishlatish* – mutaxasislarning fikricha, odamlar hayotiga tahdid solmaydi, bundan odamlar salomatlik yoki umrlarining tugashi kabi talofatlar ko'rmaydi, lekin ular ommani g'arazli chaqiriqlar bilan to's-to'polonlarga chiqishga majbur etishi, aloqa vositalarini

batamom ishdan chiqarishi yoki energiya manbalarini noqonuniy boshqa tarafga o'tib ketishiga olib kelishi mumkin. Masalan, bunday quroq ishlatalganda ba'zan ishlab turgan radio kanal tarmog'iga begona kanal tushib olib, o'z "diydiyosi"ni gapirishi, odamlarning "nima bo'ldi ekan?" qabilida qiziqishlariga asoslanib, biror siyosiy liderni yomonlashi, yoki genosidni tarqatishi mumkin. Maqsad – tinglovchilarning fikrini o'zgartirish orqali ularning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishdir.

•*Axborot orqali ta'sir ko'rsatish mexanizmi* – asosli yoki asossiz, o'rinchli yoki o'rinsiz axborot yetkazish orqali ommanning ongini boshqarishga tayanadi. Chunki omma yoki "ommaviy odam" teran tafakkur yuritish, har bir ma'lumot yoki axborotni tahlil qilishga qodir emas. Shuning uchun ham yuqori texnologiya vositalari orqali odamlar ongiga ta'sir qilish uning ongosti tuzilmasiga bevosita ta'sir ko'rsatish orqali, uning idrokidagi onglilikni kamaytirish, har qanday yangi ma'lumotga nisbatan tabiiy tolerantlilikni oshirishga yo'naltirilgandir. Buni psixologlar psixikaning "kaliti" deb izohlashadi. Chunki odam hamisha yangilikka qiziqadi, "Bu nima?" refleksi ayniqsa, kichik yoshli va o'smirlik yoshidagi bolalarda kuchli bo'lgani sababli, ular tanqidsiz har turli ma'lumotni qabul qilishga moyil bo'ladilar. Shuning uchun ham oxirgi yillarda psixologlar o'z navbatida bola ongini turli g'ayri tabiiy axborotga nisbatan chiniqtirish, uning o'zida psixologik himoya vositalarini va imkoniyatlarini kuchaytirishga alohida e'tibor bermoqdalar.

Mutaxassislar fikricha, axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasini quyidagi holatlar asosida talqin qilish tavsiya etiladi:

Birinchidan, axborot-psixologik xavfsizlik – bevosita ruhiyatga ta'sir o'tkazish orqali insonni o'z aqidalari, muqaddas ideallari va e'tiqodidan ayiradigan buzg'unchi g'oyalardan asrashdir. Demak, axborot-psixologik xavfsizlikka ehtiyoj, eng avvalo, bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, jumladan, urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlar vorisiyligi, millatning istiqboli bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarga ma'naviy-ruhiy ta'sir ko'rsatuvchi buzg'unchi g'oyalar va tajovuzkor maskurlar mavjudligidan kelib chiqadi.

Ikkinchidan, axborot-psixologik xavfsizlikka rioya qilinmasa, uning ta'sirchan choralar ko'rilmasa, buzg'unchi g'oyalar milliy qadriyatlarni barbod etish orqali tarixan mavjud bo'lgan xalqlar va millatlarni g'oyaviy genotsidga olib kelishi muqarrar.

Uchinchidan, tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot orqali zamonaviy ruhiy ta'sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotganligi shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda kuchli ta'sir o'tkazadi. Jamoatchilik fikrining qay darajada shakllanganligiga, xalqning siyosiy ongi, huquqiy bilimlari saviyasi, ma'naviy-ma'rifiy darajasiga qarab jamiyatning taraqqiyotga yoki tanazzulga yuz tutishi turgan gap.

To'rtinchidan, ijtimoiy fikrni shakllantirishda axborot ta'sirini, axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari va uslublari tobora kengayib borayotganligini nazarda tutsak, axborot-psixologik xavfsizlik muammosining dolzarbligiga yanada jiddiyoq e'tibor qaratishga to'g'ri keladi.

Beshinchidan, axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasining mohiyati shundaki, u alohida olingen inson, jamiyat tushunchalari doirasidan chiqib ketib, yaxlit insoniyat, butun kishilik taqdiri bilan bog'liq global masalalarни ham qamrab oladiki, ushbu jihat bilan u hozirgacha mavjud bo'lib kelgan global muammolarning eng tajovuzkor, eng buzg'unchisi ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu holat xalqaro siyosatda, davlatlararo, mintaqalararo muammolarni hal etishda buyuk davlatchilik shovinizmi avj olishi mumkin bo'lgan holatlarda yana ham xavfliroq mohiyat kasb etadi. Bunday paytda ko'proq an'anaviy siyosiy muvofiqlashtirish tajribalaridan kengroq foydalanish talab etiladi.

Oltinchidan, axboriy-psixologik xavfsizlik tushunchasi ma'lum bir xalq, millat, mamlakat hayotida jiddiy ijtimoiy xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlardan tinchlik va barqaror taraqqiyot yo'lida unumli foydalanishni va ularni boshqarishni, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga siyosiy tus bermaslik usullarini ishga solishni taqozo etadi.

Bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni, masalan U.D. Qodirovning (Yoshlarni destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari", 2019) tadqiqotni alohida e'tirof etish mumkin.

### 8.3. Shaxsnинг о‘з-о‘зини himoya qilish vositalari

O‘z vaqtida Hindistonning taniqli siyosiy arbobi Maxatma Gandhi shunday yozgan ekan: "*Men uyimning darvoza va eshiklarini mahkam berkitib o‘tira olmayman. Chunki unga toza havo kirib turishi kerak. Va shu barobarida eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib, xonadonimni ag‘dar-to‘ntar qilib, o‘zimni yiqitib tashlashini ham xohlamatayman*". Bu so‘zlarni bugungi informatsion xurujlar va turli xil ma’lumotlarning turli yo‘llar bilan mamlakatimizga, umuman, boshqa mamlakatlarga ham kirib kelib, u yoki bu mintaqada asrlar mobaynida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlar, e’tiqod shakllariga va tarbiya uslublariga salbiy yoki ijobjiy ta’siri jarayonlari ma’nosida qo‘llash ham mumkin. Zero, dunyoga yuz ochgan, yoshlari dunyo tillarini bemalol egallab, “internetomaniya” kasaliga chalinish arafasida turgan O‘zbekistonga ham yaxshi, ham yomon ta’sirlar, xurujlar mavjudligi sharoitida shaxsnинг о‘зини о‘зи psixologik jihatdan salbiy ta’sirotlardan himoya qila olish imkoniyatlarini kengaytirish eng dolzarb muammolardan biridir.

Jahon hamjamiyatining mustaqil O‘zbekistonni tan olishi, davlatimizning keng tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyati o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatları va imkoniyatları tiklanishiga, о‘зини boshqa xalqlar oilasidagi to‘la huquqli millat sifatida anglab yetishiga keng imkon yaratmoqda. Tobora kengayib borayotgan xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada chuqurroq bilish, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lish uchun qulay zamin yaratmoqdaki, bu o‘z navbatida o‘zbek xalqining turli faoliyat sohalaridagi iste’dodi rivojlanishiga, uning tadbirkorlik va kirishimlilik, bir necha chet tillarni va kompyuter texnologiyalarini tez o‘rganib olish kabi iqtidorini ro‘yobga chiqishiga, xorij mamlakatlarga borish, ular bilan aloqalar o‘rnatish, dunyo standartlari bo‘yicha oliy o‘quv yurtlarida taxsil olish imkonini berdi.

Bunday aloqalarning kengayishi haqiqiy ma'naviy va madaniy qadriyatlarni munosib baholash imkonini berdi. Hozirgi yoshlar ham, ularning ota-onalari ham uchragan kinoni ko'rib, duch kelgan maza-matrasni yo'q kitoblarni o'qib ketayotgani yo'q. Ataylab yurtimizga olib kelinayotgan g'arbning sun'iy lashtirilgan san'atidan, "keng iste'mol"dagi madaniyatidan norozilik xalqimizda bor. Bunday mahsulotning ilgarigi "man etilgan ne'mat"ga xos "lazzati", jozibadorligi deyarli qolmagan. Hozirgi kunda xorijning madaniy qadriyatlaridan foydalanishga ancha jiddiy va tanlab yondashish ehtiyoji kuchayib bormoqda. Lekin ochiq ommaviy axborot vositalari orqali tinimsiz ma'lumotlar quyulib kelayotgan sharoitda aynan hali ongi shakllanib ulgurmagan farzandlarimiz uchun tahdid ham, ataylab uyushtirilayotgan mafkuraviy tajovuzlar ham bor.

Shunday sharoitda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti *Islom Karimovning* fikrlari biz uchun ahamiyatlidir: "Eng muhim, qalbimizda g'ururimiz, bilagimizda kuchimiz bor ekan, biz tinchlikni himoya qilishga, unga xavf solayotgan kuchlarga qarshi kurashishga, qaddimizni tik tutib, boshimizni baland ko'tarib yashashga qodirmiz. Bizni qo'rqiymoqchi bo'layotgan g'alamiislar shuni bilib qo'ysinki, biz hech kimga bosh egmaganmiz va hech qachon bosh egmaymiz. Bunda bizga milliy g'oyamiz va maskura g'oyaviy tayanch va asos bo'ladi (2001-yil 10-oktabr).

Zero, *milliy mafkura* xalqning maqsad-muddaolarini ifodalaydi, tarix sinovlaridan o'tishda uning ruhini ko'tarib, suyanch va tayanch bo'ladi, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko'plab hayotiy va ma'naviy muammolarga javob izlaydi. U insonga faqat moddiy boyliklar va ne'matlar uchun emas, avvalo, Allah taolo ato etgan aql-zakovat, iymon-e'tiqod tufayli yuksak ma'naviyatga erishish uchun intilib yashash lozimligini anglatadigan, bu murakkab va tahlikali dunyoda uning taraqqiyot yo'lini yoritib beradi. Istiqlol mafkurasi ko'pmillatli O'zbekiston xalqining ezgu g'oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlari, hayotiy ideallarini o'zida aks ettiradi.

Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebafo merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish – milliy istiqlol maskurasining bosh maqsadidir.

Ochiq axborot kommunikatsiya vositalari orqali insonning axborot tahdidlarini baholashi va xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlari, turli mafkuraviy tahidlardan shaxsning qanday yo'llar bilan saqlanishi mumkinligi xususida mutaxassislar turlicha fikr bildiradilar.

Ijtimoiy psixologiya ushbu masalaga oydinlik kiritish uchun avvalo egosentrizm tushunchasining ma'nosida diqqatni qaratadi. Egosentrizm so'zi lotinchcha "*ego*" – *men* va "*centrum*" – *doira markazi* so'zlaridan olingan. Ma'nos – o'z fikr-o'yлari, manfaatlari doirasida *qotib* qolgan insonning atrof-muhit va odamlarga oid o'z bilimlari va o'zgalarga munosabatini o'zgartira olmasligini bildiradi. Psixologiyada egosentrizmning bir qancha turlari – bilishga oid, axloqiy va kommunikativ egosentrizmlar farqlanadi. Oxirgisi – boshqalarga biror xil ma'lumot berish jarayonida ularning fikri bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslikda namoyon bo'ladi. Nazarimizda, zamonaviy informatsion xurujlarning mualliflarida aynan shu kabi egosentrizm kuzatiladi va ular o'zlariga o'xshash faqat o'z manfaatinigina ko'zlaydigan avlod ongini qamrab olishga harakat qiladi. Shuning uchun ham shaxsga psixologik himoya zarur. Psixologik himoya bo'lishi uchun shaxsda mustaqil fikr bo'lishi lozim.

Demak, ochiq axborotlar tahiddi sharoitida yoshlarni to'g'ri yashashga, vatanparvar va insonparvar bo'lishga, erkin fikrli bo'lishga *o'rgatish* orqali ularda mafkuraviy immunitetni tarbiyalash eng dolzarb vazifalardir. Zero, *o'rgatish* bir tomonlama jarayon bo'lmay, u "pedagog-tarbiyalanuvchi" muloqoti tizimida ko'proq *tarbiyalanuvchining fazilatlariga bog'liq*. Bunday murakkab ishni tashkil etishda har bir ijtimoiy toifa yoki shaxsning individual psixologik hususiyatlarini

inobatga olish zarurati ijtimoiy psixologiyada isbotlangan. Masalan, agar o'quvchi yoki talabalarni yaxlit guruh deb oladigan bo'lsak, ularning barchasi bilan bir vaqtida, bir xil effekt bilan ishlash va shu orqali ularning mustaqil tafakkurini o'stirish, sog'lom e'tiqodini tarbiyalashning ilojisi yo'q. Ikkinchidan, bir guruh talaba yoki o'quvchi uchun maqbul va samarali deb hisoblangan uslubni boshqasida ham aynan joriy etishga urinish bunday sharoitlarda teskari samara berishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy psixologiya shaxsning ijtimoiy-psixologik tayziqlardan qutulish yo'llariga aloqador qonuniyatlarni o'rganadi.

**8.4. Turli informatsion-psixologik vaziyatlarda shaxsnинг ijtimoiy xulqi** Ochiq axborot kommunikatsiyasi jarayonida yoshlar ongiga ta'sir etayotgan yot g'oyalarga qarshi himoya vositalarini ishlab chiqishdan avval yoshlarning ijtimoiy xulq-atvorini o'rganish lozim. Ijtimoiy xulqda ko'zga tashlanadigan eng muhim holatlardan biri *tashvishlanish, nimalardandir cho'chish* va shu tufayli *ijtimoiy munosabatlardan o'zini olib qochishga intilish hislarining namoyon bo'lishidir*. Chunki agar *psixologik himoya holatining mohiyatidan kelib chiqiladigan bo'lsa, bu – shaxs ichki kechinmalarini ifodalovchi shunday holatki, unda odam ichki ruhiy mo'tadillikni asrash uchun o'zidagi xavotirlanish, qo'rquv va xadiksirashlarini bosishga, ulardan xalos bo'lishga intiladi*. *Psixologik himoya – shaxsni turli salbiy ta'sirlardan asrashga, psixologik diskomfortni bartaraf etishga xizmat qiladi*. Shunday holatlarda odam odatda shaxslararo munosabatlarda o'zini boshqacharoq tutadigan bo'lib qoladi. Psixologlar *himoya mexanizmlariga* odatda quyidagilarni kiritadilar:

- ochiq his-kechinmalarni *bosish, ko'rsatmaslikka urinish;*
- *rad etish*, ya'ni noma'qul ma'lumotni ochiq rad etish, qo'shilmaslik;
- *proyeksiya* – o'zidagi hissiyot va kechinmalarni tashqi ob'yektlarga ko'chirish orqali paydo bo'lgan holatning sabablarini tashqaridan qidirishga moyillik;
- *identifikasiya* – o'zini axborot egasiga o'xshatish, uning o'mniga o'zini qo'yish orqali qadriyatlarni rad etish yoki tanqidsiz o'zlashtirish;

- *regressiya* – ilgari hayotida, masalan, yoshligida bo‘lib o‘tgan qaysidir voqelarga qaytish, ularning yaxshi va ma’qullarini yana xotirada tiklash va xulqda qaytarish orqali o‘zida psixologik himoya yoki oqlovni tashkil etish;

- *yolg‘izlanish* – jamiyatdan o‘zini olib qochish, o‘zidagi o‘zgarishlarni boshqalarga bildirmaslikka intilish, masalan, shunday sharoitlarda ayrim talabalar o‘qishga bormay qo‘yadilar;

- *ratsionalizatsiya* – mulohaza va fikr yuritish orqali o‘zida himoya instinktlarini paydo etish;

- *konversiya* – muloqotdagi qandaydir to‘siqlar yoki baryerlarni olib tashlash uchun kutilmagan usullarni qo‘llash, masalan, xavotirli informasiyani yumoristik mavzu bilan almashtirish yo‘li.

Ochiq axborot xurujlari vaziyatida shaxsning o‘zini o‘zi himoya qilishini *boshqarishda* ayrim jihatlarga alohida e’tibor berish lozim. Avvalo, ta’kidlaganidek, har bir inson uchun *mustaqil fikr* zarur. Mustaqil fikrga ega bo‘lgan insongina o‘ziga nisbatan qaratilgan yaxshi yoki yomon ma’lumotning mohiyatiga yetishi va unga nisbatan adekvat reaksiya ko‘rsatishi, himoya mexanizmlarini ishga solishi mumkin.

Ikkinchidan, yoshlар turli yot va bemaza axborot xurujlariga berilmasligi uchun biz ularda *milliy g‘ururni* tinimsiz tarbiyalashimiz va bunda har bir fan predmeti va tarbiyaviy muloqotlardan oqilona foydalanishimiz zarur. Masalan, 2006-yilning o‘zida nishonlangan qator tantanalar, jumladan, Ma’mun Akademiyasi va uning nima uchun aynan O‘zbekiston hududida tashkil etilganligiga yoshlар e’tiborini qaratish va ularni ochiq fikr almashinuviga chorlash ularda milliy g‘ururni uyg‘otadi.

Milliy g‘ururning ahamiyati shundaki, bunday sifati bor inson boshqalarga qul bo‘lishni, jumladan, axborot xurujlariga tobe bo‘lmaydi.

Uchinchidan, milliy g‘ururi bor insonda imon, insof va diyonat tushunchalarini shakllantirish mumkin. Chunki inson qalbi bilan bog‘liq bu qadriyatlar Internet va ochiq axborotlar olamida adashtirmaydigan “kompas” rolini o‘ynaydi. Bir rus olimi ta’kidlaganidek, “*Internet*” shunday o‘rmonki, unda

*kompassiz yurib bo‘lmaydi”.* Bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni, masalan *I.I. Raximovaning* (Kompyuter o‘yinlariga tobelikning psixologik xususiyatlari, 2018), *L.A. Nigmatulinaning* (Kompyuterga tobelikning shaxs xarakterologik xususiyatlariga ta’siri, 2019) tadqiqotlarini alohida e’tirof etish mumkin.

To‘rtinchidan, oliv o‘quv yurtlarida professor-o‘qituvchilarning *avtoritetini*, ular aytadigan *har bir so‘zning aniq mo‘ljalli bo‘lishini* ta’minalash zarur. Domla aytadigan fikrlardan biri – axborot qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, u qabul qiluvchi insonning izmida bo‘lishi, uning manfaatiga xizmat qilishi kerak. Buning uchun yovuz niyatli, yet g‘oyalarni targ‘ib etuvchilarning asl niyatlarini, ular say’i-harakatlarining oxir-oqibati nima bilant tugashini ochiq aytaverish lozim.

Shunday qilib, axborot xurujlariga qarshi turishning psixologik yo‘llarini har bir murabbiy va talabaga yetkazish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun quyidagilarni yodda tutish lozim:

- aslida ataylab ta’sir etishga mo‘ljallangan xabarni shaxs darrov qabul qilmaydi. Chunki, birinchidan, unda ilgaridan psixologik himoya mavjud va ikkinchidan, har qanday yangi narsaning singib ketishida muayyan axborot to‘siqlari ham bo‘ladi.

- bunday sharoitlarda “uchinchi shaxs ta’siri” effekti ro‘y beradi. Uning ma’nosi – “bu xabarga hamma ishonaversin, menga ta’sir qilmaydi” deb o‘ylaydi shaxs, lekin ma’lum ma’noda shu fikr ta’sirida u axborot ta’sirida tushib bo‘lgan bo‘ladi. Xaligi fikrni o‘zi uchun har ehtimolga qarshi hayolidan o’tkazadi;

- ishontiruvchi chaqiriqlarga, masalan, reklama orqali yetkazilayotgan xabarlargacha yosh bolalar juda o‘ch bo‘ladi va aynan ular ota-onani ko‘ndiradi. 90 foiz onalar aynan reklama qilingan tovarlarni bolalariga xarid qilib olib beradi. Xuddi shunday “Internet”ga ulanish, uyida zamonaviy kompyuterga ega bo‘lish fikri ham bolalardan chiqadi, bunga ota-onani ko‘ndiradilar ham.

- xabarning asl maqsadi aslida ma’lumot berish emas, balki *ishontirish* ekanligini tushunish kerak. Odamning ma’lumotlilik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning turli xabarlargacha ishonqiramay munosabatda bo‘lishi ham yuqori

bo'ladi. Lekin xabarga ishonqiramay qarashimiz bizning uni qabul qilishimiz yoki qilmasligimizni bildirmaydi. Ya'ni, agar biz ochiqdan ochiq yoshlarga "bu axborot manbaiga ishonmanglar, ular ataylab yolg'on ma'lumot bermoqda" desak, bu narsa ularning shu turli axborotni qabul qilmasliklarini kafolatlamaydi. Lekin "**ogohlantirilgan odam qurollangan, muhofazalangan bo'ladi**" degan tamoyildan kelib chiqib, birinchi ogohlantirishdan so'ng, yana o'z fikrimizni faktlar bilan asoslasak, ulardagi immunitet kuchliroq bo'ladi. Lekin shuni nazarda tutish lozimki, ogohlantirish muddatlari ham rol o'ynaydi. Masalan, psixologik eksperimentlarda bir xafka avval ogohlantirishning ta'siri uzoqroq muddatdan ko'ra kamroq ekanligi ma'lum bo'lgan. Yoki uyda xoli, komfort sharoitda qabul qilingan ta'sir bilan odamlar orasida, ko'pchilikning ichida g'aliz xabarni qabul qilish farqlanadi, chunki yolg'iz uydagi ta'sir skeptizmni kuchliroq namoyish etishi kuzatilgan (*R.Chaldini*).

Ikkinci tomondan, bevosita axborotni qabul qilish arafasidagi ogohlantirish qarshi argumentlar ishlab chiqish vaqtini kamaytiradi, undan sal avvalroq ogohlantirish esa inson miyasida ma'lumotni qayta ishlashga imkon beradi (*J.Terner*);

- tanish narsalar haqida ma'lumotga ega bo'lgan odamni ishontirish tezroq amalga oshadi. Lekin samarali taktikalardan biri – axborot kanallari orqali berilayotgan ma'lumotlarni ochiqchasiga jamiyat manfaatlariga zid ekanligi, ularningadolatsiz, xudbinarcha uzatilayotganligi, nimalaridir qonunga xilof ekanligini qayd etish mumkin. Ya'ni, tarbiyachi, o'qituvchi muayyan axborot mazmuni yoki uning manbaiga nisbatan ochiq tarzda o'z noroziligini bayon etish, targ'ibotchi fikriga qarshi ekanligini aytishi mumkin. Bu holat ham auditoriyani o'ylashga majbur etadi.

Yana o'ziga xos strategiyalardan biri – ochiq axborot manbalaridan ketgan ma'lumotni, undagi ayrim faktlarni ochiq tan olishdir. Masalan, ba'zan talaba O'zbekistonga qarshi bo'xtonli xabarni eshitganini tashvish bilan ustoziga aytishi mumkin. Shunday paytlarda eshitgan ma'lumotining mazmunini so'rab olib, ularning ayrimlari borasida haq gapni aytishi: "Ha, darhaqiqat bularni biz ham

bilamiz, Sen bilmasmidng?” deb, axborotning asl bo‘xton qismini keyin rad etishi maqsadga muvofiqroqdir.

Bundan tashqari, o‘qituvchiga xos bo‘lgan usullardan biri – o‘z qarashlariga nisbatan ikkilanish pozitsiyasi borligini ochiq tan olish: “balki men nohaqdirmam, lekin bu masalada shunday asoslarim bor edi ..., deb barcha xolis asoslarni keltirish lozim. Shunday qilib, ochiq axborot xurujlari sharoitida shaxsga turli-tuman ma’lumotlarning yetib kelishi tabiiy. Bunday sharoitda oilada kattalarning, auditoriyada pedagogning faol hayotiy pozitsiyasi, teran munosabati yoshlarga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki hamma narsaga qiziqadigan yoshlar uchun referent guruhning yonida, oilasi davrasida yoki o‘quv muassasasida bo‘lishi katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Nazariy jihatdan qaralganda, axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta’minalash tizimining komponentlari va mazmunini chuqur o‘rganib borish g‘oyat muhimdir. Mutaxassislar fikricha, bu komponentlar quyidagicha:

- axborotdan foydalanishda inson erkinligi va huquqini ta’minalash, fuqarolar tomonidan ochiq tarmoqlardan axborot olish imkoniyatlarini yaratish, mamlakatni ma’naviy rivojlanish borasidagi jamiyatning psixologik himoyasi va ma’naviy qadriyatlarning mustahkamlanishi, vatanparvarlik va insoniylik, madaniy va milliy potentsialni ta’minalash hamda kuchaytirish;

- davlat siyosatini axboriy ta’minalash, mahalliy aholiga hamda chet el auditoriyasiga mamlakatning ijtimoiy hayoti va davlat nuqtai nazari, dolzarb ichki va xalqaro voqeа-hodisalar haqida ob’ektiv axborot berish;

- mahalliy axborot texnologiyalarini, milliy axborot industriyasini, axborotlashtirish vositalarini, telekommunikatsiya va aloqalarni rivojlantirish, mahalliy axborot resurslaridan samarali foydalanish va ularni saqlash, yangi yo‘nalish va texnologiyalarni shakllantirish kabi omillardan iborat.

Axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta’minalash turli ijtimoiy xavflarga, jamiyat taraqqiyotiga to‘g‘anoq bo‘layotgan unsurlarga barham berishga xizmat qiladi. Biroq, mutaxassislar fikricha, mamlakatimizda yaqin yillargacha ijtimoiy fikr, jamiyatning umumiy siyosiy-ma’rifiy darajasi zamonaviy “axborot xurujii”ga

va uning shiddatiga dosh berishi mushkul, aniqrog'i, uning butun ko'lamini, mohiyatini, axborot ostidagi yashirin g'oyani va axborot tarqatuvchi manba maqsadini yetarli darajada baholashi qiyin bo'lib kelgan edi. Bugungi kunda bu muammo ham ijobjiy hal etilishi yo'lida puxta o'ylangan sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

### **Bob yuzasidan tayanch iboralar**

Xavfsizlik, ijtimoiy xavfsizlik, milliy xavfsizlik, tashqi xavfsizlik, ichki xavfsizlik, axborot xavfsizligi, axborot xurujlari, xakerlar, krekerlar, frikerlar, axborot-psixologik qurol, reklama, milliy mafkura, egosentrizm, proyeksiya, regressiya, yolg'izlanish, ratsionalizatsiya, konversiya, mustaqil fikr, milliy g'urur.

### **Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Axborot xavfsizligining mohiyati nimalardan iborat?
2. Xavfsizlik tushunchasiga ta'rif bering.
3. Ijtimoiy xavfsizlik nima?
4. Milliy xavfsizlik tushunchasiga ta'rif bering.
5. Tashqi va ichki xavfsizlik qanday farqlanadi?
6. Axborot xavfsizligining vazifalariga nimalar kiradi?
7. Axborot xurujlari deganda nima tushuniladi?
8. Informasion-psixologik xavfsizlik deganda nima tushuniladi?
9. Shaxsning o'z-o'zini himoya qilish vositalariga nimalar kiradi?
10. Turli informatsion-psixologik vaziyatlarda shaxsning ijtimoiy xulqini qanday nazorat qilish mumkin?

### **Bibliografiya**

1. Кодиров У.Д. Ёшларни деструктив ғоялар таъсиридан ҳимоялашнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Психология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация: 19.00.05. – Т.: ТДПУ, 2019. – 245 б.

2. Молокоедов А.В., Слободчиков И.М., Франц С.В. Психологическая безопасность личности. Основы комплексного анализа: Монография. – М.: Издательство «Левъ», 2018. – 176 с.
3. Эшбеков Тўлқин. Ахборот-психологик хавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўкув қўлланма. – Т.: ЎзМУ, 2013. – 64 б.
4. David G. Myers. Social Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: McGraw-Hill, 2010. – 609 p.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
6. Немов Р. С., Алтунина И. Р. Социальная психология: Краткий курс. – Спб.: Питер, 2009 – 208 с.
7. Майерс Д. Социальная психология. Интенсивный курс / Д. Маерс. – 4-е междунар. изд.. – СПб.: ПРАЙМ-ЕВРОЗНАК, 2007. – 510 с.

**IX BOB**  
**IJTIMOIY PSIXOLOGIYANING AMALIY-TATBIQIY SOHALARI**  
**IJTIMOIY PSIXOLOGIK XIZMAT**

**9.1. Amaliy ijtimoiy psixologiya  
va amaliyotchi shaxsi**

“Fan – amaliyotga!” degan tamoyil bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb masalaga aylangan.

Chunki yoshlarni mustaqil davlatimiz ma’naviy negizlarini teran anglashga o’rgatish va ularni ma’rifatga chorlash jarayoni qator tatbiqiy vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Ilmu-fan taraqqiyotining uzoq davriga nazar tashlasak, olimlar va tadqiqotchilar ko‘proq nazariy masalalarni hal qilish, umumiy qonun-qoidalarni sharhlash, tushuntirish orqali jamiyat va insoniyat taraqqiyoti sabablarini yoritishga urinishlar ko‘proq uchraydi. Bu holat pedagogika va psixologiya fanlariga ham tegishli bo‘lib, ayniqsa, voqeа-hodisalarining ijtimoiy-psixologik tabiatini o‘rganuvchi ijtimoiy psixologiya bundan istisno emas edi. Lekin bugun biz uchun ijtimoiy taraqqiyot va inson tafakkuri rivojlanishini tezlashtiruvchi, uning davr va kishilar ruhiga hamohang tarzda kechishini ta’minlab beruvchi tatbiqiy xususiyatlari ishlar va ilmiy izlanishlar zarur. Zero, mamlakatimizda ro‘y berayotgan tub ijtimoiy-siyosiy islohotlar aynan shuni talab qilmoqda. Bunda e’tiborga loyiq dolzarb muammolardan biri – yoshlarda yangicha dunyoqarashni shakllantirish, ularni yangicha demokratik munosabatlarga ruhiy jihatdan tayyorlashdir. Bu vazifani ado etishda ijtimoiy psixologiyaning o‘rni va rolini aniqlash, tatbiqiy izlanishlarni amalga oshirish va ijtimoiy-psixologik amaliyot doirasida ushbu vazifani amalga oshirish yo’llarini topish uchun hozirgi zamon ijtimoiy psixologiyasining asosiy tatbiqiy yo‘nalishlarini belgilash maqsadga muvofiq.

Hozirgi davrda ijtimoiy psixologiyaning dolzarbliji va uning jamiyatdagi sodir bo‘layotgan barcha jarayonlarga aloqadorligi uning tatbiqiy sohalari doirasini ham kengaytirdi. Uning asosiy tatbiqiy-amaliy sohalariga *sanoat*

*ijtimoiy psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, oila va nikoh borasidagi ijtimoiy-psixologik ishlari, siyosat va iqtisodiyotni takomillashtirish muammolari, qonunbuzarlikning oldini olish ehtiyoji hamda ommaviy axborot vositalari borasidagi amaliy vazifalar kiradi. Barcha amaliy sohalarga xos umumiy xususiyatlар mavjudki, ularga:*

- ularning bevosa tajmiyat talab-ehtiyojiga ko'ra tashkil etilishi;
- tatbiqiy ishlari "tili"ning mavjudligi muammosi, ya'ni, professional til(jargon) bilan tadqiqot natijalarini bayon etishdagi uyg'unlik masalasi;
- amaliy ehtiyojlarga monand ilmiy farazlarni ishlab chiqish;
- shartnomalarga mos tarzda buyurtmalarlarni o'z muddati va bosqichlarda bajarish majburiyati;
- samaradorlik mezonlarining o'ziga xosligi, ya'ni, bajarilgan ishga qarab samaradorlikni baholash;
- "nazariyotchi" bilan "amaliyotchi" rollarining aniq farqlanishi muammolari kiradi.

Amaliy ijtimoiy psixologiya to'g'risida gap ketganda, ko'pincha, "ijtimoiy-psixologik aralashuv" tushunchasi o'rtaqa tushadi va tabiiy, bunday amaliyotchining ijtimoiy jarayonga aralashuvi nimalarda ko'rindi, degan savol paydo bo'ladi.

- a) individning o'zgarishi strategiyasida, ya'ni o'sha tashkilotdagi o'ziga xos shaxslarning borligi aniqlanadi va ularga ta'sir qilinadi;
- b) texnologik tizim o'zgaradi, ya'ni ma'lum tashkilot yoki muassasaning tuzilishida o'zgarish ro'y beradi;
- v) ma'lum tipli ma'lumotlarga bog'liqlik, ya'ni, ma'lumotlarning tashkilot ichida yoki uning atrofida to'planganligiga bog'liq holda natijalarning turlicha qiymatga ega bo'lishi mumkin;
- g) ataylab o'tkazilgan tadbirlar ta'sirida korxona taraqqiyoti o'zgarishi mumkin, masalan, rejalashtirish, xodimlar bilan ishlash sifati, qarorlar qabul qilish va hokazo.

Amaliyotda faoliyat ko'rsatayotgan psixolog joylarda uch asosiy funksiyani bajaradi:

1. *Ekspert* sifatida, ya'ni, bu shunday shaxski, u mijoz yoki mijoz tomonidan taklif qilinadi. Ular birgalikda biror ijtimoiy-psixologik vaziyatni tahlil qilishadi, xulosalar natijasida yangiliklar kiritishadi, ziddiyatli yoki janjalli vaziyatlarda maqsadga muvofiq to'g'ri xulq shaklini taklif etishadi. Demak, ekspert ishining oqibati - xulosa chiqarib, so'ng tavsiyalar berishdir.

2. *Maslahatchi* – ekspertdan farqli, mijoz tomonidan bir martalik emas, balki bir necha marta ayni muammo bo'yicha maslahat berish va xulosalar chiqarish uchun taklif etiladi. Uning aralashuvi bevosita bo'lib, faoliyati oqibatida biror shaxs yoki yaxlit jamoaga yordam ko'rsatiladi, yangi loyihamlar qabul qilinadi.

3. *O'rnatuvchi* – odatda buyurtma asosida joylarda o'quvlar, kurslar tashkil qiladi. Uning asosiy vositasi ijtimoiy-psixologik trening va uning turli ko'rinishlari bo'lib, oqibati - ijtimoiy muloqotning turli shakllariga o'rgatishdir.

Yurtimizda ma'nnaviyat sohasidagi islohotlar va amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlarning ahamiyati shundaki, ular yoshlarda o'z xalqining madaniyati, Vatanining o'tmishi va buguni, milliy qadriyatlarga to'g'ri munosabatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi va bu – ziyoli, bilimdon kishilar uchun eng zarur fazilatdir. Aks holda, olam siru asrorlarini chuqur bilgan, qiziqishlari doirasida jiddiy izlanishlar olib borishga tayyor shaxs, agar u, bu bilimlarni avval o'z xalqi, millati, yaqinlari manfaatiga yo'naltira olmasa, uning jamiyat taraqqiyotiga aloqasini tasavvur qilolmasa, ma'nnaviyati qashshoq, iqtidori esa samarasiz, xudbin shaxs sifatida baholanadi.

**9.2. Amaliy ijtimoiy psixologiyaning tatbiqiy sohalari**

Tabiiy, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ilmu-fan yutuqlarining amaliyotga tatbiq etiladigan sohalaridan eng muhimi – bu *ishlab chiqarish va sanoat* sohasidir. Zero, har qanday ishlab chiqarish muammosining ijtimoiy-psixologik jabhasini aniqlash kun tartibidagi asosiy masalalardan biri ekanligi hech kimga sir emas. Chunki yangicha bozor munosabatlarini hayotda

amalga oshiruvchilar alohida shaxslar bo'lib, ularning individual hamda guruhiy ustanovkalari, faolliklari, mehnatga munosabatlari, hissiyotlari yetakchi rol o'yaydi. Korxonalarining mustaqilligi, xususiy mulkchilikning turli shakllari hayotga shiddat bilan kirib kelayotgan bugungi kunda ham odamlar o'zaro guruh bo'lib mehnat faoliyatini amalga oshirar ekanlar, ular uchun o'sha guruhdagi ijtimoiy-psixologik muhitning qandayligi, bevosita rahbarning obro'si, norasmiy liderlarning ishga va shaxslararo munosabatlarga ta'siri muhim masala bo'lib qolaveradi va ularning xususiyati ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsataveradi.

Yangicha bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida rahbarlar oldida turgan yana bir muhim masala shuki, ular avvalgidan ham bilimdonroq bo'lib, o'z bilimlarini ko'proq har bir shaxsning individual psixologik layoqatlari va qobiliyatları, ishga nisbatan munosabatlariga binoan ularni taqdirlashlari, mehnatga jalb etishning turli-tuman shakllarini tatbiq etishlari zarur. Xodimni yoki ishchini shaxsan o'rGANIB, faoliyatini munosib taqdirlash esa (xoh moddiy, xoh ma'naviy taqdirlashdan qat'iy nazar) uning qisman testolog bo'lishini, psixologiya fanining ommabop usullarini qo'llagan holda ish yuritishini talab qiladi. Ishni tashkil etish, guruhlarni shakllantirishda ham ularning o'ziga xos qonuniyatlarini bilishi, odamlar soni va salohiyati masalasida ijtimoiy-psixologik bilimga ega bo'lishi shart.

Hozirgacha sanoat ijtimoiy psixologiyasi yo'nalishida qilingan aksariyat ishlari shu soha birlashmalaridagi alohida ishlab chiqarish guruqlarida ijgimoiy-psixologik muhitni o'rGANISHGA qaratilgan bo'lib, tadqiqot mobaynida ishlab chiqarish samaradorligi, ishchilarning mehnatga munosabatlari, guruhdagi qonun-qoidalarga bo'ysunishlari va hokazolar bilan bog'liqligi tekshirilgan. Ayniqsa, ko'p tadqiqotlarda ana shu psixologik fenomenning rahbarlikka ta'siri, norasmiy liderlarning xususiyatlariga bog'liqligi masalalari to'liq tadqiq etilgan. Lekin shu yo'nalishdagi tadqiqotlar hozirgi iqtisodiy munosabatlar sharoitida o'tkazilgani yo'q. Shuning uchun ham yaqin kelajakda ijtimoiy psixologlar

Amaliyotda faoliyat ko'rsatayotgan psixolog joylarda uch asosiy funksiyani bajaradi:

1. *Ekspert* sifatida, ya'ni, bu shunday shaxski, u mijoz yoki mijoz tomonidan taklif qilinadi. Ular birgalikda biror ijtimoiy-psixologik vaziyatni tahlil qilishadi, xulosalar natijasida yangiliklar kiritishadi, ziddiyatli yoki janjalli vaziyatlarda maqsadga muvofiq to'g'ri xulq shaklini taklif etishadi. Demak, ekspert ishining oqibati - xulosa chiqarib, so'ng tavsiyalar berishdir.

2. *Maslahatchi* – ekspertdan farqli, mijoz tomonidan bir martalik emas, balki bir necha marta ayni muammo bo'yicha maslahat berish va xulosalar chiqarish uchun taklif etiladi. Uning aralashuvi bevosita bo'lib, faoliyati oqibatida biror shaxs yoki yaxlit jamoaga yordam ko'rsatiladi, yangi loyihalar qabul qilinadi.

3. *O'rgatuvchi* – odatda buyurtma asosida joylarda o'quvlar, kurslar tashkil qiladi. Uning asosiy vositasi ijtimoiy-psixologik trening va uning turli ko'rinishlari bo'lib, oqibati - ijtimoiy muloqotning turli shakllariga o'rgatishdir.

Yurtimizda ma'naviyat sohasidagi islohotlar va amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlarning ahamiyati shundaki, ular yoshlarda o'z xalqining madaniyati, Vatanining o'tmishi va buguni, milliy qadriyatlarga to'g'ri munosabatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi va bu – ziysi, bilimdon kishilar uchun eng zarur fazilatdir. Aks holda, olam siru asrorlarini chuqur bilgan, qiziqishlari doirasida jiddiy izlanishlar olib borishga tayyor shaxs, agar u, bu bilimlarni avval o'z xalqi, millati, yaqinlari manfaatiga yo'naltira olmasa, uning jamiyat taraqqiyotiga aloqasini tasavvur qilolmasa, ma'naviyati qashshoq, iqtidori esa samarasiz, xudbin shaxs sifatida baholanadi.

#### 9.2. Amaliy ijtimoiy psixologiyaning tatbiqiy sohalari

Tabiiy, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ilmu-fan yutuqlarining amaliyotga tatbiq etiladigan sohalaridan eng muhim – bu *ishlab chiqarish va sanoat* sohasidir. Zero, har qanday ishlab chiqarish muammosining ijtimoiy-psixologik jabhasini aniqlash kun tartibidagi asosiy masalalardan biri ekanligi hech kimga sir emas. Chunki yangicha bozor munosabatlarini hayotda

amalga oshiruvchilar alohida shaxslar bo'lib, ularning individual hamda guruhiy ustanovkalari, faolliklari, mehnatga munosabatlari, hissiyotlari yetakchi rol o'yaydi. Korxonalarning mustaqilligi, xususiy mulkchilikning turli shakllari hayotga shiddat bilan kirib kelayotgan bugungi kunda ham odamlar o'zaro guruh bo'lib mehnat faoliyatini amalga oshirar ekanlar, ular uchun o'sha guruhdagi ijtimoiy-psixologik muhitning qandayligi, bevosita rahbarning obro'si, norasmiy liderlarning ishga va shaxslararo munosabatlarga ta'siri muhim masala bo'lib qolaveradi va ularning xususiyati ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsataveradi.

Yangicha bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida rahbarlar oldida turgan yana bir muhim masala shuki, ular avvalgidan ham bilimdonroq bo'lib, o'z bilimlarini ko'proq har bir shaxsning individual psixologik layoqatlari va qobiliyatları, ishga nisbatan munosabatlariga binoan ularni taqdirlashlari, mehnatga jalb etishning turli-tuman shakllarini tatbiq etishlari zarur. Xodimni yoki ishchini shaxsan o'rganib, faoliyatini munosib taqdirlash esa (xoh moddiy, xoh ma'naviy taqdirlashdan qat'iy nazar) uning qisman testolog bo'lishini, psixologiya fanining ommabop usullarini qo'llagan holda ish yuritishini talab qiladi. Ishni tashkil etish, guruhlarni shakllantirishda ham ularning o'ziga xos qonuniyatlarini bilishi, odamlar soni va salohiyati masalasida ijtimoiy-psixologik bilimga ega bo'lishi shart.

Hozirgacha sanoat ijtimoiy psixologiyasi yo'nalishida qilingan aksariyat ishlar shu soha birlashmalaridagi alohida ishlab chiqarish guruhlarida ijgimoiy-psixologik muhitni o'rganishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot mobaynida ishlab chiqarish samaradorligi, ishchilarning mehnatga munosabatlari, guruhdagi qonun-qoidalarga bo'ysunishlari va hokazolar bilan bog'liqligi tekshirilgan. Ayniqsa, ko'p tadqiqotlarda ana shu psixologik fenomenning rahbarlikka ta'siri, norasmiy liderlarning xususiyatlariga bog'liqligi masalalari to'liq tadqiq etilgan. Lekin shu yo'nalishdagi tadqiqotlar hozirgi iqtisodiy munosabatlар sharoitida o'tkazilgani yo'q. Shuning uchun ham yaqin kelajakda ijtimoiy psixologlar

tomonidan sanoat korxonalarida o'tkazilishi mumkin bo'lgan tadqiqot tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. jamoa a'zolari o'rtasidagi vertikal munosabatlarni o'rganish (rahbarlik masalalari, rahbarning jamoa a'zolari tomonidan idrok qilinishi va aksincha; har bir a'zoning rahbarlikda ishtiroki, undan qoniqishi va boshqalar);
2. jamoa a'zolari o'rtasidagi gorizontal munosabatlar, ya'ni jamoaning uyushganligi, shaxslararo munosabatlarning o'ziga xosligi, ziddiyatlar va ularning tiplari, ularning oldini olish choralari;
3. mehnatga munosabat, undan jamoa a'zolarining qanchalik qoniqishlari va uning mehnat unumidorligiga ta'siri, faoliyat motivlari, amalga oshirilayotgan faoliyatning shaxsiy va ijtimoiy-foydali jihatlarini qay darajada tasavvur qilishi;
4. mehnat jamoalari rahbarlarining malakasini oshirish, jumladan, ularning professiogrammasi va psixogrammalari asosida odamlar bilan ishlash, jamoani qovushtirish, oqilona ish va muomalani tashkil etish, o'z liderlik qobiliyatlarini muttasil oshirishga o'rgatish bo'yicha ijtimoiy-psixologik treninglar uyuştirish;
5. rahbarlarning malakasini oshirish kurslarida psixologlar ishtirokida maxsus mashg'ulotlar o'tkazish.

Tadqiqotchining yuqoridaagi masalalarni o'rganishi uchun tabiiy metodik vositalar zarur. Amaliy ijtimoiy psixolog oddiy kishidan shu tomonlari bilan farq qiladiki, u har bir konkret sharoitda o'ziga kerakli, ma'qul uslublarni qo'llaydi, ba'zi birlarini sinab ko'radi, agarda ular maqsadga muvosiq bo'lmasa, boshqasi bilan almashtiriladi. Olingan natijalarga asoslanib, u korxonalardagi ruhiy muhitni "yaxshi", "o'rtacha", "yomon", "qarama-qarshi" toifalarga bo'ladi va ularning har biridan o'ziga xos ilmiy-amaliy xulosalar chiqaradi.

Bundan tashqari, bugun tadbirkorlik negizida tashkil etilayotgan ko'plab ishlab chiqarish korxonalari, firmalar, qo'shma korxonalar mavjudki, ularda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va samaradorlikning ruhiy mezonlarini topish muhim muammodir. Chunki yangi korxonaning rahbari va mas'ul

shaxslar ko'plab insonlar bilan muloqotga kirishish va ishlab chiqarish munosabatlarning murakkab shakllarini his etishga majburdirlar. Menejment va marketing sohasidagi har qanday izlanishlar va ularning tatbiqiy natijalar, so'zsiz jamiyatda ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishini va inson manfaatiga xizmat qilishini ta'minlaydi. G'arb mamlakatlarida bo'lgani kabi bu sohada talab va takliflarning o'z vaqtida o'rganilishi, rahbarlik mahoratining ko'plab qirralarini egallagan holda ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, har bir xodimning shaxsiy qobiliyatlariga differensial munosabatda bo'lish katta tatbiqiy ahamiyatga molik.

Sanoat korxonalarida tashkil etiladigan psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik yo'nalishi, avvalo, turli toifadagi ishchi-xizmatchilarni ijtimoiy va shaxsiy ziddiyatlarini bartaraf etishga o'rgatish, shaxslararo munosabatlarning demokratik, sog'lom shakllariga o'tish, rahbarlik mahorati sirlarini o'zlashtirish va ulardan kundalik faoliyatda oqilona foydalanish malakalarini shakllantirishdir. Bunda, shubhasiz, psixolog tomonidan tashkil etiladigan turli trening mashg'ulotlari muhim ahamiyatga ega.

Tatbiqiy ijtimoiy psixologik izlanishlarning ikkinchi asosiy yo'nalishlaridan biri – bu nikoh va oiladir.

Oila va nikoh hamma vaqt ham gumanitar fanlarni qiziqtirib kelgan, ayniqsa, bu sohaning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik tomonlari mavjud bo'lib, u oilani yaxlit bir ijgimoiy guruh sifatida talqin qilib, unda sodir bo'ladigan barcha ruhiy jarayonlarni o'rganadi. Respublikada oila va nikoh masalalariga e'tibor yuksakligini hisobga olib, ko'pchilik tadqiqotchilar o'z ilmiy izlanishlarini ana shu muammolarga bag'ishlaganlar (M.Mirhosilov, G'.Shoumarov, N.Sog'inov, F.Akramova, N.Salayeva, M.Salayeva, X.Karimov, M.Rasuleva, O.Musurmonova, D.Xoliqov, G.Yadgarova, G.Xomidova, A.Minavvarov, N.Lutfullayeva, M.Umarova, M.Fayziyeva, Z.Rasulova, X.Abdusamatov, O'.Shamsiyev). Oilaga nisbatan ilmiy qiziqishning sabablari, eng avvalo, bu ob'yektning "naqdligi" bo'lsa, ikkinchidan, keyingi yillarda respublikada ajralishlar sonini kamaytirishga

qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar ko'laming ortib borayotganligi, tug'ilish va nikohlar sonining ortib borayotganligi, notinch va "muammoli" oilalarning mavjudligi, oila institutiga yoshlar munosabatining o'zgarayotganligi va hokazo.

Xalqimizda oila muqaddas dargoh hisoblanadi. Umuman olganda, bizning hududimizda ham oila-nikoh munosabatlarida muayyan o'zgarishlar kuzatilmoidagi, ular bu sohadagi tatbiqiy ishlarni jadallashtirishni taqozo etadi. Bu boradagi o'zgarishlarga:

1. oilaning jamiyat oldidagi funksiyalarining o'zgarib borishi;
2. oilaning kichrayishi va unda tug'ilishning kamayishi, murakkab ko'p avlodli tarkibdan kam avlodli oilalarga aylanayotganligi;
3. oilaviy munosabatlar tizimida er va xotin funksiyalari va oilaviy rollar haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning o'zgarib borayotganligi;
4. iqtisodiy masalalarni mustaqil hal etishda oila a'zolari ulushining o'zgarishi va bu holatlarning oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarga ta'siri;
5. ayollardagi reproduktiv ustanovkalarning o'zgarishi va boshqalar.

Yuqorida ta'kidlangan sohalar O'zbekiston sharoitida shu yaqin kunlarda ishlanishi zarur muammolar bo'lib, ularning yechimiga ko'ra oilani mustahkamlash, oilada bolalar tarbiysi, ayol va erkakning mehnatga (ijtimoiy foydali mehnatga) munosabati yuzasidan olimlar o'z fikrlarini aytishlari joiz. Ikkinci tomondan, demokratiya va erkinlik sharoitida yillar davomida ta'qiqlanib kelingan qadriyatlarimiz, birinchi navbatda, dinning hayotga kirib kelishi oilaviy munosabatlarga shunday ta'sir ko'rsatmoqdaki, ko'pchilikda "endi ayol kishi an'anaviy o'z o'rnnini egallarmikin?" degan tasavvurlar paydo bo'lmoida. Ammo hozirgi rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar sharoitida moddiy ishlab chiqarishni xotin-qizlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham psixologik ilmiy tadqiqotlar odamlar ongidagi ana shunday qarama-qarshiliklarniig, stereotipli bid'atlarning, gender sohasidagi ayrim muammolarning oldini olishga yordam ko'rsatishi mumkin. Shaharlarda va yirik aholi punktlarida "Yoshlar ijtimoiy xizmat markazlari" qoshida tashkil

etilayotgan "Yosh oila" sho'balari, "Krizis markazlari", "Oila xizmati", "Oila Markazlari", "Salomatlik markazlari" ishlarini takomillashtirish zarurki, ular bir tomonidan, oila va nikoh borasidagi ilmiy muammolarni tadqiq qilib, ularni hayotga tatbiq etsa, ikkinchi tomonidan, yoshlarga, hali turmush qurmaganlarga, ziddiyatlari oilalarga bevosita psixologik xizmat ko'rsatadi.

Oilaviy munosabatlar sohasidagi alohida tatbiqi tarmoq – bu *yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdir*. Bu ish bizning o'lkamizda alohida ahamiyatga ega bo'lib, mustaqillik yillarida oila va nikoh yuksak qadriyat sifatida uni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hukumat darajasida ustuvor siyosatga aylantirilgan. O'smirlik va o'spirinlik yillarida shakllanadigan attraksiya hodisasi, ya'ni shaxslarning bir-birlariga emotsiyal bog'lanishlari – do'stlik, sevgi hislarini tarbiyalash, ana shunday tarbiyaga shart-sharoitlarni yaratish O'rta Osiyo hududida yangi va kelajagi porloq sohadir. Shu ishlarni amalga oshirishda maktab psixologlari, pedagoglar, ijtimoiy psixologlar hamkorlikda faoliyat ko'rsatsalar xulosalar va natijalarni hayotga tatbiq etsa bo'ladi.

Amaliy psixologning bu boradagi asosiy vazifasi shuki, ijtimoiy psixologyaning faol metodlaridan omilkorona foydalangan holda yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash, oilalarda shaxslararo moslikni shakllantirish, oilaviy ziddiyatlar yechimini topishda odamlarga yordam berish, turli treninglar o'tkazish va ularning samarasi orqali insonlarda ishonch hissini tarkib toptirishdir. Bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni, masalan *D.Sh. Baratovaning* (Mahallada aholining turli guruuhlariga psixologik xizmat ko'rsatishning ijtimoiy psixologik mexanizmlari, 2021) tadqiqotni alohida e'tirof etish mumkin.

### **9.3. Maktab va ta'lim**

***muassasalariga***

***ijtimoiy-psixologik***

***yordam ko'rsatish***

Jamiyatimizda yoshlar tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning dolzarbligidan kelib chiqadigan yana bir tatbiqi ijtimoiy psixologik yo'nalish – bu ta'limda ko'rsatiladigan ijtimoiy-psixologik xizmatdir.

Ma'lumki, shaxsning ijtimoiylashuvi (yoki sotsializasiysi) asosan maktab yillariga to'g'ri keladi. Shuning uchun maktab oldiga qo'yilgan asosiy

vazifalardan biri bolaning kamoloti uchun barcha sharoitlarni yaratish, uning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lif va tarbiyaning eng maqbul shakllarini joriy etishdir. Lekin hozirgi sharoitda maktab oldida ko'plab muammolar, hal qilinmagan masalalar mavjudki, ularning barchasi maktabga har taraflama yordamni taqozo etadi. Testlar vositasida bilimlarni tekshirish, oliy o'quv yurtlariga va ta'lifning barcha tarmoqlariga test sinovlari orqali qabulning amalga oshirilishi psixologik xizmat zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Ijtimoiy psixologiya davr talablaridan kelib chiqqan holda o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- a) yoshlar tarbiyasida ijtimoiy-psixologik muammolarni anglash;
- b) ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish va tatbiqiylar xulosalar chiqarish;
- v) mavjud ziddiyatlarning oldini olish yo'llarini qidirish, yo'l-yo'riqlar tavsiya qilish kabilari. Bunda maktab psixologining roli katta bo'lib, u quyidagi ijtimoiy-psixologik vazifalarni bajarishga o'z faoliyatini yo'naltirishi kerak:

1. Maktabda tashkil etilgan psixologik xizmatning samarali yo'llarini qidirish, shart-sharoitlar va muhitni har tomonlama, to'liq o'rganib chiqishni har bir o'quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda individual va guruhiy ishslash uslublarini aniqlash lozim.

2. Maktab psixologi o'quvchilar o'rtasida uchrab turadigan psixik rivojlanishdan kechikish hollarini to'liq o'rganishi, ularni keltirib chiqaruvchi omillar va ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarni tahlil qilishi lozim.

3. Maktab psixologi turli yoshdagi o'quvchilarning qobiliyatları, yo'nalishi, layoqatlari va kasbiy qiziqishlariga doir aniq ilmiy tahlillar, test natijalari asosida tuzilgan ma'lumotlar bankiga ega bo'lishi kerak. Bu ma'lumotlarga asoslanib, psixolog ularga alohida-alohida yondashish, ayrimlarga qo'shimcha darslar tashkil etish, maktab, oila va jamoatchilik hamkorligida qobiliyatlarini o'stirish bilan bog'liq aniq ko'rsatmalar ishlab chiqishi lozim.

4. Maktab psixologi sinflardagi ruhiy holatlarni, o'zaro munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan psixologik muhitni aniqlashi, rasmiy va norasmiy liderlar

o'rtasidagi munosabatlarni chuqur o'rganishi, maktab ma'muriyati va tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rribbosariga zarur yo'l-yo'riqlar tavsisi qilishi joiz. Bundan tashqari, maktab psixologini turli mojarolar, ziddiyatlar, tartibbuzarliklarning oldini olish, ularning psixologik ildizini o'rganish chora-tadbirlari bo'yicha maslahatlar tashkil etishi shart. Bunday psixologik maslahatlar ota-onalar va pedagoglar jamoasi uchun alohida tashkil qilinadi.

5. Amaliy psixolog faoliyatining yana bir tomoni turli masalalar bo'yicha o'qituvchilar jamoasiga psixologik yordam berishdir. Bunda u jamoadagi sog'lom muhitning asosi bo'lmish o'zaro munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik trening mashg'ulotlaridan samarali va o'z vaqtida muttasil foydalanishi, uzlusiz ravishda diagnostik sinovlar o'tkazib turishi, pedagogning kasbyy mahoratini va nutq qobiliyatini oshirishda ijtimoiy psixologiyaning barcha faol tayyorgarlik usullaridan foydalanishi va shu orqali pedagog-murabbiyning ijtimoiy-psixologik bilimdonligini oshirishi zarur.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda, maktab psixologi o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilashi mumkin. Ular diagnostik va tuzatish ishlari, psixoprofilaktik ishlari, psixologik konsultasiyalar, o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilarning psixologik savodxonligini ko'tarish; psixologiya metodlarini aniq sharoitlarga moslashtirish, ulardan samarali foydalanish, to'plangan ilmiy ma'lumotlarni izchil tarzda tahlil qilib borish; testlar tuzish, ularning sezgirligini ilmiy asoslash va har bir o'quvchi qibiliyatining qolaversa, o'qituvchilar bilimdonligini testlar yordamida muntazam tekshirish, ilmiy xulosalar va ko'rsatmalar tayyorlash kabilardan iboratdir.

Respublikada maktabda psixologik xizmat ko'rsatish ishlarini takomillashtirish o'quvchilarni jamiyat oldida turgan ulkan va ulug'vor ishlarga tayyorlashda o'zining munosib hissasini qo'shami va O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning bandlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'z o'rnini topadi.

Psixologiya fani oldiga qo'yilgan talablarni qondirish uchun mamlakatimizda keng ko'lamda ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish, ularning natijalarini dadil amaliyatga tatbiq qilish, amaliyat bilan nazariya o'rtaсидаги узви bog'liqlikni hayotda qaror toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugun O'zbekistonning deyarli barcha o'rta ta'lif maktablari psixolog kadrlar bilan ta'minlangan. Ularning maktab doirasida bajaradigan ishlari juda ko'p. Shunga qaramay, ularning eng dolzarb vazifalaridan biri doimo o'quvchilarining oilasi, u yashab, istiqomat qilayotgan mahallasi bilan amaliy aloqalarni o'rnatishdir. Chunki psixolog o'sib kelayotgan avlodning maktabdan tashqari vaqtin nimalar bilan band bo'lishini bilmasa, u bilan aniq maqsadli psixokoreaksion va rivojlantiruvchi tadbirlarni amalga oshira olmaydi. Maktabga psixologik yordamning to'g'ri yo'lga qo'yilishi "Oila – mahalla – maktab" konsepsiyasining samarali amalga oshishi uchun muhim omildir.

So'nggi paytlarda mamlakatimizda sog'loqni saqlash tizimida ham psixologik xizmat ko'rsatish ishlari takomillashib bormoqda. Shu sohaga yo'naltitrilgan tadqiqotlar, masalan *Y.K. Narmetovaning (Sog'liqni saqlash tizimida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, 2019)* dissertatsiya ishida muammoga tizimli yondashilganlikni ko'rish mumkin. Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida:

- surunkali somatik kasalligi bo'lgan bemorlarning ruhiy holati, kasallikka munosabati, kasallikni yengish strategiyalari va zaxiralari kasallikning darajasi, og'riqning kuchi va davomiyligi, kasallikning istiqboldagi natijalari va asorati kabi xarakteri bilan bog'liqligi aniqlangan;

- surunkali somatik kasalliklarga chalingan bemorlarning o'z kasalligiga "nevraستenik", "sensitiv" hamda "egotsentrik" munosabati, "depressiyaga moyillik", "xursandlik" va "g'azablanish" kabi hissiy-irodaviy xususiyatlari jins tafovutlarga bog'liqligi asoslangan;

- tibbiyat muassasalarida bemorning to'liq tibbiy-psixologik-ijtimoiy reabilitatsiyasining tashkiliy psixologik ta'minotiga yo'naltirilgan psixologik xizmatni tashkil etish tuzilmasi ishlab chiqilgan;

- kasallikning psixologik tasnifi, bermor shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, psixologik xizmat ko'rsatishning kasallikkha bo'lgan munosabat tipiga ko'ra psixofiziologik (tez charchash, mehnat qobiliyatining pasayishi, jismoniy imkoniyatlarning chegaralanishi), psixologik (xavotirlanish, qo'rquv, tajovuzkorlik, depressiya, xulq-atvor buzilishlar) va ijtimoiy-psixologik (shaxslararo munosabatlarda muammolar, ijtimoiy moslashuvning buzilishi) turlari aniqlangan.

### **Bob yuzasidan tayanch iboralar**

Amaliyot, boshqaruva psixologiyasi, oila va nikoh, ekspert, maslahatchi, o'rgatuvchi, maktab, ta'lim.

### **Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Amaliyotda faoliyat ko'rsatayotgan psixolog qanday vazifalarni bajaradi?
2. Tatbiqiyl ijtimoiy psixologik izlanishlarning ikkinchi asosiy yo'nalishlariga nimalar kiradi?
3. Maktab va ta'lim muassasalariga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish qaysi omillar orqali kechadi?
4. Psixolog ekspert sifatida qanday vazifani bajaradi?
5. Amaliyotchi psixolog maslahatchi sifatida qanday ishlarni bajaradi?
6. Amaliyotchi psixolog o'rgatuvchi sifatida qanday vazifani bajaradi?

### **Bibliografiya**

1. Почебут Л.Г., Чикер В.А. Организационная социальная психология. Учебник. – М.: Проспект, 2020. – 552 с.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldag'i "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada

takomillashtirish to‘g‘risida”gi 577-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/-4417140>

3. Нарметова Ю.К. Соғлиқни саклаш тизимида психолигик хизмат фаолиятини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари: Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати: 19.00.05. – Т.: ТДПУ, 2019. – 50 б.
4. Баратова Д.Ш. Махаллада аҳолининг турли гурухларига психолигик хизмат кўрсатишнинг ижтимоий психолигик механизмлари: Психология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати: 19.00.05. – Т.: ТДПУ, 2021. – 72 б.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
6. David G. Myers. Social Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: McGraw-Hill, 2010. – 609 p.
7. Немов Р. С., Алтунина И. Р. Социальная психология: Краткий курс. – Спб.: Питер, 2009 – 208 с.
8. Майерс Д. Социальная психология. Интенсивный курс / Д. Маэрс. – 4-е междунар. изд.. – СПб.: ПРАЙМ-ЕВРОЗНАК, 2007. – 510 с.

**ETNOPSIXOLOGIYA****2**

**X BOB**  
**ETNOPSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI**  
**VA VAZIFALARI**

**10.1. Etnopsixologiya fanini  
o'rganish sohalari**

Millat va milliy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan ko'plab masalalar, ularni tarkib toptiruvchi va rivojlantiruvchi omillar ijtimoiy va siyosiy hayotda muhim rol o'ynab kelgan va bundan keyin ham uzoq davrgacha o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Olimlarning ta'kidlashicha, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida turgan to'rt mingga yaqin millat, elat va turli xalqlar mavjud ekan, tabiiy, ular har birining o'z tarixi, madaniyati va milliy qadriyatları bor. Ularni o'rganish millatlararo munosabatlarni yaxshi yo'lga qo'yish, o'zaro aloqalarni tashkil qilishda, turli iqtisodiy, madaniy aloqalarni har bir tomon uchun manfaatli tarzda o'rnatishda katta yordam beradi. Lekin yaqin davrgacha bizning ijtimoiy fanlar tizimida milliy masalalar va unda psixologik omillarning tutgan o'mriga yetarlichcha e'tibor berilmay kelindi. Ayrim hollarda ushbu masalalarni o'rganish esa asossiz ravishda inkor etildi. Ayrim tadqiqotchilar milliy xususiyatlar, etnopsixologiya masalalarini o'rganishga shubha bilan qarab, uni "millatchilik", "shovinizm" ham deyishdan toyimadilar. Bunda ular etnopsixologiya masalalarini o'rganish bir xalqni maqtab, ikkinchisini kamsitishga olib kelishi, irqchiliq millatchilikning kelib chiqishiga sabab bo'ldi, deb xavotirlanishdi. Bu hadiksirashda ma'lum asos ham bor edi. Chunki yaqin o'tmish buni isbotlashi mumkin.

Etnopsixologiyaga oid ayrim tadqiqotlarda mualliflar o'z millatlarini haddan tashqari ko'klarga ko'tarib yuborish, boshqa qo'shni xalqlardan ustun qo'yish

hollari kuzatilganki, bu tabiiy turli noroziliklarning tug‘ilishiga sabab bo‘lgan. Shuning bilan birgalikda xalqlarning vogelik va tabiatni idrok qilish, kiyinish, avlodlar tarbiyasi, avlodlar o‘rtasidagi munosabatlardagi o‘ziga xosligini hisobga olmaslik, etnik o‘ziga xosligini inkor etish, milliy munosabatlarda hisobga olmaslik mumkin emasligini tan olmas edilar. Shu bois ham etnopsixologiya fan sifatida rivojlanmadni, hattoki, sobiq sho‘rolar davrida bu fan psixolog kadrlar tayyorlovchi fakultetlarning o‘quv rejasiga ham kiritilmadi. Ijtimoiy psixologiyaning o‘rganishi mumkin bo‘lgan mavzusi sifatida qisqa ma’ruzalar tarzida psixologiya fakultetlarida nomiga o‘qitildi xolos.


*Etnopsixologiya* – bu psixologiyaning shunday tarmog‘iki, u ayrim olingan millatlar psixologiyasidan tashqari, turli xalqlar psixologiyasini, kichik milliy guruhlarni ham o‘rganadi. “Etnopsixologiya” atamasi “etnologiya” va “psixologiya” tushunchalarining qo‘shilishidan tarkib topgan bo‘lib, grekcha “etnos” – xalq, qabila, “psixologiya” – ruh ilmi, degan ma’nolarni anglatadi. Bu fan ma’lum millat va etnik birlik vakillarining o‘ziga xos ruhiy qiyofasi, xulq-atvorini, zamonaviy tilga ataladigan bo‘lsa “mentalitetini” o‘rganadi. Har bir xalqqa xos bo‘lgan milliy xarakter, urf-odat va an’analar, milliy tuyg‘ular va did (ta’b), etnik ong va milliy o‘zini o‘zi anglashning vujudga kelishi, namoyon bo’lishi, o‘zgarishi va rivojlanishi kabi masalalar ham etnopsixologiyaning o‘rganish predmeti hisoblanadi. O‘z navbatida shuni ta’kidlash o‘rinlikni, etnopsixologiya ijtimoiy psixologiyaning tadbiqiyo yo‘nalishi hisoblanadi. Etnopsixologiyaga yaqin bo‘lgan fan tarmog‘idan biri – bu etnografiya bo‘lib, ayrim alohida olingan madaniyatlarning xususiyatlarini bir-biriga qiyoslab, solishtirib o‘rganadi. Shu ma’noda etnopsixologiya turli etnoslarga mansub kishilar guruhidagi murakkab munosabatlarni o‘rganuvchi va ularni tartibga solishga ixtisoslashgan fan tarmog‘idir. Shu kabi va boshqa ommaviy psixologik jarayonlarning shaxs ijtimoiy xulq-atvoriga ta’sirini o‘rganuvchi ijtimoiy psixologiya va uning xususiy tarmog‘i bo‘lgan etnopsixologiya ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarni bilishda va ularni boshqarishda katta amaliy ahamiyatga ega.

Har bir xalqqa xos bo'lgan milliy xarakter, urf-odat va an'analar, milliy tuyg'ular va did (ta'b), etnik ong va milliy o'zini o'zi anglashni vujudga kelishi, namoyon bo'lishi, o'zgarishi va rivojlanishi kabi masalalar ham etnopsixologiyani o'rganish ob'yekti hisoblanadi.

**10.2. Etnik guruh –  
etnopsixologiyaning ob'yekti  
sifatida**

*Etnik guruh* – bu umumiy madaniy an'analar, o'xshash va takrorlanadigan urf-odatlar va udumlar, milliy qadriyatlar asnosida birlashgan insonlar guruhidir.

Dastlab ushbu atama biologik jihatdan bir-birlariga bog'liq bo'lgan insonlarga nisbatan qo'llanilgan bo'lsa, bora-bora uning mazmun va mohiyati kengayib borgan. Birgalikda va deyarli bir xil hayot va turmush tarziga ega bo'lgan insonlar guruhining qadriyatlar va an'analar mushtarakligi nuqtai nazaridan birlashishi etnik guruhnini tashkil qilgan.




10.1-rasm. Etnik guruhlarning ko'rinishlari.

Shunday qilib, etnik guruhlar tarixiy rivojlanish jarayonida quyidagi belgilar va mezonlar asosida shakllangan:

- tarixi va an'analar;
- tili;

- geografik joylashuvi;
- irqining ijtimoiy kelib chiqishi;
- diniy e'tiqodi va boshqalar.

Odatda bu atama katta ijtimoiy guruh tarkibida kichikroq guruhga nisbatan ishlataladi (masalan, o'zbeklar orasida qoraqalpoqlarning etnik guruh). Lekin ayrim olimlar etnik guruh deganda aynan mamlakatdagi eng katta etnik guruhnini (bizning misolimizda – o'zbeklar) nazarda tutadilar. Odatda etnik guruhlar atamasi irqqa nisbatan ishlatilmaydi.



### 10.2-rasm. Etnik guruhlarga berilgan ta'riflar.

Hozirgi globallashuv jarayonlari keskin tus olgan, ommaviy axborot vositalari, Internet tarmoqlari orqali shaxsning keng axborot oqimiga qo'shilishi imkoniyati kengaygan bir sharoitda uning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, chiniqtirish, axborotlarga nisbatan tanlovchan munosabatni tarbiyalash o'ta muhim va murakkab masalaki, uni samarali yechish ham turli millat va elat vakillari, omma va alohida olingen shaxs psixologiyasini bilishni, jamiyat va shaxs o'zaro munosabatlaridagi nozik jihatlarni o'rganishni talab qiladi.

Ayni davrga kelib hamdo'stlik mamlakatlari hududida har bir sobiq respublikalar alohida, mustaqil davlat maqomini olgan, lekin boshqa tomonidan qaraganda, hamdo'stlik mamlakatlari ittifoqi sharoitida millatlar o'rtasida muttasil

aloqalar mavjudligidan kelib chiqib, milliy psixologiya masalalari kun tartibida avvalgidan ham muhim masala sifatida qo'yilmoqda. Shuning uchun ham katta guruuhlar ichida etnik, milliy guruuhlarga ko'proq e'tibor berishni lozim topdik, bunday e'tiborning yana bir boisi – O'zbekistonda bu sohada nisbatan tadqiqotlarning ko'proq o'tkazilganligi, lekin ular ko'p hollarda milliy psixologiya darajasiga olib chiqilmaganlidandir. Chunki oxirgi yillarda O'zbekistonda olib borilayotgan ko'pgina ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda u yoki bu masala yoki muammoning etnopsixologik xususiyatlarini aniqlash urf bo'ldi. Bunday tarzda qo'yilayotgan masala to'g'ri va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega, lekin muammoni o'rghanish uchun avvalo etnopsixologiyaning fan sifatida o'ziga xosligini bilish zarur, deb hisoblaymiz.

*N.Salayevaning "O'zbek oilasining etnopsixologik va hududiy xususiyatlari"* nomli tadqiqotida Xorazm viloyatining oilalari ob'yekt sifatida tanlab olindi. *N.Salayeva* tomonidan olib borilgan izlanishning dolzarbli etnopsixologik jihatdan muloqotning noverbal usullarining ahamiyati bilan ifodalanadi. Bu tadqiqot ishi shuni ma'lum qildiki, O'zbekistonda hali ham madaniy-etnik hamda etnopsixologik xususiyatlar saqlanib qolgan hamda xalqning qiziqishlari, qadriyatlar e'tiqodlari, ustakovkalar, ideallari bilan bog'liq bo'ldi. Muallif tomonidan bir qator ijobiy faktorlarning etnopsixologik an'analarga ta'sirini, ularning zamонави油 oiladagi rolli funksiyalarni taqsimlanishida psixoterapeutik qimmatini belgilaydi<sup>20</sup>.

"Qoraqalpoq oilasining ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari" deb nomlangan *M.A.Utepbergenovning ilmiy ishlarini ham o'rjanib chiqdik*. Unda zamonga xos oilaning etnopsixologik xususiyatlari haqida ma'lumot keltiriladi. Ushbu xalqning ekologik jihatdan xavfli zonada joylashganligi tufayli etnik-madaniy merosini saqlay olishning muhimligini so'zlab o'tishga izoh ham yo'q. Ammo tadqiqotning yangiligi va qimmati shundaki, qoraqalpoq oilasining ijtimoiy-psixologik xarakteristikalariga oid materiallar, hududiy etnopsixologik xususiyatlar hamda zamонави油 oilaning ijtimoiy xususiyatlari haqida ma'lumotlar

<sup>20</sup> Salayeva N. Xorazm oilalarining etnopsixologik xususiyatlari. Psixol. fan. nomzodi ... dis.: 19.00.05. – T.: O'zMU, 2002. – 146 b.

olindi. Bu bilan birgalikda muallif ota-onasini oilasini tajribasi va uning bo'lajak turmush o'rtog'ini tanlashdagi ta'sirining ahamiyati ham ajratib o'tildi.<sup>21</sup>

Shuningdek, M.A. Utepbergenov (2019) doktorlik dissertatsiya ishi tadqiqotining ilmiy yangiligi sifatida: qoraqalpoq yoshlari orasida oila qurishda mustaqillik, muhabbatning ustuvorligi, intim munosabatlarning rasmiylashtirish yetakchi motivlar sifatida, "murundyb'k ata va murundyb'k apa" hamda "qiz olib qochish" an'anasing saqlanishi nikoh qurishni mustahkamlovchi etnik omil ekanligi aniqlangan; qoraqalpoq oilasida oila qurish yoshi, er-xotin orasidagi optimal yosh tafovuti, hayotiy qadriyatlarning umumiyligi, oilada farzandlar mavjudligi, shaxsdagi individual-psixologik xususiyatlari jihatidan bir-biriga mosligi va boshqa omillarni o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan va ilmiy asoslab berilganligini alohida e'tirof qilish mumkin.

### **Bob yuzasidan tayanch iboralar**

Etnopsixologiya, etnos, xalq, etnologiya, etnik guruh, til, diniy e'tiqodi, an'ana, qoraqalpoq oilasi.

### **Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Etnopsixologiya fanining predmeti deganda nimani tushunasiz?
2. "Etnopsixologiya" atamasi qanday ma'noni anglatadi?
3. Etnik guruh tushunchasini mazmunini ochib bering.
4. Etnik guruhlar tarixiy rivojlanish jarayonida qanday belgilar va mezonlar asosida shakllangan?
5. Etnopsixologiyani o'rganish ob'yekti haqida nimalarni bilasiz?

### **Bibliografiya**

1. Утепберганов М.А. Қорақалпок оиласарининг ижтимоий ва этнopsихологик муаммолари: Психол.ф. д. (DSc) даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати: 19.00.05. – Т.: ЎзМУ, 2019. – 70 б.

<sup>21</sup> Утепберганов М.А. Қорақалпок оиласарининг ижтимоий ва этнopsихологик муаммолари: Психол. фан. док. (DSc) даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати: 19.00.05. Т., 2019. – 70 б.

2. Этнопсихология: Учебник для студентов вузов / Т.Г. Стефаненко. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: ЗАО Издательство «Аспект Пресс», 2014. – 352 с.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
4. Вильгельм В. Проблемы психологии народов. – СПб.: Академический проект, 2011. – 136 с.
5. Аронсон Э. Общественное животное. Введение в социальную психологию. – М.: Прайм-ЕвроЗнак, 2006. – 416 с.

**XI BOB**  
**ETNOPSIXOLOGIK TADQIQOTLARNING**  
**G'ARB VA SHARQDA O'RGANILISHI**

**11.1. Etnopsixologik tadqiqotlarning  
eramizdan oldingi o'r ganilishi**

Boshqa xalqlarga, etnik guruhlarga xos bo'lgan ruhiy xususiyatlarni, qo'shni qabilalarning yashash tarzini o'r ganishga bo'lgan qiziqish qadim vaqtlardayoq bir qancha amaliy ehtiyojlar, avvalo iqtisodiy, savdo-soti q va harbiy maqsadlar natijasida vujudga kelgan.

Antik davrlarda sayyoh va savdogarlar uzoq yurtlarga qilgan safarlardan qaytgach, xorijiy xalqlarniig yashash sharoitlari, urf-odatlari, odamlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning kiyinishi, qanday ovqatlar tanovvul qilishi, bu mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy tuzum, hayvonot olami va boshqa narsalar haqida o'z vatandoshlariga ajoyib va g'aroyib narsalardek so'zlab berishgan. Qadimgi dunyo mutafakkirlari *Aristotel*, *Gerodot*, *Gippokrat*, *Demokrit*, *Pifagor* va boshqalar barcha ijtimoiy va psixologik hodisalarni tushuntirib berish uchun yagona bo'lgan umumiyl tamoyillarni, nazariyalarni qidirib topishga, xususan, xalqlarning turli psixologik xususiyatlariiga ega bo'lishining sabablarini tushuntirib berishga harakat qilganlar. Etnopsixologik xususiyatlarning vujudga kelishini ular asosan, tabiiy-geografik muhitning ta'siri bilan bog'lab tushuntirganlar. Masalan, qadimgi dunyoning buyuk mutafakkiri Gippokrat (eramizdan avvalgi 460-375-yy.) o'zining "Havo, suv va quruqlik", degan asarida xalqlarning turli ruhiy va jismoniy xususiyatlarni bevosita iqlim sharoiti bilan bog'lagan holda tushuntirib berdi.

Xalqlarning xarakter va temperament xususiyatlarini vujudga kelishini ular iste'mol qilayotgan oziq-ovqatlar bilan bog'lab tushuntirishga ham urinislari bo'lgan. Mashhur matematik va faylasuf *Pifagor*ning (eramizdan avvalgi 570-500-yy.) tushuntirishiga qaraganda, hayvon go'shti va yog'ini ko'p iste'mol qilinishi, xalqlarda qattiqqo'llik va dag'allikni vujudga keltiradi. Aksincha, o'simlik mevalari va sabzavotlarni muttassil iste'mol qilinishi esa tana faoliyatini sustlashtirib, odamlar tabiatini muloyimlashtiradi. Antik dunyoning buyuk aql

egasi Aristotel (eramizdan avvalgi 384-322-yy.), haddan ortiqcha issiq yoki sovuq iqlim sharoitida yashaydigan xalqlar qattiqqa'l, shavqatsiz bo'lishadi, degan fikrga ishongan.

Buyuk bobomiz *A.R. Beruniy* "Osori boqiya" (Abadiy qadriyatlar) asarida turli xalqlar: qadimgi greklar, eroniylar, so'g'dlar, xorazmliklar, xristianlar va dinlar: yahudiylar, musulmonlarning ruhiy xususiyatlari va ularning eralarini boshlanish sabablarini ko'rsatib bergan. U bu xalqlariing ma'lum davrlar ish vaqtarga to'g'ri kelgan mashhur bayramlari, xotira kunlari hamda bir xalqli ikkinchisidan farqlantiradigan urf-odatlari, turli xalqlar qo'llayotgan yil hisoblash usullari, oy va yillarning farqi kabi masalalarni bayon qilib bergan.

Turli xalqlarga xos xususiyatlarni o'rganish uchun Beruniy o'ziga xos ilmiy metod yaratadi. Shuning uchun, deb ko'rsatadi u, qadimgi xalqlar rivoyatlarini hamda o'tmish avlodlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishi lozim. Shuning uchun "Muqaddas kitob"larga amal qiluvchi xalqlar, muayyan aqidalarga riosa etuvchi dinlar, mazhablarga e'tiqod qo'yganlar izidan borishga to'g'ri kelishligini ko'rsatadi. Bunda ularning turli qarashlari asos qilib olinadi va isbot qilish maqsadida keltirilgan so'z, faktlarni va faktlarni bir-biri bilan solishtirib ko'rish lozim. Shu yo'l bilan olingen ma'lumotlarni, ularga qo'shilib ketgan afsonalardan tozalash kerak bo'ladi, deydi.

Beruniy o'zining mashhur "Hindiston" asarida xalqlarning dini va tafakkur qilish xususiyatlari, diniy va dunyoviy hayoti bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlari, ularning xudolarga ishonishlari, materia va shakl, jonning ko'chib yurishi, do'zax va jannat haqidagi tasavvurlari bayon qilingan.

### *11.2. XVIII va XIX asrdagi etnopsixologik qarashlar*

Xalqlarning psixologik xususiyatlarini iqlim va boshqa tabiiy omillar bilan bog'lab tushuntirish keyingi davrlarda yashab ijod

qilgan XVIII va XIX asr mutafakkirlari – *Monteskye, J.J.Russo, Didro, Gumboldt* shuningdek, hozirgi davrdagi ayrim tadqiqotchilar faoliyatida ham uchraydi. Sotsiologiyadagi "geografik determinizm" oqimining asoschilaridan biri-fransuz ma'rifatparvari *Sh.Monteskye* (1689-1755-yy.) ham xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy

tafovutlarni asosan, kishilar tanasiga doimiy ta'sir etadigan turli tuman tabiiy iqlim natijasi, deb tushuntiradi. Uning fikricha, iqlim va zamin xalqlarning axloq normalarigagina ta'sir etib qolmasdan, shuniig bilan birga davlat siyosatiga, madaniy taraqqiyot darajasiga “psixologik qiyofa”siga ham kuchli ta'sir ko'rsatar ekan. Iqlimning rolini haddan tashqari oshirib yuborish natijasida *Monteskye* sovuq iqlimda yashaydigan xalqlar chidamli, baquvvat, issiq iqlimda yashaydigan xalqlar esa jismoniy jihatdan zaif va ojiz bo'lishadi, degan xulosaga keladi. Iqlim sharoiti ta'sirida inson tanasida sodir bo'ladigan fiziologik jarayonlarni ijtimoiy-siyosiy hodisalar va axloq normalari vujudga kelishi uchun moddiy asos qilib olinishi, biologik va sotsial qonuniyatlarni bir-biri bilan chalkashdirib yuborish hisoblanadi. Bu esa oxir oqibatda ijtimoiy tarixiy hodisalarni tushuntirib berishda xulosalar qilishga olib keladi. Iqlimi omillarning rolini oshirib yuborish etnik xususiyatlarni o'zgarmaydigan va doimiy bo'lgan hodisa, degan xulosa qilishga olib keladi. Vaholanki, kurramiz iqlimida keyingi yuz yilda deyarli keskin o'zgarishlar sodir bo'lмаган bo'lsa ham, odamlar hayotida katta ijtimoiy-tarixiy o'zgarishlar ro'y berdi, bu o'zgarishlar o'z navbatida xalqlarning psixologik qiyofasida ham katta o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Shuning bilan birgalikda etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida tabiy-geografik muhitning rolini ham butunlay inkor etib bo'lmaydi. Geografik joylashish o'rni va iqlim sharoiti xalqning yashashi uchun zarur bo'lgan shart-sharoit sifatida uning iqtisodiy rivojlanishida, psixologiyasiniig shakllanishida ma'lum rol o'ynaydi. U yoki bu mamlakatdagi ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo'jalik yuritish xususiyatlari va hayot tarzi ko'p jihatdan tabiiy-iqlim sharoitlari bilan belgilanadi. Lekin ijtimoiy tizim va tarixiy o'zgarishlar mamlakatning geografik joylashishiga, tabiiy sharoitlariga bog'liq holda vujudga kelmaydi. XX asrda Eronda yangi bir g'oya-“xalq ruhi” tushunchasi tarqala boshlandi. Bu g'oyaga ko'ra har bir xalq, etnik guruh avvaldan shartli ravishda berilgan o'z “ruhi”ga ega ekan. Har bir irq, xalq ma'lum anatomik tuzilishiga ega bo'lgani kabi o'z ruhiga ham ega bo'lib, u xalq taqdiri va kelajagini belgilab turadi. Bu ruh xalqning siyosiy tuzumini, e'tiqod va ishonchini, diniy qarashlarini boshqarib turadi. “Xalq ruhi” nazariyasining to'la bayoni, ayniqsa,

Gegel falsafasida o‘z aksini topdi. Gegel har bir xalqning o‘tmishi va kelajagini mantiqiy “Mutloq ruh” bilan bog‘lab tushuntiradi. Turli xalqlarning ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy, hatto irqiy tafovutlarining asosini ham shu “ruh” tashkil etadi, deb ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra u ayrim Osiyo xalqlari to‘g‘risida bo‘limg‘ur fikrlar bayon etgan holda, nemis millatini eng oliy irqi tarixiy o‘tmishga ega bo‘lgan millat, deb davo qilib chiqadi.

Etnopsixologiya rivojiga katta hissa qo‘shtigan *Vilhelm Vundt* etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishi va rivojlanishini tarixiy jarayonlar, ijtimoiy hodisalar asosida tushuntirib berishga harakat qildi. Masalan, u nemis xalqining psixologik xususiyatlarini tahlil qilganda, ular xarakterida tadbirdorlik, hisob-kitob bilan faoliyat yuritish, batartiblik va Vatan haqidagi burchni yaxshi his qilishi kabi ijobjiy xislatlar bilan birqalikda boshqalarga ko‘r-ko‘rona ergashish va taqlid qilishlik ham borligini ko‘rsatib o‘tadi. Bu kamchilikning vujudga kelishida Germaniyaning siyosiy faoliyatida Yevropadagi boshqa mamlakatlarga qaraganda keyinroq maydonga chiqishi va Germaniyada o‘rtta asrdayoq diniy mutaasiblik bilan yangi davr o‘rtasidagi uzoq yillar mobaynidagi davom etgan kurash natijasida bo‘lib, bu tarixiy jarayon nemislarning psixologik qiyofasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan, deb yozadi.

Ijtimoiy-psixologik hamda etnopsixologik bilimlar uchun manba rolini o‘ynagan birinchi asos *xalqlar psixologiyasi* bo‘lib, u XIX asrning o‘ttalarida Germaniyada shakllandi va aslida u mohiyatan etnopsixologiyaning fan sifatida yaralishi uchun ibtido rolini ham o‘ynagan. Undagi asosiy nazariy fikr shundan iborat ediki, ayrim individlardan yuqori turadigan ruh mavjud bo‘lib, bu ruh o‘zidan ham yuqori turadigan ilohiy yaxlitlikka bo‘ysunadi. Bu ilohiy yaxlitlik xalq yoki millatdir. Ayrim individlar ana shu yaxlitlikning bo‘laklari bo‘lib, ular aslida shu ruhga bo‘ysunadilar. Xalqlar psixologiyasining tarixiy-mafkuraviy asosi bo‘lib *Gegel* falsafasi va nemis romantizmi xizmat qilgan, deyish mumkin, chunki *Gegeldagi* “individdan yuqori turuvchi ruh” g‘oyasi xalqlar va millatlar psixologiyasi jonkuyarlari tomonidan to‘lig‘icha qabul qilindi.

Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatidagi tarixidan ma'lumki<sup>22</sup>, 1859-yilda "Xalqlar psixologiyasi" iborasi birinchi marta *M.Lasarus* (1824-1903) hamda *G.Shteyntal* (1833-1893) asarlarida ishlataldi. Ular birgalikda chop etgan "Xalqlar psixologiyasi to'g'risida kirish so'zi" kitobida shunday fikrlarni ilgari suradilar: "Tarixni yurgizuvchi asosiy kuch – bu xalq yoki shu "yaxlitlikning ruhi" bo'lib, bu ruh san'atda, dinda, tilda, afsonalarda, an'anlarda o'z aksini topadi. Individning ongi ushbu yaxlitlikning mahsuli bo'lib, ularning yig'indisi o'z navbatida xalq ongini tashkil etadi. Xalqlar psixologiyasining vazifasi xalq ruhi mohiyatini o'rganish, xalq ruhiyati qonunlarini ochish, xalq psixologiyasiga oid bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarning paydo bo'lishi va yo'qolishini tushuntirib berishdir". O'sha kitobda mualliflar shaxs bilan jamiyat munosabati xususida quyidagi mulohazalarini bayon etadilar: "Odam o'z mohiyati jihatidan ijtimoiy mayjudot bo'lib, u jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liq, chunki u o'ziga o'xshashlarga qarab rivojlanadi, boshqalarga taqlid qilib harakat qiladi va ular ta'qibidan qochadi..." Ta'kidlashimiz lozimki, xalqlar psixologiyasining asoschilari o'z izlanishlari va yozib qoldirgan asarlarida faqat nazariy mulohazalar yuritish bilan cheklandilar, chunki ularda o'z fikrlarini isbot qilish uchun aniq konkret faktlarga asoslangan tadqiqotning natijalari yo'q edi.

"Psixologiyaning otasi" hisoblangan *Vilgelm Vundt* esa, ilk marotaba o'zining "Inson va hayvon ruhi haqida ma'ruzalar'i" (1863) va 1900-yilda bosmadan chiqqan o'n toqli "Xalqlar psixologiyasi" asarlarida asosan o'zi to'plagan empirik ma'lumotlar asosida xalqlar psixologiyasiga bag'ishlangan fikrlari tizimini bayon etdi. Uning fan oldidagi xizmati shundan iborat ediki, Vundt empirik ma'lumotlar to'plash usullari, to'plangan manbalarni sharhlash borasida bebafo bilimlar to'pladi. Uning fikricha, psixologiya fani ikki qismdan iborat: fiziologik psixologiya va xalqlar psixologiyasi. Fiziologik psixologiya inson ruhiyatini o'rganuvchi eksperimental fan bo'lib, oliy psixik jarayonlar – tafakkur va nutqdan tashqari barcha narsani eksperiment usulida tadqiq etishi mumkin. Eksperiment usulida o'rjanib bo'lmaydigan barcha qolgan oliy ruh holatlarini xalqlar

<sup>22</sup> Вильгельм В. Проблемы психологии народов. – СПб.: Академический проект, 2011. – 136 с.

psixologiyasi o'rganadi, chunki undagi o'rganish usullari o'ziga xosdir. U madaniy mahsullar hisoblangan til, afsonalar, odatlar, san'at asarlari, inson tafakkurining murakkab tomonlarini ochib beradi.

To'g'ri, *Vundtning psixologiya fani oldidagi xizmatlari* buyuk, uning xalqlar psixologiyasiga oid ma'lumotlari hozirgi kungacha ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. Lekin uning yagona kamchiligi shu ediki, uning qarashlari idealistik asosda bo'lgan, ya'ni u individ bilan jamiyat o'rtaсидаги murakkab dialektik munosabatni idealistik asosda turib hal qilgan va jamiyatning rolini absolyut tushunib, shaxsning tarixni yaratishdagi, ijtimoiy jarayonlardagi faol o'rnnini ko'ra bilmagan. Uning izdoshlari – Rossiyalik *A.Potebni*, nemis olimi *T.Geyger* va boshqalar ham u yo'l qo'ygan mafkuraviy kamchilikni oldini ola olmadilar, lekin ular bir fikrda yakdil edilarki, xalqlar psixologiyasi individual psixologiyadan farq qiladi, shuning uchun ham maxsus fan kerakki, u o'ziga xos usullar yordamida shaxs va jamiyat munosabatlari qonunlarini ochib berishi lozim. Xuddi ana shu xulosalar ijtimoiy psixologiyaning va uning tarkibida etnopsixologiyaning fan sifatida shakllanishiga ilmiy asos bo'ldi.

Shunday qilib, alohida olingan inson ruhiyatini keng ijtimoiy muhit ta'sirida, xalq va millat ongi va ruhiyatning etnik xususiyatlari bilan bog'lab o'rganish an'analari qadim vaqtлага borib taqaladi. Bu kabi munosabat, qiziqish, ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatlararo munosabatlar tig'izlashgan, dunyo bozori uchun kurash kuchaygan, xududiy, etnik nizolar va to'qnashuvlarning kuchayib ketayotganligi bois yanada ortdi.

Etnopsixologiya muammolarini o'rganishda 20-30-yillari bir munkha yondoshish bo'lsa ham, lekin bu masalani o'rganishdagi sub'yektivizm va ayrim fan olimlarining irqchilik va millatchilik nazariyalari bu fanni keng jamoatchilik oldida obro'sizlantirib, fanning rivojiga soya solib qo'ygan edi. Shuning uchun ham XX-asrlarning o'rtalariga kelib "Etnopsixologiya", "Milliy psixologiya", "Milliy xarakter", "Milliy psixologik qiyofa" terminlari faqat ma'rifiy ma'noda ishlataladigan bo'lib qoldi. Shuning uchun ham bu masalani o'rganishga yaqin davrlargacha yaxshi diqqat-e'tibor berilmasdan kelindi.

Etnopsixologik tadqiqotlarning ikkinchi bosqichi, asosan, o'tgan asrning 60-yillardan boshlandi. Ijtimoiy-siyosiy hayotda bo'lgan katta o'zgarishlar, milliy ongning o'sishi, millatlararo integrasiyaning kuchayishi natijasida etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish bir muncha kuchaydi. Buning natijasi o'laroq, maishiy hayotdagi millatga oid psixologik xususiyatlarni o'rganayotgan olimlarning bir qator ilmiy asoslangan, fan uchun muayyan ahamiyat kasb etgan, qiziqarli va muammoli ilmiy maqolalari, kitoblari nashr etildi. Bir qator e'tiborli ilmiy jurnallarda millat va uning psixologik xususiyatlari to'g'risida olimlarning bahs-munozaralari tashkil etildi. Ayniqa, 1966-1970-yillar ichida Rossiyada chop etilgan "Tarixdan savollar" jurnalida millat va uning belgilari to'g'risida olimlarning mubohasasi uyushtirildiki, bu mubohasada fanning turli jabhalarida ish olib borayotgan mutaxassislar, tadqiqotchilar faol ishtirop etishdi. Mubohasada bahs asosan millatning psixologik qiyofasi to'g'risida bordi. Bo'lib o'tgan bahs-munozaralar olimlarning etnik psixologiya va milliy psixologik qiyofa masalalariga qiziqib qarayotganliklari ma'lum bo'ldi. Shuning bilan birga mubohasa milliy voqelikdagi hodisalar, milliy psixologik qiyofani tushunishda olimlar o'rtasida turli qarashlar va yondoshishlar borligini, hatto terminalogik chalkashliklar, noaniqliklar mavjudligini ko'rsatdi.

Bo'lib o'tgan mubohasa qatnashuvchilarini shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh qatnashchilari etnopsixologik xususiyatlarni ijtimoiy psixologiyaning real voqeligi va millatning belgisi sifatida tan olishdi. Bu guruh olimlariga *A.G.Agayev, S.M.Arutyunyan, V.M.Vohidov, A.I.Goryacheva, M.S.Junusov, A.Sobirov* va boshqalarni kiritish mumkin. Ikkinchi guruh vakillari esa, etnopsixologik xususiyatlarni ijtimoiy voqelik sifatida mavjudligini inkor etadi – bular *T.Yu.Burmistrova, S.T.Kaltachyan, V.I.Kozlov, P.M.Rogachey, M.A.Sverdlin* va boshqalar.

Etnopsixologik xususiyatlar va uning asosiy elementi milliy psixologik qiyofani millat belgisi sifatida o'rganish muholiflaridan *P.M.Ragachev va M.A.Sverdlinlarniig* fikricha, bu tushunchalar milliy munosabatlar tahliliga mujmallik beradi va sotsiologiyadagi asosiy tushuncha – sinfiylik va

baynalminalchilikka soya soladi. S.Kaltaxchyan fikriga ko'ra, agar milliy psixologik qiyofani millatning belgilaridan biri sifatida qabul qilinadigan bo'lsa, u vaqtda millatni ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida emas, tabiiy va doimiy o'zgarmas hodisa sifatida e'tirof etishga to'g'ri keladi. Mubohasada qatnashgan T.Burmistrova ham millatning ta'rifini berganda milliy psixologik qiyofani uning belgilari qatoriga kiritmaydi. Uning yozishicha, rus va ukrain, gruzin va arman, nemis va frantsuz va shunga o'xhash xalqlar psixologiyasidagi farqlarni belgilash umuman mumkin emas. Ayrim xalqlar, millatlar psixologiyasida muhim tavoiftlar borligini tasdiqlash, isbotlab bo'lmaydigan, quruq gap xolos va bu irqchilarga muruvvat ko'rsatilib, bir millatni ikkinchi millatga qarshi qo'yish uchun xizmat qiladi. Rus olimi V.Kozlov, bu tushunchalarning ishlatalaverishi jamoatchilik fikrida chalkashliklarni, illyuziyaga o'xhash bir holatni keltirib chiqarishi mumkin, degan xulosaga keladi. Professor S.Kalgaxchyan fikriga ko'ra esa, katta guruhlar o'rganilganda faqat sinfiy psixologiya o'rganishga loyiq toifadir. Ularning fikricha, etnik xususiyatlar va milliy psixologik qiyofa to'g'risida so'z bo'lishi ham mumkin emas.

Bu kabi xavotirli xulosalarga sabab bizningcha, o'sha totalitar sovet tuzumi davrida etnopsixologik tadqiqotlarning ayrim natijalari aniq ta'qibga uchrashi, chet ellarda olib borilgan etnik psixologik tadqiqotlar va ulardan olingan natijalarda irqchiliq elementlari bo'lishi mumkin edi. Chunki ayrim tadqiqotlarning natijalari va xulosalarida irqlar, millatlar, etnik guruhlarning ruhiy jihatdan teng emasligi, ba'zi xalqlarning boshqalardan ustun turishligi "ilmiy" jihatdan asoslashga harakat qilindi. Masalan, etnopsixolog R.Linton va A.Kordinerlar anglo-sakslardan bo'limgan hamma boshqa xalqlar o'zining ruhiy xususiyati bilan yetuk emas, degan noilmiy g'oyani ilgari surishadi. Xuddi shunga o'xshab o'sha davrlarda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi ayrim xalqlarni ruhiy jihatdan yetuk emasligini "isbotlovchi" qator tadqiqotlar o'tkazishgan. Albatta bu xilda qilinayotgan "kashfiyotlar" olimlar o'rtasida tashvish va xavotirlik tug'dirishi tabiiy. Muholiflarning yana bir e'tirozi milliy va sinfiy psixologiya o'rtasidagi munosabat masalasi bo'ldi. Unga ko'ra tipik sinfiy jamiyatda ishlab chiqarish

munosabatlariiga qarab sinfiy tabaqlanish mavjud bo‘ladi va ular ijtimoiy mavqega, statusiga, g‘oyaviy maslagiga ko‘ra bir-biridan farqlanuvchi sinflarning psixologiyasini shakllantiradi. Lekin bir millatning shu ikki ijtimoiy birligida psixologik xususiyatlar va ma’naviy xislatlarning ma’lum bir umumiyligi mavjud. Zero, ma’lum bir milliy muhitda yashayotgan har bir kishida faqat ijtimoiy-sinfiy xislatlar shakllanib qolmasdan, shuningdek etnik xususiyatlar ham shakllangan bo‘ladi.

Etnopsixologik xususiyatlarni o‘rganuvchi tadqiqotchilarning aksariyat ko‘pchiligi, uni ijtimoiy-tarixiy kategoriya ekanligini e’tirof etadilarda, uni o‘rganish “qiyin ob’yekt” ekanligini ta’kidlashadi. Darhaqiqat, bu masala tekshirish va o‘rganish uchun murakkab va tushunish bilan birga eng dolzARB, kam o‘rganilgan muammo hamdir.

Ilmiy manbalarda keltirilishicha, etnopsixologik xususiyatlarni o‘rganishdagi qiyinchiliklar quyidagilardan kelib chiqadi:

- a) milliy psixologik qiyofani o‘rganuvchi etnopsixologiya fanining boshqa psixologiya tarmoqlariga nisbatan sust rivojlanayotganligi va hanuzgacha uning umumiyligi masalalarini tadqiq etishning metodologik tamoyillari to‘la ishlab chiqilmaganligi;
- b) etnik xususiyatlar ko‘zga yaqqol tashlanib turgan holda, uni tashkil etuvchi ruhiy xislatlarning yashirin ekanligi, uni bevosita emas, bilvosita, ya’ni, ularning mahsullariga qarabgina baho berish mumkinligi;
- v) yuqorida zikr qilinganidek ayrim olimlarning ushbu masalalar borasida bir-biridan farq qiluvchi munosabatlarga ega ekanligi;
- g) etnopsixologiyaning fan sifatida uzoq vaqt mobaynida ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida o‘z o‘rnini topa olmaganligi.

Lekin shunga qaramay, muayyan qiyinchiliklar milliy psixologik qiyofa, milliy xarakter kabi millatning ruhiy xususiyatlari mavjud ekanligini psixologiya fani, uning tarkibiy qismi bo‘lmish ijtimoiy psixologiya o‘ragnib kelmoqda. Bu sohada muvaffaqiyatli ish olib borish uchun ilmiy tekshirishlar metodikasini

takomillashtirish va qator fan vakillari – faylasuf, tarixchi, etnolog, sotsiolog, psixolog, adabiyotshunos, san'atshunoslar hamkorlikda ish olib bormoqdalar.

Milliy masalalar va etnopsixologiya bo'yicha yirik mutaxassis *M.Junusovning* xaqli ravishda ta'kidlashicha, millatning muhim belgilaridan bo'lgan psixik qiyofani inkor etish nazariy jihatdan asossiz bo'lib, amaliyotda katta xatolarga olib kelishi mumkin.

Bahs tahlili shuni ko'rsatadiki, bu masalada qator terminologik chalkashliklar ham mavjud ekan. Masalan, ayrim bahs qatnashuvchilari "milliy psixologik qiyofa", "etnik psixologiya", "milliy xarakter" kabi tushunchalarni aynan bir narsa, deb hisoblaydilar. Shuning uchun bu tushunchalarning bir-biridan farq qiluvchi tomonlarini ko'rsatmasdan turib, ularning mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida fikr yuritish mumkin emas.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda o'tkazilgan psixologik tadqiqotlarning bir qismi aynan oila sharoitida, oilada saqlanib kelinayotgan udumlar, qadriyatlar, odatlar doirasida o'tkazilgan bo'lib, birinchi ijtimoiy-psixologik hamda etnopsixologik tadqiqot yurtimizda XX asrning 70-yillari oxiri 80-yillarning boshida *I.Yoqubov*<sup>23</sup> tomonidan o'tkazilgan. U oilaviy munosabatlarning barqarorligi va er-xotin ijtimoiy rollarining muvofiqligini ta'minlovchi ijtimoiy-psixologik omillarni o'rgandi. Tadqiqot natijasida shu narsa aniqlandiki, oila a'zolarining rollar borasidagi muvofiq o'zaro munosabatlari oilaviy hamjihatlikning muhim shartidir. Oilaviy mojarolar esa, asosan hozirgi zamон o'zbek ayolining ijtimoiy mehnat bilan bandligi hamda oilaviy munosabatlarda eskilik sarqitlarining saqlanib qolganligidadir.

Keyinchalik shu kabi oila va oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik fenomenlarga bag'ishlangan tadqiqotlar o'zbekistonlik olimlar *G.B. Shoumarov* va uning izdoshlari, shogirdlari ishlarida rivojlantirildi. Masalan, *G.Shoumarov* va *Ye.A.Morshinalarning* 1986-yilda o'tkazgan tadqiqotlarda oilada bolalar tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-psixologik omillar o'rGANildi, chunonchi, unda ota va ona, er va xotin, ota-onva farzandlarning

<sup>23</sup> Якубов Ю.А. О рассогласованности ролевого поведения супругов как фактор дестабилизации брака // Тезисы докл. к 6-му Всесоюзн. Съезду Общества психологов.-М., 1983.- С.923-924

o'ziga xos o'zaro munosabatlaridagi an'anaviy milliy va zamonaviy munosabatlarning xususiyatlari olib berilgan.

### Bob yuzasidan tayanch iboralar

Antik davr, geografik determinizm, xalq, etnologiya, etnik guruh, til, diniy e'tiqodi, an'ana.

### Nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Etnopsixologik tadqiqotlarning eramizdan oldin o'rganilishini qanday manbalar orqali yoritish mumkin?
2. Aristotel, Gerodot, Gippokrat, Demokrit, Pifagorlarning etnopsixologiyaga oid qarashlari qanday bo'lgan?
3. "Havo, suv va quruqlik" asarining muallifi kim?
4. A.R.Beruniy "Osori boqiya" (Abadiy qadriyatlar) asarida nimalar haqida ma'lumot bergan?
5. Beruniyning yana qaysi asarida xalqlarning dini va tafakkur qilish xususiyatlari olib berilgan?
6. XVIII va XIX asrda etnopsixologik qarashlar qaysi olimlar nomi bilan bog'liq?
7. "Xalq psixologiyasi" tushunchasini fanga olib kirgan olimlar kimlar?
8. Etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishdagi qiyinchiliklar nimalardan iborat?

### Bibliografiya

1. Крысько, В.Г. Этническая психология: учебник для бакалавров / В.Г. Крысько. – 10-е изд., перераб. и доп. – М. : Издательство Юрайт, 2016 – 359 с.
2. Этнопсихология. Учебно-методическое пособие для студентов высших учеб. заведений / Сост. Я.С. Сунцова, С.А. Вьюжанина. – Ижевск: Изд-во «Удмуртский университет», 2015 – 182 с.

3. Этнопсихология: Учебник для студентов вузов / Т.Г. Стефаненко. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: ЗАО Издательство «Аспект Пресс», 2014. – 352 с.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
5. Вильгельм В. Проблемы психологии народов. – СПб.: Академический проект, 2011. – 136 с.
6. Маматов М.М. Этнопсихология. – Т.: НУУз, 2006. – 120 с.
7. Аронсон Э. Общественное животное. Введение в социальную психологию. – М.: Прайм-ЕвроЗнак, 2006. – 416 с.

o‘ziga xos o‘zaro munosabatlardagi an’anaviy milliy va zamonaviy munosabatlarning xususiyatlari ochib berilgan.

### **Bob yuzasidan tayanch iboralar**

Antik davr, geografik determinizm, xalq, etnologiya, etnik guruh, til, diniy e’tiqodi, an’ana.

### **Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Etnopsixologik tadqiqotlarning eramizdan oldin o‘rganilishini qanday manbalar orqali yoritish mumkin?
2. Aristotel, Gerodot, Gippokrat, Demokrit, Pifagorlarning etnopsixologiyaga oid qarashlari qanday bo‘lgan?
3. “Havo, suv va quruqlik” asarining muallifi kim?
4. A.R.Beruniy “Osori boqiya” (Abadiy qadriyatlar) asarida nimalar haqida ma’lumot bergen?
5. Beruniyning yana qaysi asarida xalqlarning dini va tafakkur qilish xususiyatlari ochib berilgan?
6. XVIII va XIX asrda etnopsixologik qarashlar qaysi olimlar nomi bilan bog‘liq?
7. “Xalq psixologiyasi” tushunchasini fanga olib kirgan olimlar kimlar?
8. Etnopsixologik xususiyatlarni o‘rganishdagi qiyinchiliklar nimalardan iborat?

### **Bibliografiya**

1. Крысько, В.Г. Этническая психология: учебник для бакалавров / В.Г. Крысько. – 10-е изд., перераб. и доп. – М. : Издательство Юрайт, 2016 – 359 с.
2. Этнопсихология. Учебно-методическое пособие для студентов высших учеб. заведений / Сост. Я.С. Сунцова, С.А. Выюжанина. – Ижевск: Изд-во «Удмуртский университет», 2015 – 182 с.

3. Этнопсихология: Учебник для студентов вузов / Т.Г. Стефаненко. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: ЗАО Издательство «Аспект Пресс», 2014. – 352 с.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
5. Вильгельм В. Проблемы психологии народов. – СПб.: Академический проект, 2011. – 136 с.
6. Маматов М.М. Этнопсихология. – Т.: НУУз, 2006. – 120 с.
7. Аронсон Э. Общественное животное. Введение в социальную психологию. – М.: Прайм-Еврознак, 2006. – 416 с.

## XII BOB ETNOPSIXOLOGIYANING METODLARI

### 12.1. Etnopsixologik metodlarning xilma-xilligi

Chet ellarda va mamlakatimizda amalgalashirilgan ilmiy ishlarni tahlil qilar ekanmiz, etnopsixologik tadqiqotlarda xilma-xil uslub va metodlar qo'llanilganining guvohi bo'lamiz. Chunki bunday tadqiqotlarda shaxs xususiyatlarini o'rganuvchi turlicha testlardan tortib, proyektiv metodlar, eksperimentlarning turlicha ko'rinishlari, so'roq metodlari – anketa, intervyu, sotsiometriya, shkala metodlari va boshqalar ishlatiladi. Bu metodlar hozirgi kunlarda ham “madaniy muhit va shaxs”, guruhlararo munosabatlar hamda qiyosiy tadqiqotlarda qo'llanilmoqda. Bunday ishlarni faqatgina ijtimoiy psixologlar emas, balki umumiy psixologiya bilan shug'ullanuvchi olimlar ham o'tkazmoqdalar. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, etopsixologik metodlarning tanqisligi kun sayin sezilmoqda. Millatlararo munosabatlar tobora yaxshilanib borayotgan, OAV orqali dunyoning qaysi chetidan bo'lmasin u yoki bu xalqqa oid ma'lumotlarga ega bo'lish juda oson bo'lib qolgan bir sharoitda turli millat va xalqlarning psixologiyasini o'rganish, millatlararo qiyosiy tajribalar o'tkazish fan manfaatlariga to'g'ri keladi. Shu bois ham olimlar ijtimoiy psixologiyaning qaysi muammosi bo'lmasin, uni u yoki bu ijtimoiy-siyosiy, milliy-madaniy muhit nuqtai nazaridan o'rganishni afzal ko'radilar. Bu etnopsixologik tadqiqotlarda reprezentativ, ishonchli metodlar masalasini dolzARB etadi.

Etnopsixologiya muammosi bilan shug'ullanishni maqsad qilib qo'ygan har bir tadqiqotchi yo mayjud metodikalardan birini qayta o'zgartirishga, yoki bo'lmasa, o'zicha yangi metodni kashf qilishga majbur bo'lmoqda. Nihoyat, etnopsixologik metodlarni qo'llashning noqulayligi shundaki, masalan, Amerikada juda yaxshi natija berib, ishonchli ma'lumotlar to'plashga imkon bergen metodika Osiyo mamlakatlari yoki bizning respublikamiz sharoitida umuman hech narsani o'chamasligi, aniqlamasligi mumkin. Masalan, *Ravenning* matrik testi va muhit ta'sirlari daxlsiz, deb hisoblangan *Kettellning* intellekt testi ham baribir, qisman

bo'lsada, muhit sharoitlarini hisobga olishni talab qiladi. Bundan tashqari ularni sharhlash, ma'lumotlarni tahlil qilish masalasida alohida ehtiyojkorlik va ziyraklikni talab qiladi. Shuning uchun ham hozirda butun jahon olimlari har qanday madaniy muhitdan ham yuqori turadigan, universal test yoki metodika yaratish fikrining asossizligi haqida umumiy fikr bildirmoqdalar.

Etnopsixologik tadqiqotlar o'tkazishni maqsad qilib qo'ygan har qanday tadqiqotchi asosiy printsiplar sifatida madaniy muhit sharoitlarining xilma-xilligi va ularning o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatishini inobatga olmog'i zarur. Bu narsa etnopsixologik tadqiqot dasturini tuzishda albatta hisobga olinishi kerak. Misol uchun, O'zbekiston sharoitida tadqiqot o'tkazilmoqchi bo'linsa, quyidagi narsalarga e'tiborni qaratish lozim:

1) shu hudud sharoitida yashovchi turli millatlarga xos bo'lgan umumiy psixologik omillar va ularni aniqlash usullari;

2) faqat o'zbek millatiga xos bo'lgan psixologik sifatlar va omillarni aniqlash;

3) aniqlangan omillarni yoki psixologik sifatlarni o'lchaydigan yoki eksperimental usulda tekshirishga imkon beradigan metodlarni tanlash va ularni konkret sharoitlarga moslash;

4) tadqiqotchilar guruhini tekshiralayotgan milliy guruh tilini, urf-odatini biladigan xodimlar bilan ta'minlash. Chunki, tadqiqot ob'yekti hisoblangan guruhda o'sha guruh tilida tadqiqot o'tkazish kerak, toki tekshiriluvchilarga qo'yilgan har bir talab, savol va topshiriqlar ular uchun tushunarli bo'lsin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, u yoki bu milliy guruh psixologiyasini, undagi etnik stereotiplarni tekshirishga qaratilgan maxsus metodlar yo'q, shuning uchun ham tadqiqotlar mavjud metodlar orasidan tanlab, saralab olinadi. Keyingi bosqichda esa tanlangan metodlar tekshiruv o'tkaziladigan mahalliy shart-sharoitlarga moslashtiriladi, kerak bo'lsa, u tildan bu tilga tarjima qilish kerak bo'ladi. Masalan, Qoraqalpog'istonda tadqiqot o'tkazishda albatta har bir metodika kamida uch tilda bo'lishi inobatga olinishi lozim: o'zbek, qoraqalpoq hamda zarurat bo'lsa, rus tillarida. Tarjima xususida shuni aytish kerakki, maxsus

psixologik testlar yoki metodlarni (anketalar, so‘roqlar, shkalalar savlollarini) tarjima qilish tarjimondan yuksak bilimdonlik va professional sifatlarni talab qiladi. Aks holda, metodika o‘z qimmatini yo‘qotishi yoki kerakli sifatni aniqlamasligi yoki o‘lchamasligi mumkin. Hattoki, noverbal testlarni turli sharoitlarda qo‘llab, olingen ma’lumotlarni sharxlash bosqichida uning mazmuni yoki maqsadi o‘zgarganligi ko‘plab tadqiqotlarda isbotlangan. Shuning uchun ham har qanday metodik uslubni qo‘llashdan oldin uni kichikroq guruh doirasida sinab ko‘rish va natijalarni ekspertlarga berib yoki boshqa yordamchi metodlar yordamida qayta sinovdan o‘tkazish yo‘li bilan tekshirib olish maqsadga muvofiqdir.

Konkret etnopsixologik tadqiqotlarga qo‘yiladigan yana bir talab – tadqiqotni tabiiy sharoitlarda, tekshiruvchilar uchun tanish bo‘lgan joylarda qisqa ko‘rsatmalar berish yo‘li bilan o‘tkazishdir. Chunki etnopsixologik tadqiqotlarda ko‘pincha turli yosh, kasb va ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar ishtirot etadilar, ishtirotchilar soni oddiy laboratoriya sharoitida o‘tkaziladigan tekshiruvlar farqli o‘laroq, ko‘pchilikni, ba’zan minglab nafar respondentlarni nazarda tutadi. Shuning uchun ham ularning barchasi uchun tushunarli, aniq topshiriqlar tizimini tuza olish ham psixologdan qator professional malakalarini talab qiladi.

### 12.2. Asosiy etnopsixologik metodlar tavsifii

Bizning nazarimizda, hozirgi paytda etnopsixologik muammolar orasida eng muhimi u yoki bu millat vakillaridagi etnik stereotiplarni tadqiq qilishdir. Bunda qanday metodlardan foydalanish mumkin? Rus tadqiqotchisi G.U.Ksoyevaning yozishicha, bu yerda to‘rt guruhli metodlarni ko‘rsatish mumkin:

1. *Shkalali o‘lchov metodlari* – ular asosan millat vakillaridagi turlicha etnik ustakovkalarni tekshiradi. Masalan, *Bogardusning* mashhur shkalasi: qiyosiy fikrlash yo‘li bilan berilgan juftliklar – ustakovkalarni har bir tekshiriluvchi tomonidan aniq baholanishiga asoslangan. Yoki *Laykartning* “baholashlar yig‘indisi” metodi ham u yoki bu millat vakiliga xos ustakovka – fikrlarga tekshiriluvchining e’tirozi yoki e’tirofini aniqlaydi. Bu metodlar butunjahon

miqyosida ko‘pgina tadqiqotlarda ishlatilgan va mahalliy sharoitlarga moslashtirish jihatidan rekord qo‘ygan desak bo‘ladi.

*Shikalali o‘lchov metodlari* – ular asosan millat vakillaridagi turlicha etnik ustavokkalarni tekshiradi.

*Kuzatish va so‘roq metodlari* – bunda o‘sha madaniy muhitga xos bo‘lgan, uning bevsoita boyliklari hisoblangan moddiy va ma’naviy qadriyatlar, maishiy sharoitlar, odatlar, an’analar va hokazolar tashqaridan o‘rganiladi.

*Shaxsning alohida sifatlurini aniqlashga qaratilgan testlar*. Ular asosan shaxsning ta’sirchanligi va hissiy reaksiyalarini o‘rganadi. Bundan tashqari, shu guruh testlarga alohida intlektni tekshiruvchi, ma’naviy dunyogarashni o‘rganish, adolat hissini aniqlash, badiiy did testlari va boshqa testlar kiradi.

*Proyektiv metodlar* – mavhumi berilgan topshiriqlarni bajarish sifati va javoblarning yo‘nalishi bo‘yicha ham turli millatlarga oid stereotiplar o‘rganilgan.

### 11.1-rasm. Asosiy etnopsixologik metodlar.

2. *Kuzatish va so‘roq metodlari* – bunda o‘sha madaniy muhitga xos bo‘lgan, uning bevsoita boyliklari hisoblangan moddiy va ma’naviy qadriyatlar, maishiy sharoitlar, odatlar, an’analar va hokazolar tashqaridan o‘rganiladi. So‘roq metodlari ichida ko‘proq anketa usuli qo‘llaniladi, bunda ham millat vakilining turmush tarzi, avtobiografik ma’lumotlari aniqlanib, ilmiy xulosalar kontent-analiz qilinadi. Amerikalik olimlar *Kats* va *Breylilar* so‘roq metodining o‘ziga xos ko‘rinishini etnik stereotiplarni aniqlashda ishlatishgan. Masalan, ular qiziqtirayotgan masala bo‘yicha imkonli boricha ko‘p javoblar ro‘yoxatini tekshiriluvchiga berib, undan shu javoblar ichidan “o‘zinikini” tanlab belgilashni so‘rashgan. Bundan tashqari, 84 xil sifatni o‘z ichiga olgan ro‘yxatdan o‘z millatiga va boshqa millatga xos bo‘lgan 5 yetakchi sifatni ajratib berish topshirig‘ini berishgan. Shu yo‘l bilan etnik stereotiplar aniqlangan.

3. *Proyektiv metodlar* – etnopsixologik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan ushbu guruh metodlarga asosan *Rorshaxning “siyoh dog‘lari” testi*, tematik appersepsion

test (TAT), boshlangan jumlalarni tugatish testi, fotosuratlarini baholash testi, *Lovensfeldning* mozaikalari testi va boshqalar kiradi. Mayhum berilgan topshiriqlarni bajarish sifati va javoblarining yo‘nalishi bo‘yicha ham turli millatlarga oid stereotiplar o‘rganilgan.

*4. Shaxsning alohida sifatlarini aniqlashga qaratilgan testlar.* Masalan, G.Deyker va N.Friydarning milliy xarakter xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan testlari. Ular asosan shaxsning ta’sirchanligi va hissiy reaksiyalarini o‘rganadi. Bundan tashqari, shu guruh testlarga alohida intellektni tekshiruvchi, ma’naviy dunyoqarashni o‘rganish, adolat hissini aniqlash, badiiy did testlari va boshqa testlar kiradi. Ayniqsa, milliy stereotiplarni aniqlashda millatning tilini barcha tilshunoslik uslublari bilan o‘rganib chiqish ham juda qimmatli ma’lumotlar to‘plash imkonini beradi. Chunki, til u yoki bu millat vakilining o‘zi mansub millatga xos milliy qadriyatlarni, stereotiplarni o‘zlashtirishda asosiy vosita rolini o‘ynaydi. Shuning uchun ham etnopsixologik o‘z tadqiqotlarini tilshunos, etnograf, etnolog, sotsiolog, tarixchilar hamkorligida o’tkaziladi. Tadqiqotchi avvalo tekshiruv o’tkazayotgan muhitdagi insonlar tilini, til orqali “dili”ni bilish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Shuning uchun milliy xarakter, urf-odatlar, qadriyatlarni o‘rganishni maqsad qilgan inson shu xalq va millatning tilini avvalo mukammal bilishi lozim.

Mahalliy sharoitda M.A. Utepberganov (2019) va Sh.G. Salomova (2019)<sup>24</sup> tadqiqotlari orqali etnopsixologiya metodlarini boyitishgan. Masalan, Sh.G. Salomovaning tadqiqotlarida talaba-yoshlarning etnomadaniy kompetentligi shakllanishini belgilovchi “ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik”, “bilingvallik” “etnik identivlik (o‘z-o‘zini anglash)”, “tolerantlik” kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini; etnomadaniy kompetentlik shakllanishi “muloqotchanlik”, “o‘z-o‘zini nazorat qilish”, “xotirjamlik”, “mustaqillik” kabi xislatlaring rivojlanishiga hamda “etnotsentrizm”, “antisotsial xulq-atvor” ko‘rinishlari pasayishiga ta’sir

<sup>24</sup> Утепберганов М.А. Коракалпок ойлаларининг ижтимоий ва этнopsixologik муаммолари: Психол.ф. д. (DSc) дарражасини олиши учун ёзилган дис. автореферати: 19.00.05. – Т.: ЎзМУ, 2019. – 70 б.; Саломова Г.Ш. Талаба-шўсларларда этномаданий компетентликни шакллантиришининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дарражасини олиши учун ёзилган дис. автореферати: 19.00.05. – Т.: ЎзМУ, 2019. – 45 б.

qilishini; talabalarning etnomadaniy kompetentligi xususiyatlariga motivatsion-korreksion xarakterga asoslangan shakllantiruvchi ta'sir etishning samaradorligini aniqlanga qaratilgan tadqiqot usullari takomillashtitirilgan.

Yuqorida aytib o'tilgan metodologik va metodik uslublar milliy psixologiyani o'rganishda faqat asosiylari xolos. Chunki millatning ko'p qirralari psixologik holatini o'rganishda yana ko'plab usullardan foydalanish mumkin, bu narsa tadqiqotning maqsadlariga, tadqiqotchining esa uslubiy tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir. Nima bo'lganda ham oxirgi yillarda O'zbekistonda o'tkazilayotgan qator ilmiy-tadqiqot ishlarida eng avvalo, aynan milliy-madaniy muhitimizga mos keladigan metodikalarni ishlatish, xorijliklar ishlab chiqqan metodikalarni avval milliy muhitimizga moslashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda o'sha test yoki metodik uslub bir necha ming respondentlarda qo'llanib ko'rildi, olingen natijalar yana bir boshqa uslub yordamida olingen ma'lumotlar bilan ekspertlar yordamida validliliги nuqtai nazaridan o'rganiladi, natidalar solishtiriladi va shundan so'nggina katta auditoriyalarda qo'llash, natjalarni sharhlashga ruxsat beriladi. Bu ijtimoiy-psixologik metodikalarni qo'llashda etika normalariga rioya qilish, demakdir.

### **Bob yuzasidan tayanch iboralar**

Etopsixologik metodlar, shkalali o'lchov metodlari, kuzatish, so'roq, proyektiv metod, test.

### **Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Etnopsixologik tadqiqotlar o'tkazishda nimalarni hisobga olish lozim?
2. O'zbekiston sharoitida etnopsixologik tadqiqot o'tkazilganda asosan nimalarga e'tiborni qaratish lozim?
3. G.U.Ksoyeva qanday metodlarni etnopsixologiyada qo'llash mumkin deb hisoblagan?
4. Shkalali o'lchov metodlariga ta'rif bering.
5. Etnopsixologik tadqiqotlarda ishlatiladigan kuzatish va so'roq metodlari haqida ma'lumot bering.

6. Etnopsixologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan proyektiv metodlarga ta'rif bering.
7. Shaxsning alohida sifatlarini aniqlashga qaratilgan testlar haqida ma'lumot bering.

### Bibliografiya

1. Утепберганов М.А. Қоракалпок оиласарининг ижтимоий ва этнопсихологик муаммолари: Психол.ф. д. (DSc) даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати: 19.00.05. – Т.: ЎзМУ, 2019. – 70 б.
2. Саломова Г.Ш. Таалаба-ёшларларда этномаданий компетентликни шакллантиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати: 19.00.05. – Т.: ЎзМУ, 2019. – 45 б.
3. Крысько, В.Г. Этническая психология: учебник для бакалавров / В.Г. Крысько. – 10-е изд., перераб. и доп. – М. : Издательство Юрайт, 2016 – 359 с.
4. Этнопсихология: Учебник для студентов вузов / Т.Г. Стефаненко. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: ЗАО Издательство «Аспект Пресс», 2014. – 352 с.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o'quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
6. Вильгельм В. Проблемы психологии народов. – СПб.: Академический проект, 2011. – 136 с.
7. Аронсон Э. Общественное животное. Введение в социальную психологию. – М.: Прайм-ЕвроЗнак, 2006. – 416 с.


### XIII BOB

#### ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

*13.1. Etnopsixologik  
xususiyatlarning  
shakllanishiga chizgilar*

Etnopsixologik xususiyatlar o'zining kelib chiqishi jihatidan xalqling butun o'tmishi, hayot tarzi va tarixi bilan bog'lanib ketgan bo'lib, bu xususiyatlar millat shakllanmasdan avvalroq vujudga kela boshlagan bo'ladi.

Ma'lumki, etnik birlik millat taraqqiyotining eng yuqori bosqichida vujudga keladi. Etnopsixologik xususiyatlarning ayrim belgilari kishilar birligining hamma tarixiy davrlariga, ya'ni xalq, qabila, elatlarga ham xosdir. Etnopsixologik xususiyatlar ayrim tadqiqotchilar ko'rsatganidek faqat bir omil – tabiiy muhit ta'siri bilangina vujudga kelib qolmay, uning vujudga kelishida yana uchta muhim omillar ta'sir ko'rsatadi. Birinchi omil bu – siyosiy-iqtisodiy va jamiyat hayotida bo'layotgan ijtimoiy jarayonlar tizimi bo'lsa, ikkinchisiga, shu etnik birlik yashab turgan tabiiy-geografik muhitning xususiyatlari kiradi. Uchinchi omilga esa xalq hayotida bo'lib o'tgan muhim tarixiy hodisa va voqealar kiradi.



13.1-rasm. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.

Lekin shuni ta'kidlash mumkinki, etnopsixologik xususiyatlar tizimida odamlar ruhiyatining mazmunini, avvalo birinchi omil – mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-mafkuraviy o'zgarishlar belgilab beradi. Tabiiy-geografik omil esa asosan etnopsixologik qiyofaning tashqi ifodalarini belgilaydi. Shuning uchun ham bu omil kuzatayotgan inson nazariga birinchi omilga qaraganda yaqqol namoyon bo'ladi.

Xalq hayotida bo'lib o'tgan muhim tarixiy voqealar so'zsiz uning psixologik qiyofasida o'chmas iz qoldiradi.

Tabiatdagi ayni bir voqeliklarning doimiy ta'siri natijasida kishilar bu voqelikdagi xususiyatlarni boshqa sharoitda yashayotgan etnik guruh vakillariga qaraganda chuqurroq idrok qilishga o'rganib qoladilar. Chunki tashqi muhit bizning sezgi a'zolarimizga behisob axborotlar, ya'ni xilma-xil taassurotlar yuborib turadi. Natijada evolyusion taraqqiyot davomida, tanamizda shu tashqi muhit bilan adekvat, ya'ni, unga mutanosib munosabatni ta'min ettiruvchi neyrofiziologik mexanizm shakllanadi. U kishilarning sezgi va idroklarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun u yoki bu xalqqa xos stereotip xatti-harakatlarni, idrok xususiyatlarini tashqi muhitga moslashuvining oliv ko'rinishi, deb hisoblash kerak.

Tashqi muhitning doimiy ta'sirida vujudga kelgan ruhiy xususiyatlar bu taassurotlarning butun sistemasi (tizimi)ni emas, balki uning uchun muhim bo'lgan va o'tmish tajribasida sinalgan, mustahkamlanib qolgan tomonlarnigina aks ettiradi. Olimlarning e'tirof etishicha, tashqi olam ta'siri inson miyasida o'rashib qolgan his-kechinmalar, fikrlar, xohish, irodani namoyon bo'lishi, xullas, ideal orzu-tilak tarzida aks etadi va xuddu shu ko'rinishda, ideal kuchlar bo'lib qoladi.

S.I.Korolevning yozishicha, "Millat ruhiyatida shakllangan etnopsixologik xususiyatlar ma'lum darajada ayni shu millat vakillarini muhofaza qiluvchi mexanizm rolini ham o'yaydi. U xuddi g'alvirdek yot narsalarni ajratib, uni yo qabul qiladi yoki shu xalqda mavjud bo'lgan normalar asosida qayta ishlab beradi, yoxud uni inkor etadi".

Atrofdagi voqelikni, hodisalarni o'ziga xos ravishda idrok qilish, tasavvur va fikr qilish va ularni ta'b va tuyg'ular, urf-odat va an'analar, xarakter tarzida

namoyon bo'lishi etnopsixologiyaning qaytarilmas, betakror xususiyatlari hisoblanadi.

"Yaponiyaga birinchi marta kelib qolgan yevropalikni, - deb yozadi I.S.Kon, - yaponiyalikning faqat xursand bo'lgandagina emas, hatto o'nta tanbeh berganda ham, yoki sizga biror qayg'uli narsa, masalan, o'lim to'g'risida gapirayotganda ham kulimsirab gapirishi, taajjubga, hatto xijolatga tushirib qo'yadi. Tajribasiz odam buni beorlik, surbetlik yoki rahmsizlik deb hisoblaydi. Aslida kulimsirash bu elda boshqacha ramziy mazmunga ega – bu bilan u og'ir vaziyatni yengillashtirish, qiyinchiliklarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishlikka tayyor ekanligini ta'kidlash va shu kabi mazmunni bildiradi"<sup>25</sup>.

Ma'lum bir millat vakillarining narsa va hodisalarini o'ziga xos idrok etishi, fikrlashi va orzu-istiklarini, ya'ni oliy ruhiy xususiyatlarini tushunish va tushuntirish, uning namoyon bo'lish sabablarini organizmning, miyaning tuzilishidan emas, balki yuqorida ta'kidlaganimizdek, xalqning tarixiy taraqqiyoti, uni o'rab to'rgan tabiiy muhitning shart-sharoitlaridan qidirish kerak.

Turli ijtimoiy tizim va iqtisodiy yutuqlar taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan amaliy faoliyat shakllari turli ruhiy jarayonlar tizimining shakllanishini belgilab beradi. Shuning uchun ham turli tarixiy davrlarda, turlicha ijtimoiy tuzumda yashayotgan xalqlar bir-biridan faqat ongning mazmuni bilangina farqlanib qolmasdan, balki faoliyat shaklining tuzilishi, mazmuni jihatidan ham farqlanadilar.

Ko'p sonli ijtimoiy psixologik eksperimentlari bilan mashhur bo'lgan taniqli rus neyropsixologi A.R.Luriya ko'p ruhiy jarayonlar, ayniqsa, oliy ruhiy faoliyat jarayonlari – tasavvur va mavhumlash, ijodiy xayol insonlarning biologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lmay, balki ancha taraqqiy etgan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli ekanligini ko'rsatib berdi. U o'z izlanishlarida amaliy ko'rgazmalilik usuli bo'lgan xatti-harakatlar birmuncha sodda ijtimoiy-iqtisodiy tuzum sharoitlarida tafakkur ham sodda amaliy faoliyatni aks ettirish xarakteriga ega ekanligini ko'rsatib berdi.

<sup>25</sup> Кон И.С. К вопросу национального характера // В книге "История и психология" – М., 1980 – 130 с.

O'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, faqat murakkab bilish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan ruhiy jarayonlargina emas, balki nisbatan oliy jarayonlar va funksiyalar ham hayotiy tajribalar va ijtimoiy-tarixiy jarayonlar asosida vujudga kelar edi. Miya o'z-o'zidan, tashqaridan kelayotgan axborotlarsiz fikrlay olmaydi. Rus psixolog P.P.Blokskiy ta'kidlaganidek, "Bo'm-bo'sh boshda fikr bo'lmaydi". Ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy shart-sharoitlar bosh miya faoliyatini belgilaydi. U esa o'z navbatida ruhiy jarayonlar va ongning mazmun va mohiyatini belgilaydi. Turli davrlarda, zamonlarda yaratilgan mehnat mahsulotlarida o'sha davr va zamon odamlarining bilimlari va imkoniyatlari o'z aksini topgan bo'ladi. Zero, mehnat jarayonida sub'yekt ob'yektga ko'chadi, insonning kuch va qobiliyatları u yaratayotgan narsalarda gavdalanadi. Shuning uchun ham psixologlar turli tarixiy davrlarda yashagan kishilarning ruhiy xususiyatlarini, davr ruhini, ular yaratib qoldirgan faoliyat mahsulotlarini o'rganish orqali bilib olishi mumkin.

Har bir xalqning tarixi va taqdiri o'ziga xos kechadi. Aynan xalq tarixini va uning psixologik xususiyatlarini bir-biriga solishtirsak biz etnopsixologik xususiyatlar xalq tarixini chuqur aks ettirishini ko'ramiz. Yuqorida zikr qilganimizdek, etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida tabiiy muhit ham ma'lum ta'sir ko'rsatadi. Geografik va iqtisodiy sharoitlarning o'xshash-o'xshamasligi, etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan ikki qo'shni va qadrdon xalqlar – o'zbeklar bilan qozoqlarning psixologik qiyofasida ma'lum tafovutlarni vujudga keltirib chiqardi. Ma'lumki, o'zbeklarning asosiy qismi dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullaish imkoniyati mayjud bo'lgan vohalarda joylashganlar. Yerga xususiy mulkning vujudga kelishi, yerdan intensiv ravishda foydalanish, dehqonchilik mahsulotlarini ko'plab etishtirishga olib keldi. Bundan tashqari o'zbeklar yashaydigan yirik shaharlarning g'arbdan sharqqa, janubdan shimalga o'tuvchi katta karvon yo'llarida joylashgan bo'lishligi, bu yerlarda faqat dehqonchilikni emas, shuningdek pul-tovar munosabatlarini, turli xil hunarmandchilikni, qo'shni xalqlar bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlanishiga olib keldi. XV-XVI asrdayoq Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Qo'qon, Xo'jand

kabi yirik shaharlar Hindiston, Xitoy, Eron, Rossiya, Saidiya Arabistoni kabi mamlakatlar bilan keng savdo-sotiq ishlarini olib borishar edi. Bularning hammasi o'zbek xalqining hayot tarzida va psixologiyasida o'z aksini topgan edi. Qo'shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq va boshqa iqtisodiy-madaniy aloqalarni qizg'in olib borilishligi, ulardan xushmuomalalik, xushtabiatlik, mehmonnavozlik, hozirjavoblik, tadbirkorlik kabi xususiyatlarni talab etadi.

O'zbek xalqining hayoti va turmush tarzini o'rgangan tadqiqotchilarning barchasi o'zbeklarga xos bo'lgan ochiqyuzlik va xushmuomalalikni ta'kidlab ko'rsatishgan edi. O'zbeklarga xos bu xususiyatni qozoq adabiyotining klassigi Abay ham ta'kidlab ko'rsatib, "...iltifotlilik, xushmuomalalik – bularning hammasi sartlardadir", deb yozgan edi.

O'zbeklarning bir necha asrlar dehqonchilik bilan shug'ullanib kelishi, ishlab chiqarishning asosiy vositasi bo'lgan yerga nisbatan ularda tejamkorlik va omilkorlikni vujudga keltirgan.

*N.Jondildin* qozoq xalqiga xos bo'lgan ayrim vazminlik kam suqumlikni xo'jalik yurgizish xususiyatlari bilan bog'liq deb ko'rsatadi. Ular butun umr bo'yish chorvachilik bilan shug'ullanib bu ularning xo'jalik hayotining deyarli butun qismini tashkil qilib qoldi. Aholini tarqoq holda joylashishi, ular o'rtaida aloqa o'rnatishni qiyinlashtirar, ular hatto uzoq vaqt davomida ham yashashlikka majbur bo'lardi. Bu esa ularda yuqorida aytiganidek, o'zaro muomalada kamgaplik, hatto o'zining eng nozik va qaynoq tuyg'ularini bayon etishda vazminlikni ko'rsatishni vujudga keltirdi.

Shunday qilib, ikki qardosh va qo'shni xalqlar – o'zbeklar va qozoqlar o'zlarining uzoq iqtisodiy va madaniy aloqalariga, etnik jihatdan yaqinligiga, tilining o'xshashligiga qaramay, yuqoridagi sabablar tufayli muayyan ma'noda psixologiyuk xususiyatlari bilan farq qiluvchi ikki millat bo'lib shakllandi.

Tabiiy-geografik omillarning ob'yektiv ta'sirlarini xolislik bilan o'rganish, hech qanday irqchilik va millatchilik nazariyalarni keltirib chiqarmaydi. Shu narsa ma'lumki, serunum yer, mo'tadil iqlim va boshqa qulay tabiiy sharoitlar, ko'p jihatdan ishlab chiqarishning rivojiga, aholi sonining o'sib borishiga ta'sir

ko'rsatadi. Aksincha, masalan, shimoldan va tropik mamlakatlardagi elatlar va xalqlar tarixiy taraqqiyotda nisbatan mo'tadil iqlim sharoitlarga ega bo'lgan xalqlardan orqada qolib ketishgan.

Agar shimolning qattiq sovuq tabiatni dehqonchilik qilishga va sanoatni rivojlanishiga monelik qilgan bo'lsa, tropik iqlimdagи zaminning sermahsulligi kishilarni dangasa va tarallabedodchi qilib, bir etnograf so'zi bilan aytganda, kishini xuddi bolalarga o'xshash ojiz, nomustaqil qilib, uning taraqqiy etishini tabiiy zarurat qilib qo'yaydi. Shu narsani payqash qiyin emaski, deb yozadi etnograf Yu.V.Bromley, ijtimoiy-iqtisodiy, geografik va boshqa shart-sharoitlarni ta'siri iatijasida mehnatsevarlik kabi xususiyat hamma xalqlarda ham bir xil namoyon bo'lavermaydi. Tabiiy muhitning o'ziga xosligiga ko'ra, kishilar yashashi uchun zarur bo'lgan narsalarga erishishda uchraydigan qiyinchiliklarni turlicha yengib o'tadilar. Psixolog I.S.Konning yozishicha, Yangi Gvineyaning ichkarisida va nisbatan yevropa ta'siri kam yetib borgan joylarda yashaydigan papuaslar qulay iqlim sharoitlariga va tabiatning mo'l-ko'l ne'matiga ega bo'lganligi uchun ham ba'zi qiyin sharoitda yashaydigan kishilarga o'xshab, ertaning tashvishi bilan yashashga o'r ganmaganlar. Shuning uchun ham ular faqat kundalik ehtiyojlarini qondirish uchungina mehnat qilishadi. Ko'plab narsa ishlab chiqishiga va g'amlab qo'yishga harakat ham qilishmaydi. Ularning nazdida kim kuyib-pishib ko'p ishlasa, ochko'z va yomon odam hisoblanadi. Shunga ko'ra ularning iqtisodiy, madaniy rivojlanishi ham ishlariga yarasha darajada. Qayerda ishlab chiqarish yuqori saviyada tashkil qilinmagan bo'lsa, mehnatkashlik bo'lmasa, u yerda ijtimoiy, tarixiy rivojlanish ham bo'lmaydi. Rivojlangan qaysi bir mamlakatni olib ko'rmang, shu yerda mehnatga munosabat, mehnatkashlik juda yuqori darajada ekanligini ko'ramiz. Tabiiy-geografik muhitni ta'siri qanchalik sezilarlik bo'lmasin, biroq etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida uning yetakchi omil qilib qo'yish to'g'ri emas. Shuning bilan birga, uning rolini mutloq inkor etish, yoxud ortiqcha oshirib yuborish ham noto'g'ri xulosalar qilishga olib keladi. S.L.Rubinshteyn ta'kidlab ko'rsatganidek, "Psixologik xususiyatlarning shakllanishini birgina tabiiy sharoitlar, yoki ijtimoiy muhit bilangina asoslab

tushuntirish mumkin emas. Bularning birortasini mutloqlashtirish masalasini barbob bo'lishga mahkum etadi”<sup>26</sup>.

Muallifning fikri bilan kelishsak bo'ladi, chunki gap katta ijtimoiy guruhlar, ayniqsa, yaxlit millat yoki xalq psixologiyasi haqida borar ekan, masalaga barcha omillarning muayyan ta'siri nuqtai nazaridan yondashgan ma'qul.

*13.2. Etnik va individual  
xususiyatlarning o'zaro  
bog'liqligi*

Etnopsixologik xususiyatlarning o'ziga xos tomonlarini mujassamlashtiruvchi va uni namoyon etuvchi guruh bu – etnik birlik vakillaridir.

Etnosga taalluqli guruhdagi ulargagina xos bo'lgan xususiyatlarning qay tarzda shakllanishi ham fan, ham amaliyat uchun muhimdir.

Ma'lumki, bola yorug' olamga kelar ekan, avvalo, o'ziga Vatanni va qolaversa, ota-onasini o'zi tanlab tug'ilmaydi. Bundan tashqari, u o'z millatiga xos bo'lgan tayyor etnopsixologik xususiyatlarni bilan ham tug'ilmaydi. Bola ota-onasidan avlod-ajdodidan biologik yo'l bilan faqat irqiy xususiyatlarni va ayrim ruhiy xususiyatlarnigina me'ros qilib oladi, xolos. Bola tug'ilish davrida odam bo'lishga nomzod. Lekin yakka ajralgan holda u odam bo'la olmaydi. Jamiyatda yashab u odam bo'ladi. Bola hayotining birinchi kunidan boshlaboq ixtiyorsiz holda o'zi dunyoga kelgan muhitdagi turli-tuman ta'sirlar va taassurotlar ostida shaxs bo'lib shakllana boshlaydi. Bolaning biologik va ruhiy jihatdan rivojlanishi uchun ta'sir etayotgan bu axborotlar, turli ijtimoiy va ma'anviy muhit, geografik sharoitlarda bir xil bo'lmaydi. Mana shu turli xil muhit va axborotlarining turfa xilligi bir-biriga o'xshamaydigan, o'ziga xos milliy qiyofali xalqlarni yaratadi.

Garchi har bir inson ma'lum darajada mustaqil yashash va faollik ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lsa ham, lekin hayotda u faqat o'z hoxishi va tushunchasi bilan yashab qolmay, shuning bilan birgalikda o'zi yashab to'rgan ijtimoiy muhit va o'zi mansub bo'lgan xalqning tajriba, bilim va e'tiqodlarini ham o'zlashtirib boradi. Chunki odam o'zi yashab turgan ijtimoiy muhitni inkor etib yoki undan butunlay chiqib ketib yashay olmaydi. Bola faqat milliy muhitda yashab

<sup>26</sup> Рубинштейн С.Л. Бытие и сознание.// В кн. «Хрестоматия по психологии». - М., 1977 - С. 49

to'rgandagina shu millat va elatga xos bo'lgan xususiyatlarni ongi va xulqiga singdirib, ijtimoiy tajribani egallab, ayni millat vakili bo'la oladi.

Bolaning ontogenetik taraqqiyoti davrida tashqi xatti harakatlarni botiniy, ya'ni "aqliy" xususiyaglarga aylanishi davrida unda milliy psixologik qiyofa asoslari shakllana boshlaydi. Individning ijtimoiylashishi, milliy lashishi ona tilini o'zlashtirish bilan boshlanadi. Milliy tilni bilmaslik etnik muhitdagi jarayonlarni, tilda ifodalanayotgan holat va hodisalarning mohiyatlarini anglab olishga to'sqinlik qiladi. Chunki fikr ifodasi uchun ishlataladigan so'zlarda milliy o'ziga xoslik bo'ladi. Tafakkur bilan til va nutq o'zaro bog'liq bo'lganligi uchun, ruscha tili chiqqan bolalarning fikrlash malakasi ham ruscha bo'lib o'zbeklarnikidan farqlanadi. Chunki insonning tafakkur tarzi nutqida, tilda reallashadi, moddiyplashadi.

O'zbeklar milliy muhitida tug'ilib voyaga yetgan bolalar o'zbekcha gaplashishga o'rganganlardan keyin ham, ruscha fikrlab, o'zbekcha gapishtirsha harakat qiladi. Ruscha tafakkur tarzi bilan o'zbekcha gapishtirish juda qiyin. Boshqa millat vakili voqelikni o'zbekning ko'zi bilan ko'rib o'zbekona tafakkur tarzi bilan idrok eta olgandagina, u chinakamiga o'zbekcha fikr yuritib, o'zbekcha gapira boshlaydi. Yuqorida aytib ta'kidlaganimizdek, ko'rgan narsalarni idrok etish va mazmunini tushunib etish miyaning tug'ma xususiyati bo'lmay, bu xususiyatni u turmush tajribasi asosida hosil qiladi. Shuning uchun ham turli tabiiy sharoitlarda va ijtimoiy muhitda yashab voyaga etgan kishilar, turli hodisa va voqealarni idrok etishda o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyaglarga ega bo'lishadi. Olib borilgan tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, Afrika qit'asidagi ijtimoiy taraqqiyotda ortda qolib ketgan ba'zi qabila bolalari tajriba bilan bog'liq bo'lgan, amaliy ahamiyatga ega bo'lgan narsalarni, hodisalarni esda olib qolishda ajoyib xotira namunalarini ko'rsatishgan. Ular ov qilinadigan so'qmoqlarni topish, yovvoyi hayvonlar izini farqlash, o'rmon ichida oriyentirovka qila olishlik kabi vazifalarni bajarishda yevropalik tengdoshlariga qaraganda bir munkha ustunlik qilgan holda, oddiy geometrik shakllarni deyarli farqlay olmaganlar. Inson ijtimoiy zot sifatida ma'lum milliy muhitda shakllanib borar ekan, u shu muhitda mavjud bo'lgan

munosabatlarni, milliy xususiyatlarni o'z-o'zidan stixiyali ravishda o'zlashtirmsandan, balki shu jamiyatda qabul qilingan ma'lum ta'lim-tarbiya tizimi orqali, sekin-asta o'zlashtirib boradi.

Har bir avlod vakillari ajdodlarning turmush tajribalarini, til va madaniy xususiyatlarini o'zlashtirib, millat uchun umumiyoq bo'lgan shart-sharoitlar ostida o'sib, tarbiyalanib borishi natijasida ularning barchasida shu millatga xos bo'lgan umumiyoq psixologik xislatlar shakllanadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ijtimoiy axborotlarni yosh avlod tomonidan o'zlashtirib borilishi, faqat ongli ravishda, ta'lim-tarbiya berish jarayonidagina bo'lib qolmasdan, shuningdek, individning o'zi bilmagan va o'zlashtirish jarayonini anglab yetmagan xolda ham yuz beradi. Bu taqlid va ta'sirlanish orqali amalga oshadi, individning taraqqiyoti, u bevosita yoki bavosita munosabatga kirishgan boshqa individlarning taraqqiyoti bilan belgilangan bo'ladi va bir-biri bilan munosabatga kirishadigan turli avlod vakillari o'zaro bog'langan, keyingi avlodlarning jismoniy mavjuddigi esa o'tmishdoshlari tomonidan belgilangan bo'ladi.

Ilg'or fan namoyondalari insoniyat - bu ijtimoiy hodisa ekanligini allaqachon isbotlab berishgan. Shu jumladan konkret bir kishi ham avvalo murakkab va serqirra ijtimoiy munosabatlarni mevasidir. Shuning uchun ham shaxsning xatti-harakatlari mohiyatini biologik yoki irqiy xususiyatlar bilan emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy normalar hamda axloq qonunlari bilan belgilash kerak. Shunday davrlar ham bo'lganki, ayrim olimlar irqchilikni yoqlab, bosh miyaning shakli va vazni guyoki, xalqlarning ilg'or yoki qoloqligini bildiradi, deb davo qilib chiqishgan edi<sup>27</sup>.

Akademik I.N.Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limotiga ko'ra, hamma xalqlar ijtimoiy taraqqiyotning qaysi darajasida bo'lishlaridan qat'iy nazar, oliy nerv faoliyatining bir xil bo'lgan apparatiga – birinchi va ikkinchi signallar tizimidan tashkil topgan bo'ladi.

Agar oliy nerv faoliyatining rivojlanishi yuz ming yillar davom etganligini, sinfiy jamiyatning vujudga kelganligi esa bir necha ming yil bo'lganligini nazarga

<sup>27</sup> Якимов В. Антропология разоблачает. // Журнал "Азия и Африка сегодня" – 1966 - № 4.

olandigan bo'lsak, inson oliy nerv faoliyati mexanizmi sinfiy jamiyat barpo bo'lmasdan ancha ilgariroq shakllanganligi ravshan bo'lib qoladi. Inson ruhiyati faqat uni o'rab turgan tashqi muhit sharoitlariga moslashib va uning xususiyatlarini aks ettirib qolmasdan, balki doimiy taraqqiy etib turish xarakteriga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarining o'zgarib turishiga ham moslashib turadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tuzumming yashash sharoitlarining o'zgarishi va yangi amaliy faoliyat shakllarining vujudga kelishi bilan insonning bilish bilan bog'liq bo'lgan ruhiy jarayonlarida ham o'zgarish yuz beradi. Bunda ruhiy jarayonlarda qayta qurilish sodir bo'lib, avval mayjud bo'lmagan yangi ruhiy faoliyat turlari vujudga keladi. Mehnat jarayonida odam tashqi tabiatni o'zgartirib borib, shuning bilan bir davrda o'z tabiatini ham o'zgartiradi.

### **Bob yuzasidan tayanch iboralar**

Etnik birlik, millat, tabiiy muhit, sart, etnik birlik, etnos, o'zbek, qozoq, rus, kavkaz xalqi, yevropalik, osiyolik.

### **Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida nimalarni hisobga olish lozim?
2. Etnopsixologik xususiyaglar shakllanishiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Mashhur qozoq shoiri Abay o'zbek xalqiga qanday ta'rif bergan?
4. Tabiiy-geografik omillar millatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsata oladimi?
5. Etnik va individual xususiyatlarda o'zaro bog'liqlik bormi?
6. Etnik birlik vakillari tushunchasiga ta'rif bering.

### **Bibliografiya**

1. Крысько, В.Г. Этническая психология: учебник для бакалавров / В.Г. Крысько. – 10-е изд., перераб. и доп. – М. : Издательство Юрайт, 2016 – 359 с.

2. Этнопсихология: Учебник для студентов вузов / Т.Г. Стефаненко. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: ЗАО Издательство «Аспект Пресс», 2014. – 352 с.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
4. Вильгельм В. Проблемы психологии народов. – СПб.: Академический проект, 2011. – 136 с.
5. Маматов М.М. Этнопсихология. – Т.: НУУз, 2006. – 120 с.
6. Аронсон Э. Общественное животное. Введение в социальную психологию. – М.: Прайм-ЕвроЗнак, 2006. – 416 с.
7. Мурзаев, М.С. Влияние межличностных контактов на динамику этнических стереотипов: Дис. ... канд. психол. наук.: 19.00.05. – М.: МГУ, 2003. – 112 с.
8. Маматов М.М. Психический склад наци и его особенности. – Т.: 1980. – 128 с.

## XIV BOB MILLIY XARAKTER MUAMMOSI

### 14.1. Etnopsixologiyada milliy psixologik qiyofa

Etnik psixologiya nisbatan keng tushuncha bo‘lib milliy psixologik qiyofaga qaraganda voqealikdagi ko‘proq hodisalarini o‘z ichiga qamrab olgan bo‘ladi.

U etnik xususiyatlarni millat vakillari ongida aks etishi sifatidagina namoyon bo‘lib qolmasdan, shuningdek dunyonи bilish quroli va shakli bo‘lib ham namoyon bo‘ladi. Etnik psixologiyada xalqning yashash sharoitlaridan kelib chiqadigan ijtimoiy va maishiy odatlar, milliy xarakter, an'analar, milliy tuyg‘ular, milliy ta‘b-did, milliy ong va milliy o‘zini anglash kabi xususiyatlar aks etadi.

*Milliy psixologik qiyofa* etnik psixologiyaning asosiy komponentlaridan hisoblanib, milliy ong bilan birgalikda etnopsixologiyani tashkil qiladi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, yaqingacha, “milliy psixologik qiyofa” va “milliy xarakter” terminlarini sinonim so‘zlar sifatida ishlatib kelindi. Ma’lum darajada ular mazmun jihatidan va ruhiyatning asosiy xususiyatlariga taalluqligi bilan bir-biriga yaqin kelsa ham, lekin ular ayni bir tushuncha emas. Shunga qaramasdan ayrim mualliflar (*Sh. Botirov, N. Jondildin, Klomidze*), xorijdagi deyarli barcha mualliflar “milliy xarakter”ni millatning butun psixologik xususiyatlarini ifodalash uchun qo‘llashadi.

“Milliy psixologik qiyofa” “milliy xarakter”ga qaraganda kengroq tushuncha bo‘lib, “milliy xarakter” uning tarkibiy qismiga kiradi. “Xarakter” maxsus termin sifatida ko‘pincha, barqaror ruhiy xususiyatlar majmuasi sifatida tushuniladigan “milliy psixologik qiyofa”ga qaraganda torroqdir. Bundan tashqari milliy xarakter etnik psixologiyaning milliy psixologik qiyofaga qaraganda ancha harakatchan, o‘zgaruvchan elementidir. Milliy xarakter asosan etnik birlikning millat sifatida shakllangan davrida vujudga kelgan bo‘lsa, milliy psixologik qiyofa etnik birlikning barcha tarixiy bosqichlariga ham taalluqlidir. Tadqiqotchilar tomonidan milliy psixologik qiyofaning nafaqat tabiatи va mohiyati tahlil qilinib, sharhlanib

qolmasdan, shuningdek uning tuzilmasi ham o'rganilib, bu haqida turlicha qarashlar mavjud.

Milliy psixologik qiyofaning ichki tizimi va tuzilmasi masalasi *A.I.Goryacheva, S.M.Arutyunyan, A.Bagramov, S.M.Junusov, B.D. Parigin, F.N.Filatov* va boshqa tadqiqotchilar asarlarida, ilmiy ishlarida atroficha yoritilgan. Bu mualliflar milliy psixologik qiyofaning ijtimoiy hayotning real voqealigi, millatning belgilaridan biri ekanligini tan olishda hamfikr bo'lsalar ham lekin uning strukturasini belgilashda turli-tuman qarashlarga egalar. *A.I.Goryacheva* fikricha, milliy psixologik qiyofa tizimiga milliy xarakter, odatlar, did, an'analar kiradi.

Milliy psixologik qiyofa tizimini N.Sarsenbayev o'ziga xos ravishda talqin qilib beradi. Uning fikricha, milliy psixologik qiyofada o'zaro bog'langan va bir-birini taqozo etuvchi uchta tarkibiy qism mavjud. Bu tarkibiy qismga:

- a) milliy xarakter
- b) milliy urf-odatlar
- v) milliy an'analar kiradi.

Bizning fikrimizcha, milliy psixologik qiyofa, avvalo milliy xarakter, milliy urf-odat va an'analar, so'ngra milliy tuyg'ular va ancha barqaror bo'lган milliy did (ta'b) kabi elementlarda to'la namoyon bo'ladi va milliy ong bilan birgalikda etnik psixologiyaning betakror va o'ziga xos xususiyatlari tashkil etadi.


#### *14.2. Milliy xarakter*

*tushunchasi* Milliy xarakter ilmiy izlanishlarda bir tomondan, tadqiqot ob'yekti sifatida bi roz murakkab, ammo aslida o'rganish mumkin bo'lган ijtimoiy-tarixiy hodisadir.

U milliy psixologik qiyofaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Milliy xarakter millat hayotidagi tarixiy kategoriya bo'lib, uni o'rganish, tushuntirib berish uchun shu millat hayotini, tarixini, madaniyati, qadriyatlarini, urf-odatlarini yaxshi bilishi zarur.

XIX asrda turli xalqlarning etnopsixologik xususiyatlarni o'rgangan ko'plab mualliflar o'z asarlarida milliy xarakterni real voqelik sifatida mavjudligini e'tirof etgan. Masalan, faylasuf *E.Frenshrish* Angliya tarixini o'rganar ekan, fransuz va

nemislarga aslida xos bo'lmagan, lekin davrlar o'tib shakllanib borayotgan mustaqillik, o'ziga ishonch xususiyatlarining rivojlanganligini ko'rsatib beradi. Muallif inglizlarning milliy xarakteri nemislarnikidan ham, frantsuzlarnikidan keskin farq qiladi, - deb yozgan edi u.



14.1-rasm. Milliy xarakter tuzilmasi.

Ma'lumki, xarakterning mavjudligini inkor etuvchi ayrim mualliflar rus va ukrain, gruzin va armanlar, nemis va frantsuzlarni bir-biridan farqlovchi xususiyatlarni ko'rsatib bering, deyishadi. Diqqat qilib o'rganish va tekshirish jarayonida hamma xalqlarning milliy xarakterida bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlar borligini bilib olish mumkin. Milliy xarakterdagi bu farqlarni xatto kundalik hayotda ham ko'plab uchratamiz. Millat xarakterining realligini himoya qiluvchi mualliflar shunday bir epizodni tasavvur qilishni tavsiya etishadi. Agar vagon kuplesiga bir notanish ingliz chiqib qolsa, u kупедоши bilan safarlarining oxirigacha ham gaplashmay, yaqindan suhbat qurmay ketishi mumkin... O'zbeklarchi! Aksincha, bir-biri bilan yaqindan tanishib, bir-birining butun hayotini bilib ulguradi.

Rossiyalik yirik ijtimoiy psixolog olima Galina Andreyeva milliy xarakterga quyidagicha ta'rif beradi: "*Milliy xarakter* – etnik (milliy) guruhning psixologik

qiyofasi xususiyatlarini bayon etishda ishlataladigan keng tarqalgan tushunchadir. .. Gap qandaydir xarakter xususiyatlarining majmuasida emas, balki ushbu majmuadagi u yoki bu qirraning namoyon bo'lish darajasi haqida ketishi lozim<sup>28</sup>. Muallifning ta'kidlashicha, milliy xarakterni tadqiq etishda millatning odatlari, a'nalaridan tashqari, "millatning tili katta rol o'ynashini unutmaslik lozim, chunki ijtimoiylashuv jarayonida milliy xarakter sifatlarining bir avloddan boshqa avlodga o'tishi bevosita til orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy muhitning o'zgaruvchanligiga qaramay, milliy xarakterning nisbatan barqarorligi aynan tajribaming avlodlararo vorisligi ta'minlanishidagi inersiyaga bog'liqdir"<sup>29</sup>. G.Andreyeva shunga qaramay, u yoki bu millat vakillarida xarakterida muayyan qirralar va sifatlarni mutloq shu millatgagina xos deyishdan, yoki u yoki bu millatda biror xarakter sifatining yo'qligini e'tirof etishdan ehtiyyot bo'lishga chaqiradi. Masalan, u bu o'rinda botirlik, mehnatkashlik, vazminlik kabilarni nazarda tutadi. Bu o'rinda ayniqsa milliy va ijtimoiy xulq-atvorga oid xarakter sifatlarining o'zaro bog'liq ekanligini unutmaslik lozim.

Xalqlarning turlicha xarakter xislatlariga ega bo'lishligi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy tajribasi, tarixiy taraqqiyoti va tabiiy yashash sharoitlari bilan belgilanadi. Bunda ijtimoiy munosabatlar milliy xarakterning shakllanishida yetakchi rol o'ynaydi. Har bir tarixiy davr, shu davrdagi ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlar asosida millat vakillari milliy masakra manfaatlariga mos bo'lib tushadigan o'z milliy xarakteriga mos idealni yaratadi. Shu davrdagi xarakter tipi odamlarning yashash tarzini aks ettiradi. Xalqning butun tarixi davomida orttirgan har bir xarakter xislatlarining vujudga kelishi insonlar ruhiyatiga atrofdagi voqeliklarning uzoq vaqt davomida ta'sir etib turishi bilan bog'liqdir. Milliy xarakterga qanday ruhiy xislat va sifatlarni kiritish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, "milliy xarakter" tushunchasi haqida hali ham umumiy bo'lgan bir xil qarash mavjud bo'limasa ham, lekin unga kiruvchi xislatlar to'g'risida umumiy bo'lgan fikrlar mavjud.

<sup>28</sup> Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник для высших учебных заведений/Г.М. Андреева. - 5-е изд., испр. И доп. - М.: Аспект Пресс, 2003 - (364 с.) - С.160-161

<sup>29</sup> O'sha manba, 161-b.

Ko'p tadqiqotchilar milliy xarakterga, mehnatga munosabat asosida shaklalnadijan sifatlarni, ya'ni, mehnatsevarlik, tirishqoqlik, maqsadga yo'nalganlik, Vatanga munosabat asosida yotuvchi vatanparvarlik, erksevarlik, jangovarlik sifatlarini kiritishadi. Bizning fikrimizcha, yuqoridagi xislat va sifatlar bilan bir qatorda, milliy xarakter tarkibiga yana millatning tafakkur qilish, fikr yuritish xislatlarining o'ziga xosligini ham kiritish mumkin. Bundan tashqari, millat vakillarining boshqa xalqlarga bo'lgan munosabati va shu millat vaqillarining o'zaro munosabatlarini belgilovchi xususiyatlar ham kiradi.

Milliy xarakter va etnik psixologiyani o'rghanishning muholiflari esa, milliy xarakter namoyon bo'ladigan yuqorida ta'kidlangan xislatlarning qaysi biri birorta xalqda yoki millatda mavjud emas, deb savol qo'yishadi. Bu da'vo ham bir qarashda o'rinli. Milliy xarakterni o'rghanishda tadqiqotchilar duch keladigan metodologik qiinchilik ham mana shunda. Darhaqiqat, xarakterning qaysi bir xususiyatini olib ko'rmaylik, albatta, uning barcha xalqlar va millatlarda ham mavjud ekanligini ko'ramiz. Masalan, erksevarlik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi xislatlar hamma xalqlarga xos bo'lgan xususiyat bo'lgan holda, bu sifatlar o'zining namoyon bo'lishi, tuzilishi jihatidan barcha xalqlarda bir xil kechmaydi. Zero, xarakter xislatlarini keltirib chiqaruvchi yashash tarzi, tarixiy taraqqiyot va faoliyat sharoitlari aynan bir xil bo'lmasligi sababli, yuqoridagi xarakter xislatlarning namoyon bilishi ham ularda aynan bir xil bo'lmaydi.

Kavkazdagi tog'li xalqlarning hayoti va yashash tarzini o'rgangan tadqiqotchilarning barchasi bir ovozdan ularda jangovorlik, mag'rurlik kabi xarakter xislatlari kuchli ekanligini e'tirof etishadi. Ularning bu xarakteri, -deb yozadi *T.Ch.Chomayev*, - tog'li xalqlarning tashvishli va xavf-xatarga to'la hayotlarining in'ikosi bo'lib, unga moslashish zarurati natijasidir. Zero, bu xalqlar uchun tashqi ta'sirlarning butun kompleksi: tog' sharoitining og'irligidan tortib, jangovorlik shon-shuhratigacha, beshikdag'i alladan tortib epik xalq dostonlarigacha o'z erki va ozodligini saqlab qolish uchun mardlik va matonatl, qahramonlik va jasurlikni tarbiyalashga qaratilgan edi.

Mehnatsevarlikning hamma xalqlarga xos fazilat ekanligiga ham shak-shubha keltirmaymiz. Lekin shuning bilan birgalikda jamiyatping ijtimoiy-iqtisodiy qurilishi, geografik iqlim sharoiti, shu xalq tomonidan qabul qilingan mehnat qilishiga bo‘lgan munosabatga qarab, mehnatsevarlik hamma xalqlarda bir xilda ham namoyon bo‘lavermaydi.

Ma’lumki, Gollandiya mo‘jazgina kichik maydonga ega mamlakat. Maydoni jihatidan u ancha-muncha davlat yoki undagi viloyatdan kichik, lekin shu mamlakat butun Rossiyani boqishga yetarli bo‘lgan qishloq xo‘jalik mahsuloti ishlab chiqarar ekan. Vaholanki, Gollandiya xalqi tabiiy-geografik sharoitiga ko‘ra, dengiz atrofidagi botqoq va toshloq yerlarni o‘zlashtirib, unumdor yerga aylantirish uchun og‘ir sharoitlarda ish olib boradi. Natijada ularda tirishqoqlik va sabotilik bilan mehnat qiladigan kishilarga nisbatan mehr-muhabbat bilan qarash shakllangan. Ota-onalar ham ilk yoshlikdan oilada o‘z farzandini shu ruhda tarbiyalashga harakat qilar ekan. Bola sal-pal gapni tushunadigan bo‘lgach, ona uning kaftini ohib u yerda ikki egri-bugri chiziqlarni ko‘rsatib, “M-men-odam; W-work-mehnat, odam mehnat uchun tug‘iladi”, deb tushuntirar ekan.

Sevimli va iqtidorli shoirimiz A. Oripov o‘zbek xalqining ham mehnatkash va zahmatkash ekanligini ulug‘lab, o‘zbekistonlik dehqonning bu xislatlarini “Saraton” she’rida bunday tasvirlaydi:

*Hali tong g‘unchasi ochmasidan lab,*

*Nahor farog‘atin o‘ylamay taqir,*

*Kimsasiz dalaga ko‘zin uqalab,*

*Chiqib ketganiningni ko‘rdim-ku, axir.*

*Ko‘rdim-ku, manglaying ter bilan qotib,*

*Berahm otashga bergenningni tob.*

*Ko‘rdim-ku, tepangda o‘zin yo‘qotib,*

*Hayratdan lol qotib qolganin ostob.*

*Mening dehqon bobom, andak orom ol,*

*Quyosh buroviga olgan palla bu.*

*Saratonda qum ham mudraydi, bexol,*

*Ohangsiz yalla bu, so'zsiz alla bu.*

Shunday qilib, har bir xalqning mehnatsevarligi turli ko'rinishda kechadi. Masalan, o'zbeklar ham, qozoqlar ham mehnatkash xalq. Lekin ularning shu mehnatsevarligi faoliyatning turli sohalarida turlicha namoyon bo'ladi. O'zbeklarda u dehqonchilik, bog'dorchilik bilan shug'ullanish jarayonida namoyon bo'lsa, qozoqlarda chorvachilik bilan bog'liq bo'lgan mehnatda ko'rindi.

Bir necha asrlar mobaynida o'zbek xalqi dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lib kelgan. Shu boisdan ularda mahsulot ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lgan - yerga nisbatan mehr, ehtiyojkor, tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish xususiyatlari vujudga kelgan. Masalan, bizning ajdodlarimiz og'ir sharoitlarda qiyinchilik bilan paxta etishtirib kelishgan. Asosiy mehnat qo'l kuchi bilan bo'lgan o'sha davrlarda, bu nozik va yilning 8-9 oyi mobaynida doimiy mashaqqatli mehnat qilish talab qilinadigan o'simlik dehqonlardan va uning oila a'zolaridan ozmuncha ter to'kishni talab qilgan deysizmi?

Bundan tashqari xuddi tabiatniig qudratli kuchlari oldida ojiz bo'lgan, yakka xo'jalik bilan ish olib boruvchi dehqon, tabiatning turli tuman injiqliklariga qarshi kurashishga majbur bo'lgan. Paxtakor va bog'bon dehqonni ko'pincha bahorgi suv toshqinlari yoki suvsizlik va qurg'oqchilik azoblari qiynagan. Bobo dexqon og'ir, mashaqqatli mehnat qilib, peshona terisi bilan o'z yerini sug'orib, hosil olishga, bog'-rog'lar yaratishga o'rgangan. Suv payg'ambar, yer avliyo bo'lgan o'sha davrlarda dehqon saratonning jazirama issig'iga-yu, kuzning sovuq izg'irinlarini pisand qilmay, har bir qarich yerni zo'r mehr qo'yib ishlagan. Har bir g'o'za tupini e'zozlab parvarish qilgan, har bir daraxtni ko'z qorachig'iday saqlagan. Mana shularning hammasi avloddan-avlodga o'tib, ularda mashaqqatli mehnat qilish odatiy narsaga aylanib, zahmatkashlik og'ir sharoitlarda ham ruhi tushmasdan ishlay olishlik dov-daraxtlarni sevishlik, ob-hayot manbai – suvni e'zozlash kabi xususiyatlar o'zbek xalqiga xos xarakter xislati bo'lib qolgan.

Qozoqlarning mehnasevarligi esa chorvachilik bilan bog'liq mehnatda, chorva mollarini parvarish qilishda namoyon bo'ladi. Ular chorva boqish uchun qulay va

noqulay bo‘lgan yaylovlarni topishga, chorva yeydigan o‘t-o‘lanlarning xususiyatlarini farqlashda mohir bo‘lishadi.

Bu misollardan ko‘rinib turibdiki, har bir millatning mehnatsevarligi, ular bevosita shug‘ullanadigan mehnat turlarida to‘la namoyon bo‘ladi. Shuning uchun qozoq xalqi dehqonchilik bilan bevosita shug‘ullanmaganligi uchun dangasa, deya olmaymiz. Aksincha, o‘zbeklarning chorvachilikdagi nisbatan “uquvsizligi” uchun ularni mehnatsevar emas, deb bo‘lmaydi.

Milliy xarakterni mutloqlashtirib yuborish, albagta, noto‘g‘ri. Boshqa xalqlarda va millatlarda uchramaydigan, faqat bir xalqgagina xos bo‘lgan sof milliy xarakter umuman tabiatda uchramaydi.

Har bir xalq butun xususiyatlari bilan olingandagina betakror bo‘lib ko‘rinishi mumkin, uning har bir etnik xususiyatini alohida olib ko‘rilsa, mutloq noyob xususiyat bo‘la olmaydi. Milliy xarakter muammosini o‘rganishdagi murakkablik va chalkashliklar, deb ko‘rsatadi I.S.Kon, ko‘pincha dialektikadagi umumiylit va xususiylikning mushtarakligi va alohidaligini tushunmaslik natijasida vujudga keladi. Uning to‘g‘ri ta’kidlashicha, milliy xarakterning u yoki bu xususiyatini ko‘rsatganda, albatta u nisbatan olib o‘rganilishi kerak. “Rus milliy xarakteriga bag‘ishlangan ishlarda, - deb yozadi I.Kon, ko‘pincha ularda emosional vazminlik deb ataladigan xislat ko‘rsatiladi. Agar italyanlar bilan taqqotslanganda to‘g‘ri, qo‘shilaman. Lekin faqat finlar yoki estonlar bilan taqqoslaganda emas”. Albatta, rus xalqiga xos bo‘lgan milliy xarakter xislatlari yo‘q emas. Rossiyaning bepoyon yerlari, ayrim boshqa mamlakatlarda bo‘lganidek siyosiy ko‘rinishlarning yo‘qligi, xo‘jalik taraqqiyotidagi o‘ziga xos xususiyatlarning barchasi, Gersen aytganidek “aysh-ishratni yaxshi ko‘radigan, bag‘ri keng” rus kishisini, yakka xo‘jalik yurgizishga moyil bo‘limgan, bir parcha yeriga yopishib olmagan rus dehqonini yaratdi. Aksincha, o‘zbek xalqi xarakterida bir qarich yeriga yopishib olishlik “kindik qoni to‘kilgan” yerni tark etmaslik xususiyatlari bor.

Bu xarakter xususiyatlarining vujudga kelishi o‘zbek xalqi tarixiy taraqqiyotidagi o‘ziga xos xususiyatlar bilan bog‘liq. Masalan, Markaziy Osiyo, xususan, hozirgi O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan bir necha feodal davlatlar,

xonliklarning siyosiy-iqtisodiy jihatdan parchalanganligi, ular o'rtasidagi tez-tez bo'lib turadigan qonli to'qnashuvlar, xo'jalik yurgizishning patriarxal usullarining mavjudligi, urug'-aymoqchilik urf-odatlarining saqlanib qolishi va nihoyat, dehqonchilik qilish uchun sug'oriladigan, yarog'li yerlariing cheklanganligi kabi omillar, o'zbek xalqi xarakteridagi shu xislatlarni vujudga keltirib chiqaradi. O'zbek oilalarida bir necha avlod vakillari (hatto 3-4 avlod) bir-biridan ajralmagan holda, birgalikda-bir hovlida, bir mahallada yashab bir qozondan ovqat yeb kelishgan. Shuniig uchun ilgarilari mayjud bo'lган katta oila ichida, bir necha avlod vakillari yashayotgan xonadonlarni hanuzgacha uchratishimiz mumkin. Oila boshlig'i bo'lган ota o'rtancha o'g'llilarini uylantirgandan keyin ham uzoq vaqt ularni mustaqil oila qilib ajratib yubormagan. Yangi oila qurgan kishi katta oila boshlig'i bo'lган ota qo'l ostida ishlab xo'jalik yurgizish ishlarida unga yordam bergen. Agar yangi oila ota-onha bag'ridan ajralib chiqqan taqdirda ham, ular oilasi uchun ota uncha uzoq bo'lмаган joydan hovli yoki yer sotib olib bergen, yohud o'z yeridan uy qurish uchun joy ajratib bergen. Yangi oilaning kundalik ehtiyoji uchun zarur bo'lган uy buyumlari, asboblar, yashash uchun zarur ashyolar ajratib berilgan. Lekin shunda ham ota o'z yerini parchalanib ketishiga yo'l qo'yagan. O'g'il ota qo'l ostida uning yerida ishlagan, xo'jalik yurgizishda otaga yordam berib kelgan.

Buning boisi nimada, nima uchun O'rta Osiyo xalqlarida, xususan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarda patriarxal munosabatlар oila va xo'jalik yurgizish sohalarida nisbatan uzoq saqlanib turdi?

Ma'lumki, sug'orib dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarda, ayniqsa, O'rta Osiyo sharoitida yer juda katta iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Qishin-yozin ham katta kuch bilan ishlashni talab qiladigan sharoitda ishchi kuchlari yerning parchalanib ketishligi, yerni ishlash, hosil olishlikni ancha qiyinlashtirib qo'ygan bo'lar edi. Shuning uchun ham O'zbekistonning o'troq xalqlarida juda katta, xatto uch-to'rt avlod vakillarini o'zida birlashtirgan oilalar mavjud bo'lган. Farzandlar oila boshlig'i qo'l ostida ishlab unga iqtisodiy jihatdan qaram bo'lishgan. Ota yoki

oiladagi bosh o‘g‘il bu oilaning boshlig‘i bo‘lgan. Uning so‘zi, fikri oilaning boshqa a’zolari uchun qonun darajasida bo‘lgan.

Xo‘jalik yurgizishda bunday patriarxal uklad hukmron bo‘lgan xalqlarning deyarli hammasida, oila boshlig‘ini, kattalarni hurmatlash, ularning aytganini so‘zsiz bajarilishi odat tusini olgan va keyinchalik u mustahkamlanib xalqning xarakter xislatiga aylanib ketgan.

Oila iyerarxiyasidagi o‘zaro munosabatlarda ma’lum kichik yoshdagagi har bir kishi, albatta o‘zidan yuqori yoshda bo‘lgan kishilarga itoat etgan, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatilgan. Bunday ahilllik va inoqlik oilalarning birgalashib yashash zarurati mavjud bo‘lgan sharoitlarda ularning parchalanib ketmasligi uchun katta ahamiyat kasb etgan.

Bundan tashqari, o‘zbeklarda aka-ukalar yoki qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagina emas, shuningdek qo‘ni-qo‘shnilar bilan ham yaxshi munosabatlar, o‘zaro yordam va hamkorlik ko‘rsatish kabi xislatlar ancha rivojlangan. Qadim vaqtlardayoq bir urug‘ yoki qabila bir mahalla yoki butun bir qishloqda birgalikda yashagan. Kamdan-kam hollardagina begona qabila vakili notanish joylarga ko‘chib borgan.

Hozir ham ko‘p qishloqlarda mahallalar qarindosh-urug‘chilik tamoyili asosida shakllanadi. Demak, yon qo‘shni ayni vaqtda sizning yaqin qarindoshingiz hamdir. Shuning uchun qadim vaqtlardayoq bir oilada ovqat pishirilsa albatta qo‘shninikiga, qarindoshnikiga chiqarilgan, qo‘shnining yaxshi kunida ham, aziyatli kunida ham birinchi bo‘lib devori bir qo‘shnisi xizmat qiladi. Qo‘shnining uyidagi ma’rakaga qatnashmaslik ayniqsa, ta’ziyali marosimlarda ishtirok etmaslik o‘zbeklar uchun katta ayb hisoblanadi. Shuning uchun ham bizda qo‘ni-qo‘shnichilik to‘g‘risida juda obrazli maqollar yaratilgan, masalan, “Hovli olma, qo‘shni ol”, “Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo‘shni yaxshi”, “Yon qo‘shnim - jon qo‘shnim”. “Gilam sotsang – qo‘shningga sot, bir chetida o‘zing ham o‘tirasan” va hokazo. Bundan tashqari milliy tabiatimizda o‘zaro mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu-hayo, ibo, iffat, andisha kabi betakror fazilatlar, bag‘ri kenglik, mehmondo‘slik oqko‘ngillilik xususiyatlari mavjud.

Bunday hamjihatlik, bir-birini qo'llab turishlik faqat qo'shnilar o'rtasidagina bo'lib qolmasdan, butun mahalla va qishloq aholisi o'rtasida ham kuchli rivojlangan. Mahalla yoki qishloq aholisi biror xonadonda a'za borligini eshitib qolsa, vafot etgan kishini yaxshi tanish-tanimasligidan qati'y nazar, marhum bilan vidolashmoq uchun vaqtini ayamasdan, yumushini tashlab bo'lsa ham marhumning uyiga kelib, hamdardlik bildiradi, qo'lidan kelgan yordamni ko'rsatadi. Marhumning tobuti mozorga borguncha yelkama-yelka ko'tarilib boriladi. Yo'lda uchragan har bir kishi - u otda bo'lsa ham, mashinada bo'lsa ham tushib bir necha qadam tobutni ko'tarib borishni o'zining insoniylik burchi, deb hisoblaydi.

Qo'ni-qo'shni, mahalla-ko'y va hamqishloqlarining bunday bir-birini qo'llab-qo'ltilqab turishlari, bir-birlarining manfaatlarini himoya qilishlari odamlarning uzoq davrlar mobayinida birgalikda yashab kelishi, mahalla va qishloq ahlining bir-birlariga qarindosh-urug'chilik iplari bilan bog'langanliklari natijasidir. O'rta Osiyoda kichik-kichik o'ziga mustaqil bo'lgan xonliklarning mavjudligi, yirik birlashgan xokimiyat tomonidan mamlakat miyosida ma'muriy, xo'jalik ishlarni rejali rivojlantirilmalar natijasida, ko'p yirik xo'jalik ishlari – kanal qazib suv chiqarish, ariqlarni tozalash, machit va boshqa binolarni qurish, hosilni yig'ib-terib olish va shunga o'xshash ko'pchilik mehnatini talab qiladigan ishlarni xalq o'zi "hashar" yordamida bajargan. Shuning uchun mahallada va qo'inilar orasida bo'lib turadigai xasharlarga chiqish har bir keksayu yoshning muqaddas burchi hisoblangan.

Milliy xarakterni xalq o'zida namoyon etadi, lekin millat xarakteri ayrim shaxslar xarakterining oddiy yig'indisi emas. U ommaviy fenomen sifatida, individual harakterlarning umumiy bo'lgan hislatlari ijtimoiy jihatidan qayta ishlanib, yangi, maxsus sifatga aylangan vaqtida tarkib topib namoyon bo'ladi. Masalan, xor ovozi ayrim alohida olingan xor qatnashchisining ovoziga o'xshamaganidek, milliy xarakter ham birorta millat vakilining individual xarakteriga o'xshamaydi yoki millat xarakteri hech bir millat vakilida to'laligicha aks etmaydi.

Milliy xarakter o'zgarmas, turg'un narsa ham emas. U tarixiy rivojalmish, o'zgarishlar mahsuli. Shuning uchun ham uni vujudga keltirgan tarixiy, ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi munosabati bilan u ham ma'lum darajada o'zgaradi, hatto bir ijtimoiy tizimning o'zida ham u ayrim xislatlarni yo'qotib, yangi xislatlarni paydo qilib turishi mumkin.

Lekin bundan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar milliy xarakterning barcha xislatlarini o'zgartirib yuboradi, deb xulosa qilmaslik kerak. Uning ayrim xislatlari nisbatan barqaror bo'lib, yangi ijtimoiy sharoitlarda ham o'z vorisligini yo'qotmaydi ular, keyingi avlodlarga o'tishi, ajdodlarning moddiy va ma'naviy merosini o'zlashtirib olishligi uchun xizmat qiladi. Tarix avlodlarning birini o'mniga ikkinchisining kelishidan iboratdir. Ularning har biri avvalgi avlodlar qoldirgan barcha materiallardan, boyliklardan, ishlab chiqaruvchi kuchlardan foydalanadi. Natijada avlodlararo vorislik paydo bo'ladi. Milliy xususiyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan.

Milliy xarakter umumbashariy xususiyatlarga zid bo'lmaydi. Shuning uchun ham uni boshqa millat va elatlar xarakteridan ajratib quyishi yoki qarama-qarshi qo'yish mumkin emas. Har bir xalq - boshqa xalq bilan yaqin ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarga kirishganda undan o'zida yo'q narsalarni oladi va o'zidan ham ularda bo'limgan narsalarni beradi. Lekin boshqa xalqlardan olingan bu xarakter xislatlari, millat vakillari tomonidan o'zlashtirilganda, aynan, o'zgarishsiz ko'chirma olmay, o'ziga xos milliy ifodani oladi.

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi xususida o'tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri *N.Sog'inovning o'zbek oilasiga xos bo'lgan nikoh va oila munosabatlari* – nikohdan qoniqish, nikoh motivlari, oila qurishning o'zbeklarga xos bo'lgan yosh xususiyatlari, yosh o'zbek oilalaridagi psixologik mojarolar va ajralishlarning sabablarini sistematik tarzda o'rgangan ilmiy ishidir. Bu tadqiqotda ilgari hech o'rganilmagan ilmiy ma'lumotlar to'plandiki, ularga ko'ra, o'zbek oilasining qurilishiga sabab bo'ladigan asosiy motiv – bu "farzandli bo'lish", (birinchi o'rinda), ikkinchi o'rinda "jamoatchilikning gap-so'ziga qolmaslik", uchinchi o'rinda "ota-onha va qavmi-qarindoshlarning istaklarini bajo etish" va

hokazolar aniqlandi. N.Sog'inovning to'plagan ma'lumotlari yosh oilalar, mojaroli oilalar va yoshlardan tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lganlar uchun muhim ilmiy yo'l-yo'riqdir. Bu kabi izlanishlar keyinchalik M.Utepbergenev, M.Dushanov, E.Norimbetov ishlarida davom ettirildi va ularda qoraqalpoq, qozoq hamda qirg'iz oilalarining etnopsixologik o'ziga xosligi oilaviy qadriyatlar nuqtai nazaridan o'r ganildi. Ya'ni, bu kabi izlanishlarda oila va nikoh munosabatlaridagi milliy o'ziga xoslik qoraqalpog'istonliklar, qirg'iz va qozoq oilalari misolida o'r ganildi. Bu kabi izlanishlar oxirgi yillarda ham jadal amalga oshirilmoqda.

Etnopsixologik xususiyatlar, milliy psixologik qiyofaning no-realligi to'g'risida bir qancha sub'yektiv fikrlar aytilgan, ba'zi qarashlarda jiddiy ixtiloflar mavjudligiga qaramay, etnopsixologik xususiyatlar real mavjud, deb takidlovchi olimlar ko'pchilikni tashkil etadi. Darhaqiqat, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi tengsizlik turfa xil tabiiy-geografik sharoitlar xalqlar o'rta sida ma'lum psixologik tafovutlarni vujudga keltirgan. Turli xalqlarda oila a'zolari o'rta sida bo'ladigan munosabatlarning bir xil bo'lmasisligi, urf-odat va an'analaridagi farqlar, narsa-hodisalarini idrok etishda mavjud bo'lgan turfa xillikni etnopsixologik xususiyatlar bilangina tushuntirib berish mumkin. Fan mana shu xususiyatlarni o'r ganishdan voz kecha olmaydi.

### Bob yuzasidan tayanch iboralar

Etnik psixologiya, qiyofa, milliy psixologik qiyofa, milliy xarakter, an'analar, milliy tuyg'ular, milliy ta'b, milliy ong, milliy xarakter.

### Nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Milliy psixologik qiyofa deganda nima tushiniladi?
2. Milliy psixologik qiyofaning ichki tizimini qaysi olimlar tadqiqotlarida uchratish mumkin?
3. Milliy psixologik qiyofa tizimini N.Sarsenbayev qanday tushuntirgan?
4. Milliy xarakter tushunchasi millatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsata oladimi?
5. Milliy xarakter tushunchasiga ta'rif bering.

6. G.Andreyeva milliy xarakterga qanday ta’rif beragan?
7. Har bir xalqning mehnatsevarligi nimalar asosida farqlanadi?
8. O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan milliy xarakter nimalarda ifodalanadi?

### Bibliografiya

1. Крысько, В.Г. Этническая психология: учебник для бакалавров / В.Г. Крысько. – 10-е изд., перераб. и доп. – М. : Издательство Юрайт, 2016 – 359 с.
2. Этнопсихология: Учебник для студентов вузов / Т.Г. Стефаненко. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: ЗАО Издательство «Аспект Пресс», 2014. – 352 с.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
4. Вильгельм В. Проблемы психологии народов. – СПб.: Академический проект, 2011. – 136 с.
5. Маматов М.М. Этнопсихология. – Т.: НУУз, 2006. – 120 с.
6. Аронсон Э. Общественное животное. Введение в социальную психологию. – М.: Прайм-ЕвроЗнак, 2006. – 416 с.
7. Мурзаев, М.С. Влияние межличностных контактов на динамику этнических стереотипов: Дис. ... канд. психол. наук.: 19.00.05. – М.: МГУ, 2003. – 112 с.
8. Маматов М.М. Психический склад наци и его особенности. – Т.: 1980. – 128 с.

## XV BOB

### MILLIY URF-ODAT, AN'ANALAR VA ULARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK FUNKSIYALARI

#### *15.1. Milliy urf-odat, an'analar etnopsixologiyaning o'rganish ob'yektarasi sifatida*

Ma'lumki, har bir individ shaxs sifatida shakllanar ekan, faqat o'zi yashab turgan davrdagi ijtimoiy munosabatlar ta'siri ostida bo'lib qolmasdan, shuningdek, tarixiy tajribalar, ajdodlar tomonidan yaratilgan, to'plangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy meroslar, milliy qadriyatlar ta'siri ostida ham shakllanadi.

Bunda ayniqsa, har bir xalqqa xos bo'lgan milliy urf-odat va an'analarining roli kattadir. Shunday ekan, etnopsixologiyaning asosiy o'rganish ob'yektaridan bo'lgan urf-odat, an'ana, udum va turli marosimlarni atroficha o'rganish, ularning vujudga kelishi, namoyoi bo'lishi, saqlanishi va o'zgaruvchanligi kabi qonuniyatlarini ochib berish ham nazariy, ham amaliy jihatdan ahamiyatga molikdir.

Har bir davrning, har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik sharoitiga mos bo'lib tushadigan va uni o'zida aks ettiradigan urf-odat va an'analarini bo'ladi. Odamzod ongli hayot kechira boshlagandan buyon vujudga kelgan urf-odatu marosimlar, udum va an'nalarni hisoblab chiqish qiyin.

Milliy urf-odat va an'analar xalqning faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi. Har bir xalqning butun tarixi davomida yashash sharoitining xarakteri va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kishilar o'rtaсидаги munosabatlarning ma'lum norma va yo'l-yo'riqlari yaratiladi. Bunday norma va yo'l-yo'riqlar avloddan-avlodga o'tishi bilan takrorlanib, urf-odat va an'analarga aylanib qoladi.

Milliy urf-odat va an'analar shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishida shaxsning xulq-atvorlarini ijtimoiy jihatdan belgilovchi, shakllantiruvchi vazifalarni bajaradi. Qaysi bir urf-odat va an'anani, udum yoki marosimni ularning

Milliy urf-odat va an'analar butun bir xalqning ijtimoiy ehtiyojlari, axloq normalari, manfaatlari, amaliy tajribalari va tarixiy yashash sharoitlari o'ziga xos ravishda mujassamlashuvidir.

kelib chiqish sabablarini o'rganmasdan turib qaraydigan bo'lsak, ular bir qarashda, be'mani, behuda bo'lib ko'rindi. Aslida esa ularning barchasi kelib chiqishi bo'yicha xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy faoliyati natijasida vujudga kelgan va ularning ma'lum moddiy va manaviy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilgan. O'rta Osiyo va Kavkaz xalqlarining ayrimlarida mavjud bo'lган va hozirgi kunda eskilik sarqiti, deb qoralanadigan "qalin" berish odatini o'rgangan ba'zi olimlar, hozirgi davrga kelib, bu odat faqat ramziy qimmatga ega bo'lib qolganini ko'rsatishdi.

Ma'lumki, ekzogam nikohli hukm ustivor davrlarida qiz olish va qiz berish bir qabila yoki urug' doirasida bo'lmasdan, boshqa qabila va urug'lar bilan bo'lar edi. Bir qabila boshqa qabilaga qiz bergandan keyin, qiz bergen qabila yoki oila zaiflashib qolmasligi uchun ular ham albatta qo'shni qabiladan qiz olishlari va shu bilan aholi o'sish nisbatini va iqtisodiy balansini saqlab turishlari kerak bo'lган. Lekin ayni shu paytda qo'shni qabilada bo'yiga yetgan, ya'ni, balog'atga yetgavn qizning bo'lmasligi yoki narigi qabilada uylanadigan yigitning bo'lmasligi natijasida bunday teng holda qiz almashtirishlar juda kam paytlardagina amalga oshgan. Bunday hollarda yigit tomon qiz tomonga qiz berish imkoniyati kelgunga qadar turli-tuman mol-dunyo hisobida kafolat yoki hozirgi tushunchamizcha "qalin" berib turgan.

Bu fikrning to'g'riligini shundan ham ko'rsak bo'ladiki, ekzogam nikohning qo'llanishligi majbur bo'lмаган. O'rta Osiyo xalqlarida qalin berish hodisasi, deyarli uchramaydi. Uchrasa ham ekzogam nikohi qo'llaniladigan xalqlar darjasidagi shakl va mazmunda emas. Shuningdek, har bir xalqda u yoki bu narsalarga nisbatan turli ta'qiqlar mavjud bo'ladi.

Kuzatishlar, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli xalqlardagi ta'qiqlar, ma'n etishlarning hammasi ham bema'ni va zararli bo'lmay, ma'lum zarurat bilan vujudga kelar ekan. Yani, ular xalqning yashash tarziga, ehtiyojlariga mos kelganligi uchun ham asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, odat va an'nalar xalq hayotiga, turmush tarziga ongli ravishda kirib keladi, lekin ularning ta'siri esa stixiyali bo'ladi.

Shuning bilan birga ayrim urf-odat va an'analar o'z umrini o'tab bo'lgan bo'lsa ham, yashovchanlik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun yana uzoq vaqt saqlanib, odamlar ongiga tasir yetib turadi. Bu narsa insonlar psixologiyasi bilan bog'liq bo'lgan fenomen hisoblanadi. Chunki, mustahkamlanib qolgan urf-odat va an'analarga amal qilmaslik ko'pchilik tomonidan qoralanadi. Ko'pchilikning tana malomatiga qolishdan qo'rqish va tortinish, jamiyatning har bir a'zosini urf-odatlarga ongli yoki ko'r-ko'rona bo'lsa ham amal qilishga majbur qilib qo'yadi. Urf-odat va an'analar ko'pincha sinonim so'zlar sifatida ishlatsa ham, bu terminlar tushunchalar o'rtasida faqat terminologik tafovut bo'lib qolmasdan, yana ma'no jihatdan ham farq bordir.

Urf-odatlar asosan oilaviy, maishiy sohalar bilan bog'langan bo'ladi va unda axloqiy, diniy va huquq normalari o'z aksini topadi. An'analar esa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida mavjud bo'lish bilan birlgilikda, yana ishlab chiqarish jarayonini ham qamrab oladi. An'anada kishilarning narsa va buyumlarga, tabiatga bo'lgan munosabatlari ifodalanadi. Ma'lumki, fanda, san'at va adabiyotda, armiya va oliy o'quv yurtlarida, sport va ishlab chiqarish jamoalarida urf-odat bo'lmaydi, balki an'analar mavjud. Masalan, armiyaga yangi borgan soldatning qasamyod qabul qilishi, oliy o'quv yurtiga kirgan yoshlarni talabalar safiga qabul qilish tantanalari, yirik sport musobaqalarida g'olib sportchi sha'niga mamlakat bayrog'ining ko'tarilishi va madhiyasini yangrashi - bular an'nalar hisoblanadi. Bundan tashqari an'ananing ta'sir doirasi nisbatan keng bo'lib, bitta an'ana bir necha urf-odat, udum va marosimlarni o'zida qamrab olgan bo'lishi mumkin. Misol tariqasida xalqimizda mavjud bo'lgan mehmondo'stlikni olib qaraydigan bo'lsak, ushbu fazilat u yoki bu darajada har bir xalq va millatga xos bo'lgan xususiyatdir. Lekin bu narsa yuqorida ko'rib o'tganimizdek, o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar ta'siri ostida, oilaviy-maishiy hayotdagি munosabatlar natijasida o'zbek xalqida o'ziga xos bir yo'sinda namoyon bo'ladiki, bu o'zbek xalqining milliy xususiyatiga, milliy an'anaga aylanib qolgan. Mana shu mehmondo'stlik an'anasi bir necha urf-odatlar, udumlar orqali to'la namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek oilalarida mehmonlar doim ochiq chehra va shirin kalom

bilan ko'tib olinadi. Xonadondagi eng yaxshi va noyob narsalar (bunday narsalar doimo "mehmon uchun", deb saqlanadi) mehmon oldiga qo'yiladi. Mehmon xonadonga kirib kelishi bilan mezbon ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib, "xush kelibsiz", deb kutib olinadi va hurmatli zot sifatida eng yuqori joyga, dasturxonning to'riga o'tqaziladi. Qo'ni-qo'shnilar chaqirilib, mehmonga hamsuhbat va ulfat qilinadi. Ovqat ham birinchi bo'lib, yoshidan qat'iy nazar mehmonga tortiladi. Mehmon boshlamaguncha, oilaning birorta a'zosi birinchi bo'lib taomga qo'l urmaydi. O'tirishda birinchi so'z ham mehmonga beriladi, uning so'ziga diqqat bilan qulq solinadi. Unga e'tiroz bildirish, rayini qaytarish, katta ayb hisoblanadi. Mehmon oldida oila a'zolari bir-birlari bilan xushmuomalada bo'lishlari, hatto "mushugini ham pisht", demasligi kerak. Mehmon kuzatilayotganda, kutib olish chog'idagidek ikki qo'l ko'ksida bo'lib, "xush ko'rdik", "yana kelib turing", deb xayr-ma'zur qilinadi. Kavkazdag'i tog'li xalqlarda xun olish bor. Agar xundor dushman uyi ostonasidan kirib kelsa, dushmanlik yo'qoladi. Hamma uni aziz mehmondek kutib olishi shart. Qishloqdan, ovuldan chiqib ketgach, dushmanlik yana tiklanadi. Ularda ham mehmon daxlsiz. Ikki qo'shni xalq – o'zbeklar bilan qozoqlarning to'y o'tkazish vaqtida bajaradigan turli udum va marosimlarini mashhur yozuvchimiz Oybek "Bolalik" qissasida juda mohirlik bilan tasvirlagan. Mana, qozoqlar to'yida bo'ladigan marosimlar qanday tasvirlangan. "Bir o'tovda odamlar tiqilinch... Ayollar erlardan qochmaydi. Aralash-quralash. Bir-birlarining yelkalarini qoqib, bemalol hazillashib so'zlashishadi... Birdan qozoqlar tipirchilagan, osmonga sapchiydigan arg'umoqlariga minib, uloqni boshlab yuborishdi... Uloqdan sho'h qizlar, ayollar o'tirgan ulovga bir to'da yasangan yigitlar kirib keladi. Qizlar baland, qo'ng'iroq ovoz bilan, jonli imolar bilan, ko'zlarini chiroyli o'ynatib qo'shiq aytadi... Kulgi, qiyqiriq o'lan tinmaydi... Kuyov bilan kelin o'lan aytishadi..."

Endi to'y marosimi o'zbeklarda boshqacha kechadi. Karomatning tuyi tasvirida erkaklar va ayollar deyarli qo'shilishmay, marosimni alohida-alohida o'tkazishadi. "Qiz oshi" kuni qizning uzoq-yaqindagi dugonalari va mahallanинг qizlari to'planishadi. Dutorga jo'r bo'lishib, ashula aytishadi. Atrofda erkaklar

bo‘lmasa ham, iymanishib, “Sen tur, sen tur”, deyishib bir-birlarini o‘yinga tortishadi... To‘y kuni turli ko‘ngil ochuvchi o‘yinlar tashkil qilinadi, ayollar “yor-yor” aytishadi va hokazo.

Mana shu badiiy tasvirdagi ikki xalqda mavjud bo‘lgan to‘y o‘tkazish jarayonidagi udum va marosimlar an’ana sifatida bir necha asrlar davomida avloddan-avlodga yetib kelgan.

Urf-odat, an’ana, udum va marosimlar bir-birlari bilan chambarchas bog‘liq va doimo bir-birini to‘ldirib, bir-biriga o‘tib turishi mumkin. Ba’zan ma’lum urf-odat an’ana ham sanalishi mumkin, deb ko‘rsatadi professor N.Sarsenbayev. Masalan, mehmonga borganda “yuvosh o‘tir”, degan o‘zbek maqoli bor. O‘zbeklar orasida bu – odःat boshqa millat vaqillari doirasida esa bu odःat o‘zbek xalqining milliy an’anasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy mazmuni va ahamiyatiga qarab urf-odat va an’analar ilg‘or va qoloq bo‘ladi. Ilg‘or urf-odat va an’analar keng xalq omma manfaatlariga xizmat qiladi va ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Qoloq urf-odat va an’analar deb, umrini o‘tab bo‘lgan davr ruhiga mos kelmaydigan, ijtimoiy hayot taraqqiyotiga monelik qiladigan urf-odat va an’analarga aytildi.

Shuning uchun ham urf-odat va an’analarni o‘rganishda, rioya qilishda, nihoyat darajada extiyotkorlik bilan yondoshish zarur bo‘ladiki, shoshma-shosharlik bilan ular to‘g‘risida hukm chiqarish, noroziliklarga va tuzatib bo‘lmas xatolarga olib kelishi mumkin.

Bizning asosiy vazifamiz va burchimiz ham ajdodlarimizdan yetib kelgan ko‘plab urf-odat, an’ana, udum va marosimlarni har tomonlama o‘rganish, asrlar sinoviga bardosh bergan va davr sinoatidan o‘tgan, turmushimizga fayz kiritadigan, kishilarni yetuklikka chorlaydigan ilg‘or urf-odatlarimizni saqlab qolishimiz va aksincha, qachonlardir turli sabablar bilan vujudga kelgan, endilikda o‘z umrini yashab bo‘lgan, qop-qorong‘u tun kabi dilimizni siyoh qilayotgan, eng muhimmi jamiyat taraqqiyotiga monelik qilayotgan urf-odat va an’analardan voz kechishimiz kerak.

O'zbek xalqining mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehmondo'stlik, hovli-joyni ozoda tutish, rizqi-ro'zimiz bo'lgan turli-tuman nozne'matlarni e'zozlash va shunga o'xshash bir qancha milliy urf-odat va an'analarini borki, ularni o'rganish, yoshlarni shu an'analar ruhida tarbiyalash katta ahamiyatga egadir.

Ota-onan hurmatini bajo keltirish, keksalarini e'zozlash kabi odat va an'analar o'zbek oilalarida yoshlikdan bolalar ongiga singdirilib boriladi. Ota-onan va kattalar, yoshlarga boshqalar bilan muomala qilish va munosabatga kirishish yo'il yo'riqlarini o'rgatib, odamiylikdan, insonlarvarlikdan saboq berib borishadi.

O'zidan katta yoshda bo'lgan kishilarni hurmatlash bilan bog'liq bo'lgan an'anaga ko'ra, yoshlar ularni ko'rganda tanish-tanimasligidan qat'i nazar, ularga birinchi bo'lib salom berishi, yo'lda uchratganda birinchi bo'lib ularni o'tkazib yuborishi, gaplashganda muloyim gaplashishi, ularga ters javob bermasligi, doimo "Siz", deb muomalada bo'lishi, ularning ismi, laqabini aytib chaqirmasligi, qo'lidan yukini va yumushini olishi hamma yerda ham ularga joy bo'shatib berishligi va shunga o'xshash odob normalariga rioxay qilishligi kerak bo'ladi. Har bir qariya, yoshi katta kishi o'zları shaxsan tanimagan yoshlarga ham pand-nasihat qilishi, tanbeh berishligi mumkin. Yoshlar ham ularning so'zini bo'lmasdan tinglashi va bundan jahli chiqmasligi kerak.

O'zbek oilalarida o'tadigan biron-bir yig'ilish, marosim, tantanali to'y-tamoshalar, hashar va obodonlashtirish ishlari "aqlning ko'zi" bo'lgan nuroniy keksalarimiz maslahatisiz, ishtirotkisiz o'tmaydi.

Uzoq safarga ketayotgan va qaytib kelgan har bir kishi, albatta, mahalla va qishloqning hamma keksalarini va xasta bo'lib yotgan kishilarni borib ziyyarat qilishi zarur. Agar safardalik davrida, mahalladagi biror kishi vafot etgan bo'lsa, birinchi navbatda uning oilasiga borib ta'ziya bildiriladi.

Millatimizning asriy an'ana va urf-odatlari, milliy xususiyatlarimizni bilmasdan, hisobga olmasdan turib milliy mafkurani shakllantirish mumkin emas. Bunda "... Sharq xalqlari uchun notanish, ammo milliy tabiatimizga mos bo'lgan

o'z-o'zini boshqaruv usuli – mahallani rivojlantirish hamda uning mavqeini oshirish" kerak.

Jamiyat hayotida totuvlik va ijtimoiy tarbiyani tashkil qilishda mahallaning ahamiyati beqiyosdir. Tabiat qiyinchiliklarini, tashqi xavf-xatarlarni birgalikda yengish, qurilish va obodonlashtirish ishlarini tashkil etishda kuchlarni birlashtirish, yaxshi-yomon kunlarda bir-biriga yelkadosh bo'lishga intilish tuyg'usi o'zaro mehr-oqibat singari noyob insoniy fazilatlar mahallalarda shakllangan va avloddan-avlodga o'tib kelgan. Mahallani o'zini o'zi boshqarish maktabi, ta'bir joiz bo'lsa, demokratiya darsxonasi, deb atash mumkin.

El-yurtga manzur bo'lgan, el bilan shaxs o'rtasida g'ov bo'lib yotmagan, eng muhimmi, el sha'niga dog' tushirmaydigan, xalqning donoligi asosida yaralgan eng yaxshi urf-odat har doim e'zozlanib, saqlanib kelinadi. Zero, bunday an'analarimiz, birinchidan, hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmasdan, yangidan-yangi mazmun va shakl bilan boyib, fozil insonga xizmat qilib kelyapti. An'anaviy xarakterga ega bo'lgan o'zbek xalqining mehmondo'stligi ham hozirgi davrda yangi ijtimoiy mazmun kasb etib, xalqdar do'stligi va boshqa xalq vakillariiga bo'lgan hurmat-ehtiromimizni ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Hech bir avlod o'zigacha yaratilgan va to'planib kelingan madaniy meroslarsiz, bilim va an'analarsiz yashay olmaydi. Ma'lum bir jamiyatda yashar ekan u, ajdodlar tomonidan to'plangan meroslarni hayotining birinchi kunidanoq o'zlashtirib boradi. Shuning uchun ham xalq hayotiga singib ketgan urf-odat va an'analarни hech qanday farmoyish va ma'muriy yo'l bilan yo'qotib bo'lmaydi. Lekin madaniy merosimizni o'rganishda ilg'or urf-odat va ananalarni eski an'analardan farqlashda ba'zan noto'g'ri yondoshishlar ham bo'lganligini ta'kidlash kerak. Masalan, yaqingacha aholi o'rtasida keng tarqalgan "Navro'z bayrami"ga asossiz ravishda diniy tus berilib, noto'g'ri asosda tanqid qilinib, man' etib kelindi. Kelib chiqishi va mazmuniga ko'ra "Navro'z" bayramini diniy ham, konservativ ham, deb bo'lmaydi. Uni o'tkazish rasm-rusumlari, udumlari bahor faslining kirib kelishida rizqi-ro'z bo'lgan ekin-tikin ishlarini boshlab yuborish

quvonchlarini tarannum etadigan xalq tantanasidir. Navro'z – Sharq xalqlarida yangi yilning kirib kelishidir.

Urf-odat va an'analar har bir xalqqa abadul-abad berilgan va hech o'zgarmaydigan narsa emas. Hayot ularni g'alvirdan o'tkazib, puchisini puchakka, sarasini sarakka ajratib beradi. Yangi davrga moslasha olgani saqlanib qoladi. Shuning bilan birga har bir davr o'zining udum va marosimlarini, urf-odat va an'analarini yaratadi. Yangi vujudga kelayotgan urf-odatlar o'z-o'zidan, quruq yerda paydo bo'lmasdan, asosan ikki manba - birinchisi, ilgari mavjud bo'lgan ilg'or an'analar zamon ruhiga moslashtiriladi, ikkinchisi, boshqa xalqlar bilan bo'ladigan iqtisodiy, ma'naviy aloqalar natijasida ulardagi ilg'or an'analar o'zlashtiriladi.

Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan mahallaning jamiyatni boshqarishdagi vaziyatlari kengaytirib, mavqeni oshirib borayapti. Davlatni boshqarishning ayrim funksiyalari unga o'tayapti. Mahalla savdo va xunarmandchilik mavzelarini ifodalovchi arabiy so'z bo'lib, X asrdayoq mavjud bo'lgan. Toshkent shahar hokimiyatining tashabbusi bilan 1996-yildan buyon avgust oyining birinchi shanba kuni "Mahalla kuni" deb qabul qilingan va shahardagi G'ofur G'ulom nomidagi bog'da bu kun tantana bilan bayram qilinadi. Shahar bo'yicha eng yaxshi mahalla, mahalla raisi, xotin-qizlar kengashi raisi, posbonlar sardori, namunaviy oila kabi tanlovlari o'tkaziladi, bu ham yangi davr ruhi bilan tug'ilib an'ana tusini olayotgan marosimdir.

Yangi marosim, urf-odat va an'analarning vujudga kelishini o'z xoliga tashlab qo'yilmasdan, uni yaratishga butun jamoatchilik bosh-qosh bo'lib turishi, unga ijodiy yondoshish kerak bo'ladi. Jamiyat, xalqning turmush tarziga va etnik xususiyatlariga mos kelajak ijtimoiy g'oyalar bilan sug'orilgan yangi urf-odat, an'ana va marosimlarga keng yo'l ochib, turmushga singdirib borish zarur.

### Bob yuzasidan tayanch iboralar

Urf-odat, an'ana, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehmondo'stlik, madaniy meros.

### Nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Milliy urf-odat, an'analar deganda nima tushunasiz?
2. Milliy urf-odat va an'analar shaxsnинг hayotida qanday vazifalarni bajaradi?
3. Yangi marosim, urf-odat va an'analarning vujudga kelishi nimalarga bog'liq?
4. Milliy urf-odat va an'analar o'zgarishi mumkinmi?
5. O'zbek oilalaridagi milliy urf-odat va an'analarga ta'rif bering.
6. Qoloq urf-odat va an'analar nimalarda ifodalananadi?

### Bibliografiya

1. Крысько, В.Г. Этническая психология: учебник для бакалавров / В.Г. Крысько. – 10-е изд., перераб. и доп. – М. : Издательство Юрайт, 2016 – 359 с.
2. Этнопсихология: Учебник для студентов вузов / Т.Г. Стефаненко. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: ЗАО Издательство «Аспект Пресс», 2014. – 352 с.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o'quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
4. Вильгельм В. Проблемы психологии народов. – СПб.: Академический проект, 2011. – 136 с.
5. Маматов М.М. Этнопсихология. – Т.: НУУз, 2006. – 120 с.
6. Аронсон Э. Общественное животное. Введение в социальную психологию. – М.: Прайм-ЕвроЗнак, 2006. – 416 с.
7. Мурзаев, М.С. Влияние межличностных контактов на динамику этнических стереотипов: Дис. ... канд. психол. наук.: 19.00.05. – М.: МГУ, 2003. – 112 с.
8. Маматов М.М. Психический склад наци и его особенности. – Т.: 1980. – 128 с.

## XVI BOB

### MILLIY TUYG'ULAR VA TA'B (DID)LAR

#### *16.1. Etnopsixologiyada milliy did tushunchasi talqini*

Idrok etilayotgan voqealar va tashqi olamdagи narsalarni bilishdan vujudga keladigan hissiy-ruhiy reaksiya turli xalqlarda o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi.

Etnos yashayotgan turfa xil tabiiy sharoitlar – o'rmon, cho'l, dashtlik, tog', suv havzalari, vodiy va vohalar, shuningdek tarixiy taraqqiyotdagi o'ziga xoslik xalqlarning borliq olamni, uning ne'matlarini, voyealar va hodisalarni idrok etishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

**Milliy did** – bu xalq va millatning ko'pchilik vakillarida tarixiy jihatdan vujudga kelgan go'zallik va xunuklik to'g'risida beriladigan bahodir. Milliy did o'zida milliy o'ziga xoslikni mujassamlantirgan bo'lib, hissiy va ruhiy jihatdan milliy psixologik qiyofaning xarakterli xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shuniig uchun ham uni xalq hayoti va turmushidan ajratib tushunib bo'lmaydi. Ma'lum milliy muhitda yashab va voyaga yetar ekan, har bir shaxsning ruhiy xususiyatlari millatning psixologik xususiyatlaridan "ko'chirma" oladi. Shaxs ajdodlar tomonidan to'plangan madaniy meroslarni o'zlashtirib boradi va uni o'rab turgan milliy zamin ta'siri ostida unda atrof-muhit, iqlim sharoitlari, nabotot va hayvonot olamini idrok etishga nisbatan maxsus did va his-tuyg'ular shakllanadi.

Odam eng avvalo uni ilk bolalik davridanoq o'rab turgan, unga har kun, har soat sayin ta'sir etib turgan, uning amaliy maqsadlari va moddiy ehtiyojlarini qondiradigan narsalarning xususiyatlarini boshqa xalq vakillariga nisbatan chuqurroq idrok etishga o'rganadi. Shuniig uchun ham tabiat va jamiyatdagi biror narsa va hodisa bir millat va elat vakillarida kuchli hissiy-ruhiy reaksiyani keltirgan holda, boshqa millat va elat vakillari uchun befarg bo'lib qolishi mumkin. Masalan, cho'l qozoq xalqi uchun bir necha yuz yillar mobaynida hayot kechirish

manbai, ularning tabiiy boyligi bo‘lib kelgan. Shu boisdan qozoq xalqida uni idrok etishga nisbatan o‘ziga xos did vujudga kelib, cho‘l chuqur hurmat bilan kuylanib kelinadi. Qozoq xalqining atoqli yozuvchisi *M.Avezov* o‘zining “Abay yo‘li” romanida Abayning cho‘lga bo‘lgan mehr-muhabbatini bunday tasvirlaydi: “Abay o‘zi tug‘ilgan va bolaligi o‘tgan atrof-olamga cheksiz qirlar, kengliklar, tepaliklarga mehr va hayajon bilan qarab turar, ularni quchgisi va bag‘riga bosgisi kelar edi”.

Dengiz va okean yoqki o‘rmon va vodiylarda yashab o‘sigan odamlar uchun cho‘l manzarasi ham qanday ijobjiy hissiyat tug‘dirmasligi, aksincha, zeriktiruvchi ta’sir etishi mumkin. Xalqning yashash tarzining kundalik hayot ehtiyojlari tarixiy jihatdan go‘zallik to‘g‘risida ma’lum tushunchani vujudga keltirgan. Shu asosda shaxs bilan jamoa va shaxslararo muomala munosabatlarida ham ma’lum normalar vujudga kelgan. Bu normalar maishiy hayotda doimo oshkor namoyon bo‘lavermasa ham, lekin shu jamoa vakillari va har bir davr kishilarini tomonidan eng maqbul va to‘g‘ri yo‘l sifatida, ba’zi bir tuzatishlar bilan qabul qilinib, amalda kuchlanib boriladi. Shuning uchun ham bir xalq vakili boshqa xalq orasiga tushib qolganda, ularda mavjud bo‘lgan o‘zaro munosabatlarni ko‘rib taajjublanishi mumkin. Chunki bu narsalar unga qandaydir g‘ayri tabiiy bo‘lib ko‘rinadi. Quddusni (Falastin) istelo qilib olgan fransuzlar arablarning ko‘p xotinlik odatiga nafratlanishib qarashgan, arablar esa fransuz xonimlariniig ochiq yuz bilan yurishini hayosizlik deb hisoblashgan, deb yozadi *L.N.Gumilyov* epigrafida.

XX asrning buyuk yozuvchisi *Ch.Aytmatov* asarlarini o‘qisak, unda qirg‘iz va qozoq xalqlaridagi odad – qiz olib qochish hodisasi tavsiflanganligini ko‘ramiz. “Somon yo‘li” qissasida Qosim o‘z ovuliga qaytishida sevgani Aminani olib ketadi. “Sarv qomat dilbarim”da Ilyos Asalni, “Jamila”da Doniyor Jamilani o‘zi bilan olib qochib ketadi. “Qiz olib qochish” udumi guruhiy nikohning barham topishi va ekzogam nikohga o‘tish davrida vujudga kelgan, deb hisoblanadi. Guruhiy nikohda urug‘dagi barcha ayollar shu guruhdagi barcha erkaklarga tegishli bo‘lgan. Boshqa guruhdan begona erkakning aralashishi qattiq taqiqlangan va jazolangan, ekzogam nikohga o‘tish bilan urug‘dagi ayollarga boshqa guruhdagi

erkaklar egalik qila boshlaydi. Ayol mansub bo'lgan guruhdagi erkaklar bu huquqdan mahrum bo'lyapti. Albatta bu xil psixologik holat – stereotipning buzilishi esa osonlik bilan bo'lmaydi. Agar bu stereotip bir necha asrlar davomida shakllangan va amal qilib kelingan bo'lsa uni buzilishi uchun ham ma'lum vaqt kerak bo'ladi. Shuning uchun ayol mansub bo'lgan urug' erkaklari quda tomon bilan kelishilgan holda, ularga qizni olib qochish uchun imkoniyat berishgan. Ma'lum vaqtdan keyin "sezib qolishgach", o'z huquqlarini himoya qilish uchun "raqiblarini" quvishga, shu yo'l bilan o'z huquqlarini himoya qilish amallarini qilishgan. Keyinchalik bu narsa urf-odat tusini olgan.

Albatta bunday an'analarga ega bo'lmagan xalqlar uchun bu xil xattiharakatlar g'ayritabiyy ko'rinishi mumkin. Lekin har bir urf-odat va an'analarning vujudga kelishida yuqorida aytganimizdek, ma'lum iqtisodiy, ijtimoiy omillar ta'sir etgan bo'ladi. Masalan, Markaziy Osiyoda yashaydigan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlarda qiz olish uchun juda katta miqdorda "qalin" to'lash kerak bo'lgan. Buning natijasida ayrim yo'qchil kishilar butun umrbo'yи uylanmasdan qolib ketgan holda, moddiy jihatdan baquvvat kishilarning bir nechtadan xotini bo'lgan. Iqtisodiy, siyosiy tengsizlik hukm surgan davrlarda sevishib, bir-biriga talpinib turgan ikki yosh qanday qilib bo'lsa ham bir-biriga yetishish uchun yuqoridagi chorani qo'llashga majbur bo'lishgan. Hozirgi kunda iqtisodiy, siyosiy tengsizlik barham topgan davrda qiz olib qochish uchun hech qanday zarurat qolmadi. Lekin u etnik an'ana sifatida, ramziy tarzda ayrim xalqlarga saqlanib qolgan.

Narsa va hodisalarni o'ziga xos ravishda idrok qilish yoki tushunib olish insonning tug'ma xususiyati emas, balki bu xususiyatlarni faqat yashash jarayonida, tajriba asosida hosil qiladi. Faoliyat jarayonida vujudga keladigan milliy did millatning ham moddiy, ham ma'naviy ehtiyojlarida namoyon bo'ladi. Kishilarning moddiy ehtiyojlarini qondirilishi asosan ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Shuning bilan birga tabiiy-geografik shart-sharoitlarning xususiyatlari ham moddiy iste'mol xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. Yeyish va ichishning qanday bo'lishi shu xalqning xo'jalikni qaysi turi bilan

shug'ullanishiga, uni o'rab turgan nabolot va hayvonot olamiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Hech bir odam o'zi qurmagan yoki hali mazasini tatib ko'rmagan narsalarga nisbatan ehtiyoj hosil qilmaydi. Shu narsalarga doir unda tab' va did hosil bo'lmaydi. Xo'jalik yurgizish shakllaridagi o'ziga xoslik ham xalq tab'iga ta'sir ko'rsatadi. Shu joyga xos bo'lgan ma'lum mahsulotlarni uzoq asrlar davomida doimiy iste'mol qilinishi, unga o'rganish va o'ziga xos didning vujudga kelishiga olib keladi. Dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanadigan respublikamiz aholisining asosiy ovqati guruch, sabzavot va mevalar hisoblanadi. Shunga ko'ra, ularda qishloq-xo'jalik va o'simlik mahsulotlarini ishlab chiqarishga, ulardan turlituman oziq-ovqat muhsulotlari tayyorlashga nisbatan malaka va odatlar rivojlangan bo'lib, shunga mos ravishda tab' va didlar ham shakllangan. Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarda go'sht va go'sht mahsulotlariga nisbatan ehtiyoj va did shakllangan.

Ayrim xalqlarda o'z chanqoq va ochligini yangi so'yilgan hayvonlarning qoni bilan qondirish, ehtiyojlarni qondirishning eng maqbul yo'li hisoblanadi. Bunday tab' boshqa muhitda yashayotgan va qon umuman biologik ehtiyojlarni qondirish vositasi hisoblanmagan kishilar uchun butunlay qarama-qarshi tuyg'ularni keltirib chiqaradi. Milliy estetik didning o'ziga xosligi millat ma'naviy hayotning ko'p sohalarida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ular me'morchilik qurilishlarida, tasviriy san'atda, musiqada, raqslarda, adabiyotda, milliy kiyimlarda va uning bezaklarida, ayollarning hushro'yligida va ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida o'z ifodasini topadi. U ob'yektiv va sub'yektiv idrokning umumlashmasi sifatida turli millatlar tomonidan o'ziga xos ravishda idrok va tasavvur etiladi.

Avstralaliyadagi ayrim qabilalar o'z qizlarining ko'zlarini yoshlikdanok g'ilay qilishga harakat qilib, bosh kiyimini chekka tomoniga yaltiroq narsa osib qo'yishar ekan. Chunki bu yerda g'ilay ko'zli ayol go'zallik belgisi hisoblanadi.

Odam ma'lum tabiiy-geografik sharoitda va ijtimoiy muhitda yashar ekan, u doimo ta'sir etib turuvchi narsa va hodisalarining simvolik xususiyatlarini boshqa muhit odamlariga qaraganda chuqurroq bilib olishga o'rganadi va boshqa tabiiy va

ijtimoiy muhitga tushib qolganda, u yerdagi narsalarni va hodisalarni ham o'zida shakllanib qolgan "mexanizm" orqali idrok etadi. Shuning uchun ham go'zallik to'g'risidagi tushuncha ham turli tabiiy-geografik va tarixiy sharoitlarda yashayotgan xalqlarda har xil bo'ladi. Rossiya podshosi Anna Ivanovna saroyiga balga taklif qilingan Xitoy elchilari, malikaning shu yerda hozir bo'lgan xonimlardan qay birini ular eng go'zal, deb hisoblaydilar, deb bergen savoliga Petrning qizi Yelizaveta (bo'lajak podsho)ni afzal ko'rganliklarini aytishadi. Yelizaveta darhaqiqat, juda go'zal bo'lgan. Buni hamma zamondagilar bir og'izdan e'tirof etishgan. Lekin elchilar nazokatlik Sharq xalqlariga xos bo'lgan xushmuomalik bilan, agar Yelizavetaning ko'zi shaxlo bo'lmay, sal qisiqroq va qambarroq bo'lganda edi, u o'z go'zalligi bilan yagona va har qanday kishini bir qarashda hushini olib qo'yadigan bo'lar edi, deb qo'shib qo'yanlar.

Tarixiy taraqqiyotdagi o'ziga xoslik ijtimoiy hayotdagi turli sinflarning, qatlamlarning ta'siriga qarab milliy tab' ham turlicha shakllanishi va o'zgarishi mumkin. Ma'lumki, islam dini hukmronlik qiladigan mamlakatlarda haykaltaroshlik, rassomchilik bilan shug'ullanish man egilganligi sababli, san'atning bu turi rivojlanmagan. Buning natijasida kishilarning tasviriy san'atni idrok etishga nisbatan estetik didi ham rivojlanmasdan qolib ketgan.

Odamlarning san'atni bu turiga nisbatan bo'lgan ehtiyojlarini qondirilmasligi evaziga, uni to'ldirish uchun Sharqda, xususan, respublikamizda naqqoshlik, o'ymakorlik, geometrik ornamentlar bilan ishslash kabi san'atning boshqa bir turi rivojlanib ketgan. Samarqand va Buxoro, Xiva va Qo'qon, Shahrisabz va Toshkent shaharlardagi tarixiy obidalarga tushirilgan turli-tuman naqshlar, yog'ochga va devorga o'yib ishlangan ganjlar kishi aql-idrokini, tasavvurini hozir ham lol qoldiradi.

Bu o'rinda munozarali bo'lsa ham yana bir narsani aytib o'tish joiz. Xuddi tasviriy san'at singari bizda raqs sanatinining gultojisi bo'lgan balet o'yinlarini "idrok qilishimiz bir muncha sust". Bu hodisani o'zbek xalqining bunday nodir san'at asarini "hazm" qilishga "layoqatsiz"ligini, badiiy saviyasining, didining

pastligi bilan emas, balki xalqimiz tarixiy taraqqiyotidagi, ijtimoiy hayotidagi o'ziga xos jarayonlar bilan tushuntirib berish mumkin.

O'zbek san'atida xoreografiya (raqs) turi vokal (ashula) turiga nisbatan yangi va unchalik rivojlangan emas. Buning sabablaridan biri, o'zbek ayollarining avvallari ko'pchiliik oldiga chiqib o'ynashi mutlaqo mumkin bo'limgan. Ayollarimizdagi mavjud o'yin san'ati faqat tor doiradagina – xotin-qizlar o'rtasida namoyon etilib, ko'pchilik, ayniqsa erkaklar bundan bahramand bo'la olishmagan. Erkaklar o'yini esa xalq ichida unchalik rasm bo'limgan. Shu bois yigitlarimiz tomonidan ijro etiladigan o'yinlarimiz esa, tan olish kerakki, Kavkaz erkaklarida erkaklar ijro etadigan o'yinlarchalik rang-barang emas. Balet san'atining ommaviy bo'limganligiga yana bir sabab, o'zbek ayollarining o'yinlarida, balet raqsidagidek charxpalak bo'lib aylanish, sakrash, oyoq uchida yurib harakatlanish kabi dinamik harakatlar ancha kam. Butun joziba va nazokat yuz va ko'z ifodalarida, qo'lning nozik harakatlarida, har bir harakati ma'lum ma'noni ifodalovchi nozli va iboli yurishlarda namoyon bo'ladi.

Natijada bizning ko'pchiligidizda, hatto ziylolarimiz orasida ham xoreografiya san'atini, uning gultojisi bo'lgan balet raqlarini chuqur idrok etish ko'nikmalari va bilimlari hali yetarli darajada, deb bo'lmaydi. Aksincha, Sharqda, Islom dunyosida madaniyatning boshqa bir turi - she'riyat benihoya darajada rivojlangan. Sharq shoirlarining she'riyati, hatto, Yevropaning genial shoirlari – Gyote, Bayron, Shekspir, Pushkin kabilar uchun ham ilhom manbai bo'lgan. Shuning uchun xalqimiz nazmni joni-dilidan sevadi. Shoirlar, yozuvchilar bilan bo'ladigan har qanday uchrashuvlar talabchan, yuksak did sohiblari bo'lgan ko'plab nazm muxlislarini doimo o'ziga jalb qiladi.

Shulardan ko'rindiki, san'atning u yoki bu turini to'g'ri tushunish va to'la idrok yetilishi uchun uning milliy zaminida nechog'lik ildiz otgan bo'lishi, unga nisbatan xalqda qanchalik tab' va didning shakllangan bo'lishiga bog'liq bo'lar ekan. Lekin bulardan zinhor va zinhor xaykaltaroshlik rassomlik xoreografiya kabi san'at turlari biz uchun tushunarsiz, nokerak narsalar ekan, degan fikr tug'ilmasligi kerak. Aksincha, insoniyat tafakkurining mahsuli bo'lgan bu noyob san'at turlari,

ayniqsa, xoreografiya san'ati keyingi yillarda bizda keng rivojlanib bormokda. Lekin hali ham ko'pchilik tomonidan milliy raqlarni tamosha qilganchalik zavq-shavq bilan qabul qilinayotgani yo'q.

Mehnat faoliyati, iqtisodiy yuksalish va yashash sharoitlari asosida vujudga keladigan milliy did bu sharoitlarning o'zgarishi bilan ma'lum darajada o'zgarishlarga uchraydi. Lekin qadimiy ta'b va didlar butunlay izsiz yo'qolib ketmaydi. Chunki uzoq vaqt kishilar iste'molida bo'lgan u yoki bu ta'blar, xalq hayotiniig ma'naviy va moddiy tomonlarida o'zining chuqur ildizini qoldirgan bo'ladiki, ularning o'zgarishi yoki yo'qolib ketishi, yangi did va ta'blarning shakllanishi uchun o'n va yuz yillar kerak bo'ladi.

Keyingi o'n yilliklar davomida mamlakatimiz ijtimoiy hayotida sodir bo'lgan iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar natijasida mavjud bo'lgan ta'b va didlar ham o'zgara boshladi. Bu moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq sohalarga daxlordir. Xalqimizning milliy kiyinishi, taomlar tayyorlashida milliy andozalar bilan birga boshqa xalqlardan kirib qolgan yangi taomlar, shirinliklar va ust-boshlar hisobiga o'zgarish bo'ldi. Bularning hammasi milliy didga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Etnopsixologiyaning xilma-xil xususiyatlarni ularning ob'yektiv jihatdan namoyon bo'lishi orqali o'rganish mumkin. U yoki bu xalqqa xos psixologik xususiyatlarni o'rganishni, barcha yetakchi tadqiqotchilar avvalo ularning ma'naviy ijodiyotini tahlil qilishdan boshlaganlar. Chunki xalq o'z tarixini, turmush tarzini, orzu-istikclarini moddiy va ma'naviy madaniyat namunalarida aks ettirib kelgan.

Milliy san'at va badiiy asarlarda xalqning vogelikni o'ziga xos idrok qilishi natijasida hosil bo'lgan tasavvurlari, tuyg'ulari, ta'b va didlari, tafakkur xususiyatlari, temperament va xarakterlari aks etadi.

Etnopsixologik xususiyatlar ayniqla, xalq og'zaki ijodiyoti doston va ertaklarda, maqol va matallarda, musiqa, qo'shiq va raqlarda to'la namoyon bo'ladi. Xalqimiz Go'ro'g'li, Alpomish, To'maris, Shiroq obrazlarida o'z ma'naviy fazilatini, kuch-qudratini, orzu-istagini, aql-zakovatini mujassamlantirgan. Milliy zaminda voyaga yetgan bu qahramonlar millat vakillari

ong shuuriga chuqur kirib, ruhiy jihatdan ta'sir etib turadi. Yangi avlod bu qahramonlarga o'xshashlikka, ularidan namuna olishga, ular qilgan qahramonliklarni takrorlashga harakat qiladilar. Atoqli shoirimiz Abdulla Oripov "Genetika" sherida shunday yozadi:

*Nechog'lik sabot bor yovqur Shiroqda  
Er yigit ov to 'pga ko 'ksin bosar jim.  
Rahimov g'animga tashlangan choqda  
Alpomish shiddatin payqamagan kim?!*

Mashhur yozuvchilar, bastakorlar va boshqa ijodkorlar xalq hayotini yaqindan bilganliklari uchun ham xalq hayotini tasvirlovchi ajoyib obrazlar yaratilgan. Zero, jahon madaniyatining nodir asarlari doimo o'z milliy zaminiga ega bo'ladi. Kimki Furqat va Oybek asarlarini chinakamligicha o'rganar ekan, deb yozadi qozoqistonlik etnopsixolog N.Jondildin, so'zsiz u o'zbek xarakteriga, kim Abay va Avezov asarlarini chuqur singdirsa qozoq xarakteriga duch keladi.

Ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-geografik shart-sharoitlar dastlab kishilarning histuyg'ularida, ta'b va didlarida, fikr va xarakterlarida, ya'ni ularning milliy psixologik xususiyatlarida aks etib, undan keyin milliy madaniyatniig o'ziga xos xususiyatlarida shakllanib qoladi. Shuning uchun ham milliy madaniyatda shu xalqning tabiat go'zalliklarini qanday idrok etishi, ijtimoiy tartiblari, tarixiy taraqqiyotning turli davrlaridagi tuygu va istaklari, mushohada qilish usuli va xarakteri aks etadi. Bu xususiyatlar madaniyatda mustahkam o'mashib, shu millatiig hozirgi vakillariga va kelajak avlodlarga ajdodlarniig ruhiy xususiyatlari to'g'risidagi axborot sifatida doimo ta'sir etib turadi. Xorijlik etnopsixologlar u yoki bu millat va xalqning etnopsixologik xususiyatlarini o'rganishda, ayniqsa, badiiy adabiyotdan ko'p foydalanishgan. Zero, adabiyotda turli jihatlar, millat vakillarining xarakterlari tipik holatda, uni shakllantiruvchi hamma shart-sharoitlarni ochib ko'rsatgan holda tasvirlanadi.

Amerikalik etnopsixologlar D.Makgrenp va A.Uyeynlar nemislar va amerikaliklarning etnopsixologik xususiyatlari Germaniya va AQShda bir necha yillar davomida qo'yilib kelayotgan 45 ta mashhur pyesada qanday namoyon

bo‘lganligini o‘rganishgan. Tekshirish yakunlarini taqqoslab, ajoyib natijalarga duch kelishgan. Pyesalarining syujeti quyidagi mavzular: sevgi, axloq, ideallarni yaratish, hokimiyat uchun kurash, mansabparastlik va huquqlarning qay darajada yoritilgan bo‘lishligiga qarab o‘rganilgan.

Tekshirish yakunlari quyidagicha bo‘lgan:

1. Ideallik, falsafiy va tarixiy mavzular nemis pyesalarida Amerika pyesalariga qaraganda ko‘proq yoritilgan;
2. Nemis pyesalaridagi qahramonlar jamiyatdan uzoqroq turishga harakat qilgan holda, amerikaliklarning pyesalaridagi qahramonlar oddiy kishilar bo‘lib ko‘rinishga harakat qilishadi;
3. Amerika pyesalariga ayollar obrazi nemis pyesalaridagiga qaraganda ko‘proq kiritilgan;
4. Amerika pyesalarida axloqiy tendensiyalar, nemis pyesalarida ideal tendensiyalar hukmron bo‘lgan;
5. Har ikkala mamlakat pyesalarida ham xalqning hokimiyatdan noroziligi kayfiyati hukm surgan.

Har bir xalqda estetik idrok qilish va hissiy holatlarni kechirish o‘ziga xos ravishda o‘tadi. Agar o‘zbek adabiyoti va san’atida asosan ko‘m-ko‘k vodiy va vohalar, serunum dalalar, dehqonchilikning asosi bo‘lgan suv, paxtakor dehqonning mashaqqatli va oliyanob mehnati kuylansa, qo‘sni qozoq va qirg‘iz san’atshunoslari bepoyon cho‘l-adirlarning fusunkorligi, cho‘pon va yilqichilarning mehnati, Oloy tog‘larining go‘zalligi to‘g‘risida kuylashadi. Chunki har bir kishi uchun dunyoga kelgan kunidan boshlab, unga butun umr bo‘yi hamroh bo‘lib yurgan narsalar go‘zal bo‘lib ko‘rinadi. Akademik A.P. Barannikov o‘zining “Hind poyeziyasining tasviriy usuli”, deb nomlangan tadqiqotida, hind poyeziyasida turli hayvonlar, ayniqsa, sigir, fil, asalari kabilarling obrazlari ko‘p uchrashligini ko‘rsatadi. Ma’lumki, Hindistonda sigir mehr-muhabbatga loyiq hayvon sifatida e’zozlanadi. Eng go‘zal ayollarni, hatto malikani ham maqtashganda sigirga taqlid qilishadi.

### Bob yuzasidan tayanch iboralar

Milliy did, an'ana, go'zallik, xunuklik, madaniy meros, estetik did.

### Nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Etnopsixologiyada milliy did tushunchasi talqini deganda nima tushunasiz?
2. D.Makgrenp va A.Uyeynlar nemislar va amerikaliklarning etnopsixologik xususiyatlarini qanday asoslar orqali tekshirishgan?
3. Milliy didning vujudga kelishi qaysi omillarga bog'liq?
4. Milliy did qanday shakllanadi?
5. Milliy estetik didning o'ziga xosligi nimada?
6. Milliy didga tarixiy tarraqiyot ta'sir ko'rsatishini qanday izohlaysiz?

### Bibliografiya

1. Крысько, В.Г. Этническая психология: учебник для бакалавров / В.Г. Крысько. – 10-е изд., перераб. и доп. – М. : Издательство Юрайт, 2016 – 359 с.
2. Этнопсихология: Учебник для студентов вузов / Т.Г. Стефаненко. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: ЗАО Издательство «Аспект Пресс», 2014. – 352 с.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o'quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
4. Вильгельм В. Проблемы психологии народов. – СПб.: Академический проект, 2011. – 136 с.
5. Маматов М.М. Этнопсихология. – Т.: НУУз, 2006. – 120 с.
6. Аронсон Э. Общественное животное. Введение в социальную психологию. – М.: Прайм-ЕвроЗнак, 2006. – 416 с.
7. Маматов М.М. Психический склад наци и его особенности. – Т.: 1980. – 128 с.

**XVII BOB**  
**MILLIY ONG VA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH.**  
**ETNIK ATTITYUD VA STERIOTIP**

**17.1. Etnik taraqqiyotda milliy  
ongning shakllanishi**

Falsafa, etnologiya, ijtimoiy psixologiyaga oid aksariyat adabiyotlarda

milliy ong va milliy o'zini o'zi anglash tushunchalari deyarli farqlanmasdan, sinonim so'zlar sifatida ishlatib kelinadi.

To'g'ri, ular o'rtasida mazmunan uzviy bog'liklik va yaqinlik bor. Ular bir jarayonning turli bosqich va darajalaridir. Shunday bo'lsa ham ularni alohida - alohida tushunchalar sifatida o'rganish darkor.

**Milliy ong** etnik taraqqiyotning ilk bosqichlarida vujudga kelgan etnik ongning davomi bo'lib, o'zining ma'lum millatga (etnik birlikka) mansubligini anglash hisoblanadi. Millatning o'zini o'zi anglashi – etnik psixologiyaning ancha keyin vujudga kelgan murakkab fenomeni hisoblanib, u milliy ong asosida vujudga keladi va uning tuzilmasiga kiradi. Milliy o'zini-o'zi anglash millatning o'z manfaat, maqsad va motivlarini anglab yetish darajasini bildiradi. Shuningdek u, millat tomonidan o'zining o'tmish tarixi, etnik kelib chiqishi, milliy g'oyalari, kelajagi, jahon hamjamiyatida tutgan o'mini bilishi bo'lib, vatanparvarlik milliy g'urur, sha'n, burch ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

Agar insonning milliy ongi uning milliy mansublikni anglash orqali, millat hayotidagi voqealarga bildirayotgan munosabati bo'lsa, milliy o'zini-o'zi anglash esa, milliy manfaatlarni bilish, anglash darajasini bildiradi. Bu daraja nechog'lik yuqori bo'lsa, milliy o'zini-o'zi anglash ham shunga mos darajada bo'ladi.

Milliy ongning eng dastlabki ko'rinishi bo'lmish etnik ong yillar davomida emas, asrlar davomida yagona til, hudud, axloq va urf-odatlar birligi asosida vujudga keladi. Bunda ayniqsa, etnos a'zolari kelib chiqishidagi umumiylilikni anglash muhim omil hisoblanadi. Etnik birlikning dastlabki ko'rinishlari hisoblangan urug'chilik va qabilachilik davrlarida bu xil tushunchalar bir tomonidan qarindosh-urug'lar o'rtasida quda-andachilik qilish shaklida namoyon

bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kelib chiqishi bir ota-onadan (bir asosdan) ekanligi haqidagi tasavvurlarni saqlash shaklida namoyon bo‘ladi. Masalan, chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi xalqlar umumiy kelib chiqishi birorta jonivor (zoomorf) nomi bilan bog‘lanadi. Buni biz atoqli qirgiz yozuvchisi *Ch.Aytmatovning “Oq kema” qissasida* keltirilgan qirgizlarning bosh Onasi – Shoxdor Ona bug‘u afsonasida ko‘rishimiz mumkin. Etnik ongning eng muhim ijtimoiy vazifasi – odamning ma’lum etnik guruhga mansubligini anglash va his qilishini ta’minlashdir. Agar etnik psixologiyada etnik ong va etnik o‘zini-o‘zi anglash kabi muhim komponent (unsur)lar bo‘lmasganda edi, milliy urf odat va an’analalar, milliy xarakter, milliy tuyg‘ular va didning bir avloddan ikkinchi avlodga o‘tishi qiyinlashib qolgan bo‘lardi. Milliy ong qotib qolgan narsa bo‘lmay, xalqning tarixiy rivojlanishi jarayonida o‘zgarib, yuqori bosqichga – milliy o‘zini o‘zi anglashga o‘tadi.

Milliy o‘zini-o‘zi anglash millatning birligi va jipsligini ta’minlovchi, millat mavjudligining asosiy omillaridandir. Milliy o‘zini-o‘zi anglashning taraqqiyot darajasi tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Bu ma’lum tarixiy davrlarda millatning ichki muammolariga e’tiborning kuchayishi, o‘tmishga qiziqishning ortishi, o‘zining og‘ir iqtisodiy ahvoli sabablarini anglab etishga intilishi kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Milliy o‘zini-o‘zi anglash millat hayotidagi murakkab va ziddiyatli jarayon bo‘lib, uning rivojlanishiga jamiyat hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar bilan birga xalqaro hayotdagi voqeа va hodisalar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. O‘zbekistonning Milliy mustaqillikka erishishi xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy aloqalari millat vakillari ongida katta o‘zgarishlar bo‘lishiga, milliy o‘zini o‘zi anglashning rivojlanishiga va boyishiga olib keldi.

Milliy o‘zini-o‘zi anglashda millat ziyyolilari yetakchi rol o‘ynaydilar. Ular o‘z milliy tilida san’at va adabiyotni rivojlantirish, milliy qadriyatlar uchun qayg‘urish orqali milliy manfaat va g‘oyalar uchun kurashib, milliy o‘zlikni rivojlanishiga xizmat qiladilar. Bu kurash, ayniqsa, milliy til, qadriyatlar kamsitilgan, milliy manfaatlar xavf ostida qolgan paytlarda kuchayadi.

Milliy o'zini-o'zi anglashda ma'lum sub'yekтивизм mavjud bo'lib, u muayyan tarixiy va ijtimoiy davrlarda o'z yo'nalishini o'zgartirib turishi mumkin. Ba'zan bu yo'nalish o'z chegarasidan chiqib, "millatchilik", degan xavfli, xatarli holatni tug'diradiki, milliy o'zlikni boshqa etnik guruhlarga qarama-qarshi qo'yish, milliy mahdudlik kabi nomaqbul ko'rinishlarga aylanadi.

Milliy mansublikni anglash bilan bog'liq xususiyatlar ancha barqaror bo'lib, doimo ijtimoiy-siyosiy, tarixiy o'zgarishlar ta'siriga berilmasligi yoki nisbatan kam berilishi mumkin. Shuning uchun bo'lsa kerak tarix taqozosi bilan o'z Vatanidan ajrab boshqa yurtlarga borib qolgani va u yerda uzoq vaqtlar davomida yashayotgan kam sonli millat vakillarida milliy ongning shakllanishi va saqlanishi o'ziga xos qonuniyatlar asosida kechadi. Ularning milliy tilni saqlash, milliy urfatot va an'analarga rioya qilish imkoniyatlari, milliy qadriyatlar bilan bevosita aloqasi ma'lum darajada cheklangan bo'ladi. Bunday sharoitda har bir avlod vakilida etnik ong katta avlod tomonidan berilayotgan ma'lumotlar, oila a'zolari va yaqin karindoshlar o'rtasida so'zlashuv vositasi hisoblangan ona til, milliy qadriyatlar haqidagi bilimlar asosida vujudga keladi. Turli davrlarda uzoq ajnabiy yurtlarga borib qolgan millatdoshlarimizning hayoti bunga misol bo'la oladi. Xususan, Amerikada yashayotgan o'zbeklar bir-birlari bilan yaqin munosabatlarni saqlash, o'zaro suhbatlarni ona tilida olib borish, milliy taomlar tayyorlashga va yana eng muhimi o'zaro quda-andachilik qilishga harakat qiladilar. Umuman bir necha o'n va yuz yillar davomida ajnabiy yurtlarda yashayotgan millatdoshlarimizning psixologik xususiyatlarni ilmiy asosda o'rganish tadqiqotchiga muhim ma'lumotlar berishi mumkin.

Etnik birlik kattarok va kuchliroq etnos qurshovida qolganda yoki tazyiqqa uchraganda, etnik ong an'anaviy moddiy va ma'naviy madaniyatning turli shakllariga (til, din, urf-odat, qadimiy qo'shiqlar, milliy kiyim va boshqalarga ta'sir ko'rsatib, etnik xususiyatlarni himoyalashga, saqlab qolishga yordam beradi. Shulardan ko'rinish turibdiki, etnik ong etnik jarayonlarning mahsuli bo'libgina qolmay, shuningdek etnik jarayonning ma'naviy sohasiga ta'sir etuvchi omil rolini o'ynaydi.

Milliy ozodlik uchun kurashayotgan millatdagi milliy ong ezuvchi millatga nisbatan millatchilik ko'rinishida namoyon bo'lishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Zero, milliy o'zini-o'zi anglashning dastlabki bosqichlarida o'z millatining tarixi, buyuk shaxslari bilan faxlanish, uni ko'klarga ko'tarish, o'z ezuvchilari bo'lган millatga qarama-qarshi qo'yish tarzida bo'ladi. Buni biz barcha milliy ozodlik harakatini boshidan kechirgan xalqlar tarixida ko'rishimiz mumkin. Xususan, XX asr boshlarida ijod qilgan *Behbudiy*, *Fitrat*, *Cho'lpon*, *Qodiriy*, *Avloniy* kabi ijodkorlar faoliyati bunga misol bo'la oladi. XX asr 80-yillar oxiri sobiq Ittifoq atalmish imperianing qulashi arafasida buyuk bobomiz Amir Temur nomining tiklanishi, milliy bayroq misoli qo'lda ko'tarilishi, shu bayroq ostida millatni birlashtirish uchun harakat qilinishi bejiz emas edi. Buning uchun bobomiz, hayoti va faoliyati, qahramonliklari haqida yozilgan kitoblar chop etila boshlandi. Tarixiy haqiqat tiklanib, uning jahon tarixidagi o'rniga berilgan baholar bilan millat tanishtirildi, millatning egilgan sha'ni, g'ururi tiklana boshlandi. Alloma bobolarimiz *Buxoriy*, *Yassaviy*, *Naqshbandiy*, *Najmiddin Kubro*, *Zamahxshariy* kabilarning nomlarini xalqqa qaytarilishi, ular yaratgan asarlar va kitoblarning chop etilishi kabi jarayonlar millatning o'zini-o'zi tanishini yuqoriqoq bosqichga olib chiqdi.

Afsuski, hozirgi paytgacha fanda individda o'zining etnik birlikka mansubligini anglash, ya'ni etnik ong necha yosdan vujudga kelishligi va bu jarayon qanday bosqichlarda o'tishligi aniqlanmagan. Shveysariyalik psixolog *Jan Piaje* ikki yuzga yaqin bolalarni muayyan vaqt davomida kuzatish va o'rganish orqali ularda hech qanday millatchilik va milliy mansublikni anglash kabi bilim va xususiyatlar bo'lmasligini, ya'ni bolalar o'zlarining eng dastlabki rivojlanish bosqichlarida "internasional" bo'lishligi, etnik xususiyatlar va etnik ong keyinchalik ma'lum ta'lum-tarbiya va ijtimoiy muhit orqali shakllanishini aniqlagan. Bizning fikrimizcha, bolalar o'zlarining u yoki bu etnik birlikka mansubliklarini, avvalo, ota-onalarining qaysi etnik birlikka mansubliklarini anglash orqali bilib oladilar. Ota-onalari turli millatga mansub bo'lган bolalar ota-onalaridan birining millatini qabul qiladi. Bu esa shu oila yashayotgan

mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, madaniy-maishiy kabi bir qancha vaziyatlarga bog'liq bo'ladi. Ko'pincha bunda etnik vaziyatlar, ota-onas mansub bo'lgan etnoslarning son nisbati ham muhim rol o'ynaydi.

### *17.2. Milliy psixologiya*

#### *va uni o'rganish usullari*

Milliy psixologiya odatda psixologik

darsliklar va ayrim lug'atlarda **etnik psixologiya**

doirasida va aynan shunday atama vositasida o'rganiladi.

Milliy mansublikni anglash, insonning butun umri davomida saqlanib, boshqa yurtlarda yashayotganda ham unutilmaydi. Aksincha, o'z etnik guruhini, yurtini sog'inish, qo'msash sifatida namoyon bo'ladi. Shaxsning xulq-atvorlariga va boshqa ruhiy xususiyatlariga ta'sir etib turadi.

Etnik psixologiyaga aloqador dastlabki yozuvlar qadimgi tarixiy hamda geografik asarlarda qayd etilgan bo'lib, ularda mualliflar qadimiy xalqlarning o'ziga xos spesifik qirralarini millat qiyofasi sifatida talqin etganlar. Faqat XIX asrga kelibgina etnografiya va antropologiya kabi fanlarning rivojlanishi munosabati bilan etnik psixologiya mazmuniroq bo'lib, tizimli o'rganila boshlandi. Odatda olimlar etnik psixologiyaning asosiy muammolari sifatida quyidagilarni ko'rsatadilar:

- 1) insonlar amalga oshiradigan faoliyat tipi bilan ularni qurshagan madaniy muhit va ustivor madaniyatning o'zaro bog'liqligi;
- 2) etnik uyushmalar (guruhlari) a'zolarining ijtimoiy xulq-atvori va psixikasidagi xususiyatlar, ularning o'zaro bog'liqligi;
- 3) milliy o'zini-o'zi anglash va milliy stereotiplarning tabiatи, ular bajaradigan funksiyalar va o'zgarishiga oid qonuniyatlar.

Yuqorida muammolar avvalo ularni empirik jihatdan tadqiq etishni, bunda ishonchli usullardan foydalanishni talab qilsa, ikkinchi tomondan, milliy psixologiyaning xususiyatlarini o'rganish uchun predmetlararo muvofiqlik va hamkorlikni talab qildi. Chunki etnik psixologiya shu qadar nozik va murakkab ijtimoiy xulq shakli, uni ayrim olingan bitta fan doirasida mukammal o'rganishning iloji yo'qligini olimlar hamisha ta'kidlaydilar. Ya'ni,

etnopsixologiyaning serqirra muammolarini faqat ijtimoiy psixologiya fani doirasidagi o'rganish mumkin emas.

Ushbu muammolar hozirda, ya'ni mustaqil O'zbekiston sharoitida, ko'pgina tadqiqotchilarни qiziqtirayotgan masaladir. Chunki davr etnopsixologiyadan shunday empirik ma'lumotlar kutmoqdaki, u faqatgina milliy ongga taalluqli bo'lган hozirgi va o'tmishdagi holatni emas, balki millatning ertangi kunini, uning ongi qaysi tomonga o'zgarishini, millatlararo sodir bo'ladigan jarayonlarni bashorat qilmog'i lozim. Buning uchun esa unga kuchli etnopsixologik nazariya va ishonchli metodlar kerak. O'zbekiston olimlari oxirgi paytlarda masalaning xuddi ana shu tomoniga katta e'tibor bermoqdalar. Chunki sobiq Ittifoq sharoitining o'zi ana shunday kuchli nazariyaning bo'lishi uchun anchagina to'g'anoq bo'lган, empirik tadqiqotlar esa, avval ta'kidlaganidek, tor guruhlar doirasidan, avvalo, oilalar doirasidan chiqmagan edi.

### **Bob yuzasidan tayanch iboralar**

Milliy ong, attityud, steriotip, etnik ong, millatning birligi, millatning jipsligi, milliy til, qadriyat, milliy ozodlik.

### **Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Etnik taraqqiyotda milliy ongning shakllanishi qanday kechadi?
2. Etnik ong nima?
3. Millat mayjudligi qanday asosiy omillarga bog'liq?
4. Milliy o'zini-o'zi anglash qaysi omillar ta'sirida shaklanadi?
5. Milliy o'zini-o'zi anglashda kimlar asosiy rolni o'ynaydi va qay tarzda?
6. Milliy psixologiya nima va uni qanday qilib o'rganish mumkin?
7. Olimlar etnik psixologiyaning asosiy muammolari sifatida nimalarni ajratib ko'rsatadilar?

### Bibliografiya

1. Крысько, В.Г. Этническая психология: учебник для бакалавров / В.Г. Крысько. – 10-е изд., перераб. и доп. – М. : Издательство Юрайт, 2016 – 359 с.
2. Этнопсихология: Учебник для студентов вузов / Т.Г. Стефаненко. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: ЗАО Издательство «Аспект Пресс», 2014. – 352 с.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
4. Вильгельм В. Проблемы психологии народов. – СПб.: Академический проект, 2011. – 136 с.
5. Халилова С.Х. Проявление личностных особенностей представителей этнических групп в условиях межэтнического взаимодействия: на материалах исследования представителей азербайджанской, чеченской, армянской, узбекской, таджикской, украинской и татарской этнических групп: Дис. ... канд. психол. наук.: 19.00.01/19.00.05. – Казан: КазГУ, 2010. – 182 с.
6. Маматов М.М. Этнопсихология. – Т.: НУУз, 2006. – 120 с.
7. Аронсон Э. Общественное животное. Введение в социальную психологию. – М.: Прайм-ЕвроЗнак, 2006. – 416 с.
8. Мурзаев, М.С. Влияние межличностных контактов на динамику этнических стереотипов: Дис. ... канд. психол. наук.: 19.00.05. – М.: МГУ, 2003. – 112 с.
9. Маматов М.М. Психический склад наци и его особенности. – Т.: 1980. – 128 с.

## XVIII BOB

### ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNI MADANIYATDA NAMOYON BO'LISHI VA OMMAVIY MADANIYATNING MILLATGA KO'RSATADIGAN TA'SIRI

#### 18.1. Etnosentrizm, etnik stereotiplar va madaniyat masalalari

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, biror bir xalq, millat va elatning mushtarakligini anglatish uchun etnopsixologiyada etnos iborasi ishlataladi.

Sixologlar ushbu iborani turli millat vakillari o'rtasidagi muayyan farqlarni tushuntirish maqsadida ishlata dilar. Millat yoki milliylik esa biror insonning u yoki bu millat vakili yoki muayyan mamlakatning vakili sifatidagi xususiyatlarini tavsiflash maqsadida qo'llaniladi. Mamlakatdagi yashovchi insonlar qaysi millat vakili bo'lishidan qat'iy nazar ushbu mamlakatdagi madaniyat va madaniy qadriyatlarning egalaridir.

Turli millat va elat vakillari o'rtasidagi farqlarning mavjudligi fanda aniqlangan fakt. Mana shu farqlar mavjudligi o'z navbatida ba'zan muayyan muammolarni keltirib chiqaradi. Ya'ni, har bir millat vakili boshqa bir millat vakili bilan muloqot qilganda, yoki uning madaniyatini, milliy qadriyatlarni o'rganganda, ularga nazar solganda, tabiiy bir holat yuz beradi. O'zgalar madaniyatini baholash jarayonida o'zidagi qadriyatlар, o'z madaniy boyliklari, afzalliklari va bilgan narsalarini o'zgalarni tushunish uchun vosita sifatida ishlata boshlaydi. Masalan, konkret vaziyatda biror o'zga millat vakilining xulq atvorini tavsiflash uchun o'zimizning madaniyatimiz nuqtai nazaridan solishtirib baholaymiz. Shunday sharoitlarda biz ochig'i hamisha ham unga nisbatan xolis, ob'yektiv bo'la olmaymiz. Chunki uning madaniy qadriyatlarni bilmagan holda o'zimizning bilganlarimizni unga qo'shib (yoki ayirib) fikr yuritamiz. Chunki baribir o'zimiznikini yaxshiroq bilamiz va o'zgalarni bilmasligimizni bo'yinimizga olgimiz kelmaydi. Shu tariqa etnopsixologiyada ishlataladigan va o'rganiladigan "etnosentrizm" hodisasiga duch kelamiz. Olimlar etnosentrizmni "atrofdagilarning

xulq atvorini shaxsiy madaniy filtrlari orqali o'tkazib, tushuntirish va bayon etish<sup>30</sup>dir deb ta'riflashadi. Aynan shu holatni barcha boshqa millat vakillari bilan muloqot qilganda nazarda tutish lozim ekanligi ta'kidlanadi.

Psixologik lug'atlarda<sup>31</sup> "*Etnosentrizm* – o'z etnik guruhi va unga oid xulq andozalarini amalda boshqalarga baho berish uchun asos sifatida qabul qilishning namoyon bo'lishidir" deyiladi. Bunda inson o'z millatiga tegishli xulq standartlarini o'zgalarnikidan ustuvor etib qo'yishga intiladi. Ya'ni, etnosentrizm amalda begona madaniyat va tuzum, millat vakillariga nisbatan noxolis munosabatning shakllanishishini izohlash uchun qo'llaniladigan tushunchadir. Bu tushuncha mohiyatan shaxsga xos bo'lgan egosentrizmning etnik analogidir.

Professor G.Andreyeva etnosentrizmni "o'z etnik guruhining qadriyatlarini afzal bili, boshqa holatlarni aynan shu nuqtaiinazardan turib baholash, o'zining milliy sifatlarini ta'kidlashga intilish"<sup>32</sup> tarzida ta'riflaydi. T.Stefanenko esa, "etnosentrizm har doim ham o'zga millatlarning qadriyatlarini kamsitishni nazarda tumaydi, chunki u o'zgalarga nisbatan hayrihoxlik va toqatn ham nazarda tutadi"<sup>33</sup>, deb ogohlantiradi.

Shu o'rinda savol paydo bo'ladi: ho'sh, etnosentrizm salbiy holatmi yoki ijobiymi? Fikrimizcha, ushbu masalaga tolerantlilik nuqtai nazaridan yondashmoq lozim. Birinchidan, o'z milliy madaniyatini, qadriyatlarini, milliy o'zligini bilish aslida pozitiv holat. Ikkinchidan, boshqa o'zga madaniyat vakillarining madaniy qadriyatlarini to'la bilmasligimiz va bila olmasligimiz ham tayin gap. Uchinchidan, etnosentrizmni millatchilik yoki milliy manqurtlikka tenglashtirish ham xatodir. Demak, biz avvalo yuqorida olimlar ta'kidlagan "filtr"imizning toza bo'lishi uchun kurashishimiz va uni juda yuqori qo'yib yuborishdan saqlanishimiz lozim. Chunki o'zgalar bilan munosabatda faqat o'zimiznikini ta'kidlab, o'zgalarni bilmaganimiz bois kamsitish bu millatchilikka va milliy adovatga olib kelishi muqarrar.

<sup>30</sup> Мацумото, Д. Человек, культура, психология. Удивительные загадки, исследования и открытия / Дэвид Мацумото. – СПб: Прайм-ЕВРОЗНАК, 2008. – 56 с.

<sup>31</sup> Большой толковый психологический словарь \ Артур Ребер. Том 2: П-Я. - М.: Вече-Аст, 2003 – С.523

<sup>32</sup> Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник для высших учебных заведений / Г.М. Андреева. – М.: Аспект Пресс, 2017. – 363 с.

<sup>33</sup> Этнопсихология: Учебник для студентов вузов / Т.Г. Стефаненко. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: ЗАО Издательство «Аспект Пресс», 2014. – 352 с.

Etnosentrizm fenomeni ikkinchi bir tushuncha - stereotiplar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. *Stereotiplar* – bu u yoki bu guruh a'zolari ongida, tasavvurlari va ustakovkali mujassam bo'lib, qotib qolgan shunday ong mahsullariki, ulardan shu guurh a'zolari avvalo o'zlarini, qolaversa, o'zgalarni baholashda tayyor "qoliplar" sifatida foydalanadilar. Amerikalik *E.Aronson* stereotiplarga tavsif berarkan, ularning muayyan ijtimoiy guruhning barcha vakillarida bor bo'lgan sifatlar tarzida e'tirof etilishi, shu bilan birga aslida har bir guruhning alohida a'zosida o'zgia xos xususiyatlar mavjudligini inkor qilinishini ta'kidlaydi<sup>34</sup>. Aynan bu holat aslida bizning fikrimizcha, etnosentrizmni keltirib chiqaradi. Chunki stereotiplar real, konkret sifatlar asosida shakllangan bo'lishi muqarrar, masalan, o'zbeklarning soddaligi – bor narsa. Lekin hamma mutloq shunday deyish ham – noto'g'ri, uning yoniga yana boshqa sifatlarni uydurma sifatida tirkash undan ham noto'g'ri tasavvurlarni hosil qiladi. Ayniqsa, o'zga millat vakillari, o'zimizni ham baholaganda, "yaxshi-yomon", "to'g'ri-noto'g'ri", "yuqori - past" kabi dixotomiyalardan, solishtirishlardan ogoh bo'lish lozim.

Shunday qilib, *etnik stereotiplar* nisbatan barqaror psixologik tuzilmalar bo'lib, turli etnik guruh vakillarining axloqiy, aqliy, jismoniy, shaxsiy xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarini ifodalaydi. Etnik stereotiplarning mazmunida odadta o'zgalarga muayyan sifatlarni qo'shib aytish, bayon etish xos bo'ladi. Shu nuqtai nazardan olimlar etnik stereotiplarni ikkita toifaga bo'ladilar:

- etnik avtostereotiplar;
- etnik geterostereotiplar.

*Avtostereotiplar* – muayyan etnik guruh a'zolarining o'z qavmi, ya'ni, etnik guruhiga nisbatan shakllangan fikrlari, baholari, munosabatlaridir. Odadta avtostereotiplar mazmunan ko'proq ijobjiy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

*Geterostereotiplar* aksincha, o'zga millat va elat vakillari to'risidagi baholar, munosabat va qarashlar bo'lib, ular ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida

<sup>34</sup> Аронсон Э. Общественное сознание. Введение в социальную психологию. – М.: Прайм-Европа, 2006. – 416 с.

xalqlarning o‘zaro hamkorlik munosabatlari xarakteriga ko‘ra ham ijobiy, ham salbiy bo‘lishi mumkin.

Etnik stereotiplarning mazmunida eng o‘zgarmas va barqaror tuzilma – bu u yoki bu baholanayotgan millatning:

- tashqi qiyofasi (tog‘li xalqlarga nisbatan ularning basavlat, sog‘lom bo‘lishi);
- tarixan kelib chiqishi (masalan, tarixan millatning hamisha g‘olib kelishi);
- turmush tarzi (ko‘ngliochiq yoki jangari);
- mehnat malakalari (mehnatkash yoki tanbal);
- muloqandmandlik sifatlari (ochiq, kirishuvchan yoki tunt);
- axloqiy jihatlari (andishali) kabilardir.

Shu kabi sifatlarning (ijobiy yoki salbiy stereotiplar) o‘zgarishi eng avvalo shu xalqlar o‘rtasida ma’lum, vaqtarda o‘zaro bordi-keldi va shaxslararo aloqalarning o‘zgarishi, yaxshi yoki taranglashishiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, shoxlar va davlat rahbarlarining siyosiy qarashlariga mos ravishda boshqa aloqalar (savdo-sotiqlar, madaniy, diplomatik)ning zavol topishi millat vakillari ongidagi o‘sha barqaror stereotiplarni “o‘chirishi” (vaqtincha bo‘lsa ham) mumkin. Masalan, bir umr biri biridan qiz olib, qiz berib yurgan, quda-andachilik rivojlangan bo‘lishiga qaramay, birdan – g‘anim millatning qizlari “unchalik yaxshi bo‘lmay qolishi” ham mumkin.

Shunday qilib, etnik stereotiplarni hamisha ham xolis, ob‘yektiv deyish qiyin. Etnik stereotiplarning barqarorlashuvidan ayrim xalqlar cho‘chiydilar ham. Shuning uchun amerikaliklar turli millat vakillaridan iborat jamiyatni “demokratiya jamiyatini” deb atab, millatlarni ham yagona “amerika millati” deb ataydilar. Bu ularning fikricha, etnik stereotiplarga barham berarmish. Lekin oddiy xalq hech qachon o‘z ildizlarini unutishni xohlamagandek, etnik stereotiplardan ham xoli bo‘la olmaydi. Chunki bora-bora etnik stereotiplar mustahkam va harakatchan, ya’ni, anchagina dinamik xarakterga ega bo‘lgan etnik ustakovkalarning shakllanishiga ham turtki beradi.

### 18.2. Etnopsixologiyada

#### folkloarning o'rni

Etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishda folklor ham ma'lum ahamiyat kasb etadi.

Qadimiy afsona va rivoyatlarni xalq o'zining butun tarixiy taraqqiyoti davomida, turli ijtimoiy ukladlar davrida yaratadi. Shuning uchun xalqning bugun kechmishi, uning xohish-istiklari, kelajak bilan bog'liq buyuk orzulari, fikr-tuygulari, axloqiy va ijtimoiy tushunchalari, yashash uchun olib borgan ko'p asrlik tajribalarini o'zida mujassamlashtirgan folkloرنi o'rganish shu xalqning psixologik qiyofasini vujudga kelishi yo'llarini tushunishga yordam beradi. Milliy madaniyat va milliy psixologiyaning xususiyatlari, uning ichki emotsiyal tomonlari maqol va matallarda, o'hshatish va nutqda yaqqol namoyon bo'ladi.

Har bir xalq o'zining o'tkir maqollariga, tasviriy iborasiga ega. Tildagi bu tasvirlilik bevosita xalqning hayoti va maishiy turmush tarzi, uning tarixi va tabiatini bilan bog'liq bo'ladi. Bu yerda xalq borliqni o'ziga xos ravishda idrok etuvchi san'atkor sifatida namoyon bo'ladi. Maqol va matallar, hikmatli gaplar bir necha asrlar, necha avlodlarning aql-zakovat chig'irigidan o'tib sayqallangan xalq donoligidir. Ajdodlarimiz yaratgan hikmatli gaplar necha avlodlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirib kelgan.

O'zbek xalqiga xos bo'lgan keksalarni hurmat qilish, mehmondo'stlik, mehnatsevarlik kabi xususiyatlar ular yaratgan ko'pgina maqollarda o'z aksini topgan. Masalan, ota-onasi va keksalarni hurmatlash to'g'risida yaratilgan maqollar: "Otalar so'zi – aqning ko'zi", "Qarisi bor uyning parisi bor", "Qari bilganni pari bilmaydi", "Yosh kelsa ishga, qari kelsa, oshga", "Oltinniig eskisi bo'lmas, ota-onaning bahosi" va shu kabi.

Yoki mehmondo'stlikka doir maqollar va matallar ham ko'p: "Mehmon otangdek ulug'", "Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan", "Mehmonga osh qo'y, ikki qulini bo'sh qo'y", "Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lzin" va shu kabi. Mehnatsevarlikka doir:

"Elga xizmat – oliy himmat;

Ish ishtaha ochar, dangasa shundan qochar.

Mehnat, mehnatning tagi – rohat;

Yaxshidan bog‘ qolar, yomondan dog‘ qolar;

Oltin o‘tda, odam mehnatda sinaladi.

Milliy tuyg‘ular, kayfiyat va temperament ayniqsa, milliy raqslarda va musiqada yorqin namoyon bo‘ladi. Ayni san’atning shu turlarida, ayrim tadqiqotchilar aytgan “qulga tushmas” va “anglash qiyin bo‘lgan” etnopsixologik xususiyatlar “mana, men”, deb ko‘zga yaqqol tashlanadi. Zero, rus xalq kuyini hind musiqasidan, yoki o‘zbek raqsini ukrain xalq raqsidan farqlash uchun san’at sohasida chuqr bilimga ega bo‘lish shart emas.

Etnopsixologik xususiyatlar xalq hayotining butun borlig‘ida namoyon bo‘libgina qolmasdan, shuningdek, shu millatga mansub bo‘lgan shaxslarning kundalik muomalasida, xatti-harakatlarida ham ma’lum darajada o‘z ifodasini topadi. Chunki har bir inson bolasi ma’lum bir Vatan farzandi, shaxs sifatida muayam bir jamiyat mevasidir. Bizning dunyoni bilishdagi turli-tuman tasavvur va tushunchalarimiz ham shu jamiyatnipg va etnik muhitning bizga ko‘rsatayotgan ta’siri ostida vujudga kelgan. Mana shu o‘ziga xoslikni o‘rganish va tushuntirib berish etnopsixologiya fanining asosiy vazifalaridandir.

### 18.3. Etnik ustyanovkalar

*Etnik ustyanovkalar* – bu shaxsdagi yoki

muayyan millat vakillaridagi millat hayoti va

turmush tarzini, undagi qadriyat va normalarni, millatlararo munosabatlarni ma’lum tarzda idrok qilish va qabul qilishga, tushunishga ruhiy tayyorlik bo‘lib, u ushbu ustyanovkaga, ya’ni ruhiy hozirlikka mos holda millatlar bilan munosabatda o‘zini u yoki bu tarzda tutadi. Masalan, biror millat vakilining aqliy-intellektual salohiyati haqida unda ijobiy ustyanovka shakllangan bo‘lsa (masalan, “hamma yahudiylar aqqli” yoki “barcha o‘zbeklar mirishkor” tarzda) kim bo‘lishidan qat’iy nazar, ushbu millat vakillariga nisbatan aynan shu sifatlarni idrok qilishga moyillik bo‘ladi, yahudiyning hamma ishi “aqlli”, o‘zbekning bog‘i hamisha mevaga to‘liqday tuyulaveradi. Vaholanki, ikkila sifat ham birinchidan, barcha millat vakilida bo‘lishi mumkin, ikkinchidan, aynan shu millatning barcha vakili ham aqlli yoki mirishkor bo‘lavermaydi.

Shu nuqtai nazardan etnopsixologiyaning va psixologlarning vazifasi shu kabi etnik ustanovkalarning shaxsda shakllanib, e'tiqod darajasida o'rmaishib qolishining shart-sharoitlarini o'rganish va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun amaliy ishlarni yo'lga qo'yishdir. Chunki etnik ustanovkalarning xulqda barqaror mavjudligi ba'zan etnik nizolarni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Shunday qilib, u yoki bu millat vakillarining psixologik xususiyatlarini o'rganishda ular yashaydigan madaniy muhitga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Chunki madaniyat tushunchasida millatning yashash va turmush tarzi bevosita aks etadi. Bu holat o'z navbatida millat vakillarining psixologiyasida, dunyoqarashlarida, ijtimoiy xulqida namoyon bo'luchchi bir-biriga yaqin va o'hshash bo'lgan ustanovkalar, tasavvurlar, qadriyatlarni shakllantiradi. Agar u yoki bu qadriyat yoki udum bir avlod doirasida namoyon bo'lgan bo'lsa, u hali madaniy qadriyat deyilmaydi. Bunday bo'lishining asosiy sharti – bu uning avloddan-avlodga o'tishi, avlodlar va ajdodlararo vorislikning mayjudligidir. Agar bir millatning urf-odatlari, qadriyatları, udumlari, an'analarida tarixiy mantiq va milliy manfaat bo'lmasa, u madaniyatning ajralmas bo'lagiga aylanmaydi. Madaniyatning mavjudligi, uning tarkibiy qismlarining barqarorligi millatning qiyofasini shakllantiribgina qolmay, balki xalq vakillariga muayyan qulayliklar yaratadiki, xalq ulardan tayyor meros sifatida, ba'zan esa stereotiplar sifatida foydalanadi. Madaniyat va uning qadriyatlarining shaxs kamolotidagi, uning shakllanishidagi ahamiti ham shunda.

### **Bob yuzasidan tayanch iboralar**

Etnosentrizm, etnik stereotiplar, madaniyat, milliylik, etnik stereotip, avtostereotip, geterostereotip, etnik ustanovkalar.

### **Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Etnosentrizm, etnik stereotiplar va madaniyat masalalarini o'zaro farqini qanday izohlaysiz?
2. Etnopsixologiyada folkloarning o'mi qanday?

3. Etnik ustanovkalar deganda nimani tushunasiz?
4. Etnik ustanovkalar shakllanishi qaysi omillarga bog'liq?
5. Millat vakillarining psixologik xususiyatlarini o'tganishda nimalarga e'tibor berish lozim?
6. Madaniyat tushunchasi sizning talqiningizda.
7. Shaxs xulqida etnik ustanovkalar barqaror salbiymi yoki ijobjiy?

### Bibliografiya

1. Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник для высших учебных заведений / Г.М. Андреева. – М.: Аспект Пресс, 2017. – 363 с.
2. Крысько, В.Г. Этническая психология: учебник для бакалавров / В.Г. Крысько. – 10-е изд., перераб. и доп. – М. : Издательство Юрайт, 2016 – 359 с.
3. Этнопсихология: Учебник для студентов вузов / Т.Г. Стефаненко. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: ЗАО Издательство «Аспект Пресс», 2014. – 352 с.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o'quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: "Fan va texnologiya", 2012. – 172 b.
5. Вильгельм В. Проблемы психологии народов. – СПб.: Академический проект, 2011. – 136 с.
6. Халилова С.Х. Проявление личностных особенностей представителей этнических групп в условиях межэтнического взаимодействия: на материалах исследования представителей азербайджанской, чеченской, армянской, узбекской, таджикской, украинской и татарской этнических групп: Дис. ... канд. психол. наук.: 19.00.01/19.00.05. – Казан: КазГУ, 2010. – 182 с.
7. Мацумото, Д. Человек, культура, психология. Удивительные загадки, исследования и открытия / Дэвид Мацумото. – СПб: Прайм-ЕВРОЗНАК, 2008. – 56 с.

8. Маматов М.М. Этнопсихология. – Т.: НУУз, 2006. – 120 с.
9. Аронсон Э. Общественное животное. Введение в социальную психологию. – М.: Прайм-ЕвроЗнак, 2006. – 416 с.
10. Мурзаев, М.С. Влияние межличностных контактов на динамику этнических стереотипов: Дис. ... канд. психол. наук.: 19.00.05. – М.: МГУ, 2003. – 112 с.
11. Большой толковый психологический словарь \ Артур Ребер. Том 2: П-Я.- М.: Вече-Аст, 2003 – С.523

## GLOSSARIY

3

**Abuliya** – eng oddiy, osongina masalalar bo'yicha ham ma'lum qarorga kelish qobiliyat yo'qligida namoyon bo'ladigan o'ta irodasizlik.

**Agressiv tip** – o'zgalar bilan muloqotdan hamisha mansaattor, boshqalardan doimo ustun bo'lishlari kerak bo'lgan, janjallashishdan ham toymaydigan tip.

**Animizm** – (lotincha anima - jon) – ibtidoiy odamlarning atrofdagi narsa va hodisalar haqidagi fan taraqqiy etguncha bo'lgan tasavvurlari. Animistik tasavvurlarga ko'ra har bir narsaning o'z ruhi, o'z joni bor, tabiat kuchlari va hodisalarini jondantirishdan iborat diniy e'tiqod. Animizm O'rta Osiyo xalqlarida, ayniqsa, o'zbek, tojik, qirg'iz dindorlarida "pir" ma'nosida ishlataladi. Shunga ko'ra har bir narsaning o'z "piri" bo'lgan.

**Anketa** – oldindan tayyorlangan savollar asosida javob olish uchun tayyorlangan varaqo.

**Autogen mashq** – o'z-o'zini ishontirish va o'z-o'zini idora qilishga asoslangan psixoterapevtik usul.

**Axborot orqali ta'sir ko'rsatish mexanizmi** – asosli yoki asossiz, o'rinli yoki o'rinsiz axborot yetkazish orqali ommaning ongini boshqarish.

**Axborot urushi** – bu gumanitar sohada bir ijtimoiy guruhning boshqa bir ijtimoiy guruh manfaatlardan qat'iy nazar uni o'ziga tobe qilish, o'z qadriyatlariga ko'ndirishga qaratilgan uzoqni ko'zlagan siyosati.

**Axborot xavfsizligi** – aslida jamiyatning ob'yektiv, xolis, haqqoniy axborot manbaiga ega bo'lishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar.

**Axborot xurujlari** – bu shaxsga, muayyan tashkilot va davlatga yo'naltirilgan ta'sir bo'lib, uning asl maqsadi o'sha shaxs, tashkilot va davlatning normal hayot tarzining buzilishini nazarda tutgan siyosiy va ijtimoiy guruhlarning g'arazli niyatlaridan kelib chiqadi.

**Axborot-psixologik quroq** – bu yangi turdag'i quroq bo'lib, u ommaviy axborot vositalari, kompyuter o'yinlari, Internet tizimi yordamida inson ongi orqali uning psixikasiga ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan.

**Barkamol shaxs** – unda ichki tuyg'ular, motivlar, istaklar bilan tashqi xatti-harakatda ziddiyat bo'lmaydi, dilidagi bilan tilidagi mos, aytganini qiladigan, lavzli, vijdonli, imon-e'tiqodli inson.

**Begonalashgan tip** – o'zglaardan uzoqroq yurish ma'qul bo'lgan, guruhlarda ishlashdan ko'ra yolg'iz ishlashni, o'qishni afzal ko'radigan tip.

**Biografik metod** – kishini uning tarjimai holi bilan bog'liq, bo'lgan xujjatlar orqali o'rghanish usuli.

**Boshqarish psixologiyasi** – boshqaruva faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni, shaxs va shaxslar guruhi tomonidan boshqa guruhlari faoliyatini samarali tashkil etish va birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini o'rghanadigan tarmoq.

**Determinizm** – tabiatdagi barcha narsalar, shu jumladan psixik hodisalarining ro'y berishi ob'yektiv sabablar va qonunlar bilan belgilanadi deb qarash.

**Dialog** – ikki va undan ortiq kishilarning o'zaro og'zaki gaplashishi.

**E'tiqod** – shaxsning ongiga, imoniga ta'sir ko'rsatish.

**Egosentrizm** – individualizm va egoizmning eng tuban turi.

**Emotsional lider** – guruh ichida hazilkash, dilgir, xushchaqchaq, ko'ngil so'rovchi, o'zgalarni tushuna oladigan.

**Etnopsixologiya** – psixologiya fanlari sohasidan biri bo'lib, odam psixikasining etnik xususiyatlarini, milliy xarakterni, milliy o'zligini anglash, etnik stereotip singari funksiyalarning shakllanish qonuniyatlarini o'rGANADI.

**Faoliyat** – insongagina xos, ong bilan boshqariladigan, ehtiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishiga, uni qayta ko'rishga yo'naltirilgan faolligi.

**Freydizm** – zamonaviy psixologiyaning oqimlardan biri. Unda inson psixikasining asosiy harakatlantiruvchi kuchi ongsiz mayl (jinsiy mayl) deb

hisoblanadi. Bu oqim avstriyalik psixolog va psixiatr Zigmund Freyd nomi bilan atalgan.

**Frikerlar** (ingl. phreakers) – turli xil telekommunikatsiya tizimlarida qo‘poruvchilik bilan shug‘ullanadiganlar.

**G‘azab** – jahl chiqishidan iborat emosional holat. Shaxsning ehtiyojlarini qondirish jarayonida biror-bir to‘sinqqa duch kelanda yuz boradi.

**Genetik metod** – psixik holatlarning paydo bo‘lishi va ularning quyidan yuqoriga qarab rivojlanishi jarayonini o‘rganish usullari.

**Genezis** – biror-bir hodisa yoki narsa rivojlanishi jarayonining qonuniyatlarini aks ettiruvchi tushuncha.

**Global** (lot. Yer shari) – umumiy, borliqni qamrab oluvchi, barchaga ta’luqli.

**Guruh** – bu umumiy belgilar, umumiy faoliyat, muloqot hamda umumiy maqsad asosida birlashgan kishilar uyushmasi.

**Guruhnинг dinamik jarayonlari** – uning shakllanish jarayoni, liderlik va guruhda turli qarorlarni qabul qilish jarayoni, guruhnинг har bir shaxsga ta’siri.

**Hamkorlik** – bu nizoni hal qilishning shunday usuliki, bunda ikkala tomonning shaxsiy manfaatlari nizoni keltirib chiqargan muammodan ustun qo‘yiladi.

**Ichki konformlilik** – individning guruh fikriga to‘lig‘icha qo‘shilish va ruhan qabul qilish.

**Ichki xavfsizlik** – mamlakat doirasida inson konstitusision huquq va kafolatlariga aloqador bo‘lgan iqtisodiy diversiyalarning oldini olish va ularga yo‘l qo‘ymaslikka bog‘liq bo‘lgan maxsus choralarini, terroristik xurujlarning oldini olish va ularni vaqtida bartaraf etish, kelib chiqishi bo‘yicha ijtimoiy, tabiiy, biologik hamda texnik asosli tahdidlardan jamiyat a‘zolarini himoya qilish.

**Identifikasiya** – o‘zini axborot egasiga o‘xshatish, uning o‘rniga o‘zini qo‘yish orqali qadriyatlarni rad etish yoki tanqidsiz o‘zlashtirish.

**Ijtimoiy fasilitatsiya** – individning faoliyat mahsullariga uning yonida bo‘lgan boshqa individlarning bevosita ta’siri bo‘lib, bu ta’sir avvalo sensor kuchayishlar hamda ish-harakatlarning, fikrashlarning tezligida namoyon bo‘ladi.

**Ijtimoiy norma** – shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o‘z a’zolari xulq-atvoriga, ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan harakatlarga nisbatan talablar.

**Ijtimoiy psixologiya** – odamlarning jamiyatda hamkorlikdagi ish faoliyatları jarayoni davomida ularda hosil bo‘ladigan tasavvurlar, fikrlar, e’tiqodlar, g‘oyalar, his-tuyg‘ular, kechinmalar, turli xulq-atvor shakllarini tushuntirib beruvchi fan.

**Ijtimoiy sanksiyalar** – normalarning shaxs xulqida namoyon bo‘lishini nazorat qiluvchi jazo va rag‘batlantirish mexanizmlari.

**Ijtimoiy xavfsizlik** – jamiyatda mavjud bo‘lgan turli ijtimoiy institutlar, jumladan, xavfsizlikni ta’minlash organlari, davlat muassalari, oila va mahalla tomonidan aholining turli ehtiyojlari, orzu-istiklari, maqsad-muddaolarini amalga oshirishlariga imkon berish bilan bog‘liq vazifalar.

**Ijtimoiy xulq** – shaxs tomonidan uni o‘rab turgan odamlar, ularning xulq-atvoriga e’tibor berishdan tashqari, o‘zining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirilishi.

**Ijtimoiylashuv yoki sotsializasiya** – shaxsning uni o‘rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta’sirlariga berilishi, uning norma va qoidalarini o‘zlashtirishga moyilligi, o‘zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayon.

**Ijtimoiy-psixologik eksperiment** – bu ijtimoiy hodisalarni o‘rganish. maqsadida tekshiruvchi bilan tekshiriluvchi o‘rtasidagi maqsadga yo‘naltirilgan muloqot.

**Ijtimoiy-psixologik moslashuv** – shaxsning ijtimoiy munosabatlarga ko‘nikishi va moslashishi orqali orttirgan tajribasi umumiy ijtimoiylashuvning bir ko‘rinishidir.

**Impulsiv shaxs** – hamisha hissyotlarga beriluvchan, o‘ylamay gapirish, birovlarini dilini og‘ritib qo‘yish, keyin esa afsuslanish unga xos toifadagi inson.

**Intellektual lider** – guruh a’zolari ichida eng bilag‘oni, aql o‘rgatuvchi, topqir.

**Intervyuirovaniye (intervyu, axborot olish)** – bu ijtimoiy psixologiya metodi bo‘lib, qo‘yilgan savollarga berilgan javob tariqasidagi axborotlarni to‘plash usulidir.

**Introspeksiya** – kishining o‘z-o‘zini kuzatishi.

**Irodaviy lider** – guruhni ish faoliyatga chorlay oladigan, dadil, qat’iyatli, irodali.

**Ishontirish** – biror xulq namunasi yoki fikrga o‘zgalarni deyarli ongsiz va tanqidsiz ergashishiga erishish.

**Jamoa** – maqsadlari jamiyat maqsadiga mos keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan.

**Kompromiss** – bu ochiq muloqot va vaziyatni, nizokashlarning xulq-atvori va fikrlarini muhokama qilish yo‘li bilan ikkala tomon uchun ham ma’qul bo‘lgan yechimni qidirish.

**Konflikt, nizo yoki ziddiyat** – bu ayrim alohida olingan shaxs ongida, yoki shaxslararo muloqot jarayonida, guruh doirasida yoki guruhlararo o‘zaro muloqot va ta’sir paytlarida biror muammo, masala yoki qarashlar borasida bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan, qarama-qarshi fikr, qarash va pozitsiyalarning to‘qnashuvi.

**Konformizm** – (o‘zbek tilida “moslanish” ma’nosini bildiradi), individning guruhda qabul qilinadigan normalar, fikrlar, xulq-atvor standartlarini qanchalik qabul qilish yoki qabul qilmasligi.

**Konversiya** – muloqotdagagi qandaydir to‘sinqalar yoki baryerlarni olib tashlash uchun kutilmagan usullarni qo‘llash, masalan, xavotirli informasiyani yumoristik mavzu bilan almashtirish yo‘li.

**Korrelyasiya** – voqelikdagagi hodisalarining o‘zaro bog‘liqligi yoki eksperimentdan olingan ma’lumotlar va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlar me’yori.

**Krekerlar** (ingl. crackers) – axborot tizimning xavfsizligi ataylab buzib, ruxsatsiz unga o‘zgartirish kiritish bilan shug‘ullanadigan insonlar.

**Kuzatish** – psixologiya metodlaridan bo‘lib, kishining xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan turli hodisalarни hisobga olish va sub’yektiv psixik hodisalar to‘g‘risida fikr olishdan iborat.

**Makro muhit** – bu inson umri o‘tadigan va hayoti mobaynida unga ta’sir etadigan tabiiy, ijtimoiy va ijtimoiy shart-sharoitlar majmui.

**Mehnat** – odamning ma'lum maksadga, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun borliqni bilish va uni qayta ko'rishga, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyat.

**Men-obrasi** – shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz.

**Mentalitet** – psixik xususiyatlar, sifatlar va jarayonlarning o'ziga xos tuzilishi, yig'indisi, shaklini anglatuvchi umumlashgan tushuncha.

**Milliy mafkura** – xalqning maqsad-muddaolarini ifodalaydi, tarix sinovlaridan o'tishda uning ruhini ko'tarib, suyanch va tayanch bo'ladi, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko'plab hayotiy va ma'naviy muammolarga javob izlaydi.

**Milliy xavfsizlik** – bu shaxs, jamiyat, iqtisodiyot va davlatchilikning barqaror taraqqiyot etishi uchun xavf solishi mumkin bo'lgan har qanday tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimi.

**Motivasiya** – odamni faollikka undovchi sabablar majmui.

**Muloqot** – odamlarning birgalikdagi faoliyatları ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayoni.

**Muomala madaniyati** – bu o'rinni, aniq, qisqa, samimiy gapirish san'ati va ikkinchi tomondan, suhbatdoshni tinglash qobiliyati.

**Negativizm** – individning har qanday sharoitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o'zicha mustaqil fikr, mavqeni namoyon qilishi.

**O'rgatuvchi yoki shakllantiruvchi eksperiment** – psixologiya metodi bo'lib, bu metod orqali shaxsda zaruriy psixik jarayon yoki sifatlar rejali ravishda shakllantiriladi.

**O'z-o'zini kuzatish** – bunda sub'yeqtning o'z psixik holatlari bilan o'z xatti-harakatlarini o'rganishdan iborat metod.

**Ochiqdan ochiq yuz beradigan nizolar** – odatda tortishib qolgan shaxslarning to'g'ridan-to'g'ri, bevosita xatti-harakatlari tarzida namoyon bo'ladigan nizo.

**Proyeksiya** – o‘zidagi hissiyot va kechinmalarni tashqi ob’yeqtarga ko‘chirish orqali paydo bo‘lgan holatning sabablarini tashqaridan qidirishga moyillik.

**Psixologik himoya** – shaxs ichki kechinmalarini ifodalovchi shunday holatki, unda odam ichki ruhiy mo’tadillikni asrash uchun o‘zidagi xavotirlanish, qo‘rquv va hadiksirashlarini bosishga, ulardan xalos bo‘lishga intiladi.

**Psixologiya metodlari** – psixik hodisalarini va ularning qonuniyatlarini ilmiy tomonidan o‘rganishning asosiy yo‘l-yo‘riq va usullari.

**Raqobat** – odatda bir tomonning ikkinchisi ustidan ustun kelishi hisobiga boshqasining batamom yengilishini nazarda tutadi.

**Rasionalizasiya** – mulohaza va fikr yuritish orqali o‘zida himoya instinktlarini paydo etish.

**Rasmiy guruh** – har bir a’zolarning rasmiy rollarga ega ekanligi, ular mavqeining va guruhda tutgan o‘rnining aniqligi bilan xarakterlanadi.

**Refleksiya** – muloqot jarayonida suhbatdoshning pozitsiyasidan turib, o‘zini tasavvur qilishdir, ya’ni refleksiya, boshqa odamning idrokiga taalluqli bo‘lib, o‘ziga birovning ko‘zi bilan qarashga intilish.

**Regidlik** – (lot. Qotib qolgan) (psixologiyada) xulq-atvorning turlaridan biri.

**Regressiya** – ilgari hayotida, masalan, yoshligida bo‘lib o‘tgan qaysidir voqelarga qaytish, ularning yaxshi va ma’qullarini yana xotirada tiklash va xulqda qaytarish orqali o‘zida psixologik himoya yoki oqlovni tashkil etish.

**Rol** – shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning aniq bir hayotiy vaziyatlardagi xuquq va burchlaridan iborat harakatlari majmui.

**Shaxs va guruh o‘rtasida sodir bo‘ladigan nizolar** – odatda bir shaxs qarashlari, xatti-harakatining u mansub bo‘lgan yoki ishi tushgan guruhning normalari, xulq-atvor maromlariga zid kelishi, shaxs kutishlarining guruh normalaridan og‘ishi.

**Shaxsiy munosabat** – psixologiya qoidalaridan bo‘lib, odamga shaxs tariqasida, uning voqelikni aks ettiruvchi va barcha psixik hodisalarini belgilab beruvchi sistema ekanligini tushungan holda yaqindan yondashish.

**Shaxslararo nizo** – bir yoki bir necha konkret shaxslarning o‘zaro yoki guruh doirasidagi ziddiyat.

**Shaxsning o‘ziga aloqador bo‘lgan ichki nizolar** – asosan bir inson qalbidagi turli his-kechinmalar, istak-hoxishlar va motivlarning bir biriga zid kelishi, qarama-qarshi fikrlarning paydo bo‘lishi oqibatida yuzaga keluvchi nizo.

**Stereotipizasiya** – odamlar ongida muloqotlar mobaynida shakllanib o‘rnashib qolgan, ko‘nikib qoltingan obrazlardan shablon sifatida foydalanish hollari.

**Stimul** – reseptorlarda qo‘zg‘alishni vujudga keltiradigan tashqi ichki ta’sirdir.

**Suhbat** – psixologiya metodlaridan biri bo‘lib, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bilvosita ma’lumot olishdan iborat.

**Sun’iy aql** – bironqa odam yoki bir guruh kishilar bajara oladigan murakkab aqliy funksiyalarni bajaradigan sun’iy yaratilgan qurilma.

**Ta’sirlanish** – bir shaxs hissiy-emotsional holatining o‘zga bir shaxsga uzatilishi jarayoni.

**Tabiiy eksperiment** – tekshiriluvchini o‘ziga bildirmagan holda uni o‘yin, o‘qish va mehnat faoliyatida o‘rganishdan iborat psixologik tajriba.

**Taqlid qilish** – biror xulq namunasi yoki turmush tarziga ergashish.

**Tashqi konformlilik** – individning guruh fikriga nomigagina qo‘shilishi, aslida esa ruhan u guruhga qarshi turishi.

**Tekislash** – bu nizolashuvchi tomonlardan birini mavjud holatga “ko‘ndirish”, moslashtirish va shu yo‘l bilan o‘zining ham muayyan manfaatlarini himoya qilish.

**Test** – qisqa sinov usuli.

**Test** – standartlashtirilgan psixologik sinov bo‘lib, buning natijasida u yoki bu xildagi psixik jarayonni baxlashga yoki shaxsni bir butunligicha o‘rganishga qaratilgan usul.

**Til** – shaxslar o‘rtasida aloqa vositasi bo‘lib, uning yordamida kishilar bilgan ma’lumotlari, axborotlar, g‘oyalarni bir-birlariga yetkazuvchi.

**Ustanovka** – sub'yekearning yaxlit bir dinamik holatini, uning qandaydir faollik va harakatlarga tayyorligini bildiradi va asosan ikki omilning ta'sirida namoyon bo'ladi: sub'yekearning ehtiyojlari va muayyan ob'yektiv vaziyatning holati.

**Validlik** – psixologik tadqiqotda olingan natijalarning ob'yektiv tashqi mezonlarga mos kelishi.

**Vijdon** – ahlokiy ong tushunchasi. U yaxshilik va yomonlikni ajrata olish, o'z hatti - harakatlariga axloqona javob bera olishga qaratilgan ichki e'tikoddan iborat.

**Xakerlar** (ingliz tilidan olingan: hackers) – kompyuterlar va axborot tizimlarini juda yaxshi biladigan odamlar.

**Xarakter** — kishidagi barqaror psixik xususiyatlarning individual birligi bo'lib, bu shaxsning mehnatga, narsa va hodisalarga, boshqa kishilarga, atrof-muhit va o'z-o'ziga bo'lган munosabatlarida ifodalanadigan uning muayyan sharoitlaridagi xatti-harakatlarini belgilab beradigan barqaror, yakka psixik xususiyatlari yig'indisi.

**Xavfsizlik** – bevosita shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, texnik, ekologik va biologik tizimlarida normal faoliyat yuritishini kafolatlovchi tushuncha.

**Yolg'izlanish** – jamiyatdan o'zini olib qochish, o'zidagi o'zgarishlarni boshqalarga bildirmaslikka intilish.

**Yopishqoq, kirishimli shaxs** – unda o'zgalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji o'ta kuchli, kimni ko'rsa u bilan do'stlashib ketgisi, o'zini yoqtirtirgisi, suyukli bo'lishni xohlovchi, unga doimiy e'tiborli bo'lishlari, g'amxo'rlik ko'rsatishlarini istaydigan tip.

**Ziddiyatli, nizoli shaxs** – xulqi bilan motivlari o'rtasida doimo qarama-qarshilik kuzatiladigan, odamlardan ko'proq kamchilik qidirib, o'zidagi nuqsonlarni tan olmaydigan inson.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

4

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 76 b. // <https://lex.uz/docs/-20596>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони // <https://lex.uz/pdfs/3107036>
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldaggi “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo’llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 577-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/-4417140>
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъяят билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. Т., 2018. – 592 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Т., 2019. – 400 б.
6. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши хам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. Т., 2019. – 592 б.
7. David G. Myers. Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: Worth Publishers, 2013. – 687 p.
8. David G. Myers. Social Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: McGraw-Hill, 2010. – 609 p.
9. Абульханова К.А. Психология и сознание личности (Проблемы методологии, теории и исследования реальной личности) // Избр. психол. труды. М., Воронеж, 2006.
10. Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник для высших учебных заведений / Г.М. Андреева. М., 2017. – 363 с.
11. Арнольдов А. И. Культура общения: современные концепции. М., 2005. – 93 с.
12. Аронсон Э. Общественное животное. Введение в социальную психологию. М., 2006. – 416 с.
13. Биркенбил В. Язык интонации, мимики, жестов [Текст]. СПб., 2008. – 300 с.

14. Бодалев А.А. Восприятие и понимание человека человеком [Текст]. – М., 2006. – 475 с.
15. Бодалев А.А. Личность и общение: Избранные труды [Текст]. М., 2008. – 170 с.
16. Большой толковый психологический словарь \ Артур Ребер. Том 2: П-Я. М., 2003 – С.523
17. Вильгельм В. Проблемы психологии народов. СПб., 2011. – 136 с.
18. Гайнутдинов И.К. Психология. – Ростов н/Д., 2008. – 348 с.
19. Каменская Е.Н. Социальная психология: Конспект лекций: Учебное пособие / Е.Н. Каменская. Изд-е 2-е. Ростов н/Д., 2006. – 192 с.
20. Каримова В. Оилавий ҳаёт психологияси: Ўкув кўлланма. Т., 2006. – 142 б.
21. Каримова В. Оилада ёшларни гендер муносабатларга тайёрлаш муаммолари // “Ёшлар муаммолари ва уларнинг ечими: ҳолат ва истиқбол” мавзусидаги Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. Т., 2002. – Б. 30-33.
22. Каримова В.М. Ёшларда ўзбек оиласи тўғрисидаги ижтимоий тасаввурлар: Психол. фан. д-ри ... дис.: 19.00.05. – Фарғона, 1994. – 310 б.
23. Каримова В.М. Ижтимоий психология: Дарслик. – Т., 2012. – 172 б.
24. Каримова В.М. Оила психологияси: Педагогика олий ўкув юртлари талабалари учун дарслик. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2008. – 152 б.
25. Каримова В.М., Шомуродова Н.Н. Этнопсихология. Олий юртлари талабалари учун ўкув кўлланма. Т., 2012. – 105 б.
26. Кон И.С. К вопросу национального характера // В книге “История и психология”. М., 1980. –130 с.
27. Конецкая В.П. Социология коммуникации [Текст]. М., 2008. – 250 с.
28. Королев С.И. Этническая психология: Методика изучения и методология использования. М., 2007. – 310 с.
29. Кочетков В.В. Психология межкультурных различий: Учебное пособие. М., 2002. – 386 с.
30. Крысько В.Г. Социальная психология. Завтра экзамен. СПб., 2005. – 221 с.
31. Крысько В.Г. Социальная психология: Учебно-методическое пособие / В.Г. Крысько. М., 2020. – 304 с.
32. Крысько В.Г. Этническая психология: Учебное пособие. М., 2009. – 480 с.

33. Лебон Г.. Психология народов и масс. М., 2018. – 352 с.
34. Леонтьев А.А. Проблемы развития психики [Текст]. М., 2009. – 295 с.
35. Лутфуллаева Н.Х. Турмуш курган талабаларнинг оиласи муносабатларга тайёрганинг ижтимоий психологик хусусиятлари. дис. ... психология фан.номз.: 19.00.05. Т., 2006. – 34 б.
36. Майерс Д. Социальная психология.–7-е изд. СПб., 2007. – 794 с.
37. Маматов М.М. Психический склад наци и его особенности. Т., 1980. – 128 с.
38. Маматов М.М. Этнопсихология. – Т.: НУУз, 2006. – 120 с.
39. Мандель Б.Р. Этнопсихология: Учеб. пособие / Б.Г. Мандель. М., 2014. – 320 с.
40. Мацумото, Д. Человек, культура, психология. Удивительные загадки, исследования и открытия / Дэвид Мацумото. СПб., 2008. – 56 с.
41. Молокоедов А.В., Слободчиков И.М., Франц С.В. Психологическая безопасность личности. Основы комплексного анализа: Монография. М., 2018. – 176 с.
42. Мурзаев, М.С. Влияние межличностных контактов на динамику этнических стереотипов: Дис. ... канд. психол. наук.: 19.00.05. М., 2003. – 112 с.
43. Нарметова Ю.К. Согликни саклаш тизимида психологик хизмат фаолиятини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари: Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати: 19.00.05. Т., 2019. – 50 б.
44. Нишанова З.Т. Мустақил ижодий фикрлашни ривожлантиришнинг психологик асослари: Психол. фан. д-ри ... дис. автореферати: 19.00.07. Т., 2005. – 38 б.
45. Овчинникова Ю.Г. О конструктивной роли кризиса личностной идентичности в развитии личности // Мир психологии: научно-методический журнал. – № 2 (38).
46. Парыгин Б.Д. Социальная психология: истоки и преспективы. СПб., 2010. – 532 с.
47. Платонов Ю.П. Социальная психология поведения: Учебное пособие. СПб., 2006. – 464 с.
48. Платонов Ю.П. Этнопсихология: Учеб. для студ. ВУЗов / Ю.П. Платонов. М., 2014. – 240 с..
49. Почебут Л.Г., Чикер В.А. Организационная социальная психология. Учебник. – М., 2020. – 552 с.

50. Психология семейных отношений: конспект лекций / сост. С.А.Векилова. М.; СПб., 2005. – 127 с.
51. Рубинштейн С.Л. Бытие и сознание // В кн. «Хрестоматия по психологии». М., 1977. – С. 49
52. Сагиндикова Н.Дж. Талабалар ўкув фаолиятининг гендер хусусиятлари: Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати: 19.00.05. Т., 2017. – 50 б.
53. Салаева М. Ўзбек оиласарида ота-она ва фарзандлар ўзаро муносабатларининг ижтимоий психологик хусусиятлари: Психол.ф.н. даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати: 19.00.05. Т., 2005. – Б. 18.
54. Саломова Г.Ш. Талаба-ёшлиларларда этномаданий компетентликни шакллантиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати: 19.00.05. Т., 2019. – 45 б.
55. Социальная психология: современная теория и практика: [учеб. пособие] / [В.В. Макерова, Э.Л. Боднар, А.А. Любыкин, Л.В. Оконечникова, А.М. Вильгельм, Э.Э. Сыманюк; под общ. ред. Л.В. Оконечниковой]; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. Екатеринбург, 2016. – 228 с.
56. Социология семьи: Учебник / Под ред. А.И. Антонова. – 2-е изд., перераб. и доп. М., 2005. – 640 с.
57. Социология семьи: Учебник / Под ред. проф. А.И. Антонова. М., 2005. – С. 220.
58. Узнадзе Д.Н. Общая психология / Пер с грузинского Е.Ш. Чомахидзе; Под ред. И.В. Имедакдзе. М., 2004. – 413 с.
59. Узнадзе Д.Н. Психология установки. СПб., 2001. – 414 с.
60. Умаров Б.М. Ўзбекистонда вояга етмаганлар жиноятчилигининг ижтимоий-психологик муаммолари: Психол. фан. доктори ... дис.: 19.00.05. Т., 2009. – 332 б.
61. Умарова Н.Ш. Шахс иқтисодий ижтимоийлашувига таъсир этувчи ижтимоий-психологик омиллар: Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати: 19.00.05. Т., 2019. – 50 б.

62. Утепбергинаев М.А. Корагаллардың оқыларынынгы иякимоой за этнопсихология жүйесінде: Психол. физ. док. (DSc) дарражасини олиш учун ғылыми дис. авторефераты: 19.00.05. Т., 2019. – 70 б.
63. Хайдирова Х.Р. Жынысий идентификация жарайынга оқылар дифференциациянын тәсіри (күп бүчинди за нұктеар оқылар жынысыда): Психол. физ. наукоиди ... дис.: 19.00.05. Т., 2007. – 156 б.
64. Хатитова С.Х. Проявление личностных особенностей представителей этнических групп в условиях межэтнического взаимодействия: на материалах исследования представителей азербайджанской, чеченской, армянской, узбекской, таджикской, украинской и татарской этнических групп: Дис. ... канд. психол. наук.: 19.00.01/19.00.05. Казан, 2010. – 182 с.
65. Шибутани Т. Социальная психология. Пер. с анг. В.Б. Ольшинского. Ростов н/Д, 1999. – 544 с.
66. Этнопсихология. Учебно-методическое пособие для студентов высших учеб. заведений / Сост. Я.С. Суншова, С.А. Выложанина. Ижевск, 2015 – 182 с.
67. Этнопсихология: Учебник для студентов вузов / Т.Г. Стефаненко. – 5-е изд., испр. и доп. М., 2014. – 352 с.
68. Эшбеков Т. Ахборот-психология хазғасылық: низария за амалият. Үкув күлдінде. – Т., 2013. – 64 б.
69. Кодирев У.Д. Етнодиагностика деструктив тәсіридан хамсағаштың иякимоой-психология жүйесіндегі құсусындары: Психология фанвари доктори (DSc) иттімій дарражасини олиш учун ғылыми диссертация: 19.00.05. Т., 2019. – 245 б.
70. Фомин Э.Р. Социал психология / Э.Р.Фомин; ЎзР ОҮМТВ, М.Улутбек өміндегі ЎзМУ. – Т., 2012. – 316 б.

## ILOVALAR

5

ILOVA.

### IQTISODIY IJTIMOIYLASHUV JARAYONINING MAQSAD-USTANOVKALAR BLOKINI ANIQLASH METODLARI

Shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuvini jarayonining maqsad-ustanovkalar blokini aniqlash metodlaridan, birlinchidan, maktabgacha yoshdag'i bolalar va kichik muktab yoshidagi o'quvchilarning iqtisodiy tarbiyalanganlik va bezo'r munosabatlariga kirishishga yo'nalganlik darajasini tekshirish, ikkinchidan, o'smirlarning "ijtimoiy ustanovkalar — hayotiy qoidalari — pulga bo'lgan munosabat" tizimiga doir egosentrik, siossentrik va an'anaviylik ustanovkalarini aniqlash, uchinchidan, o'spirinlarning iqtisodiy ijtimoiylashuvdagi rolini baholetsh maqsadi da foydalanziladi.

#### "Agar men sehrgar bo'lsam"

Hurmali o'quvchi Siz maktabgacha yoshdag'i bolalar va kichik muktab yoshidagi o'quvchilarning iqtisodiy tarbiyalanganlik va bezo'r munosabatlariga kirishishga yo'nalganlik darajasini tekshirish uchun sinahuvchillarga quyidagi "Agar men sehrgar bo'lsam" proyektiv metodikasini taqdim etishingiz mumkin.

#### "Agar men sehrgar bo'lsam" proyektiv metodikasi

(N.Sh. Umarova modifikatsiyasi)

1. <i>Intervyu raqami:</i>	№ _____ -raqam		
2. <i>Qatnayotgan MTM raqami № _____ / UO TM raqami № _____</i>	shahar	qishloq	
3. <i>Sinahuvchi hajidagi shaxsiy ma'lumotlari:</i>			
001 Familyasi	002 Ismi	003 Otasining ismi	
4. <i>Jins:</i>			
004 erkek	005	ayol	
5. <i>Voshi:</i>			
006 6 yosh	007 7 yosh	008 8 yosh	
6. <i>Tug'ilgan joyi:</i>			
009 shahar	010	qishloq	
7. <i>Millati:</i>			

011	o'zbek	012	tojik	013	qozoq	014	qoraqalpoq
015	qirg'iz	016	tatar	017	turkman	018	yana qanday

8. Ayni vagtdagi doimiy turar joyi:

019	shahar	020	qishloq
-----	--------	-----	---------

9. Savol:

9.1. Agar men sehrgar bo'lsam ...

(yoziladi)

9.2. Agar men sehrgar bo'lsam ...

(yoziladi)

9.3. Agar men sehrgar bo'lsam ...

(yoziladi)

10. Intervyu o'tkazilgan kun:

Intervyu o'tkazuvchining imzosi:

Hurmatli o'quvchi ushbu metodika orqali qo'lga kiritilgan natijalar D.N.Uznadze tomonidan taklif etilgan nazariyaga mos keladigan predmetli vaziyatlarda namoyon bo'ladigan bolalardagi elementar, oddiy qayd etiladigan ustanovkalarni iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayonidagi *shaxs dispozitsiyalarining birinchi darajasi* sifatida tushuntirib berishda asos vazifasini bajaradi.

### 1.2. Shaxsning pulga bo'lgan ustanovkalarini aniqlash

Shuningdek, o'smirlardagi pulga bo'lgan pozitiv-ratsional munosabatni, pulni jamg'arish va iqtisod qilish, unga nisbatan xavotir hissi va moliyaviy xavfsizlik motivlarini; pulga bo'lgan salbiy munosabat va puldan asabiy lashish hamda puldan qoniqqanlik darajalarini aniqlash maqsadida quyidagi A.Fernam va M.Argayllar tomonidan ishlab chiqilgan “Shaxsning pulga bo'lgan ustanovkalarini aniqlash” metodikasi bilan ham murojaat qilishingiz va natijalarni beshta shkala bo'yicha tahlil etishingiz mumkin. Bunda 5 ta shkala bo'yicha olingan natijalarning SSPS-11,5 dasturi yordamida faktorli tahlili amalga oshiriladi.

**“Shaxsning pulga bo'lgan ustanovkalarini aniqlash” so‘rovnomasi**  
(A.Fernam va M.Argayllar bo'yicha N.Sh. Umarova modifikatsiyasi)

**Yo'riqnomalar:** Hurmatli o'quvchi! E'tiboringizga sizning pulga bo'lgan munosabatingizni ifoda etuvchi 45 ta tasdiq havola qilinmoqda. Bunda siz har bir

tasdiqni 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-shkalalardan biri bo'yicha o'z fikringizga mos bo'lganini tanlang. Bu yerda,

- "1" umuman qo'shilmayman
- "2" qo'shilmayman
- "3" qisman qo'shilmayman
- "4" qisman qo'shilmayman va qisman qo'shilaman
- "5" qisman qo'shilaman
- "6" qo'shilaman
- "7" to'liq qo'shilaman

degan ma'nolarni anglatadi.

#### **So'rovnomalar balankasi**

<b>Nº</b>	<b>Tasdiqlar</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>Faktor*</b>
1**	Men qarzga pul olishni yoqtirmayman								1
2**	Men pullarni osonlikcha sarf qilib yuboraman								1
3**	Mening fikrimcha, insонning pul topishi uning harakati va qobiliyatiga bog'liqdir								4
4	Pul va tangalarning tuzilishini sinchkovlik bilan kuzataman								2
5	Pulni saqlash qobiliyatim bilan faxrlanaman								3
6	Mening pulim ko'p bo'lsa ham, ularni sarf qilayotganimda o'zimni aybdor his qilaman								4
7	Ko'pincha men agar, menda ko'p pul bo'lsa nima qilishim haqida xayol suraman								5
8	Qancha pul to'plaganimni hamisha bilaman								1
9	Mening moliyaviy ahvolim boshqalar o'ylaganidan ancha yaxshiroq								2
10	Pul miqdorining qanchaligidan qat'i nazar, ularni sarf qilish uchun bir qarorga kelishim qiyin kechadi								3
11	Dushmanim yoki raqobatchimga ta'sir qilish uchun ko'pincha pulni ishga solaman								4
12	Qancha pulim borligini boshqalardan yashirmayman								5
13	O'zimni puli kam odamlardan yaxshiroq his qilaman								1
14	Hamisha qaytimni sanab olaman								2
15	Menig fikrimcha, pul – bu men hamisha suyanishim mumkin bo'lgan yagona suyanchigdir								3
16	Men o'zimni mendan puli ko'p bo'lgan odamlarga nisbatan yomonroq his qilaman								4

## SOTSIAL PSIXOLOGIYA

17	Kayfiyatim yomon bo'lgan vaqtida kamdan-kam hollarda o'zimga pul sarflayman						5
18	Xarid vaqtida eng avval uning narxi haqida o'yayman						2
19	Qarz bermaslikni afzal ko'raman						3
20	Pulni "qora kun"ga atab yig'aman						4
21	Agar menda biron-bir miqdordagi pul mablag'i bo'lsa, uni sarf etmagunimcha o'zimni notinch sezaman						5
22	Men o'z sarf-xarajatlarim va foydalarimning hisobini yozib boraman						1
23	Sadaqa berishni yoqtiraman						2
24	Mening iqtisodiy ahvolim ko'pchilik do'stlarim o'ylaganidan ko'ra ancha yomonroq						3
25	Ko'pincha mayda qaytimni sotuvchiga qoldiraman						4
26	Pulni sarf etish menga maroqlidir						5
27	Men ota-onam yoki o'rtoqlarim bilan pul bilan bog'liq muammolarimni muhokama qilaman						1
28	Xarid vaqtida narxni tushirish imkonini bo'lsa, albatta bundan foydalananaman						2
29	Men pullarimni qaytadan hisoblab chiqishni yoqtiraman						3
30	Men pulni va unga ega bo'lgan kishilardan nafratlanaman						4
31	Biron bir narsaga boshqalarga nisbatan ko'proq pul to'lasam, o'zimni aldangan his qilaman						5
32	Men hamisha yonimda qancha miqdorda pul borligini yaxshi bilaman						1
33	Bizning mamlakatda insonni uning pulini miqdoriga qarab baholashadi						2
34	Men boshqalarga nisbatan pul haqida ko'proq o'yayman						3
35	Men ko'pincha o'zimga keraksiz narslarni ularning narxlarini pasaygani uchun xarid qilaman						4
36	Mening pulim bor vaqtida o'zimni erkinroq his qilaman						5
37	Eng zo'r sovg'a - bu pul						1
38	Mening ko'pgina o'rtoqlarim menga nisbatan ko'p pulga egadirlar						3
39	Pulim yetarlicha bo'lishi uchun barcha						5

	imkoniyatlarimdan foydalangan bo'lardim				
40	Men pullarimni hamyonga ularning qadr-qimmatiga qarab joylashtiraman				1
41	Men loteriya o'ynayman				3
42	Ba'zida men o'rtoqlarimda taassurot uyg'otish uchun o'zimga keraksiz bo'lgan buyumlarni sotib olaman				4
43	Mening barcha muammolarimni pul yechishi mumkinligiga ishonchim qat'iy				1
44	Men o'rtoq orttirishda, ularga pul sarf qilish yo'li orqali amalga oshiraman				3
45	O'zimning shaxsiy pullarim haqidagi savollar meni bezovlantiradi yoki jahlimni chiqaradi				3

\* Izoh. "Omillar" grafasi blankada ko'rsatilmaydi;  
\*\* Izoh. "1-, 2-, 3-savollar" qayta shkala bo'yicha baholanadi.

#### Qayta ishlash bo'yicha yo'riqnomalar:

1-shkala. Shaxsning pulga bo'lgan pozitiv-ratsional munosabati va uni to'g'ri sarflay olish mahorati

1*	Men qarzga pul olishni yoqtirmayman				1
2*	Men pullarni osonlikcha sarf qilib yuboraman				1
8	Qancha pul to'plaganimni hamisha bilaman				1
13	O'zimni puli kam odamlardan yaxshiroq his qilaman				1
22	Men o'z sarf-xarajatlarim va foydalarimning hisobini yozib boraman				1
27	Men ota-onam yoki o'rtoqlarim bilan pul bilan bog'liq muammolarimni muhokama qilaman				1
32	Men hamisha yonimda qancha miqdorda pul borligini yaxshi bilaman				1
37	Eng zo'r sovg'a - bu pul				1
40	Men pullarimni hamyonga ularning qadr-qimmatiga qarab joylashtiraman				1
43	Mening barcha muammolarimni pul yechishi mumkinligiga ishonchim qat'iy				1

\* Izoh. "1-, 2-savollar" qayta shkala bo'yicha baholanadi.

"+" Pulga adekvat va ratsional munosabatda bo'lish. Aqlning "Iqtisodiy" jamlanmasi. Pulni to'g'ri boshqarish va shu bilan birga shaxsiy moliyaviy hisob-kitob olib borishi mahoratiga egaligi. Pulga nisbatan ehtiyyotkor va tejamkor munosabatda bo'lish. Pulga va u bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarda e'tiborli bo'lishi uning shaxsiy moliyaviy majburiyatining birovga malol kelmasligiga olib keladi. Nasiyaga pul berishi oson. Pul uning kayfiyatini ko'taradi. Birovlarga pulni sovg'a qilishi mumkin va shuningdek uni sovg'a sifatida ham bajonidil qabul

qiladi. Pul uning uchun "yopiq" mavzu emas, tez-tez bu muammolarini atordagilar bilan muhokama qilib turadi. O'zining moliyaviy ahvolini boshqalardan sir saqlamaydi. Pul uning uchun mustaqillik va hokimiyat, shuningdek odamlarni boshqarish ramzi bo'lishi mumkin.

"—" Pulni to'g'ri ishlata olmaydi va pulda biron-bir alohida ma'noni ko'rmaydi. Pulga e'tiborsiz munosabatda bo'ladi. Pulni boshqara olmaydi. Pul munosabatlarda e'tiborsiz, shuning uchun shaxsiy moliyaviy majburiyatida ma'lum bir muammolar kelib chiqishi mumkin. Pulni yomon sovg'a deb hisoblaydi. Pul bilan bog'liq mavzular uning uchun qiziqarsizdir. Boshqalarni boshqarishda pul uning uchun qurol sifatida rol o'ynamaydi.

#### 2-shkala. Shaxsning pulni jamg'arish va iqtisod qilish motivi

4	Pul va tangalarning tuzilishini sinchkovlik bilan kuzataman							2
14	Hamisha qaytimni sanab olaman							2
9	Mening moliyaviy ahvolim boshqalar o'ylaganidan ancha yaxshiroq							2
18	Xarid vaqtida eng avval uning narxi haqida o'layman							2
23	Sadaqa berishni yoqtiraman							2
28	Xarid vaqtida narxni tushirish imkonini bo'lsa, albatta bundan foydalanaman							2
33	Bizning mamlakatda insонни uning pulini miqdoriga qarab baholashadi							2

"+" Pulning qadrini yuqori qo'yib, ba'zida uning ahamiyatini oshirib baholaydi. Pulni huda-behudaga surf qilmasdan uni tejashga harakat qiladi. Bozorda narxlarning tushishini kuzatib boradi, ularni taqqoslab xulosa chiqaradi va foydalanadi. Ba'zida atrofdagilarning munosabatidan ko'ra o'zining moliyaviy ahvoli muhimroq. O'zining moliyaviy ahvolini pul yoki qimmatbaho buyumlar bilan ko'z-ko'z qilmaydi. Atrofdagilarga nisbatan kamtarin kiyinishga urinadi. Kam ta'minlanganlarga rahmi keladi.

"—" Ba'zida pulning ahamiyatini yetarlicha baholamaydi. Iqtisod qilishga urinmaydi. Bozordagi narx-navolarga e'tibor qilmaydi, narx chegirmalaridan foydalanmaydi. O'zining moliyaviy ahvoli atrofdagilarning munosabatidan ko'ra muhim emas. Pul va buyumlarni atrofidagilarga o'zini ko'z-ko'z qilish munosabatida ishlataladi, tez-tez sovg'alar qilib turadi. Atrofidagilarning undan nima kutishlariga qarab xarid qiladi va kiyinadi. Pulni nima maqsadda, qayerga ishlatayotganiga e'tibor bermaydi. Kam ta'minlanganlarga rahmi kelmaydi.

#### 3-shkala. Shaxsdagi pulga nisbatan xavotir hissi va uning moliyaviy xavfsizlik motivi

5	Pulni saqlash qobiliyatim bilan faxrlanaman							3
10	Pul miqdorining qanchaligidan qat'i nazar, ularni surf qilish uchun bir qarorga kelishim qiyin							3

	kechadi				
15	Menig fikrimcha, pul – bu men hamisha suyanishim mumkin bo‘lgan yagona suyanchiqdir				3
19	Qarz bermaslikni afzal ko‘raman				3
24	Mening iqtisodiy ahvolim ko‘pchilik do‘stilarim o‘ylaganidan ko‘ra ancha yomonroq				3
29	Men pullarimni qaytadan hisoblab chiqishni yoqtiraman				3
34	Men boshqalarga nisbatan pul haqida ko‘proq o‘layman				3
38	Mening ko‘pgina o‘rtoqlarim menga nisbatan ko‘p pulga egadirlar				3
41	Men loteriya o‘ynayman				3
44	Men o‘rtoq ortitirishda, ularga pul sarf qilish yo‘li orqali amalga oshiraman				3
45	O‘zimning shaxsiy pullarim haqidagi savollar meni bezovlantiradi yoki jahlimni chiqaradi				3

“+” Tez-tez pul uchun tashvishlanadi. Katta miqdordagi xarajat yoki qimmatbaho narsa sotib olish zarur bo‘lganda, uzoq vaqt tanlaydi, asabiylashadi, qayg‘uradi. O‘zining moliyaviy ahvolini haddan ortiq ravishda nazorat qiladi, chiqimlarni hisoblab boradi. O‘zining hamyonni va bankdagi hisobini tez-tez tekshirib, hisob-kitob qilib turadi. Moliya manbai yo‘qolishini katta fojia sifatida qabul qiladi. Atrofidagilarning moliyaviy muvaffaqiyatiga hasad bilan qaraydi. Kamdan-kam hollarda qarz oladi va qarz beradi. Pulning ahamiyatini haddan ortiq baholaydi. Pul uchun juda ham qizg‘anchiq, uning uchun hatto «kurashish»ga ham tayyor. Pulning ahamiyatini ortiqcha baholashi natijasida unga mukkasidan ketishi mumkin. Pul tez-tez uning fikru xayolini band qilib, hissiy to‘yinish ob‘yekti bo‘lib hisoblanadi. Boshqalar bilan o‘zining moliyaviy ahvolini muhokama qilishni yoqtirmaydi.

“-” Moliyaviy jihatdan tinch va o‘ziga ishongan. Kamdan-kam hollarda pul uchun qayg‘uradi. Katta miqdordagi pulni tez xarj qilishi mumkin yoki qimmatbaho narsani tezda sotib oladi va buning uchun qayg‘urmeydi. O‘zining moliyaviy ahvolini ortiqcha nazorat qilmaydi va xarajat hisobini olib bormaydi. O‘z hamyonni yoki bank hisobini kamdan-kam tekshirib boradi. Moliya manbaidan ajralib qolishini fojia sifatida qabul qilmaydi. Pulning ahamiyatini baholay olmaydi. Atrofidagilarning moliyaviy muvaffaqiyatiga hasad bilan qaramaydi. Kamdan-kam hollarda qarz oladi va qarz beradi. Pul uchun qizg‘anchiq emas, undan voz kechishi ham mumkin. Pulning ahamiyatini past baholaganidan pul uchun tavakkal qilmaydi. Pul bilan bog‘liq ishlari haqida tez-tez hikoya qilib turadi.

4-shkala. Shaxsning pulga bo‘lgan salbiy munosabati va undagi puldan asabiylashish darajasi

3*	Menimcha, kishining pul topishi undagi harakat va qibiliyatga bog'liqdir						4
6	Pulim ko'p bo'lgan holatda ham, men ularni sarf qilayotganimda o'zimni aybdor his qilaman						4
11	Dushmanim yoki raqobatchimga ta'sir qilish uchun ko'pincha pulni ishga solaman						4
16	Men o'zimni mendan puli ko'p bo'lgan odamlarga nisbatan yomonroq his qilaman						4
20	Pulni "qora kun"ga atab yig'aman						4
25	Ko'pincha mayda qaytimni sotuvchiga qoldiraman						4
30	Men pulni va unga ega bo'lgan kishilardan nafratlanaman						4
35	Men ko'pincha o'zimga keraksiz narsalarni ularning narxlari pasaygani uchun xarid qilaman						4
42	Ba'zida men o'rtoqlarimda taassurot uyg'otish uchun o'zimga keraksiz bo'lgan buyumlarin sotib olaman						4

\*\* Izoh. "3-savol" qayta shkala bo'yicha baholanadi.

"+" Tom ma'nodagi pulga bo'lgan salbiy munosabat: pul – bu yovuzlik. Pulining borligidan o'zini aybdor his qilishi. Odamlarni pul va farovon hayot bilan taqqoslash. Puldan hazar qilish xarakteri va undan qutilishga bo'lgan yashirin intilish. "Pullar-baxtsizlik" bog'lanishi hissiyotini sezmaslik ehtimoli bor. Kutilmagan vaziyatlarga deb, pulni saqlab qo'yishi mumkin. Pul birovlarining ustidan hukumronlik qilishi yoki past urishi mumkin deb o'laydi. Pulni nopol yo'l bilan topish mumkin deb o'laydi.

"\_" Pul bilan xolis va ijobiy hissiyotlar bog'liq. Pul bilan bog'liq bo'lgan aybdorlik hissi yo'q. Pulni hisob-kitob bilan ishlataadi. Pulni muayyan mehnat orqali topish mumkin deb o'laydi.

#### 5-shkala. Shaxsning puldan qoniqqaqlik darajasi va pulni "davolovchi vazifasi"

7	Ko'pincha, agar menda ko'p pul bo'lsa nima qilar edim, deya xayol suraman						5
17	Kayfiyatim yomon bo'lgan vaqtida, men kamdan-kam hollardagina o'zimga pul sarflayman						5
21	Agar biron bir miqdordagi pul mablag'iiga ega bo'lsam, uni sarf etmagunimcha o'zimni behalovat his etaman						5
26	Pulni sarflash men uchun maroqlidir						5
31	Biron bir narsa (xarid, xizmat)da boshqalarga nisbatan ko'proq pul to'lasam, men o'zimni aldangan his qilaman						5
39	Pulim yetarli darajada bo'lishi uchun, barcha imkoniyatlarimdan to'liq foydalangan bo'lardim						5

“+” Ko‘pincha pullar haqida o‘ylaydi, orzu qiladi va xayol suradi. Pullar unga erkinlikni his qilishni beradi. O‘zining moliyaviy muvaffaqiyatlari va imkoniyatlari bilan g‘ururlanadi. Pulni ruhiy siqilish va zerikishning davosi sifatida ko‘radi. Ixtiyorsiz istemolchi, ko‘pincha dastlabki hissiyotlari ta’sirida xarid qiladi. Agar pul masalasida aldanganini bilsa, ancha vaqtgacha siqilib yuradi. Qarorni tez qabul qiluvchi, pul uchun pullar bilan tavakkal qila oladi, agar muvaffaqiyatsizlikka uchrasha xafa bo‘lmaydi.

“\_” Pullar kamdan-kam hollarda diqqat markazida bo‘ladi. Moliyaviy muammolariga va imkoniyatlariga beparvo bo‘ladi, oqibatda moliyaviy ahvolini o‘nglab olish imkoniyatini qo‘ldan chiqaradi. Eng muhim bo‘lgan zaruriy ehtiyojlaridan kelib chiqib xarid qiladi, ammo ularning narxiga e’tibor bermaydi. Chegirma va arzon narxlarda sotib yuboriladigan mollarga e’tibor qilmaydi. Pullar unga malol kelishi mumkin, pul yo‘qotishi yoki moliyaviy muvaffaqiyatsizlikka uchrashidan ko‘pam xafa bo‘lmaydi.

### 1.3. Tugallanmagan jumlalar

Muhtaram kitobxon, quyida berilgan “Tugallanmagan jumlalar” metodikasining A.A.Kapustin va M.Yu.Semenovlar bo‘yicha muallif modifikatsiyasidan, ilk o‘spirinlarning iqtisodiy ijtimoiylashuvdagi rolinini baholash uchun foydalilanildi. Ilk o‘spirinlarning pulga bo‘lgan umumiy ijtimoiy ustakovkalari, pul ehtiyojiga nisbatan sodir bo‘ladigan voqyeliklarga munosabati, pul tufayli qondirilmagan istaklarga doir va pulning omadsizlik sababi, muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida pul bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy ustakovkalarni mayjudligi xususidagi ma’lumotlar o‘smirlarning bevosita kichik guruhlarda ro‘y beradigan muloqoti, muomalasidan paydo bo‘lgan ijtimoiy tajribasi, pulga nisbatan ustakovkalari va ustuvor qadriyatları tizimining shakllanganligi bilan bog‘lab iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayonidagi shaxs dispozitsiyalarining ikkinchi darajasi mohiyatini izohlashda asos bo‘lib xizmat qiladi

**“Tugallanmagan jumlalar” metodikasi**

(A.A. Kapustin va M.Yu. Semenovlar bo'yicha N.Sh. Umarova modifikatsiyasi)

T/r |

**Tugallanmagan jumlalar ...*****I-qism.***

**Yo'riqnomा:** Sinaluvchi respondentlarning pulga bo'lgan munosabati sezilarli darajada xavfli tomonga yuz tutushini nazarda tutgan holda, ularning pulga bo'lgan odob-axloq munosabati baholanadi. “Moddiy jihatdan bekami-ko'st bo'lgan insonlarga mening munosabatim ...” savoliga beriladigan javoblar ularning emosional his-tuyg'ularini ochib beradi.

***Jumlani tugallang:***

1. Pul men uchun ... (yozing)
2. Moddiy jihatdan bekami-ko'st bo'lgan insonlarga mening munosabatim ... (yozing)
3. Agarda ko'p pul bo'lganida edi, men ... (yozing)
4. Men qo'rquamanki, pul bu ... (yozing)
- 4<sub>+1</sub>. Yana nima ... (yozing)

***2-qism.***

**Yo'riqnomा:** Pulga bo'lgan umumiy ijtimoiy ustanovkalar, pul ehtiyojiga nisbatan sodir bo'ladigan voqyeliklarga munosabati, pul tufayli qondirilmagan istaklarga doir va pulning omadsizlik sababi, muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida pul bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy ustanovkalarni qayd qilish.

***Jumlani tugallang:***

1. Pul men uchun – bu ... (yozing)
2. Pul tufayli men ... (yozing)
3. Pulning sharofati bilan, men ... (yozing)
4. Pulim yo'qligi, menga ... (yozing)
5. Qachonki menda ko'p bo'lsa ... (yozing)
6. Pulimning yo'qligi men uchun – bu ... (yozing)
- 6<sub>+1</sub>. Yana nima ... (yozing)

*Ishtirokingiz uchun katta rahmat!*

## IQTISODIY IJTIMOIYLASHUV JARAYONINING RESURSLAR BLOKINI ANIQLASH METODLARI

Muhtaram kitobxon, adabiyotlar tahliliga qaraganda, pul – hamma tovarlar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent bo‘lmish maxsus tovar, bozor iqtisodiyotining, eng asosiy, vositasi bo‘lib, pul o‘zida bozor iqtisodiyoti munosabatlarni gavdalantiradi va uning mahsuli ham hisoblanadi.

Ilmiy manbalarda keltirilishicha bozor iqtisodiyoti sharoitida pul: (a) qiymat o‘lchovi; (b) ayirboshlash vositasi; (v) xazina to‘plash va jamg‘arish vositasi; (g) to‘lov vositasi kabi **vazifalarni** bajarayotgan bo‘lsa, mazmun va mohiyatiga ko‘ra: a) xazina biletlari; b) banknot-kredit pullari kabi **toifalarga** ajratilgan. V.M. Karimova va F.A. Akramovalarning qayd etishlaricha, pul o‘z tabiatiga ko‘ra: (a) hamma narsaga ayirboshlanadigan muhim xarid vositasi; (b) boylik timsoli; (v) mehnatni qiymat shaklida o‘lchab beradigan vosita kabi uch xil xususiyatga ega.

Umumpsixologik tadqiqotlar, masalan, Ye.A. Maxrina tomonidan o‘tkazilgan izlanishlardan ma’lum bo‘lishicha, pulni idrok etishda shaxs birinchi galda: (a) banknot rangi; (b) banknot rasmining mazmuni va ma’nosи; (v) banknotda ifodalangan davlat rahbarlarining yuz qiyofasi va nufuzi; (g) qiymatni aniq berilganlik xususiyati kabi jihatlarga alohida diqqat-e’tiborini qaratadi.

### 2.1. Sub’yektning iqtisodiy mavqeini baholash

Shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayonining resurslar blokini aniqlash metodlari, *birinchidan*, shaxsning avloddan-avlodga o‘tib kelgan moliyaviy ahvoli, shuningdek, bugungi holati va kelajagini iqtisodiy munosabatlarga yo‘nalganligiga nisbatan qiyoslash, *ikkinchidan*, shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayoniga “vosita → pul → maqsad” yoki “sabab → pul → oqibat” ko‘rinishidagi guruhiy munosabatlар omili ta’sirini aniqlash maqsadida ishlatalidi.

Bunda shaxs voyaga yetayotgan konkret oilaning moddiy mustaqilligini o‘rganish ko‘p jihatdan o‘smir va ilk o‘spirinlarning (1) iqtisodiy ta’lim, (2) iqtisodiy savodxonlik, (3) iqtisodiy tayyorgarlik, (4) iqtisodiy tafakkur va (5) iqtisodiy tarbiyalanganlik darajasiga bog‘liqdir. Ushbu ajratilgan 5 ta mezon yordamida o‘smir va ilk o‘spirinlarning iqtisodiy munosabatlarga yo‘nalganligini ijtimoiy tasavvurlar kontekstida baholash mumkin va bunda Sizga “Sub’yektning iqtisodiy mavqeini baholash”ga qaratilgan Tamara Dembo va Susanna Yakovlenna Rubinshteynlar metodikasining O.E.Hayitov modifikatsiyasi qo‘l keladi.

Mazkur metodika o‘smir va ilk o‘spirinlar tomonidan “o”, “x”, “–” (bunda “o” – tasavvurida qay darajada bo‘lish uni qoniqtiradi; “x” – imkoniyatlardan kelib chiqib aslida qaysi darajagacha borish mumkin; “–” – ayni vaqtda u qaysi darajada turibdi) kabi belgililar tizimi yordamida baholanib, olingan ma’lumotlar (a) oilaviy mavqe; (b) moddiy mustaqillik; (v) moddiy muvaffaqiyat; (g) shaxsiy yuksalish kabi 4 ta darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy holat shkalasini tushuntirish orqali izohlandi.

“Sub’yektning iqtisodiy mavqeini baholash” metodikasi

(Dembo-Rubinshteyn bo'yicha O.E. Hayitov modifikatsiyasi)

Yo'riqnomा: Hurmatli o'quvchi/talaba! Sizning hukmingizga havola etilayotgan ushbu blankada:

- oilaviy mavqe;
- moddiy mustaqillik;
- moddiy muvaffaqiyat;
- shaxsiy yuksalish kabi shaxsnинг ijtimoiy-iqtisodiy holat shkalasini ifodalovchi 4 ta vertikal qutbsiz shkala berilgan.

Shkalalarning uzunligi 100 mm bo'lib, siz har bir shkalaga «O», «X», «↔» kabi uch xil ko'rinishdagi belgilarni tizimi yordamida o'z mavqeingizni baholab bering.

Bu yerda,

“o” – tasavvuringizda qay darajada bo'lish Sizni qoniqtiradi;

“x” – imkoniyatlaringizdan kelib chiqib aslida qaysi darajagacha borishingiz mumkin;

“–” – ayni vaqtda Siz qaysi darajada turibsiz.



*Oilaviy mavqe*



*Moddiy mustaqillik*



*Moddiy muvaffaqiyat*



*Shaxsiy yuksalish*

#### **Natijalarni qayta ishlash:**

Respondentlar tomonidan qo'yilgan har bir belgining 1 santimetri 1 ball tarzida qayta ishlanadi va bunda maksimal ball 10 ball.

“O” – respondentlarning *ideal* iqtisodiy mavqeい to‘g‘risidagi tasavvurlari natijasini baholaydi;

“X” – respondentlarning *bo'lg'usi* iqtisodiy mavqeい to‘g‘risidagi tasavvurlari natijasini baholaydi;

“–” – respondentlarning *real* iqtisodiy mavqeい to‘g‘risidagi tasavvurlari natijasini baholaydi.

## III ILOVA.

### IQTISODIY IJTIMOIYLASHUV JARAYONINING MOTIVATSION-QADRIYATLAR BLOKINI ANIQLASH METODLARI

Muhtaram foydalanuvchi, shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayonining motivatsion-qadriyatlar blokini aniqlash metodlari, *birinchidan*, tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan iqtisodiyotning turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, xususiyatlar, belgilar, faoliyat turlari va xislatlarning avloddan-avlodga meros bo'lib qolgan turmush tarzini baholash, *ikkinchidan*, bozor iqtisodiyoti sharoitiga muvaffaqiyatli iqtisodiy ijtimoiylashgan o'spirinlar xulq-atvoridagi ustuvor ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni tekshirish maqsadida qo'llaniladi.

Shaxsdagi mavjud qadriyatlar tizimi, turmush tarzi, Vatani ravnaqiga, millat yashash tarzini farovonligiga, hamyurtlaridagi qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlariga muvofiq bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalari hisoblanib, dinamik tabiatli bo'lgani sabab, unda davr, zamon va makonga xos tushunchalar o'z aksini topadi hamda iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayoni sub'yektining ijtimoiy-iqtisodiy tajribasini ikki xil xususiyatiga ko'ra baholashga asos bo'ladi.

#### *3.1. Qadriyatlar oriyentatsiyasi*

Aziz kitobxon, ilk o'spirinlar iqtisodiy ongida tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan iqtisodiyotning turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, xususiyatlar, belgilar, faoliyat turlari va xislatlarning avloddan-avlodga meros bo'lib qolgan turmush tarzi in'ikosini baholash maqsadida M.R.Rokichning "Qadriyatlar oriyentatsiyasi" nomli metodikasidan foydalaniladi. Unda terminal qadriyatlar, ya'ni individual mavjudlikning so'nggi maqsadi unga nisbatan intilish bilan ifodalanuvchi turli maqsadli hamda instrumental qadriyatlar, biron-bir harakat shakli yoki shaxsnинг xususiyatlari har qanday vaziyatda ham mos kelishuvchanligi bilan izohlanadigan turli vositali ajratib ko'rsatilgan. Aziz kitobxon, marketing psixologiyasiga daxldor tadqiqotlarda keng ko'lamda foydalaniladigan M.R.Rokich metodikasining V.M.Karimova va N.X.Lutfullayevlar tomonidan mahalliy muhitga moslashtirilgan variantiga ayrim juz'iy o'zgartirishlar kiritilgan muallif modifikatsiyasini e'tiboringizga havola qilamiz.

#### "Qadriyatlar oriyentatsiyasi" metodikasi (M.R. Rokich bo'yicha V.M. Karimova modifikatsiyasi)

T/r	Terminal qadriyatlar reyestri	Rang ko'rsatkichi
1.	Hayotda faol harakat qilish (to'liq va hissiy mazmundor hayot kechirish)	
2.	Kasbiy mahoratni egallash	
3.	Salomatlik, kuch-quvvat, qaddi-qomat	
4.	Kasbiy oilaviy muvaffaqiyat, oilaviy biznes bilan shug'ullanish	

5.	Go'zallikni his qilish	
6.	Sevimli insonga intilish	
7.	Moddiy qiyinchiliklarning yo'qligi	
8.	Yaxshi va sodiq do'stlar mavjudligi	
9.	Jamoatchilikka tan olingenlik (o'qish va ishda do'stlar, jamoadoshlar va atrofdagilarning hurmati)	
10.	Oilada o'zaro ishonch va mustahkam munosabat	
11.	O'ziga to'q, boy-badavlat bo'lish (harakatchanlik: mavjud qobiliyat, kuch va imkoniyatdan unumli foydalanish)	
12.	Ijtimoiy mavqe va mansabga intilish	
13.	Vaqtni yoqimli va qiziqarli ishlar bilan o'tkazish	
14.	Oilaviy moddiy qadriyatlarning mavjudligi (avtomashina, dala hovli)	
15.	Oilaviy baxt, tinchlik, xotirjamlik	
16.	O'zgalar baxti (farovonlik, o'zga insonlarning mavjudligi va rivoji, barcha xalqlar, insoniyat yaxlitligi)	
17.	Saranjom-sarishtalik, uuda qulaylik yaratuvchanlik	
18.	O'z-o'ziga bo'lgan ishonch (ichki xotirjamlikka ega bo'lish)	

T/r	Instrumental qadriyatlar reyestri	Rang ko'rsatkichi
1.	Muloqotmandlilik	
2.	Tarbiyalanganlik (yaxshi xulq-atvor egasi)	
3.	Yuksak talab (iqtisodiy munosabatlarga kirishishdag'i talabchanlik va iqtisodiy da'vo)	
4.	Hayotdan mammun yashash (hazil, yumor hissi bilan yashash)	
5.	Tartib-intizomli bo'lish, o'zini o'zi nazorat qilish	
6.	Mustaqil bo'lish (o'zidan bilib ish tutish)	
7.	O'zi va boshqalardagi kamchiliklarni sezish	
8.	Tashabbuskor bo'lish	
9.	Ma'suliyatilik (burchni anglash, bir so'zlilik)	
10.	Oqilona ish tutish	
11.	O'zini-o'zi anglash, iqtisodiy qiziqishlariga muvofiq keluvchi faoliyat bilan shug'ullanish	
12.	O'z fikr va qarashlarida qat'iy tura bilish va orqaga chekinmaslik	
13.	Irodali bo'lish (muammo va qiyinchiliklarni yengish)	
14.	Sabrli bo'lish, boshqalar fikrini tinglash, hurmat qilish, xato va kamchiliklarni kechirish	
15.	Mulohazali bo'lish, boshqalar fikrini inobatga olish	
16.	Rostgo'ylik (haqiqatgo'ylik, ochiqko'ngillilik)	
17.	Mehnatsevarlik, ishlardagi samaradorlik	
18.	Boshqalar bilan hamkor bo'lish (oldi-berdi va sherikchilik munosabatlarini shakllanganligi)	

Muhtaram o'quvchi natijalarni quyidagi qayta ishlash kaliti yordamida hisoblab chiqing.

Nº	Shaxs yo'nalganligi	Terminal qadriyatlar	Instrumental qadriyatlar
1.	Kasbiy jihatdan o'zini namoyon qilish va ish faoliyati qadriyati	2, 4, 12	8, 9, 10, 17,
2.	Shaxs shakllanganligi (o'zini-o'zi baholash)	1, 3, 14, 18	5, 6, 13, 12,
3.	Oilaviy hayot	6, 10, 15, 17	2, 4,
4.	Shaxslararo munosabatlar	5, 9, 12	1, 15, 16,
5.	Altruizm	8, 16	7, 14
6.	Moddiy muvaffaqiyat	7, 11, 13, 14	3, 11, 18,

### 3.2. Shaxsning hayotiy qadriyatlarini aniqlash (Must-test)

Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitiga muvaffaqiyatli iqtisodiy ijtimoiylashgan o'spirinlar xulq-atvordagi ustuvor ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni tekshirish uchun P.N.Ivanov, Ye.F.Kolobovalarning "Shaxsning hayotiy qadriyatlarini aniqlash (Must-test)" proyektiv metodikasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Izlanishlar, asosan, o'spirinlardagi o'n besh xildagi (masalan, jamiyatdagi ochiqlik, erkinlik va demokratiya; xavfsizlik va himoyalanganlik; insonlarga xizmat qilish; hokimiyat va ta'sir o'tkazish; mashhurlik; mustaqillik; moddiy muvaffaqiyat; ma'naviy hayotdagi boylik; shaxsiy yuksalish; shaxslararo munosabatlar hamda aloqalar va boshqalar) hayotiy maqsadli-qadriyatlarni aniqlashga qaratilgan bo'lib, olingan natijalar iqtisodiy munosabatlar sub'yekti yoki ob'yekti sifatida gavdalananayotgan har bir o'spirinning (a) natijaga, (b) jarayonga, (v) egoizmga va (g) altruizmga nisbatan 4 ta darajadagi yo'nalganlik holatini baholashda qo'l keladi.

### 3.3. "SHaxsning hayotiy qadriyatlarini aniqlash (MUST-TEST)"

proyektiv metodikasi

(P.N. Ivanov, Ye.F. Kolobovalar bo'yicha O.E. Hayitov modifikatsiyasi)

**Maqsadi.** Metodika turli xildagi verbal proyektiv testlardan biri hisoblanadi. Must-test tekshiruvi o'smir va o'spirindagi o'n besh xildagi hayotiy maqsadli-qadriyatlarni aniqlash imkonini beradi.

**Yo'riqnomasi.** Sizga berilgan quyidagi blankada jumlalar boshlangan. Siz shu jumlalarni o'z fikringizga tayangan holda shaxsiy hayotingizda o'zingiz uchun eng muhim deb hisoblagan maqsadingiz tarzida bayon eting.

1. <i>Blanka raqami:</i>	<i>Nº -raqam</i>		
2. <i>Ta'lim olayotgan OTM nomi</i>	<i>institut universitet</i>		
3. <i>Sinaluvchi haqidagi shaxsiy ma'lumotlar:</i>			
001	Familiyasi	002	Ismi
003			Otasining ismi

4. Jinsi:

004	erkak			005	ayol		
-----	-------	--	--	-----	------	--	--

5. Yoshi:

006	18-19 yosh	007	20-21 yosh	008	22-23 yosh	009	24-25 yosh	010	26-27 yosh	011	28-29 yosh
-----	---------------	-----	---------------	-----	---------------	-----	---------------	-----	---------------	-----	---------------

6. Tug'ilgan joyi:

012	shahar			013	qishloq		
-----	--------	--	--	-----	---------	--	--

7. Millati:

014	o'zbek	015	tojik	016	qozoq	017	qoraqalpoq
018	qirg'iz	019	tatar	020	turkman	021	yana qanday

8. Ayni vaqt dagi doimiy turar joyi:

022	shahar			023	qishloq		
-----	--------	--	--	-----	---------	--	--

9. Jumlani tugallang:

- 9.1. Men uchun eng zaruri ... (yozing)
- 9.2. Men uchun eng zaruri ... (yozing)
- 9.3. Men uchun eng zaruri ... (yozing)
- 9.4. Men uchun eng zaruri ... (yozing)
- 9.5. Men uchun eng zaruri ... (yozing)
- 9.6. Men uchun eng zaruri ... (yozing)
10. Jumlani tugallang:
- 10.1. Juda ham dahshatli, agar ... (yozing)
- 10.2. Juda ham dahshatli, agar ... (yozing)
- 10.3. Juda ham dahshatli, agar ... (yozing)
- 10.4. Juda ham dahshatli, agar ... (yozing)
- 10.5. Juda ham dahshatli, agar ... (yozing)

		(yozing)
10.6.	Juda ham dahshatli, agar ...	(yozing)
11.	<i>Jumlanı tugallang:</i>	
11.1.	Men chidab turolmayman, agarda ...	(yozing)
11.2.	Men chidab turolmayman, agarda ...	(yozing)
11.3.	Men chidab turolmayman, agarda ...	(yozing)
11.4.	Men chidab turolmayman, agarda ...	(yozing)
11.5.	Men chidab turolmayman, agarda ...	(yozing)
11.6.	Men chidab turolmayman, agarda ...	(yozing)
12.	<i>So 'rov o 'tkazilgan kun:</i>	
	<i>Ma'lumotlarning haqiqiyligini tasdiqlayman:</i>	<i>Respondentning imzosi</i>
	<i>Ma'lumotlarning haqiqiyligini tasdiqlayman:</i>	<i>Intervyu o 'tkazuvchining imzosi</i>

#### Natijalarni interpretasiyalash va qayta ishslash:

Mutaxassislar tomonidan, mazkur metodika yordamida olingen natijalarni qayta ishslash uchun ma'lum standartlashgan talablar mavjud emasligi e'tirof etilgan. Bu esa tadqiqotchidan har bir sinaluvchi bilan tanlovni amalga oshirish jarayonida individual tarzdagi yondashuvni qo'llash zaruratini talab etadi. Shu bois ham biz, olingen natijalarni qayta ishslashda o'zimizning mualliflik yondashuvimizni ishlab chiqdik. Xususan, yondashuvimizga muvofiq, javoblarda qayd etilgan terminal qadriyatlar interpretasiyasi iqtisodiy munosabatlarga yo'nalgalikning to'rtta darajasi:

- natijaga;
- jarayonga;
- egoizmga;
- altruizmga nisbat olib amalga oshirildi.

##### I. Bunda natijaga oriyentatsiya qiluvchi:

1) xavfsizlik va himoyalanganlik;

2) moddiy muvaffaqiyat;

3) mammunlik hissi;

4) salomatlik;

5) ma'naviy hayotdagi boylik;

6) ma'naviy diniy jihatdan mazmundor hayot kabi terminal qadriyatlarni ifodalagan javoblar shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayonida iqtisodiy munosabatlarga yo'nalgalikning 1-darajasi sifatida qabul qilindi.

**II. Jarayonga nisbatan yo'nalganlikni tushuntiruvchi:**

- 7) jamiyatdagi ochiqlik, erkinlik va demokratiya;  
 8) shaxsiy yuksalish;

9) shaxslararo munosabatlar va aloqalar kabi terminal qadriyatlar iqtisodiy munosabatlarga yo'nalganlikning 2-darajasi sifatida e'tirof etildi.

**III. Egosentrik ustanovkalarga asoslanuvchi shaxsdagi egoizmga yo'nalganlik:**

- 10) hokimiyat va ta'sir o'tkazish;  
 11) mashhurlik;

12) mustaqillik kabi terminal qadriyatlarni ifodalovchi javoblar esa muvaffaqiyatli iqtisodiy ijtimoiylashuvining muhim shartlaridan hisoblanadigan iqtisodiy munosabatlarga kirishishga tayyorlikning 3-darajasi sifatida o'rganildi.

**IV. Nihoyat, sosiosentrik ustanovkalar ta'sirida shakllangan shaxsnинг altruizmga nisbatan yo'nalganlik darajasi 4-darajani tushuntirishda qabul qilinib, uning yordamida:**

- 13) insonlarga xizmat qilish;  
 14) muhabbat va sadoqat;

15) jozibadorlik kabi qadriyatlar mohiyati tadqiq etildi hamda ularning shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayoniga ko'rsatadigan ta'siri aniqlandi.

Natijalarni qayta ishlash kaliti:

T/r	Iqtisodiy munosabatlarga yo'nalganlik darajalari	Qadriyatlar
1.	<i>natijaga nisbatan yo'nalganlik</i>	xavfsizlik va himoyalanganlik moddiy muvaffaqiyat mammunlik hissi salomatlik ma'naviy hayotdagji boylik ma'naviy-diniy jihadtan mazmundor hayot
2.	<i>jarayonga nisbatan yo'nalganlik</i>	jamiyatdagi ochiqlik, erkinlik va demokratiya shaxsiy yuksalish shaxslararo munosabatlar va aloqalar
3.	<i>egoizmga nisbatan yo'nalganlik</i>	hokimiyat va ta'sir o'tkazish mashhurlik mustaqillik
4.	<i>altruizmga nisbatan yo'nalganlik</i>	insonlarga xizmat qilish muhabbat va sadoqat jozibadorlik

IV ILOVA.


OILAVIY SHAJARANI TADQIQ QILISHNING  
ZAMONAVIY USULLARI

Oilaviy ijtimoiylashuvda (masalan, S.Scarr, K.McCartney, 1983) bolalar ota-onasidan nafaqat genetik asoslangan qobiliyatlarni, balki ijtimoiy muhitda intensiv rivojlanishi uchun zarur bo'ladigan qator ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni ham o'zlashtiradi. Oilaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ota-onalarning kasbiy mavqeい, ijtimoiy aloqalar tizimi, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy resurslari shaxsnинг shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi va buni yoritishda genealogoya fanining roli beqiyosdir.

Genealogiya (yunoncha genealogiya – shajara) tarix fanining yordamchi sohalaridan biri bo'lib, urug' va oilalarning kelib chiqishi, ayrim shaxslar tarixi va qarindoshlik aloqalarini o'rGANADI hamda oilaviy shajara va oilaviy merosning ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Uning amaliy sohasi shajaralar tuzishdir.

**Shajara** (arab. – daraxt), genealogiya – kishilarning kelib chiqishi, ajdodlari va qon-qarindoshlik aloqalari majmui.


Oilaviy shajaraning daraxt ko'rinishi




**Qarindoshlik** – bu oiladagi bitta urug‘boshlig‘idan tarqalgan ayol va erkak jinsining o‘zaro bog‘liqligidir. Agar urug‘boshi bitta bo‘lsa qon-qarindosh yoki bitta urug‘ hisoblanadi. Qarindosh-urug‘ning yaqinligi hamisha oilaviy munosabatlarda katta o‘rin tutgan. Biz o‘z shajaramizni tuzishda zamonaviy fan ilgari surayotgan bir qancha usullardan foydalanishimiz mumkin.

Ushbu usullar a) daraxt ko‘rinishi, b) jadval asosi, v) aylana tuzilma va hokazo. Masalan, aylana tuzilma chizma ko‘rinishiga ega bo‘ladi.


**Quyidagi usullardan foydalanib o‘z shajarangizni tuzing.**



Yuqoridan pastga yo'nalgan shajaranani tuzish usuli



Pastdan yuqoriga yo'nalgan shajaranani tuzish usuli



## MUNDARIJA

KIRISH		3
I QISM	IJTIMOIY PSIXOLOGIYA	4
<b>I bob</b>	<b>Ijtimoiy psixologiya fan sifatida</b>	<b>4</b>
1.1.	Ijtimoiy psixologiya fanining predmeti va vazifalari	4
1.2.	Ijtimoiy psixologiyaning predmetiga oid yondashuvlar	8
<b>II bob</b>	<b>Ijtimoiy-psixologik qarashlarning rivojlanish tarixi</b>	<b>16</b>
2.1.	Dastlabki ijtimoiy-psixologik tasavvurlar va ularning namoyon bo'lishi	16
2.2.	Ijtimoiy-psixologik bilimlarning uch nazariy manbasi	21
2.3.	Ijtimoiy psixologiyaning eksperimental fan sifatida rivojlanishi	26
2.4.	Ijtimoiy psixologiyaning Rossiyadagi rivojlanishi	29
2.5.	O'zbekistonda ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning o'rni va istiqbollari	30
<b>III bob</b>	<b>Ijtimoiy psixologiyaning metodlari</b>	<b>38</b>
3.1.	Asosiy metodlarning qisqacha tavsifi	38
<b>IV bob</b>	<b>Ijtimoiy psixologiya o'rGANADIGAN ASOSIY MASALALAR</b>	<b>47</b>
4.1.	Muloqot va shaxslararo munosabatlarni psixologiyasi	47
4.1.1.	Muloqotning kommunikativ tomoni	51
4.1.2.	Muloqot – interaktiv hamkorlik sifatida	54
4.1.3.	Muloqot – shaxslararo bir-birini idrok qilish ekanligi	56
4.2.	Muloqot va shaxslararo ziddiyatlar	62
4.2.1.	Nizolarni bartaraf etish usullari	66
<b>V bob</b>	<b>Katta guruuhlar psixologiyasi</b>	<b>74</b>
5.1.	Katta ijtimoiy guruuhlar psixologiyasi	71
<b>VI bob</b>	<b>Kichik guruuhlar psixologiyasi</b>	<b>79</b>
6.1.	Kichik guruuhlar va jamoalar psixologiyasi	79
6.2.	Kichik guruuhlarning klassifikasiyasi	82
6.3.	Kichik guruuhlardagi dinamik jarayonlar	83
<b>VII bob</b>	<b>Ijtimoiy psixologiya va shaxs</b>	<b>87</b>
7.1.	Ijtimoiy psixologiyada shaxs muammozi	87
7.2.	Shaxsning ijtimoiy-psixologik tipologiyasi	92
7.3.	Shaxs tomonidan ijtimoiy ta'sirlarning anglanishi	94
7.4.	Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy mavqci. Ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs	96
7.5.	Shaxsning ijtimoiylashuvi	98
7.6.	Oilaviy ijtimoiylashuv va uning o'ziga xosligi	101
7.7.	Shaxsning ijtimoiy ustanonvalari	103
<b>VIII bob</b>	<b>Ijtimoiy psixologiya va xavfsizlik</b>	<b>109</b>
8.1.	Axborot xavfsizligi: mohiyati va shaxsni ijtimoiy psixologik himoya qilish muammolari	109
8.2.	Informatsion-psixologik xavfsizlik	114
8.3.	Shaxsning o'z-o'zini himoya qilish vositalari	118
8.4.	Turli informatsion-psixologik vaziyatlarda shaxsning ijtimoiy xulqi	121
<b>IX bob</b>	<b>Ijtimoiy psixologiyaning amaliy-tadbiqiyo sohalari.</b> <b>Ijtimoiy psixologik xizmat.</b>	<b>128</b>
9.1.	Amaliy ijtimoiy psixologiya va amaliyotchi shaxsi	128
9.2.	Amaliy ijtimoiy psixologiyaning tatbiqiyo sohalari	130
9.3.	Maktab va ta'l'm muassasalariga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish	135

II QISM	ETNOPSIXOLOGIYA	141
<b>X bob</b>	<b>Etnopsixologiya fanining predmeti va vazifalari</b>	141
10.1.	Etnopsixologiya fanini o'rganish sohalari	141
10.2.	Etnik guruh – etnopsixologiyaning ob'yekti sifatida	143
<b>XI bob</b>	<b>Etnopsixologik tadqiqotlarning G'arb va Sharqda o'rganilishi</b>	148
11.1	Etnopsixologik tadqiqotlarning eramizdan oldin o'rganilishi	148
11.2.	XVIII va XIX asrda etnopsixologik qarashlar	149
<b>XII bob</b>	<b>Etnopsixologiyaning metodlari</b>	160
12.1.	Etnopsixologik metodlarning xilma-xilligi	160
12.2.	Asosiy etnopsixologik metodlar tavsifii	162
<b>XIII bob</b>	<b>Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar</b>	167
13.1.	Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishiga chizgilar	167
13.2.	Etnik va individual xususiyatlar: o'zaro bog'liliklilik bormi?	173
<b>XIV bob</b>	<b>Milliy xarakter muammosi</b>	178
14.1.	Etnopsixologiyada milliy psixologik qiyofa	178
14.2.	Milliy xarakter tushunchasi	179
<b>XV bob</b>	<b>Milliy urf-odat, an'analar va ularning ijtimoiy-psixologik funktsiyalari</b>	192
15.1.	Milliy urf-odat, an'analar etnopsixologiyaning o'rganish ob'yektari sifatida	192
<b>XVI bob</b>	<b>Milliy tuyg'ular va ta'b (did)lar</b>	201
16.1.	Etnopsixologiyada milliy did tushunchasi talqini	201
<b>XVII bob</b>	<b>Milliy ong va milliy o'zlikni anglash. Etnik attityud va steriotip</b>	211
17.1.	Etnik taraqqiyotda milliy ongning shakllanishi	211
17.2.	Milliy psixologiya nima va uni qanday qilib o'rganish mumkin?	215
<b>XVIII bob</b>	<b>Etnopsixologik xususiyatlarning madaniyatda namoyon bo'lishi va ommaviy madaniyatning millatga ko'rsatadigan ta'siri</b>	218
18.1.	Etnotsentrizm, etnik stereotiplar va madaniyat masalalari	218
18.2.	Etnopsixologiyada folklorning o'rni	222
18.3.	Etnik ustyanovkalar	223
	<b>GLOSSARIY</b>	226
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b>	232
	<b>ILOVALAR</b>	236

Vasila M. KARIMOVA,  
Oybek E. HAYITOV,  
Navbahor Sh. UMAROVA

# SOTSIAL PSIXOLOGIYA

Muharrir: *L. Qo'chgorova*  
Texnik muharrir: *U. Asadov*  
Sahifalovchi: *M. Xamitov*

Nashriyot litsenziyasi № 001734, 12.04.2021-y.

Bosishga 15.11.2021 ruxsat etildi  
Bichimi 60x84 1/16, «Times New Roman» garniturasi, Ofset qog'oz  
Bosma tabog'i 16, 25 b.t. Adadi 125 nusxa. Buyurtma № 73  
«UMID DESIGN» nashriyoti  
«UMID DESIGN» XK bosmaxonasida chop etildi.  
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri  
Navoiy ko'chasi, 22-uy.

